



# **ОБРАЗОВАНИЕ, НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ**

**международный научный электронный журнал**



*Выпуск журнала № 36  
Часть-6\_Январь -2024*

**OPEN  ACCESS**



# ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ

*международный научный электронный журнал*

Январь - 2024 год

ЧАСТЬ - 6



## ZAMONAVIY O'QUV JARAYONIDA ELEKTRON INTERAKTIV DOSKADA SMART NOTEBOOK ILOVASINI QO'LLASH

S.P. Kutliyev<sup>1</sup>, H.Farmonov<sup>2</sup>, S.Hilola<sup>3</sup>

<sup>1</sup>TATU Urganch filiali assistent o'qituvchisi, [q.sardor.86@gmail.com](mailto:q.sardor.86@gmail.com)

<sup>2</sup>TATU Urganch filiali talabasi, [farmonovhusniddin2@gmail.com](mailto:farmonovhusniddin2@gmail.com)

<sup>3</sup>TATU Urganch filiali talabasi, [hilolas003@gmail.com](mailto:hilolas003@gmail.com)

**Abstract:** In this article, the use of the smart notebook application on the electronic interactive board and its use in the educational process. Smartnotebook covers the topic of algebraic expressions in practical ways.

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada elektron interaktiv doskada smart notebook ilovasini qo'llash va undan o'quv jarayonida foydalanish. Smartnotebook dasturida algebraik ifodalar mavzusini amaliy usullar bilan yoritib beriladi.

**Keywords:** Electronic board, Smart notebook, Multimedia, Interactive task, Educational technologies, Electronic teaching, Smart textbook, Tablet, Computer, Auditorium, Electronic table, Electronic pen.

**Kalit so'zlar:** Elektron doska, Smart notebook, Multimedia, Interaktiv topshiriq, Ta'lif texnologiyalar, Elektron o'qitish, Smart darslik, Planshet, Kompyuter, Auditoriya, Elektron jadval, Elektron qalam.

Mamlakatimizda ta'limga e'tibor yildan - yilga ortmoqda. Ta'lif tizimida axborot texnologiyalarini qo'llash, multimedia texnologiyalaridan foydalanish ta'lif sifatini yaxshilashda muhim ahamiyat kasb e'tib bormoqda.


So'nggi yillarda dunyo miqyosida elektron va smart-ta'lif texnologiyalaridan foydalanishga talab keskin ortdi. Deyarli barcha mamlakatlar ta'lif jarayonini asosan axborot texnologiyalari orqali amalgalga oshirishi natijasida, oxirgi 2 yillik muddat ichida O'zbekistonda ham bu texnologiya avvalgi yillarga qaraganda misli ko'rilmagan darajada rivojlandi. Ta'lif oluvchilarning aksar qismini tashkil qiluvchi maktab o'quvchilari ham elektron o'qitish jarayoni bilan yaqindan tanishdilar. Ta'lifda multimedia materiallarni qo'llash o'quvchilarni fanga bo'lgan qiziqishini orttirishda, ularni fanni chuqur o'rganishida katta ro'l o'yndaydi.

Shunday texnologiyalardan biri bu smart doska hisoblanadi.

Smart doskalar kundan kunga hayotimizga kirib kelmoqda, ularning turli versiyalari ishlab chiqilmoqda. Smart doska katta ekranda katta auditoriyadagi eshituvchilarni qamrab oladi. Smart planshetlar ularning tarkibiga smart-darslik o'rnatilgan bo'ladi. Smart notebooklar ham hozirgi kunda o'zining zamонавиy tuzilishi, jihozlanishi bilan insonlarni hayratga soladi.

Quyida smartnotebook dasturida algebraik ifodalar mavzusini amaliy usullar bilan yoritib beramiz.

Smart Notebook oynasi faylni ko‘rish va ishlash uchun bir qator usullarni taqdim etadi.



**1-rasm.** Smartnotebook asboblar paneli.

SMART Notebook asboblar paneli SMART Notebook oynasida turli buyruqlar va vositalarni tanlash va ulardan foydalanish imkonini beradi. Quyidagi jadvalda standart Smart Notebook asboblar panelidagi barcha asboblar paneli tugmalari tasvirlangan.

Tugma	Buyruq	Bajaradigan vazifasi
	Oldingi sahifa	Oldingi sahifani ko‘rsatish joriy fayl.
	Keyingi sahifa	Keyingi sahifani ko‘rsatish joriy fayl.
	Bo‘sh sahifalar	Joriy bo‘sh sahifani joylashtiring fayl.
	Ochish	*.notebook. fayllini ochish

	Saqlash	Joriy hujjatni saqlash
	Inkor	So‘nggi harakatni bekor qiling.
	Takrorlash	So‘nggi harakatlarni tiklash, bekor qilish buyrug‘i bilan bekor qilinadi.

	O`chirish	Belgilangan objektlarni o`chirish
	Ekran soyasi	Joriy hujjatga ekran soyasini qo`shish
	To`liqekran rejimida	Joriy sahifani to`liq ekran rejimida ko`rsatish.
	Ikki tomonlama qo`l rejimi yozuviga	Bir vaqtning o`zida Ikki kishini ishlashga imkon beradi. Ushbu tugma faqat SMART Board D600 interfaol doskasidan foydalanganda uskunalar panelida ko`rinadi.
	Jadval yaratish	Joriy hujjatga jadval chizish
	Belgilash	Joriy hujjatdagi objektni belgilash
	Mo`yqalam	Joriy hujjatga objektni chizish
	Xattotlik mo`yqalami	Joriy hujjatga objektni xattotlik mo`yqalami bilan chizish.
	O`chirg`ich	Joriy hujjatdagi objektni o`chiradi.
	Chiziq	Joriy hujjatga to`g`ri chiziq yoki yoy chizadi

### Smart Notebook asboblar panelini sozlash

SMART Notebook asboblar paneli turli buyruqlar va vositalarni tanlash va ulardan foydalanish imkonini beradi. Asboblar paneli parametrlarini u erda eng ko`p ishlatalidigan vositalarni joylashtirish orqali sozlasshingiz mumkin. Asboblar paneli mavjud vositalarni qanday aks ettirishini nazorat qilishingiz mumkin.


1. SMART Notebook asboblar panelini o`ng tugmasini bosing. Asboblar panelini Sozlash dialog oynasi paydo bo`ladi.

2. Asboblar panelidagi tugmani qo`shish uchun "asboblar panelini Sozlash" dialog oynasidagi belgini bosing va keyin SMART Notebook asboblar paneliga siljiting.

3. Asboblar panelidagi tugmani o‘chirish uchun Smart Notebook asboblar panelidagi belgini bosing va uni "Asboblar panelini Sozlash" dialog oynasiga sudrab chiqing.


4. Tugma tartibini o‘zgartirish uchun SMART Notebook asboblar panelidagi belgini bosing va uni asboblar panelidagi yangi joyga ko‘chiring.

5. Finishni bosing.



**2-rasm.** Smartnotebook dasturida algebraik ifoda mavzusini yoritib berish.

Bunda ilovadagi foны и темы panelidagi tema5 tanlab olinadi va mavzu yoziladi.



**3-rasm.** Algebraik ifodalar mavzusidagi qoidalarni berilishi.

Bu rasmdagi qoidalarni создать новую концептуальную карту panelidan foydalangan holda yozish mumkin.

**1-misol.** Velosipedchining tezligi 12 km/h. U 2 soatda, 3 soatda, a soatda qancha masofani bosib o'tadi

1)  $12 \cdot 2 = 24$  (km);  
 2)  $12 \cdot 3 = 36$  (km);  
 3)  $a$  soatda  $12 \cdot a$  (km)

**4-rasm.** Algebraik ifodaga doir misol va uning yechimi.

so'm  
olsa  
o'lsa,  
chi?

$\frac{7000}{1000} = 7$  (kg)

$\frac{7000}{1000} = 7(kg), b \neq 0$

**5-rasm.** Smartnotebook ilovasida vставить управление panelidan foydalanish  
Bu rasmida vставить управление panelidan foydalanib kasrlar yozib olindi.

**Mashqlar**

1. Poyabzal fabrikasida har soatda 500 juft tufli ishlab chiqariladi. t soatda fabrikada necha juft tufli ishlab chiqariladi? 24 soatda-chi?

$500 \times t$

$500 \times t$

ab chiqariladi. t soatda fabrikada necha 24 soatda-chi?

**6-rasm.** O'quvchilar bajarish uchun mashqlar va qalamdan foydalanish.

Bu rasmida o'quvchilar interaktiv doskaga yozish, amallarni bemalol bajara olish uchun qalamni ustiga bosiladi va katakli maydonga qalam bilan yozilgan amallar aniq shaklda ko'rsatiladi.

The screenshot shows a SMART Notebook interface with a table titled "Javob ustunini to'ldiriting". The table has columns for N, x, y, Algebraik ifodalar, and Javob. The first row contains values 1, 4, 1,  $2x+3y$ , and 11. The second row contains values 2, 0,5, 1,  $2(x+1)+y$ . The third row contains values 3, -1, 8,  $(x+y)^3$ . The software interface includes a toolbar at the top and a sidebar on the left.

N	x	y	Algebraik ifodalar	Javob
1	4	1	$2x+3y$	11
2	0,5	1	$2(x+1)+y$	
3	-1	8	$(x+y)^3$	

7-rasm. Jadvaldan foydalanish.

Bu rasmda o'quvchilarga jadvaldan foydalangan holda topshiriq berilgan. Ularni o'quvchilar qalam yordamida javob ustinini to'ldirib chiqishadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Akhmedov, B. A., Xalmetova, M. X., Rahmonova, G. S., Khasanova, S. Kh. (2020). Cluster method for the development of creative thinking of students of higher educational institutions. Экономика и социум, 12(79), 588-591.
2. Akhmedov, B. A., Makhkamova, M. U., Aydarov, E. B., Rizayev, O. B. (2020). Trends in the use of the pedagogical cluster to improve the quality of information technology lessons. Экономика и социум, 12(79), 802-804.
3. Sardor Pulatovich Kutliyev, Oysuluv Matyaqubiva. Masofaviy ta'limga hamkorlikda o'qitish texnologisini qo'llash. International scientific conference "INFORMATION TECHNOLOGIES, NETWORKS AND TELECOMMUNICATIONS" ITN&T-2021. 2021/5/26, 303-306
4. Sardor Pulatovich Kutliyev. Smart ta'limga texnologiyalarini xozirgi ta'limga jarayonlaridagi o'rni. International scientific conference "INFORMATION TECHNOLOGIES, NETWORKS AND TELECOMMUNICATIONS" ITN&T-2022. 2022/4/30, 641-644
5. S. Kutliyev, GR Dalerovich, TA'LIM JARAYONIDA HAYOTIY MISOLLARDAN FOYDALANISHNING DOLZARBLIGI KEYS-STADI TA'LIM METODI, Journal of new century innovations 27 (1), 113-115
6. S.K Pulatovich, PB Yusupovich, GR Dalerovich. O'RTA MAKTABLARDA INFORMATIKA FANINI O'QITISHDA MOBIL ILOVALARDAN SAMARALI FOYDALANISH USULLARI. Journal of new century innovations 28 (1), 178-180

## TA'LIM JARAYONIDA "BULUTLI TEKNOLOGIYALAR" DAN FOYDALANISHNING SAMARALI USULLARI

S.P. Kutliyev<sup>1</sup>, D.Z. Bahodirova<sup>2</sup>, A.Rustamova<sup>3</sup>

<sup>1</sup>TATU Urganch filiali assistent o'qituvchisi, [q.sardor.86@gmail.com](mailto:q.sardor.86@gmail.com)

<sup>2</sup>TATU Urganch filiali talabasi, [bahodirovad50@gmail.com](mailto:bahodirovad50@gmail.com)

<sup>3</sup>TATU Urganch filiali talabasi, [rustamovaaziza0203@gmail.com](mailto:rustamovaaziza0203@gmail.com)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada men bulutli texnologiyalardan samarali foydalanishga misol qilib Google Classroomda sayt yaratish texnologiyasini oldim. Maqolada biz Google Classroomni qanday ishlashini va sayt qanday yaratilishini ko'rib chiqamiz. Google Classroomdan hozirgi kunda ko'plab maktablarda foydalanimoqda. Maktab darsligiga ham Google Classroom kiritilgan. Google classroom bizga o'quvchilarga topshiriqlar berish, o'quvchilarni fikrini o'rganish, ularni baholash va komentariyalar qoldirish, kabi imkoniyatlarni yaratadi.

**Аннотация:** В этой статье я взял технологию создания сайта в Google Classroom как пример эффективного использования облачных технологий. В статье мы рассмотрим, как работает Google Classroom и как создать сайт. В настоящее время используется Google Classroom во многих школах. Google Classroom также включен в школьный учебник Google class. Он дает нам возможность давать задания ученикам, изучать мнения учеников, оценивать их и оставлять комментарии.

**Annotation:** In this article, I took the technology of creating a site in Google Classroom as an example of the effective use of cloud technologies. In the article, we will look at how Google Classroom works and how to create a site. Google Classroom is currently used in many schools. Google Classroom is also included in the school textbook. Google classroom It gives us the opportunity to give assignments to students, to study the opinions of students, to evaluate them and to leave comments.

**Kalit so'zlar:** Bulutli texnologiya, bulut, cloud computing, Google (GoogleDrive), Yandex (Yandex disk), Microsoft (OneDrive), Apple (iCloud), DropboxInc, Cisco, Oracle, Google Classroom, Google Apps for Education,

**Ключевые слова:** Облачные технологии, облако, облачные вычисления, Google (GoogleDrive), Яндекс (Яндекс диск), Microsoft (OneDrive), Apple (iCloud), DropboxInc, Cisco, Oracle, Google Classroom, Google Apps for Education,


**Key words:** Cloud technology, cloud, cloud computing, Google (GoogleDrive), Yandex (Yandex disk), Microsoft (OneDrive), Apple (iCloud), DropboxInc, Cisco, Oracle, Google Classroom, Google Apps for Education,

Bulutli texnologiyalar” tushunchasi (inglizcha “cloud computing”) ingliz va rus man’balarda keng ishlataladi. Bugungi kunda biz bulutli hisoblash (cloud computing) deb ataydigan hisoblash tarmog‘i jadallik bilan rivojlanmoqda. Axborot texnologiyalari sohasidagi Google (GoogleDrive), Yandex (Yandex disk), Microsoft (OneDrive), Apple (iCloud), DropboxInc, Cisco, Oracle va boshqa ko‘plab yirik kompaniyalar bugun o‘z bulutli xizmatlar spektrini kengaytirishga katta e‘tibor qaratishmoqda. Ko‘plab xizmatlar bulutli tarmoqqa kiritilmoqda va foydalanuvchilar ular orasidan o‘ziga kerakli xizmatlarni bulutdan olish imkoniyati yaratilgan.

“Bulut” so‘zi axborot texnologiyalar tarafidan ishlatalganda xizmatlarni internet orqali taqdim etuvchi texnologiya, infratuzilma deb tushuniladi. Ma‘lumotni bir kompyuterdan boshqa joyda, boshqa mamlakatda joylashgan kompyuterga yuborilganda, u ma‘lumot yetib borishi uchun juda ko‘p tarmoqlarni bosib o‘tadi. Bunda ma‘lumot yuboruvchining kompyuteridan chiqib uning provayderi tomon, provayderdan uning tarmoqlari bo‘ylab boshqa tarmoqlardan o‘tib ulkan internet tarmog‘i bo‘ylab yo‘l bosib o‘tadi va mo‘ljallangan kompyuterga yetib boradi.

Biz bulutli texnologiyalardan Google Classroomdan foydalanish haqida so‘z yuritmoqchimiz. Masalan Google classroomda kurs yaratishni olsak. Ho’sh Google Clasroom bu o’zi nima va u qanday ishlaydi? Shu haqida so‘z yuritamiz.

“Google Classroom” - “Google” ning eng yaxshi mahsulotlaridan biri bo‘lib, u ko‘plab o‘qituvchilar tomonidan baholanadigan sharhlarni oladi. Bu bizning o‘quvchilarimiz bilan fikr-mulohazalarni bildirish, topshiriqlarni raqamli ravishda yaratishga va boshqarishga imkon beruvchi ta’limni boshqaruvchi tizimdir. Google Classroom biz foydalanishimiz mumkin bo‘lgan mahsuldorlik vositalari (Drive, Docs, Gmail va boshqalar) uchun Google Apps for Education bilan ishlaydi. Endi biz sayt yaratishni o‘rganib chiqamiz. Biz avval Google hisobimizni orqali Google Classroomga kirib olamiz.



Код курса : w5guqprv

Обратитесь к курсу


Предстоящие

Ничего сдавать не нужно

Пользователь Dilrabo Baxodirova добавил задание: Bulutli texnologiyalarda xizmat modellari 4 дек.

1-rasm. Googe Classroomning kurs kodи

Har bir kurs avtomatik ravishda kod oladi, unga ko‘ra talabalar keyinchalik «virtual auditoriyasini» topishlari mumkin bo‘ladi. Kursni yaratib, biz asosiy panelga o’tamiz. Gorizontal menyuda uchta yorliq mavjud:




2-rasm. Google Classroomning oynasi.

3-rasm. Yaratilgan kurs oynasi

Men bu yerda o’zim yaratgan kurs oynasini ochdim. Unda universitetimizning 4-kurs talabalari uchun yaratgan kursim mavjud. Muhokama qilinadigan savollar va mavzular lentada e’lon qilingan, unga kirish qo’lda sozlangan, beparvo talabalar sharhlash funktsiyasini o’chirib qo’yishlari mumkin. SHaxsiy Google hisoblarining egalari kuniga 30 tagacha kurslar yaratishi, maksimal 100 ta kursga (kuniga 30 ta) qo’shilishi va kursning eng ko’p 100 ta ishtirokchisiga (shu jumladan o’qituvchilar va talabalarga) kirish huquqiga ega bo’lishi mumkin.

4-rasm. Google Classroomning vazifalar oynasi.

Zadaniya bo'limiga formda testlar va yozma javob uchun savollar yuklash mumkin. Mavzuni to'liq tushunmagan o'quvchilar uchun mavzuning to'liq varyantini ham yuklab qo'yish mumkin.



The screenshot shows the Google Classroom interface. At the top, there are tabs: 'Лента' (Feed), 'Задания' (Assignments), 'Пользователи' (Users), and 'Оценки' (Grades). The 'Пользователи' tab is selected, showing two sections: 'Преподаватели' (Teachers) and 'Учащиеся' (Students). In the 'Преподаватели' section, there is one user listed: Dilrabo Baxodirova. In the 'Учащиеся' section, there are two users listed: baxodirovadilrabo35@gmail... (приглашение отправлено) and Usman Niyazbekov. There are also buttons for 'Действия' (Actions) and sorting by 'Аз' (A-Z).

### 5-rasm.Foydalanuvchilar oynasi

Bu panelda o'quvchilarni qo'shish, baholash mumkin. Ular yuklagan topshiriqlarni fayllarni ham tekshirish va komentariyalar yozish imkoniyati ham mavjud.


Shunday qilib biza saytda kurs yaratib olishimiz mumkin. O'quvchilar darsni taqvimida yoki vazifalar ro'yhati sahifasida topshiriqlarni ko'rishlari mumkin. Biz hali topshirilmagan va tugallanmagan tayinlangan vazifalarni ko'ramiz. Bunday holda, o'quvchiga individual topshiriq berilishimiz mumkin. Bu har bir guruh a'zosi ma'lum bir sohaga ixtisoslashgan strategik mashg'ulotlar paytida qulaydir.

#### Foydalilanigan adabiyotlar:

1. Абдрахманова Ж. Е. Методические рекомендации для работы в платформе Google Classroom // Нур-Султан-2019.
2. Александрова З.В. Инструкция по созданию онлайн-курса в Google Classroom // 2019.
3. Kasey Bell. The teacher's Guide to Google Classroom // Shake Up Learning, LLC 2015.
4. Баранова Н. Google Classroom: Как с нуля создавать онлайн курсы (версия 2020) // [https://te-st.ru/entries/google\\_classroom/1](https://te-st.ru/entries/google_classroom/1). Абдулина Э.М. Облачные технологии в образовании // Молодой ученый. – 2019. – № 52 (290).
5. Sardor Pulatovich Kutliyev, Oysuluv Matyaqubiva. Masofaviy ta'limda hamkorlikda o'qitish texnologisini qo'llash. International scientific conference "INFORMATION TECHNOLOGIES, NETWORKS AND TELECOMMUNICATIONS" ITN&T-2021. 2021/5/26, 303-306

6. Sardor Pulatovich Kutliyev. Smart ta'limgan texnologiyalarini xozirgi ta'limgan jarayonlaridagi o'rni. International scientific conference "INFORMATION TECHNOLOGIES, NETWORKS AND TELECOMMUNICATIONS" ITN&T-2022. 2022/4/30, 641-644
7. S. Kutliyev, GR Dalerovich, TA'LIM JARAYONIDA HAYOTIY MISOLLARDAN FOYDALANISHNING DOLZARBLIGI KEYS-STADI TA'LIM METODI, Journal of new century innovations 27 (1), 113-115
8. S.K Pulatovich, PB Yusupovich, GR Dalerovich. O'RTA MAKTABLARDA INFORMATIKA FANINI O'QITISHDA MOBIL ILOVALARDAN SAMARALI FOYDALANISH USULLARI. Journal of new century innovations 28 (1), 178-180
9. Video dars: <https://youtu.be/M6L-nZGIUTE>
10. Bugungi yaratgan saytimizning havolasi.  
<https://classroom.google.com/c/NjQ0MTE4NDc0NzQ3?cjc=w5guqpv>

## ИБОРАЛАР - ЛЕКСЕМАНИНГ БОЙИШ МАНБАЛАРИДАН БИРИ

**Сайфиддинова Нафосат**

Термиз давлат Педагогика институти  
Филология факултети Ўзбек тили ва адабиёти  
йўнлиши З-босқич 305-гуруҳ талабаси

**Аннотация:** Ушбу мақолади ўзбек тилидаги иборалар, уларнинг қўлланилиши, омоним ва синонимлик хусусиятлари, сўз туркумлари ўрнида ҳам кела олиш, кела олмаслиги ҳамда қайси услубларда иборалардан унумли фойдаланиш мумкунлиги ёритилган.

**Калит сўзлар:** Ибора, феъл, равиш, сифат, омоним, миноним, илмий, бадиий, мақол, матал.

Тилмизда бир қолипга тушиб қолган бирликлар иборалардир. Иборалар бирдан ортиқ бўлган мустақил сўзлардан ташкил топади. Ибораларнинг яна бир номи **Фразеологизмлар** ҳам дейилади. Бу соҳани ўрганувчи бўлим Фразеология деб номланган яни грекча “Пхарарис-“ифода” логос-таълимот “ деган маъно англатади. Бундан ташқари иборалар фразеологик бирлик, тургун бирикма, барқарор бирикма атамалари билан ҳам юритилади. Бу тилиимизнинг сўзларга бойлигидан далолат беради.

Иборалар лексикалогия бўлимининг таркибий қисми ҳисобланиб, тузилига кўра қўшма лексема, сўз бирикмаси ва гапга ўхшайди. Кўпинча иборалар қўшма лексемадек жамият онгидатайёр ва барқарор ҳолда яшайди.

Ибораларда таркибида қатнашган сўзларни алмаштириб ёки тушириб қолдириш мумкин эмас. Улар бир бутунликда маъно англатади. Иборалардаги сўзлар ўз маноларини йўқотиб, кўчма маъно яни янги маъно ифодалайди. Масалан, **тепа сочи тикка бўлди**(аччиқланди), **капалаги учди**(қўрқди), **оғзининг таноби қочди** (хурсанд).

Иборалар сўзлашув ва бадиий услубларда унумли фойдаланилади. Иборалар одиий бирикмалар билан шаклан ўхшаш бўлиб ҳам келади. Масалан, **қўли очиқ яни бармоқлари йойилган, кўчма маънода эса саҳий**.

**Сўз бирикмаси шаклида:** Бўзчининг мокисидай, ўзига келмоқ, юраги ёрилмоқ, кўнгли бўш, жигига тегмоқ.

**Гап шаклида:** капалаги учди, иши ўнгидан келди, юрагига қил сиғмайди, истараси иссиқ, подадан олдин чанг чиқармоқ, кўвушини тўғирлаб қўйди, ичи очиқ, ичи қора, кўнгли тоза.

Лексемаларнинг ҳосил бўлишида ҳам иборалар манба бўлиб хизмат қиласи десак хотўғри бўлмайди. Лексик бирликлар ибораларни, иборалар эса лексемаларни ҳосил қилишга ҳам йрдам берар экан. Масалан, **дардисар, тошбағир, бошоғриқ**.

Ибораларнинг гапда битта бўлак фазивасида келиши, кўчма маънода қўлланилиши, тайёр ҳолда мавжудлиги ҳамда образлилилкка эга эканлиги асосий хусусиятларидир. Иборалардек мақол ва маталларни ҳам ўзгартириб бўлмайди.

Гапда тайёр ҳолда ишлатилади. Ўзгартириб бўлмаслиги учун ибора, матал, мақоллар барқарор бирималар деб юритилади.

Иборалар одатда харакат ва белгини ифодалаб келади. Шундай экан иборалар белги ва ҳараатни билдирувчи сўз туркумларига ҳам мансубдир.

Сифат туркумига оид иборалар: юраги тоза, кўнгли оқ, ранги совуқ, ичи қора, кўзи оч, боши очик, қалби пок, авзойи бузук, кўнгли ҳира, тепса тебранмас,

Фел туркумига оид иборалар: тепа сочи тикка бўлди, ерга урмоқ, подадан олдин чанг чиқармоқ, сув кўрмай этик ечмоқ, оғзига талқон солмоқ.

Иборалар қуидаги гурухларга ажратиб ўрганилаган.

1.Илмий иборалар: имкониятлар доираси, назар ташламоқ.

2.Эскирган иборалар: енг силкитмоқ, калласини ҳам қилмоқ.

3.сўзлашувда қўлланиладиган иборалар: арпасини хом ўрмоқ, кўзи қон.

4.бадиий иборалар: бошида ёнғоқ чақмоқ, оғзидан боди кириб, шоди чиқади, қилдан қийиқ ахтармоқ.

Ибораларлар гаплар таркибида қуидагича келиши мумкин.

1. Ойимнинг негадир жаҳли чиққан, қовоғидан қор ёғиб туриди. 2.

Ҳаммамиз ҳайрон бўлиб ёқамизни ушладик. 3. Шодиёрнинг тарвузи қўлтиғидан тушиб, уйга қайтиб келди. 4. Ўпкангизни босиб олинг, ҳали вақт бор. 5. ҳеч бир сўз демай, жони узилди. 6. Университетимизни кўриб абутуриентларнинг оғзи очилди. 7. Дилдоранинг ҳафсаласи пир бўлди. 8. Ишнинг ўзини билгунча қўзини бил. (мақол).

Иборалар синонимлик ва омонимлик хусуиятларига ҳам эга. Қуидаги мисолларни келтириб ўтамиш.

**Синонимлик хусусияти:**1.Опам миридан сиригача барчасини гапириб берди. Муаммони ипидан игнасигача гаплашдик. 2. Бу хурсандчиликдан теримга сифмай кетдим. Ишимиз ҳал бўлса, бошимиз осмонга етар эди.

**Омоним хусусияти:** Юрагини ёрди яни 1.Дардини айтди,2.қўрқди.

Иборалар нутқимизнинг таъсирчанлигини оширади ва тамиллайди. Бадиий услубда образлиликтни оширади. Сўзлашув услубида тасирчанликни, ихчам ва тушунурлиликтни таъминлайди.

### Фойдаланилган адабиётлар

1. Умурқулов.Б.,Умурқулов З . Ўзбек тилининг амалий гарматикаси. Термиз.2018.
2. Ҳозирги ўзбек адабий тили.,Сайфуллаева.Р., Менглиев.Б, Боқиева.Г., Курбонова. М, Юнусова.З., Абузалова. М.Тошкент. 2010.
3. Раҳимов.С.,Умурқулов.Б, Ҳозирги ўзбек адабий тили. Т,:Ўқитувчи, 2003. Дарслик, ЎЗ.Р ОТВ тас.

## BIZNESDA BOSHQARUV FUNKSIYALARI

*Mustafoyeva Shahnoza Namozovna**Navoiy viloyati Uchquduq tumani kasb-hunar maktabi**Biznes asoslari fani o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada biznesda boshqaruv funksiyalari, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarining asosiy faoliyati, menejment sohasining holati, kichik tadbirkorlik subyektlarida ishlab chiqarish kengayib borishi haqida to'liq bayon qilingan.

**Kalit so'zlar:** biznes, boshqaruv funksiyalari, kichik tadbirkorlik, tadbirkorlik korxonalari, menejment sohasi.

**Kirish:**

Biznes boshqaruvi — biznes faoliyatini boshqarish haqidagi fan sanaladi. Menejment sohasining holati ishlab chiqarish samaradorligiga, texnika va texnologiya darajasi, shuningdek ishchi kuchining sifatiga ta'sir qiladi. Menejment sohasining muhiyati boshqaruv tizimi va boshqaruv obyekti o'rtafiga o'zaro munosabat bo'lib, uning muhim vazifasi boshqaruvning zamonaviy usullarini, rahbarlik san'ati sirlarini o'rganishdan iborat.

**Adabiyotlar tahlili va metodologiya:**

Bozor iqtisodiyoti o'tilishi sababli davlatda yangi moliyaviy siyosat ishlab chiqildi va hukumat tomonidan real hayotda amalga oshirilmoqda. Jamiyatdagi har bir iqtisodiy faoliyatning boshlanishi mamlakatning yaqindan turib bergen moliyaviy yordami tufayli rivojlanib, takomillashib boradi. Binobarin, kichik va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashda banklarning rolini oshirib borishga alohida e'tibor qaratiladi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarining muhim faoliyati banklar bilan uzviy bog'liq bo'lib, ular olib borayotgan faoliyat –xomashyoni sotib olish, ishlab chiqarilgan tovarlar, ko'rsatiladigan xizmatlarga haq to'lash, ishlovchilarni ish haqi bilan ta'minlash, turli toifadagi korxonalar, firma va boshqalar yuridik shaxslar bilan bo'ladigan iqtisodiy munosabatlar, ya'ni olingan foyda va daromaddan soliq to'lash, transport, kommunal xizmatlar uchun to'lovlarning hamma turlari banklar orqali, o'z o'rnida, olinadigan kreditlar va boshqa hisob-kitoblar ham banklar yordamida amalga oshadi.

**Natijalar:**

Tadbirkorlikning takomillanishi ijtimoiy va iqtisodiy sharoit bilan chambarchas bog'liq. Tadbirkorlik shakllanishining iqtisodiy sharoitiga ijtimoiy sharoit yaqin turadi. Ijtimoiy sharoit, avvalo, xaridorlarning didi va modaga javob bera oladigan tovarlarni sotib olishga intilishi bilan belgilanadi. Turli bosqichlarda mazkur talab o'zgarib turishi mumkin. Bunga ijtimoiy-madaniy sharoitga bog'liq axloqiy va diniy me'yorlar jiddiy ta'sir qiladi. Mazkur me'yorlar xaridorlarning turmush tarziga va u yordamida tovarlarga talabiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Ijtimoiy sharoit shaxsning ishga munosabatiga o'z ta'sirini o'tkazadi, bu esa, o'z o'rnida, biznes taklif etayotgan maoshning miqdoriga, mehnat sharoitiga munosabatiga

ta'sir qiladi. Tadbirkorlik faoliyati turlari nisbatan mustaqil bo'lib, bir-birini to'ldirib keladi. Tadbirkorlik faoliyatining barcha turlarini belgilab beruvchi ishlab chiqarish tadbirkorligining ustuvorligini tan olish kerak. Innovasion, ilmiy-texnik faoliyat, tovarlarni bevosita ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish va shu sohadagi axborot bilan ishlash faoliyati ishlab chiqarish tadbirkorligiga kiradi. Ishlab chiqarish bilan shug'ullanmoqchi bo'lgan har bir ishbilarmon tadbirkorlik faoliyatining qaysi turi bilan shug'ullanishi, qanday mahsulot ishlab chiqarishi, qanday xizmat ko'rsatishini oldindan belgilab olishi kerak.

**Muhokama:**

Biznes ishlari boshlangandan keyin olingen natijalar reja bilan solishtirib boriladi, masalalar bo'lsa, yuzaga chiqariladi, rejaga tuzatishlar kiritib boriladi, shu tariqa biznes to'g'ri yo'nalishga solinadi. Aks holda uni boshqarish qiyinlashib ketadi. Biznes reja ana shuning uchun ham kerak bo'ladi. Demak, biznes-reja bugungi va kelgusidagi yutuqlarni, o'sishni aks ettiradigan biznes ko'zgusidir.

Kichik tadbirkorlik subyektlarida ishlab chiqarish kengayib borishi bilan ularning texnik ta'mirlash, moddiy-texnika ta'minoti, mahsulotlarni saqlash, qayta ishlash va sotish, kommunikatsiya va aloqa, maslahat va axborot kabi bir qator xizmat turlariga talabi ortib boraveradi. Sababi kichik tadbirkorlik subyektlariga yuridik shaxs maqomini berish bilangina ish tugamaydii. Ularning to'laqonli faoliyatini faqat mukammal tashkil qilingan infratuzilma bo'linmalari yordamidagina tasavvur qilish mumkin.

**Xulosa:**

Xulosa o'rnila shuni ta'kidlash mumkinki, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarida mavjud bo'lgan tabiiy, moddiy, mehnat va moliyaviy resurslardan samarali foydalanish imkoniyatlarini aniqlashda va hayotga jalg qilishda, shuningdek aholi bandligini ta'minlashda asosiy ahamiyatga egadir. Uni bevosita amalga oshirish uchun har bir mutaxassis yaxshi va puxta egallab olishi kerak. Shundagina u kelajakda o'z faoliyatida iqtisodiy samara beradi.

**Adabiyotlar ro'yxati:**

1. Beknozov N. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik.T.,TDY nashr., 2005.
2. Samadov A.N., Ostanaqulova G.N. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik. T.: Moliya-iqtisod, 2008.
3. Yusupov M.A., Yergashxodjayeva Sh.J. Tadbirkorlik asoslari. – T.: O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi, 2005.
4. Qosimova M.S., Yusupov M.A., Shodibekova D., Samadov A.N. Kichik biznesni boshqarish– T.: O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi, 2005.

## СУПЕРПОЗИЦИЯ ОДНОГО ЛИНЕЙНОГО И ОДНОГО КВАДРАТИЧНОГО СТОХАСТИЧНОГО ОПЕРАТОРА

**Мамуров Бобохон**

Бухарский государственный университет, Бухара, Узбекистан,

*b.mamurov.51@mail.ru*, *b.j.mamurov @buxdu.uz*

**Шукурулаева Мохинур**

Бухарский государственный университет, Бухара, Узбекистан

**Рузиев Адхам**

Бухарский государственный университет, Бухара, Узбекистан

**Аннотация.** Изучена суперпозиция одного линейного и одного квадратичного стохастического оператора. Найдены неподвижные точки последнего оператора.

**Ключевые слова:** линейные операторы, симплекс, квадратичные стохастические операторы, суперпозиция, неподвижные точки.

### SUPERPOSITION OF ONE LINEAR AND ONE QUADRATIC STOCHASTIC OPERATOR

Mamurov Boboxon,

Bukhara State University, Bukhara, Uzbekistan,

*bmamurov.51@mail.ru*, *b.j.mamurov @buxdu.uz*

Shukurulaeva Mokhinur

Bukhara State University, Bukhara, Uzbekistan,

Ruziyev Adxam

Bukhara State University, Bukhara, Uzbekistan,

**Annotation.** The superposition of one linear and one quadratic stochastic operator is studied. The fixed points of the last operator have been found.

**Key words:** linear operators, simplex, quadratic stochastic operators, superposition, fixed points.

Непустое множество  $L$  элементов  $x, y, z, \dots$  называется линейным, или векторным, пространством, если оно удовлетворяет таким условиям:

I. Для любых двух элементов  $x, y \in L$  однозначно определен третий элемент  $z \in L$ , называемый их суммой и обозначаемый  $x + y$ , причем

1.  $x + y = y + x$  (коммутативность);
2.  $x + (y + z) = (x + y) + z$  (ассоциативность);



3. В  $L$  существует такой элемент  $0$ , что  $x + 0 = x$  для всех  $x \in L$  (существование нуля);

4. Для каждого  $x \in L$  существует такой элемент  $-x$ , что  $x + (-x) = 0$  (существование противоположного элемента).

II. Для любого числа  $\alpha$  и любого элемента  $x \in L$  определен элемент  $\alpha x \in L$  (произведение элемента  $x$  на число  $\alpha$ ), причем

1.  $\alpha(\beta x) = (\alpha\beta)x$ ;
2.  $1 \cdot x = x$ ;
3.  $(\alpha + \beta)x = \alpha x + \beta x$ ;
4.  $\alpha(x + y) = \alpha x + \alpha y$ .

Пусть  $E$  и  $E_1$  – два линейные пространства.

**Определение 1.** Линейным оператором, действующим из  $E$  в  $E_1$ , называется отображение

$$y = Ax, \quad x \in E, \quad y \in E_1,$$

удовлетворяющее условию

$$A(\alpha x_1 + \beta x_2) = \alpha Ax_1 + \beta Ax_2.$$

Совокупность  $D_A$  всех тех  $x \in E$ , для которых отображение  $A$  определено, называется областью определения оператора  $A$ ; вообще говоря, не предполагается, что  $D_A = E$ , однако мы всегда будем считать, что  $D_A$  есть линейное многообразие, т.е. если  $x, y \in D_A$ , то  $\alpha x + \beta y \in D_A$  при всех  $\alpha, \beta$ .

Оператор  $A$  называется непрерывным в точке  $x_0 \in D_A$ , если для любой окрестности  $V$  точки  $y_0 = Ax_0$  существует такая окрестность  $U$  точки  $x_0$ , что  $Ax \in V$ , как только  $x \in U \cap D_A$ .

Пусть  $A$  и  $B$  – линейные операторы, причем  $A$  действует из пространства  $E$  в  $E_1$ , а  $B$  действует из  $E_1$  в  $E_2$ . Произведением (суперпозицией)  $BA$  операторов  $A$  и  $B$  называется оператор  $C$ , ставящий в соответствие элементу  $x \in E$  элемент  $z = B(Ax)$  из  $E_2$ . Область определения  $D_C$  оператора  $C = BA$  состоит из тех  $x \in D_A$  для которых  $Ax \in D_B$ .

Изучение развития состояния системы является основной задачей теории динамических систем.

Эволюцию популяции можно изучать с помощью динамической системы квадратичного стохастического оператора (см. например [1- 28]).

Пусть  $E = \{1, 2, \dots, n\}$ . Множество

$$S^{n-1} = \{x = (x_1, x_2, \dots, x_n) \in R^n : x_i \geq 0, \sum_{i=1}^n x_i = 1\}$$

называется  $(n - 1)$  – мерным симплексом. Каждый элемент  $x \in S^{n-1}$  является вероятностной мерой на  $E$ , и его можно интерпретировать как состояние биологической (физической и т.п.) системы, состоящей из  $n$  элементов.



**Определение 2.** Отображение  $V: S^{n-1} \rightarrow S^{n-1}$

$$V: x'_k = \sum_{i,j=1}^n p_{ij,k} x_i x_j, \quad (1)$$

где

$$p_{ij,k} \geq 0, \sum_{k=1}^n p_{ij,k} = 1, \quad (2)$$

называется квадратичным стохастическим оператором.

**Определение 3.** Квадратичный оператор (1), (2) назовем строго невольтерровским, если  $p_{ij,k}=0$  при  $k \in \{i, j\}, i, j, k = 1, 2, \dots, n$ .

**Определение 4.** Точка  $x \in S^{n-1}$  называется неподвижной точкой квадратичного стохастического оператора  $V$ , если  $V(x) = x$ .

Линейные операторы в  $R^3$  имеют вид

$$Ax = \begin{pmatrix} a_{11} & a_{12} & a_{13} \\ a_{21} & a_{22} & a_{23} \\ a_{31} & a_{32} & a_{33} \end{pmatrix} \begin{pmatrix} x_1 \\ x_2 \\ x_3 \end{pmatrix} \quad (3)$$

В работе (1) рассмотрен квадратичный стохастический оператор

$$V: S^2 \rightarrow S^2,$$

$$V: x_1 = x_1^2 + 2x_2x_3; x_2 = x_2^2 + 2x_1x_3; x_3 = x_3^2 + 2x_1x_2.$$

Доказано, что оператор  $V$  имеет четыре неподвижные точки  $M_1(1,0,0)$ ,

$$M_2(0,1,0), M_3(0,0,1), C\left(\frac{1}{3}, \frac{1}{3}, \frac{1}{3}\right).$$

$$\text{Пусть } A = \begin{pmatrix} \alpha & \beta & 1 - \alpha - \beta \\ \frac{1}{3} & \frac{1}{3} & \frac{1}{3} \\ \frac{1}{3} & \frac{1}{3} & \frac{1}{3} \end{pmatrix}.$$

В данной работе мы рассмотрим суперпозиция операторов  $A$  и  $V$ .

**Теорема.** Оператор  $B = A(V(x))$  имеет единственную неподвижную точку  $C\left(\frac{1}{3}, \frac{1}{3}, \frac{1}{3}\right)$ .

**Доказательство.** Нашем случае  $B = A(V(x))$  имеет вид

$$B = \begin{pmatrix} \alpha & \beta & 1 - \alpha - \beta \\ \frac{1}{3} & \frac{1}{3} & \frac{1}{3} \\ \frac{1}{3} & \frac{1}{3} & \frac{1}{3} \end{pmatrix} \cdot \begin{pmatrix} x_1^2 + 2x_2x_3 \\ x_2^2 + 2x_1x_3 \\ x_3^2 + 2x_1x_2 \end{pmatrix} =$$

$$\begin{pmatrix} \alpha(x_1^2 + 2x_2x_3) + \beta(x_2^2 + 2x_1x_3) + (1 - \alpha - \beta)(x_3^2 + 2x_1x_2) \\ \frac{1}{3}(x_1^2 + 2x_2x_3) + \frac{1}{3}(x_2^2 + 2x_1x_3) + \frac{1}{3}(x_3^2 + 2x_1x_2) \\ \frac{1}{3}(x_1^2 + 2x_2x_3) + \frac{1}{3}(x_2^2 + 2x_1x_3) + \frac{1}{3}(x_3^2 + 2x_1x_2) \end{pmatrix}. \quad (4)$$



Найдем неподвижные точки оператора  $B$  ( $B(x) = x$ )

$$\begin{cases} \alpha(x_1^2 + 2x_2x_3) + \beta(x_2^2 + 2x_1x_3) + (1 - \alpha - \beta)(x_3^2 + 2x_1x_2) = x_1, \\ \frac{1}{3}(x_1^2 + 2x_2x_3) + \frac{1}{3}(x_2^2 + 2x_1x_3) + \frac{1}{3}(x_3^2 + 2x_1x_2) = x_2, \\ \frac{1}{3}(x_1^2 + 2x_2x_3) + \frac{1}{3}(x_2^2 + 2x_1x_3) + \frac{1}{3}(x_3^2 + 2x_1x_2) = x_3. \end{cases} \quad (5)$$

Из второго уравнение системы (5), имеем

$$\frac{1}{3}(x_1^2 + 2x_2x_3 + x_2^2 + 2x_1x_3 + x_3^2 + 2x_1x_2) = x_2 \text{ и}$$

$$x_1^2 + 2x_2x_3 + x_2^2 + 2x_1x_3 + x_3^2 + 2x_1x_2 = (x_1 + x_2 + x_3)^2,$$

Поэтому  $\frac{1}{3}((x_1 + x_2 + x_3)^2) = x_2$ .

Так как  $x_1 + x_2 + x_3 = 1$ ,  $x_2 = \frac{1}{3}$ .

Из третьей уравнение системы (5), получим

$$\frac{1}{3}(x_1^2 + 2x_2x_3 + x_2^2 + 2x_1x_3 + x_3^2 + 2x_1x_2) = x_3$$

и

$$\frac{1}{3}((x_1 + x_2 + x_3)^2) = x_3, \quad x_3 = \frac{1}{3},$$

так как  $x_1 + x_2 + x_3 = 1$ .

Из первого уравнение системы (5)

$$\begin{aligned} \alpha\left(x_1^2 + \frac{2}{9}\right) + \beta\left(\frac{1}{9} + \frac{2}{3}x_1\right) + (1 - \alpha - \beta)\left(\frac{1}{9} + \frac{2}{3}x_1\right) &= x_1, \\ \alpha x_1^2 + \frac{2\alpha}{9} + \frac{\beta}{9} + \frac{2\beta}{3}x_1 + \frac{1}{9} + \frac{2}{3}x_1 - \frac{\alpha}{9} - \frac{2\alpha}{3}x_1 - \frac{\beta}{9} - \frac{2\beta}{3}x_1 &= x_1, \\ \alpha x_1^2 + \left(\frac{2\beta}{3} - \frac{2\alpha}{3} - \frac{2\beta}{3} - 1\right)x_1 + \frac{2\alpha}{9} + \frac{\beta}{9} + \frac{1}{9} - \frac{\alpha}{9} - \frac{\beta}{9} &= 0, \\ \alpha x_1^2 - \left(\frac{2\alpha}{9} - \frac{1}{3}\right)x_1 + \frac{\alpha}{9} + \frac{1}{9} = 0, \quad 2x_1^2 - \left(\frac{2\alpha}{3} + \frac{1}{3}\right)x_1 + \frac{1}{9}(\alpha + 1) &= 0, \\ \alpha x_1^2 - \frac{1}{3}(2\alpha + 1)x_1 + \frac{1}{9}(\alpha + 1) &= 0. \end{aligned}$$

Решение последнего уравнение

$$\begin{aligned} x_{1(1,2)} &= \frac{\frac{1}{3}(2\alpha + 1) \pm \sqrt{\left(\frac{1}{3}(2\alpha + 1)\right)^2 - 4\alpha \cdot \frac{1}{9}(\alpha + 1)}}{2\alpha} = \\ &= \frac{\frac{1}{3}(2\alpha + 1) \pm \sqrt{\frac{4}{9}\alpha^2 + \frac{4\alpha}{9} + \frac{1}{9} - \frac{4}{9}\alpha^2 - \frac{4\alpha}{9}}}{2\alpha} = \frac{\frac{1}{3}(2\alpha + 1) \pm \frac{1}{3}}{2\alpha}, \\ x_{1(1)} &= \frac{\frac{1}{3}(2\alpha + 1) - \frac{1}{3}}{2\alpha} = \frac{\frac{2\alpha}{3} + \frac{1}{3} - \frac{1}{3}}{2\alpha} = \frac{1}{3}, \end{aligned}$$



$$x_{1(2)} = \frac{\frac{1}{3}(2\alpha + 1) + \frac{1}{3}}{2\alpha} = \frac{\frac{2\alpha}{3} + \frac{1}{3} + \frac{1}{3}}{2\alpha} = \frac{\frac{2\alpha}{3} + \frac{2}{3}}{2\alpha} = \frac{1}{3} + \frac{1}{3\alpha}.$$

Так как  $x_1 + x_2 + x_3 = 1$ , поэтому  $x_1 = \frac{1}{3}$ .


Теорема доказано.

### ЛИТЕРАТУРА:

1. Ганиходжаев Р.Н. Об одном семействе квадратичных стохастических операторов действующих в  $S^2$ . Докл.АН УзССР.1989, №1. 3-5 стр.
2. Mamurov B.J., Rozikov U.A. On cubic stochastic operators and processes. Journal of Physics: Conference Series. **697** (2016), 012017.
3. Mamurov B.J., Rozikov U.A., Xudayarov S.S. Quadratic stochastic processes of type  $(\sigma/\mu)$ . arXiv: 2004.01702 . Pp. 1-14. math.D.S
4. Mamurov B.J., Rozikov U.A. and Xudayarov S.S. Quadratic Stochastic Processes of Type  $(\sigma/\mu)$ . Markov Processes Relat.Fields 26, 915-933 (2020).
5. Мамуров Б.Ж. О кубических стохастических процессов. Тезисы докладов межн. конфер. CODS-2009. С.72.
6. Мамуров Б.Ж. О решения эволюционных уравнений для кубических стохастических процессов. Сборник материалов международной конференции КРОМШ-2019. 305-307 стр.
7. Мамуров Б.Ж., Шарипова М. Об одном квадратичном стохастическом операторе в  $S^2$ . “Scientific Progress”. Int.sientoific-Pract.conf.Tashkent, 2021, March 15. Стр.121-122.
8. Mamurov B.J. A central limit theorem for quadratic chains with finite enotypes. Scientific reports of Bukhara State University. 1:5,2018. Pp. 18-21.
9. Мамуров Б.Ж., Сохибов Д.Б. О неподвижных точек одного квадратичного стохастического оператора. Наука, техника и образование. 2021. №2 (77). Часть 2.Стр.10-15.
10. Мамуров Б.Ж. Эволюционные уравнения для конечномерных однородных кубических стохастических процессов. Bulletin of Institute of Mathematics 2019. №6, pp.35-39.
11. Мамуров Б.Ж., Жураева Н.О. Kombinatorika haqidagi dastlabki ko`nikmalarni shakllantirish. “Science and education” scientific jornal, 2:10 (2021), pp. 497-505.
12. Мамуров Б.Ж., Жураева Н.О. Kombinatorik munosabatlar va ularning geometrik isbotlari haqida. Pedagogik mahorat.2021,oktyabr. Maxsus son. 20-23-bet.
13. Мамуров Б.Ж., Абдуллаев Ж. Регрессионный анализ как средство изучения зависимости между переменными // European science. 2021.№ 2 (58). С. 7-9.
14. Мамуров Б.Ж, Жураева Н.О. О первом уроке по теории вероятностей. Вестник науки и образования, № 18 (96).Часть 2. Москва, 2020,-37-39 стр

15. Mamurov B, Amrilloyeva K. Tasodifiy hodisa tushunchasi haqida. SCIENTIFIC PROGRESS. №2. 2021, 463-467 b.
16. Мамуров Б.Ж., Жураева Н.О. О роли элементов истории математики в преподавании математики. Abstracts of X International Scientific and Practical Conference Liverpool, United Kingdom 27-29 May, 2020. С. 701-702.
17. Мамуров Б.Ж. Неравномерной оценки скорости сходимости в центральной предельной теореме для симметрично зависимых случайных величин . Молодой учёный. 197:11 (2018). С. 3-5.
18. Мамуров Б.Ж., Бобокулова С. Теорема сходимости для последовательности симметрично зависимых случайных величин. Academy. 55:4 (2020). Рр. 13-16.
19. Мамуров Б.Ж. О кубических стохастических процессов. Тезисы докладов межн. конфер. CODS-2009. С.72.
- 20.Мамуров Б.Ж., Жураева Н.О. О историзм в процессе обучения математике. Вестник науки и образования.2020.№17(95).Часть 2. 70-74 стр.
21. Мамуров Б.Ж. О решения эволюционных уравнений для кубических стохастических процессов. Сборник материалов международной конференции КРОМШ-2019. 305-307 стр.
22. Мамуров Б.Ж.,Шарипова М. Об одном квадратичном стохастическом операторе в  $S^2$ . “Scientific Progress”. Int. sientoific-Pract. conf. Tashkent, 2021, March 15. Стр.121-122.
23. Мамуров Б.Ж., Шарипова М. Об одном квадратичном стохастическом операторе в  $S^2$ . Тезисы рес.науч.конф. “Сарымсаковские чтения”, Тошкент-2021, стр.100-101.
24. Mamurov B.Zh. The convex combinations of quadratic operators on  $S^2$ . Abstracts of theVII inter.conf.Modern prob.of applied mat.inf.tex.Al-Khwar., 21, pp. 87.
25. Mamurov B.J., Bazorova D. Biologiya va tibbiyotdagi ba'zi matematik modellar haqida. Science and edication. 8:2 (2022), 418-426 b.
26. Mamurov B.J., Bazorova D. Kvadratik stoxostik operatorlarga olib kelinadigan ba`zi modellar haqida. Science and edication. 4:3 (2023), 41-48 b.
27. Jamilov U.U., Mamurov B.J. Asymptotical behavior of trajectories of non-Volterra quadratic stochastic operators. Lobachevskii Journal of Mathematics(JM). 2022,Vol 43, №11,pp 3174-3182.
28. Mamurov B.J. A conver combination of two quadratic stoxastic operators acting in the 2D simplex. Изв. вузов Математика. 2023(7), pp 66-70.

## ТИЛИМИЗДА МОРФЕМАЛАРНИНГ ҚЎЛЛАНИШ ДОИРАСИ

**Эргашова Ҳилола**

Термиз давлат Педагогика институти  
Филология факултети Ўзбек тили ва адабиёти  
йўнлиши З-босқич 305-гуруҳ талабаси

**Аннотация:** Ушбу мақолада етакчи ва кўмакчи морфемаларнинг қўлланиш ўринлари, қай тарздаги меёрларга амал қилиши ва она тилмиздаги аҳамияти ёритиб берилган.

**Калит сўлар:** морфема, қўшимча, асос, лугавий, синтактик, шакл, ясовчи.

Сўзнинг бошқа маноларга бўлинмайдиган, энг киччик қисми морфема дейилади. Морфема сўзининг келиб чиқиши грекча сўздан олинган ва “шакл” демакдир. Ҳар бир сўзнинг таркибий қисми маноли қисмлардир. Малумки сўзнинг ўзакдан бошқа қисмлари айрича маъно англатмайди. Шунинг учун ҳам бу қисмлар морфема деб аталади. Масалан, **китобимиз** сўзида китоб сўзи алоҳида ўринга ега. Чунки китоб сўзи бўшқа морфема яни таркибий қимларсиз ҳам алоҳида маъно англата олади. Шунга асосан, у лексема дейилади. –имиз қўшимчаси эса асосий қисмсиз маъно англат олмаслиги билан фарқланади.

Сўзларининг иккала қисми ҳам, лугавий маъно англатувчи қисми ва грамматик маъно англатувчи қисми ҳам морфема дейилади. Асос **етакчи морфема, қўшимча эса кўмакчи морфема** ҳисобланади.

Етакчи морфема сўзнинг асос қисми ва у бошқа таркибий қисмларга бўлинмайди. Шу сабабли у сўзнинг асоси деб олинади. Асос сўзнинг шакл ва маъно жиҳатдан ўзгармас ва унга турли қўшимчалар қўшилса ҳам ўз мазмунини сақлаб қоладиган қисмидир. Масалан, **дўст, дўстлар, дўстлари, дўстларим, дўстларимиз, дўстларимизга, дўстларимиздан** каби грамматик маъноларни ифодалаб келсада унинг асоси яни дўст шакли ўзгармаган. Етакчи морфема сўз ясалиши учун ҳам асос қилиб олинади. Агар сўз ҳечқандай қўшимчаларсиз асос ҳолида (Мас, ватан, дўст, китоб) қўлланса битта морфема яни етакчи морфема деб қаралади. Морфемаларга ажратишда биринчи бўлиб етакчи морфемани аниқлашимиз қўл келади. Масалан, сайлов яни сайла-в каби морфемалардан ташкил топганлигини асосга қараб аниқлаб оламиз.

Сўзлардаги ҳар бир қисм ўз маъноларига эга. Теримчиларнинг сўзини олайлик, **тер-**асос, **им-** сўз ясивчи, **чи-**сўз ясовчи, **лар-** лугавий шакл ясовчи нинг- синтактик шакл ясовчи. Бешта маноли қисм бор экан.

Ўзбек тилида қўшимчалар қўшилишининг маълу бир коидаси бор. Қуйида келтириб ўтамиз.

1. Асосдан сўнг сўз ясовчи
2. Сўз ясовчидан сўнг луғавий шакл ясовчи
3. Луғавий шакл ясовчидан сўнг синтактик шакл ясовчилар қўшилиши меёр ҳисобланади. Масалан, **синфдошларимиз** сўзини қисмларга ажратиб чиқсак юқоридаги меёрга амал қиласди. Синф асос, дош-сўз ясовчи, лар-луғавий, имиз-синтактик шакл ясовчилардан ташкил топган.

Кўмакчи морфемалар эса қўшимчалар демакдир. Қўшимча яни аффикслотинчада “боғланган”, “бириктирилган” маъноларини ифодалайди. Кўмакчи морфемалар сўзларга, тўғрироғи етакчи морфема яни асосларга турли хил қўшимча маъно юклаш учун хизмат қиласди. Масалан, **дўстларим сўзидағи дўст-асос, лар-қўплик, им-эгалик маъноларини юклайпди**.

Кўмакчи морфемалар мано ва вазифасига кўра **сўз ясовчилар; шакл ясовчилар; синтактик шакл ясовчиларга бўлинади**.

Сўз ясовчи қўшимчалар асосга қўшилиб янги мано ифодлайди. Масалан, **чирой-чиройли, гул-гулчи**.

Луғавий шакл ясовчи қўшимчалар турли хил чни қўплик, кичрайтириш, эркалаш, даражалаш маноларини юклайди. Масалан, **қизча-қиз-ча, гул-лар, оқимтир-оқ-имтири**.

Синтактик шакл ясовчи қўимчалар сўзнинг бошқа сўзга муносабатини билдиради. Маслан, **уйим-им сўзида эгалик, келдим-им сўзида шахс-сон** маноларини ифодалаяпди.

Тилимизда морфемаларнинг кўплиги ҳам тилимизнинг бойишига катта ҳисса қўшади. Ҳар бир етакчи ва кўмакчи морфемаларни қўллаш меёрига амал қилинса, адабий тилимиз ҳам услубиятимиз ҳам ўз ўрнида бўлади.

### Фойдаланилган адабиётлар

1. Умурқулов.Б.,Умурқулов З . Ўзбек тилининг амалий гармматикаси. Термиз.2018.
2. Ҳозирги ўзбек адабий тили.,Сайфуллаева.Р., Менглиев.Б, Боқиева.Г., Қурбонова. М, Юнусова.З., Абузалова. М.Тошкент. 2010.
3. Раҳимов.С.,Умурқулов.Б, Ҳозирги ўзбек адабий тили. Т,:Ўқитувчи, 2003. Дарслик, ЎЗ.Р ОТВ тас

## QO`SHMA GAP TURLARI HAQIDA

**O`rolova Mashhura Homid qizi**  
*Termiz davlat pedagogika instituti*  
*O`zbek tili va adabiyoti yo`nalishi*  
*3-bosqich talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada qo`shma gap va ularni tashkil etuvchi sodda gaplar, qo`shma gaplarning guruhlarga bo`linishi, bog`langan qo`shma gaplar, ergashgan qo`shma gaplar, bog`lovchisiz qo`shma gaplar, ularni bog`lovchi vositalar, tilshunos olimlarning bu sohada olib borgan ilmiy izlanishlari, turli tasniflar haqida so`z yuritiladi.

**Kalit so`zlar:** qo`shma gap, sodda gap, bog`langan qo`shma gap, ergashgan qo`shma gap, bog`lovchisiz qo`shma gap, teng bog`lovchilar, ergashtiruvchi bog`lovchilar, ohang, yuklamalar, nisbiy so`zlar, ko`makchili qurilmalar, *deb*, *bo`lsa*, *esa* so`zlari, shart mayli, tinish belgilar, tasnif.

Ikki va undan ortiq bo`lgan sodda gaplarning grammatik, mazmun va ohang jihatdan o`zaro bog`lanishidan hosil bo`lgan gap **qo`shma gap** sanaladi. Qo`shma gap gapning struktural jihatidan alohida bir turi bo`lib, tuzilishi va qurilish materialiga ko`ra sodda gapdan farq qiladi. Sodda gapning qurilish materiali so`z yoki so`z birikmasi bo`lsa, qo`shma gapning qurilish materiali sodda gaplardir. Sodda gap bitta predikativ asosdan, qo`shma gap esa ikki va undan ortiq predikativ asosdan tashkil topgan bo`ladi.

Qismlari qanday bog`lovchilar bilan bog`lanishi va mazmun-munosabat ifodalashiga ko`ra qo`shma gaplar 3 guruhga bo`linadi:

- Bog`langan qo`shma gaplar;
- Ergashgan qo`shma gaplar;
- Bog`lovchisiz qo`shma gaplar.

Qismlari teng bog`lovchilar, *bo`lsa*, *esa* so`zlari, *-u*, *-yu*, *-da* yuklamalari yordamida birikkan gaplarga **bog`langan qo`shma gaplar** deyiladi. Bunday gapni tashkil etgan sodda gaplar bir butunlikda mazmun ifodalaydi. Bog`langan qo`shma gapni tashkil etuvchi sodda gaplar o`zaro quyidagi vositalar bilan bog`lanadi:

1. Biriktiruv bog`lovchilari yordamida: *Uyga keldim va darslarimni qildim.*

2. Zidlov bog`lovchilari yordamida: *Zarifa xato gapirganini anglar, lekin tan olgisi kelmasdi.*

3. Ayiruv bog`lovchisi yordamida: *Gohi yulduzlarga cho`zaman qo`lim, gohi xayollarda aylayman sayr.*

4. Inkor bog`lovchisi: *U hozir na odamlarni, na ularning gapini pisand qilardi.*

5. Bo`lsa, esa so`zlar yordamida: *Quyosh olamni yoritadi, ilm esa odamni. Yaxshi do`scht og`ir kuningda yoningda bo`ladi, yomoni bo`lsa seni shu yomon kuningda tashlab ketadi.*

Qismlari ergashtiruvchi bog`lovchilar va shunday bog`lovchi vositasida keluvchi so`zlar yordamida bog`langan qo`shma gaplarga **ergashgan qo`shma gaplar** deyiladi. Ergashgan qo`shma gaplar tarkibida nechta sodda gap ishtirok etishidan qat'i nazar doimo ikki qismdan: bosh va ergash gapdan tashkil topadi. Mazmuni izohlanayotgan gap *bosh gap*, bosh gapni izohlayotgan gap esa *ergash gap* sanaladi.

Ergash gapni bosh gapga quyidagi vositalar yordamida bog`lanadi:

1. Ergashtiruvchi bog`lovchilar: *Iroda ustozidan gap eshitdi, chunki uyga vazifani qilmagan edi.*
2. Ko`makchili qurilmalar: *Tashqari sovuq, shuning uchun ko`chaga chiqma.*
3. Yuklamalar: *Tilagim shuki, doimo tinchlik bo`lsin.*
4. Nisbiy so`zlar: *Kim ko`proq o`qisa, o`sha ko`proq natijaga erishadi.*
5. Deb so`zi: *Gul barglari uchishadi, tushmayin deb qo`lingga.*

Qismlari o`zaro bog`lovchi vositalarsiz, faqat ohang va mazmun jihatidan bog`langan qo`shma gaplarga **bog`lovchisiz qo`shma gaplar** deyiladi. Bunday qo`shma gaplarda predikativ qismlarni mazmun qurilish jihatidan bog`lashda intonatsiya (ohang) yetakchi vazifani bajaradi. Bog`lovchisiz qo`shma gaplar orasida tinish belgilar quyidagicha ishlatiladi:

1. Sodda gaplar mazmun jihatdan bir-biriga yaqin bo`lsa, yoki ketma-ket sodir bo`layotgan ish-harakatni bildirsa orasida vergul qo`yiladi. *Tong otdi, quyosh chiqdi.*
2. Sodda gaplar mazmun jihatidan qisman mustaqil bo`lsa orasida nuqtali vergul ishlatiladi. *Mayin qor osmondan yog``ilib turadi; shamolning sekin g`uvullashi eshitiladi.*
3. Ikkinchi sodda gap birinchi sodda gapning biror bo`lagini izohlab kelsa, bu sodda gaplar orasida ikki nuqta qo`yiladi. *Siz menga ayting: yuqori hosil olish uchun ishni nimadan boshlamoqchisiz?*
4. Sodda gaplarning mazmuni bir-biriga zid bo`lsa, ular orasiga tire qo`yiladi. *Ko`z qo`r quoq – qo`l botir.*

#### Фойдаланилган адабиётлар:

1. Умурқулов.Б., Умурқулов З . Ўзбек тилининг амалий гармматикаси. Термиз.2018.
2. Ҳозирги ўзбек адабий тили., Сайфуллаева.Р., Менглиев.Б, Боқиева.Г., Курбонова. М, Юнусова.З., Абузалова. М.Тошкент. 2010.
3. Раҳимов.С., Умурқулов.Б, Ҳозирги ўзбек адабий тили. Т,:Ўқитувчи, 2003. Дарслик, ЎЗ.Р ОТВ тас

## AHMAD YASSAVIY MA`NAVIY MEROSI VA UNING YOSHLAR TARBIYASIGA TA`SIRI

*Ilmiy rahbar: X. U Samatov*

*O.N. Rafiqov*

*Toshkent Axborot Texnologiyalari Universiteti*

*Samarqand filiali Kompyuter injiniring fakulteti*

*KI 23-01 Guruh talabasi*

*Telefon raqam: +998997097985*

*Elektron pochta manzili:*

*ogabekrafiqov10@gmail.com*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Ahmad Yassaviyning hayot va ijodi, asarlari haqida shuningdek bizlarga qoldirgan ilmiy meroslari haqida so`z boradi.

**Kalit so`zlar:** Ahmad Yassaviy, tasavvufiy adabiyot, "devoni hikmat" Alisher Navoiy, tariqat, ma`rifat.

**Annotation:** This article talks about Ahmed Yassavi's life and works, as well as his scientific heritage.

**Аннотация:** В данной статье рассказывается о жизни и творчестве Ахмеда Ясави, а также о его научном наследии.

**Key words:** Ahmad Yassavi, mystical literature, "devoni hikmat" Alisher Navoi, tariqat, enlightenment.

**Ключевые слова:** Ахмад Яссави, мистическая литература, «девони хикмат» Алишера Навои, тарикат, просветление.

### **Kirish qism.**

Ahmad Yassaviy tasavvuf adabiyotining yirik namoyondalaridan biri hisoblar bu sohaga juda katta hissa qo`shgan. Uning hayoti va ijod yo`li ya`ni yozgan asarlari va hikmatlari haqida quyida keng ko`lamli to`xtalamiz.

Ahmad Yassaviyning hayoti haqida ma`lumotlar yetarli emas. U Yassi yaqinidagi Sayram shahrida tug`ilgan. Uning otasi Ibrohim Turkistonning taniqli shayxlaridan bo`lgan. Onasi Qorasoch momo nomi bilan mashhur. Ahmadning yoshligi ancha qiyin kechadi: juda erta yoshligida otasi vafot etadi. Ahmad Yassaviy yirik mutasavvif olim Arslonbobo qo`lida tarbiyalanadi, so`ng Buxoroga borib Yusuf Hamadoniy qo`lida tahsil oladi. Ahmad Yassaviy tasavvuf ilmini shu qadar chuqur egallaydiki, xalq orasida "Madinada Muhammad, Turkistonda Xoja Ahmad" degan naql paydo bo`ladi. Ahmad Yassaviy 1166-yilda vafot etadi. Uning shuhrati vafotidan keyin hampasaymagan. Amir Temur unga alohida hurmat bilan qarab, 1395–1397-

yillarda Turkistonda Ahmad Yassaviyning qabri o‘rnida muhtasham maqbara qurdiradi. U hozir ham mayjud.

(Yassi yaqinidagi Sayram shahri, taxminan 11-asrning 2-yarmi — 1166) — tasavvufning mashhur namoyandalaridan biri, turkey xalqlarning buyuk shoiri. Otasi Shayx Ibrohim javonmardlik tariqatiga mansub nufuzli zotlardan bo‘lgan. Yassaviy chig‘atoy tilida ijod qilgan. Ijodi ayo do‘sstar nodon birla ulfat bo‘lib bag‘rim kuyib jondan to‘yib o‘ldim ma’no to‘g‘ri aytsam egrisi yo‘lga bo‘yin to‘lg‘ar qonlar yutib g‘am zahriga to‘ydim ma’no.

Yassaviy tug‘ilgach, ko‘p o‘tmay onasi — Muso Shayxning qizi Oysha xotun vafot etadi. 7 yoshida otasidan ham ajraladi. Yassaviy tarbiyasi bilan opasi Gavhar Shahnoz mashg‘ul bo‘ladi. Yassaviy opasi bilan Yassiga ko‘chib borgach, ustozি Arslon bobo bilan uchrashadi va undan tahsil oladi (“Yetti yoshda Arslon bobom izlab topdim”). Yassaviy Yassida botin ilmi sirlarini mukammal o‘zlashtirgan. O‘sha zamonalarda ilm-ma’rifatning Movaraunnahrda markazlaridan bo‘lgan Buxoroda Turkistonning turli tomonlaridan tolibi ilmlar yig‘ilishgan. Arslon bobo ko‘rsatmasi bilan Yassaviy ham Buxoroga boradi. Davrning eng peshqadam olimi va sofiysi Shayx Yusuf Hamadoniy bilan uchrashib, unga murid tushadi. Buxoroda u arab tili bilan bir qatorda fors tilini ham chuqur o‘rganadi. Forsiyda yaratilgan tasavvufiy adabiyot bilan tanishadi. Xoja Abduxoliq G‘ijdivoniy, Abdulloh Barqi, Xoja Hasan Andoqiy bilan hamsuhbat va hammaslahat bo‘lib, Yusuf Xamadoniy muridlari qatoridan o‘rin oladi.

Alisher Navoiy Yassaviy to‘g‘risida „Maqomoti oliy va mashhur, karomoti matavoliy va nomahsur ermish. Murid va ashob g‘oyatsiz va shoh-u gado aning irodat va ixlosi ostonida nihoysiz ermish”, — deydi. Bu fikr Yassaviyning Yassiga qaytib kelib, yangi bir tariqatga asos solgan murshid sifatida shuhrat topgan davrlariga tegishlidir. Yassaviy turkey xalqlarni islomga yanada kengroq jalb qilish va tasavvuf g‘oyalarini omma ko‘ngliga chuqur singdirish maqsadida she’riyatdan ham foydalangan. Abdurauf Fitratning ta’kidlashicha, Yasaviyning „adabiyotda tutgan yo‘li sodda xalq shoirlarimizning tutg‘on yo‘lidir... Uning hikmatlari vaznda, qofiyada, uslubda xalq adabiyoti atalgan she’rlar bilan barobar”. U yozgan asari Nafaqat turkiy Xalqlarga balki butun Dunyoga Nasihat bo‘ladigan asar yozgan.

Yassaviy nuqtai nazarida hikmat — „ilmi laduniy”, ya’ni ilmi g‘aybu haqoyiq va ilohiy sirlarni kashf aylash mazmuniga ham ega. Yassaviyning o‘zi „Devoni hikmat“ nomi bilan biron bir kitob yaratmagan. Ushbu nodir asar uning murid va izdoshlari tomonidan tartib berilgan. Lekin bu narsa hikmat majmuasining Yassaviyga aloqasi yo‘q, degan da’voni ilgari surishga asos bermaydi. So‘fi Olloyor Yassaviy haqida fikr bildirib, yana shunday degan: Shariatda edi ul oftobe, Qolibdur bizga ul erdin kitobe.

Alisher Navoiy «Nasoyim ul-muhabbat» asarida Ahmad Yassaviyga shunday ta’rif beradi: «Xoja Ahmad Yassaviy – Turkiston mulkinining shayx ulmashoyixidur.

Maqomati oliy va mashhur, karomoti matavoliy (hayratlanarli) va nomahsur (chegarasiz) ermish. Imom Yusuf Hamadoniyning as’habidindur (suhbatdoshi)».

«Hikmat»lar Ahmad Yassaviy merosini jamlagan asardir. Unda 240 ga yaqin she’r bor. Asar xalq orasida «Devoni hikmat» nomi bilan mashhur bo’lgan. Hikmatlarga «Qul Xoja Ahmad», «Xoja Ahmad Yassaviy», «Ahmad ibn Ibrohim», «Sulton Xoja Ahmad Yassaviy», «Yassaviy miskin Ahmad», «Miskin Yassaviy», «Xoja Ahmad», «Ahmad», «Ahmadiy», «Qul Ahmad», «Miskin Ahmad» kabi taxalluslar qo‘yilgan.

Ahmad Yassaviy – mutasavvuf shoir. Tasavvufdagi to‘rt asosiy bosqich: shariat, tariqat, ma’rifat, haqiqat mohiyatini she’riy misralariga singdirgan Ahmad Yassaviy shu yo‘nalishda katta shuhrat qozondi. Bu bejiz emas. Adib tasavvufni inson ma’naviyatini yuksaltiruvchi muhim omil sifatida biladi. Bundan maqsad insoniyatni to‘g‘ri yo‘lga da’vat etishdir. To‘g‘ri yo‘l haqiqatni anglashga olib kelmoq kerak. Haqiqatni anglash o‘zlikni anglashdir. Bunga erishmoq uchun kishining hidoyat yo‘liga kirmog‘i, butun kuch va vujudini shu yo‘lga qaratmog‘I kerak.

Ahmad Yassaviy she’riyatidagi obrazlar tuzilishi ham tasavvuf ta’limoti bilan, ham og‘zaki ijod an’analari bilan chambarchas bog‘lanib ketgan. Pir, darvish, oshiq, obid, oqil, zohid, ishq, tolib, ummat, rasul, shayton, iyomon kabi obrazlar bevosita tasavvuf bilan bog‘lansa, yo‘l, rabot, karvon, o‘q kabilar og‘zaki ijod an’analari bilan aloqador holda yuzaga kelgan.

Ahmad Yassaviy hikmatlari xalqona ruhi bilan o‘ziga xoslik kasb etadi.

Ishq bog‘ini mehnat tortib ko‘kartmasang,  
Xorlik tortib shum nafsingni o‘ldirmasang.  
Ollo debon ichga nurni to‘ldirmasang,  
Valloh-billoh senda ishqni nishoni yo‘q.

## HIKMATLAR

Ishq da’vosin manga qilma, yolg‘on oshiq,  
Oshiq bo‘lsang bag‘ring ichra ko‘z qoni yo‘q,  
Muhabbatni shavqi birla jon bermasa,  
Zoye kechar umri oni, yolg‘oni yo‘q.

“Devoni hikmat” da ilohiy ishq va oshiqlik, ma’rifat va oriflik saodati, fanodan baqoga yetishish tushunchalari nihoyatda samimiyl va ta’sirli ohanglarda yoritib berilgan. „Devoni hikmat“dagi barcha she’rlar ham Yassaviyga mansub emas. Unga Yassaviy izdoshlarining ijod namunalari ham kiritilgan. Bu esa, tabiiyki, hikmatlar tili va uslubida ma’lum o‘zgarishlar hosil qilgan. Lekin Yassaviyning o‘nlab izdoshlaridan hech biri ustozlari boshlagan g‘oyaviy, axloqiy, ma’naviyma’rifiy va mafkuraviy yo‘nalishni o‘zgartirmagan. Buni Yassaviy hayoti, tariqati va ijodiyotidan bahs

yuritilgan o'nlab qadimiy manbalar, ayniqsa, Sulton Ahmad Haziniyning „Javohir ul-abror min amvojil bihor“ asari ham to'la tasdiqlaydi.

Yassaviyning faqat ijodiyoti emas, qancha umr ko'rib, qachon vafot etganligi ham bahsli. U hikmatlaridan birida „Yuz yigirma beshga kirdim, bilolmadim“, deydiki, bu so'zlar tarixiy haqiqatdan ko'ra, manoqibiy mazmunga ega. Bundan tashqari, 125 yillik uzoq bir umrning yarmidan ko'pini „yer osti“da („Oltmisch uchda yer ostiga kirdim mano“, deydi Yassaviy) o'tkazish aql bovar etmas hodisadir. Lekin ko'pchilik tadqiqotchilar uning vafot tarixini 1166—67 yil deb qayd etishgan.

Uzoq vaqt mobaynida Yasaviy hayoti va ijodiyotini ilmiy jihatdan tadqiq etishga imkon berilmadi. Asarlarini nashr qilishga yo'l qo'yilmadi. O'tgan asrning 70-yillarida Yasaviyning milliy madaniyat, til va adabiyot tarixidagi xizmatlarini to'g'ri baholash yo'lidagi urinishlar esa qoralandi. Mustaqillik arafasida, xususan, O'zbekiston istiqlolga erishgandan keyin yassaviyshunoslikda yangi davr boshlandi. Dastlab turli gazeta va jurnallarda „Devoni hikmat“dan namunalar e'lon qilingan bo'lsa, 1990—92 yillarda uning 2 mustaqil nashri kitobxonlar qo'liga yetkazildi. Ushbu nashrlar nafaqat O'zbekistonda, balki boshqa turkiy davlatlarda ham bu buyuk mutasavvifning hayoti, adabiy-ma'rifiy faoliyati, izdoshlari xizmatiga qiziqishni kuchaytirdi. 1993-yil O'zbekistonda Yassaviyga bag'ishlab ilmiy anjumanlar o'tkazilib, ma'ruzalar matni alohida majmua shaklida chop etildi. Matbuotda Yassaviyning shaxsiyati, tariqati, she'riyatidan bahs yuritilgan maqolalar bosilib chiqdi. O'zbekistondagi bir qancha ko'cha va mahalla Yassaviy nomi bilan ataladi. Yassaviylik tariqatining asoslari "Faqrnama" (ayrimlar Yassaviyga nisbat beradilar), "Maslakul-orifin", "Lama-ot", "Samaratulmashouyix" "Javohir ul abror" kabi manqaba va risolalarda aks etgan.

“Devoni hikmat” kitob shogirdlari tomonidan tartib berilgan. Unda ilohiy ishq g'oyasi va ma'rifiy mazmun yetakchilik qiladi. Hikmatlar ma'no va mohiyat e'tibori bilan Qur`oni karim va Muhammad alayhissalom hadislariga chuqur bog'langan. „Devoni hikmat“ning 20dan ortiq nusxalari O'RFASHI jamg'armasida saqlanadi. Asar qo'lyozmalaridan eng qadimgisi 17 asrga tegishli.

Yassaviy merosi va tariqati xorijda L. Massignon, A. Arberri, M. Smitt, X. Kisling, F. Mayer, A. Shimmel, R. Xartman, F. Ko`prulu, J. Trimming, K. Eraslon, Idris Shoh, Devin Di Uis; Rossiyada A. Krimiskiy, I. Petrushevskiy, E. Bertels; O'zbekistonda Fitrat, A. Sa'diy, E. Rustamov, B. Qosimov, I. Haqqulov, N. Hasanov tomonidan o'rganilgan.

Qabri Qozog`istonning Turkiston shahrida, 14 asrda Amir Temur tomonidan ta'mirlangan. Turkistonda Ahm,ad Yassaviy nomidagi turk-qozoq universiteti mavjud.

Badiiy ijodda ham Yassaviy obrazini yaratish bo'yicha izlanishlar olib borilmoqda. Yozuvchi Sa'dulla Siyoyev „Yassaviyning so'nggi safari“ romanining 1-kitobini (1994) chop ettirdi.


Tasavvufdagi boshqa tariqatlarda bo‘lgani kabi “Yassaviya” tariqatida ham o‘z qoidalari (odoblari) mavjud.

Yuqorida bayon etilgan fikrlardan tushunamizki, Xoja Ahmad Yassaviy nafaqat Xuroson va Movarounnahr, balki turkiyzabon xalqlarning ma’naviy tarixida keng ma’lum bo‘lgan mutasavvuf donishmand, ruhiy va jismoniy komilllik sari yetaklaydigan insonparvar shoir bo‘lgan.

### Foydalilanigan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi (2000-2005-yillar)
2. 10-sinf adabiyot darsligi I qism “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti Toshkent 2017-yil
3. “Ozbek mumtoz adabiyoti tarixi” Rahim Vohidov, Husniddin Eshonqulov O‘zbekiston yozuvchilar uyishmasi Adabiyot jamg`armasi nashriyoti Toshkent 2006-yil
4. “Ozbek mumtoz adabiyoti tarixi” Natan Mallayev O‘qituvchi nashriyoti 1965-yil

## AVESTODA YOSHLAR TARIBIYASIGA OID OMILLAR



Ilmiy rahbar: X.U.Samatov

Toshkent Axborot Texnologiyalari Uiversteti  
Samarqand filiali Kampyuter injiniringi fakulteti  
KI 23-01 Guruh talabasi S.Q.Begmanov

**Annotatsiya:** Ushbu maqola insoniyat sivilizatsiyasidagi ilk diniy e'tiqodlardan biri bo'lmish zardushtiylik dinining paydo bo'lish sabablari, ushbu din paydo bo'lishi arafasida mintaqadagi mavjud ijtimoiy-siyosiy vaziyat va mazkur dinning tarqalishi haqida ham atroflicha so'z yuritiladi. Qolaversa, zardushtiylik dinning O'rta Osiyo xalqlarining ijtimoiy hayotiga qo'shgan hissasi va ushbu dinning muqaddas kitobi "Avesto" haqida ham so'z boradi

**Kalit so'zlar:** Zaratushtra, ko'pxudolik dinlari, "Mazdayasna", "Behdin", Axura-Mazda, "sariq tuya sohibi", "Goxlari", "Yasht", Bratarvaxsh, Kavi Vishtaspa, so'g'diyilar.

### KIRISH

Tarixdan ma'lumki dunyoda juda ko'plab dinlar mavjud bo'lган. Ularning ba'zilari esa hozirga qadar saqlanib qolgan. Bu mavzuda gap boshlar ekanmiz avvalo "Din bizga nimaga kerak?" - degan savol paydo bo'ladi. Gap shundaki nafaqat tarixda, balki bugungi kunda ham ijtimoiy hayotni diniy e'tiqods iz tasavvur qilib bo'lmaydi. Negaki din bo'lmasa insoniyat ham bo'lmaydi. Din bu jamiyatni bir maromda ushlab turuvchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Chunki din bo'lmasa jamiyatda har xil buzg'unchilik, talonchilik, jinoyat, faqat bugungi kun bilan ya shash kabi bir qancha salbiy g'oyalalar jamiyatning har bir jabhasiga o'zining ulkan ta'sirini o'tkazmasdan qolmaydi. Ayni paytda din tarixning har bir bosqichida xalqlarning ijtimoiy iqtisodiy rivojiga ulkan hissa qo'shib kelgan.

Mil.avv.VII-VI asrlarda Osiyoning markaziy qismida shunday bir yorug'lik paydo bo'ldi-ki bu narsa o'sha davr insoniyat taraqqiyotiga ta'sir o'tkazmay qolmadi. Sharqiy Eron va Markaziy Osiyo qabilalarinig ijtimoiy tuzumi o'zgarayotgan va diniy qarashlari hamda jamiyatga ro'y berayotgan tabaqalanish davom etayotgan bir paytda Turon pasttekisligida, aniqrog'i Amudaryo bo'ylarida yangi ta'limot vujudga keldi. Bu ta'limot o'lkada shakllangan ko'pxudolik va oshiqcha sarf harajatlarga, atrof muhitni ifloslanishiga hamda insonlar hayotida muhim o'rinn tutgan jonli hayvonlarni qirib, ko'p qurbanliklar qilinishiga qarshi turoladigan ta'limot edi. Bu ta'limotga amal qilgan inson butun umri davomida ezgu fikr, ezgu so'z, ezgu amal kabi g'oyalarni qalbiga joylashi kerak edi. Bu din zardushtiylik dini edi. Ushbu din dualizmga asoslangan, ya'ni olam ikki ibtido; yorug'lik va qorong'ulik, yaxshilik va yomonlikning to'xtovsiz kurashidan

iborat deb uqtiradi Zardushtiylik dini eng qadimgi dinlardan biri hisoblanib, bu din miloddan avvalgi VII-VI asrlarda vujudga kelgan. Bu dinning paydo bo'lishiga oid turli xil qarashlar mavjud. Ba'zi tadqiqotchilar zardushtiylik dinining asoschisi Zardusht asli Midiyalik (hozirgi Eron hududida faoliyat yuritgan) bo'lgan deb hisoblashadi. Ularning fikricha ushbu din hozirgi Eron hududida paydo bo'lgan. Tadqiqotchi M.Toysning fikricha Zardusht mil. avv. 1500-1200-yillar oralig'ida yashab o'tgan va Markaziy Osiyoda (ya'ni Xorazm hududida) mavjud bo'lgan diniy e'tiqodlarni isloh qilib yangi bir din bo'l mish zardushtiylik diniga asos soldi. Mil. avv. VII-VI asrlarda Markaziy Osiyoda qabilaviy ittifoqlar va urug'-aymoqchilik munosabatlariga asoslangan Xorazm va Baqtriya qadimgi davlat birlashmalari vujudga kelgan. Bu mamlakatlar mintaqada uzoq vaqt davom etgan ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy madaniy jarayonlarning hosilasi bo'lgan. Ular ta'sirida jamiyatda tutgan o'rni, imkoniyatlari va ahamiyatiga ko'ra bir-biridan farq qiladigan guruhlar, tabaqalar va sinflar yuzaga kelgan. Davlat esa mavjud ijtimoiy munosabatlarni himoya qiluvchi siyosiy tashkilot hisoblangan. Ijtimoiy-siyosiy hayotda yuz bergen o'zgarishlar talablariga ibtidoiy madaniyat va ibtidoiy e'tiqod mos kelмаган. Shu bois diniy e'tiqodni ijtimoiy hayotda yuz berayotgan o'zgarishlarga muvofiqlashtirish zarur edi. Zardushtiylik dini esa mazkur talablarga mos diniy ta'limot va o'ziga xos dunyoqarash sifatida yuzaga kelgan.

Zardushtiylik dinining vujudga kelish sabablari quyidagilardan iborat

- tabiat kuchlari, mayjudotlar va ruhlarni muqaddaslashtiruvchi, o'z qiyofasiga ega, ishlab chiqarish sohalariga homiylik qiladigan, kuch va imkoniyatlariga ko'ra guruhlashtirilgan qudratli xudolar bilan almshtirish zarur edi;

- jamiyat ishlab chiqarish munosabatlarining rivojlanishi, sinflar va davlatning yuzaga kelishi natijasida eski munosabatlarni aks ettiruvchi ibtidoiy din shakllarining yangi davr talablariga mos kelmay qoldi;

- ma'naviy tajribani umumlashtirish va ularga ilohiy tus berish bilan jamiyat va davlatni yanada mustahkamlash zarur edi .

Zardushtiylik dini payg'ambar Zardusht nomiga nisbat berilib, shartli ravishda shunday atab kelinadi. Aslida esa u mazkur dinning muqaddas kitobi hisoblanmish "Avesto"" da ushbu dinning nomi "Mazdayasna" dini deb atalgan. Bu so'zni "Mazdaga sig'inmoq" deb tarjima qilish mumkin. "Mazda" so'zi "donish, oqil, donishmand" kabi talqin etiladi. Zardushtiylik yana "Behdin", ya'ni "Eng yaxshi din" deb ham ulug'langan. Uning ta'limotiga ko'ra, barcha ezgu borliq Mazdaning irodasi bilan yaratilgan. "Mazda" so'zi oldiga ulug'lash ma'nosini anglatuvchi "Axura" so'zi qo'shilishi natijasida Zardushtiylik dini oliy xudosi hisoblanmish Axura-Mazda nomi paydo bo'ldi.

Zardushtiylik dini paydo bo'lgan davr birinchi sinfiy jamiyat, ya'ni quzdorlik jamiyati davri endi paydo bo'layotgan davr edi. U urug'chilik tuzumi yemirilib aholi qullar va quzdorlarga, zolim va mazlumlarga bo'linayotgan davr bo'lgan. Bu din eng

avvalo O'rta Osiyodan tashqari Eron, Afg'oniston, Ozarbayjon, Yaqin va O'rta Sharqning bir qancha mamlakatlariga tarqalgan edi. Zardushtiylik dinini paydo bo'lgan zamin Xorazm vohasida qadimdan bir qancha turkiy elatlar yashab kelgan. Bu din mil. avv. VII-VI aslarga xos din sifatida o'zidan oldingi urug' qabilachilik dirlari negizida paydo bo'lgan din hisoblanadi. Zardusht nomi ham turli tadqiqotlarda turlicha keltiriladi. Masalan, Zaratushtra (ma'nosi- "sariq tuya sohibi", "zarg'in yorug'lik egasi"), Zarduts, Zoroastr ko'rinishlarida ham ishlatiladi. Zardushtning tarixda bo'lgan yoki bo'lmanligi to'g'risida ham aniq yechimga kelinmagan. Ba'zi tadqiqotchilar uni tarixiy shaxs deya e'tirof etishsa, ba'zilari esa ularda farqli o'laroq uni afsonaviy shaxs deya ta'kidlashadi. U Quyi Amudaryo hududlarida yashovchi oriy qabilasining yirik urug'laridan bo'l mish Spitama urug'idan bo'lgan. U 23 yoshidan boshlab jamiyatdagi kamchiliklarga turli xil qabilalarning turli xudolarga sig'inishi natijasida ular o'rtasidagi urushlarning ko'payishiga, qolaversa, har xil xudolar uchun qilinadigan qurbanlik (qurbanlikka odamlar ham ishlatilgan)larni sabab qilib ko'rsatadi va 30 yoshidan boshlab yagona oliy xudo Axura-Mazdaga sig'inish kerakligini targ'ib qila boshlaydi. Zardusht o'z g'oyalarini jamiyatdagi barcha tabaqalar orasida qo'rmasdan targ'ib qilgan. Zardusht Balx shahrida ibodat chog'i ko'pxudollikka sig'inuvchi Bratarvaxsh tomonidan pichoqlab o'ldirilgan

Zaratushtra (yunoncha-Zaroastr, forscha-Zardusht) qadimgi dunyo mualliflari ma'lumotlariga ko'ra afsonaviy shaxs deya e'tirof etilgan. Ammo Avestoning "Goxlari" va "Yasht" boblari Zaratushtrani tarixiy shaxs sifatida yoritadi. Abu Rayhon Beruniy ma'lumot berishicha Zaratushtraning tug'ilgan sanasi Makedoniyalik Iskandargacha bo'lgan 258 yil hisoblanadi. Zaratushtra 77 yoshida vafot etgan va uning hayot sanasi miloddan avvalgi VII-VI asrga to'g'ri keladi. Zardushtning tug'ilgan joyi haqida Avestoda hech qanday ma'6lumotlar yo'q. Manbag'a ko'ra Zardushtning diniy nasihatlari o'z vatanida tarafdarlarini topmagan. Shuning uchun ham yangi din asoschisi o'z yurtidan qochishga majbur bo'ladi. Avestoning "Goxlari" bobida shunday deyilgan; "Qay tomonga, qaysi yurtga qochib qutulsam, meni kohinlardan va jangchilardan ajratib qo'ydilar, jamoa meni quvnatmaydi, mamlakatlarning yovuz sardorlari meni qabul qilmaydilar". Oxir -oqibat Zardushtni Baqtriya hukmdori Kavi Vishtaspa qabul qiladi. Vishtaspaning uzoq va yaqin qarindoshlari Zardusht ta'limotiga juda ham qiziqqanlar va uning e'tiqodini qabul qilishgan.

Shunday qilib Baqtriya davlati O'rta Osiyoda birinchi bo'lib Zardushtiylik dinini qabul qildi. Shoh Vishtaspa farmoniga binoan Zardushtning 1200 bobdan iborat pandnomasi Avestoning qadimiyligi qismi hisoblanmish "Got" yozilib shohning otashkadasiga topshirilgan. Zardushtiylik ta'limoti O'rta Osiyoda ibtidoiy davrda mavjud bo'lgan tabiat kuchlarini ilohiylashtiruvchi e'tiqodlarga nisbatan progressiv, monoteistik ta'limotdir. U behuda qon to'kuvchi qurbanliklar, harbiy to'qnashuvlar, bosqinchilik urushlarini qoralab, o'troq, osoyishta hayot kechirishga, mehnatga,

dehqonchilik, chorvachilik bilan shug'ullanishga da'vat etadi. Zardushtiylik dini O'rta Osiyodagi so'g'diy va turkiy qabilalar orasida keng tarqaldi. Xususan so'g'diyalar butun O'rta Osiyo bo'ylab tarqalgan bo'lib ularning shimoli-sharqi y hududlarda tarqalgan guruhi turkiy xalqlarni doimiy ravishda Zardushtiylikka targ'ib qilib kelgan va ular bilan diniy amallarni bajargan. Markaziy Osiyoda turkiy va so'g'diyalar yonma-yon yashagan manzilgohlar misolida bu ikki qavmning Zardushtiylik ta'sirida umumiylilik ega bo'lgan urf-odati mavjud bo'lganligini ko'rishimiz mumkin. Keyingi davrlarda turkiy va so'g'diy qabilalarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida aynan zardushtiylik dinining o'rnini nihoyatda katta. Markaziy Osiyodagi zardushtiylik Erondagi Sosoniylar davlatidagi zardushtiylikdan farq qilgan. Chunonchi, Sosoniylarda zardushtiylik rasmiy davlat dini maqomida, siyosiy vositalar orqali belgilangan qat'iy qoidalar asosida rivojlangan. Markaziy Osiyoda esa diniy tolerantlik negizida unga amal qilingan. Ya'ni insonlar zardushtiylik diniga o'zining xohishiga ko'ra e'tiqod qilganlar. Mavjud siyosiy kuchlar aholini mazkur dinga sig'inishiga majburlamagan desak mubolag'a bo'lmaydi. So'g'dlar Zardushtiylik dinini Mazdachilik yoki Mazdayasna dini deb yuritganlar. Shu tariqa Zardushtiylik dini O'rta Osiyoda ancha yaxshi rivojlandi va keng yoyilib, insoniyat sivilizatsiyasiga katta hissa qo'shdi.

Qolaversa Zardushtiylik dininig muqaddas kitobi hisoblanmish "Avesto" kitobida yaratilgan makoni sifatida biz bemalol O'rta Osiyo ko'rsatilgan. Bu haqida rus sharqshunos olimi Dyakanov ham o'z asarlarida ta'kidlab o'tgan. Bu bugungi O'zbekiston, xususan, Xorazm va unga tutash o'lkalardir. "Avesto" kitobidagi geografik- tarixiy ma'lumotlar shundan dalolat beradi-ki, Qadimgi Baqtriya va Eronga oid ba'zi geografik nomlar "Avesto" ga Zardushtiylik O'rta Osiyodan chiqib shu o'lkalarga tarqalgan paytda kirganligi shubhasizdir.

Ko'pchilik tadqiqotchilarning fikricha "Avesto"da Xorazm, Gava (So'g'd), Marg'iyona (Marv), Baqtriya (Balx), Orol dengizi (Vorukasha yoki Vurukasha) va Amudaryo (Daiti) kabi O'rta Osiyoga tegishli nomlarning sanab o'tilganligi, shubhasiz, Zardushtiylik dinining O'rta Osiyoda paydo bo'lganligiga yana bir isbot bo'la oladi. Shuni aytib o'tish joiz-ki, "Avesto"da O'rta Osiyoda yashovchi ko'chmanchi, chorvador qabilalarning turmush tarzi ham keng yoritilgan.

Zardushtiylik dini O'rta Osiyoda yashovchi qabilalar ijtimoiy hayotining barcha jabhalariga juda katta ta'sir ko'rsatgan. Zardushtiylik dini Markaziy Osiyoda boshqa dinlar bilan uzoq vaqt davomida raqobatlarga bardosh bergen. Bu borada muvaffaqiyatlarga erishgan bo'lsa-da, boshqa diniy e'tiqodlarni to'liq siqib chiqarib, o'z hukmronligini o'rnatishga intilmagan. Ishlab chiqarish munosabatlarining rivojlanmaganligi, viloyatlarning iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy jihatdan kam rivojlanganligi bunga imkon bermagan. Odamlar yangi dinni qabul qilish bilan birga o'zlarining an'anaviy e'tiqodini ham saqlab qolgan. Muayyan mintaqada Zardushtiylik keng tarqalgan bo'lsa-da boshqa diniy e'tiqodlar ham saqlanib qolgan. Zardushtiylik

dini ta'limotiga ko'ra inson faqatgina pok yurishi afzal hisoblanadi. Yana bir qiziq tomoni shunda-ki ushbu din ta'limotiga ko'ra dunyo sinovlardan emas, balki yovuzlikka qarshi kurashdan iborat hisoblanadi. Ta'limotda inson yashayotgan dunyo muhim hisoblanadi. Bundan kelib chiqadi-ki dunyo lazzatlaridan oxirat uchun voz kechish g'oyasi ilgari surilmaydi.

### XULOSA

Xulosa o'rnida aytib o'tish joizki, zardushtiylik dini nafaqat O'rta Osiyo, balki o'zi tarqalgan juda keng mintaqada o'ziga xos sivilizatsiya yasadi desak adashmaymiz. Aynan mana shu din va undagi ezgu amallar tufayli jamiyatda ming yillar davom etib kelayotgan, ayni damda oddiy xalqqa faqatgina zarar yetkazib kelayotgan dinlarga barham berdi. Buning foydali jihatlari juda ko'p. Birinchidan, ma'lumki boshqa ko'pxudolik dinida har bir xudo uchun alohida qurbanlik talab etilgan. Buning ustiga qurbanlik uchun ko'pincha odamlar qurbanlik qilinar edi. Shusiz ham qabilalar o'rtasidagi qirg'inbarot urushlardan aziyat chekayotgan oddiy qashshoq xalq uchun boshqa ko'pxudolik dinidagi diniy amallarni bajarish og'irlik qilardi. O'z navbatida qabilalar o'rtasidagi qirg'inbarot urushlarga ham aynan ko'pxudolik dini sabab bo'lgan. Negaki, har bir qabila o'z xudosini oliv xudo deb atar va buning qo'shni qabilalar tomonidan ham e'tirof etilishini istardi. Qolaversa Zardushtiylik dini insoniyatga barcha dinlarga nisbatan bevosita va bilvosita eng ko'p ta'sir o'tkazgan dindir. Chunki turli dinlardagi jannat va jahannam, qiyomat-qoyim, unda tanalarning qayta tirilishi, tana va ruh qayta birlashib mangu yashashi haqida ilk bor aynan Zardushtiylik dinida so'z yuritiladi. Keying asrlarda bu g'oyalalar yahudiylilik, xristianlik va boshqa dinlar tomonidan o'zlashtirildi. Zardushtiylik dinida qo'riq yer ochib uni bog'-u rog'ga aylantirgan odam ilohiyot rahmatiga sazovor bo'ladi, aksincha bog'lar, ekinzorlarni, sug'orish inshootlarini buzganlar katta gunohga qoladi. Ushbu ta'llimot O'rta Osyoning bunyodkor va dehqon xalqiga juda mos kelgan. Yana bir muhim jihat shundaki ushbu dinning muqaddas kitobi bo'l mish "Avesto" ming yillar davomida o'zida ezgu g'oyalarni tashuvchi manba sifatida bizgacha yetib keldi va kelejak avlodga ham o'tajak. Bizning vazifamiz esa undagi ezgulik g'oyalari tashviqni amalda tatbiq etishni kengaytirish va kelajak avlodga yetkazishdan iborat.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. A.V.Narbekov. "Dinshunoslik asoslari". Toshkent-2012. 81-bet.
2. <http://xorazmiy.uz>
3. <https://qomus.info/oz/encyclopedia/z/zardushtiylik/>
4. A.Sagdullayev, B.Aminov, O'.Mavlonov, N.Norqulov. "O'zbekiston tarixi: davlat va jamiyat taraqqiyoti". I-qism. "Akademiya" nashriyoti. Toshkent- 2000. 19-bet.
5. M.Is'hoqov. "Avesto, uning insoniyat taraqqiyotidagi o'rni" konferensiyasidagi tezislар to'plamidan. O'ZR FA. 2001-yil. 5-bet.

## PYTHON DASTURIDA TAKRORLANUVCHI OPERATORLAR



*Jo'raboyeva Moxinur*

*Andijon davlat pedagogika instituti*

*Aniq fanlar fakulteti Matematika va*

*Informatika yo'nalishi 301-guruh talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada python dasturlash tilidagi siklik operatori for haqida ma'lumot hamda shunga doir misollar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** For,sikl chastatasi,print,kod,input,qiymat,natija,konsol.

**Annotation:** This article provides information and examples of the for loop operator in the Python programming language

**Key words:** For, cycle frequency, print, code, input, value, result, console

**Аннотация:** В этой статье представлена информация и примеры оператора цикла for на языке программирования Python.

**Ключевые слова:** Для, частота цикла, печать, код, ввод, значение, результат, консоль.

### FOR BILAN TANISHAMIZ

Dasturlash davomida kodimizning biror qismini bir necha marta takrorlash talab etilishi mumkin. Misol uchun, ro'yxat ichidagi har bir elementni alohida qatordan konsolga chiqarish, yoki bo'lmasa har bir elementni kvadartaga oshirish va hokazo.

Mana shunday vaziyatlarda bizga for operatori yordam beradi. Dasturlashda bu sikl (loop) deb ataladi.

Keling quyidagi misolni ko'ramiz. Bizda mehmonlar ro'yxati bor, biz har bir mehmonning ismini yangi qatordan chiqarmoqchimiz. Buning uchun quyidagi kodni yozamiz:

```
mehmonlar = ['Ali','Vali','Hasan', 'Husan','Olim']
```

```
for mehmon in mehmonlar:
```

```
    print(mehmon)
```

**Natija:**

**Ali**

**Vali**

**Hasan**

**Husan**

**Olim**

Keling, kodni tahlil qilaylik.

^1-qatorda biz mehmonlar degan ro'yxat yaratdik va uni mehmonlarning ismi bilan to'ldirdik.

2-qatorda for siklini bohladik. Bu qator Pythonga mehmonlar degan ro'yxatdan har bir elementini olib uni yangi, mehmon degan o'zgaruvchiga yuklashni buyuryapti (o'zgaruvchiga istalgan nom berishingiz mumkin. Biz tushunarli bo'lishi uchun mehmon deb atadik)

3-qatorda biz mehmon degan o'zgaruvchining qiymatini konsolga chiqardik. Bu sikl to mehmonlar ro'yxatida elementlar tugagunga qadar takrorlanadi.

"For" so'zi ingliz tilidan "uchun" deb tarjima qilinadi.

Yuqoridagi kodni oddiy tilga tarjima qilsak "Mehmonlar ro'yxatidagi har bir mehmon uchun uning ismini konsolga chiqar" degan ma'noni beradi.

### FOR QANDAY ISHLAYDI

Keling yana bir misol ko'raylik.

mehmonlar = ['Ali', 'Vali', 'Hasan', 'Husan', 'Olim']

for mehmon in mehmonlar:

```
print(f"Hurmatli {mehmon}, sizni 20 Dekabr kuni nahorga oshga taklif qilamiz")  
print("Hurmat bilan, Palonchiyevlar oilasi")
```

Natija:

Hurmatli Ali,sizni 20 dekabr kuni nahorga oshga taklif qilamiz

Hurmatli Vali,sizni 20 dekabr kuni nahorga oshga taklif qilamz

Hurmatli Hasan,sizni 20 dekabr kuni nahorga oshga taklif qilamz

Hurmatli Husan,sizni 20 dekabr kuni nahorga oshga taklif qilamz

Hurmatli Olim,sizni 20 dekabr kuni nahorga oshga taklif qilamz

Hurmat bilan Palanchiyevlar oilasi

Yuqoridagi kodda 2-qator bu sikl boshi deyiladi. Aynan shu qator kodimiz necha marta takrorlanishini aniqlaydi. Bizning holatimizda sikl mehmonlar ro'yxati ichidagi elementlar tugagunga qadar takrorlanadi. Sikl boshlanishi ikki nuqta (:) bilan tugaydi. Undan keyingi 3 va 4-qatorlar bu siklning badani deyiladi.

Sikl badani surilish (indentation) bilan ajratiladi, ya'ni siklning takrorlanuvchi qismi asosiy koddan bir muncha o'ngroqqa surilgan bo'ladi. Agar biz mana shu surilishni tark qilsak kodimiz xato beradi:

mehmonlar = ['Ali', 'Vali', 'Hasan', 'Husan', 'Olim']

for mehmon in mehmonlar:

```
print("Hurmatli {mehmon}, sizni 20 Dekabr kuni nahorga oshga taklif qilamiz")  
print("Hurmat bilan, Palonchiyevlar oilasI\n")
```

Natija: IndentationError: expected an indented block

Ko'rib turganingizdek for dan keyingi qatorni o'ngga surmaganimiz uchun indentation error (surishda xatolik) degan xabarni oldik.

Shunigdek, ko'pchilik yo'l qo'yadigan yana bir xato, qo'shimcha qatorlarni surish esdan chiqishi:

mehmonlar = ['Ali','Vali','Hasan', 'Husan','Olim']

for mehmon in mehmonlar:

```
print("Hurmatli { mehmon }, sizni 20 Dekabr kuni nahorga oshga taklif qilamiz")
```

```
print("Hurmat bilan, Palonchiyevlar oilasi\n")
```

Natija:

```
Hurmatli Ali,sizni 20 dekabr kuni nahorga oshga taklif qilamiz
```

```
Hurmatli Vali,sizni 20 dekabr kuni nahorga oshga taklif qilamz
```

```
Hurmatli Hasan,sizni 20 dekabr kuni nahorga oshga taklif qilamz
```

```
Hurmatli Husan,sizni 20 dekabr kuni nahorga oshga taklif qilamz
```

```
Hurmatli Olim,sizni 20 dekabr kuni nahorga oshga taklif qilamz
```

```
Hurmat bilan Palanchiyevlar oilasi
```

Yuqoridagi kodimizda 4-qatorni o'ngga surmaganimiz uchun, Python bu qatorni sikl tashqarisida deb qabul qildi va faqatgina 1 marta, sikl tugaganidan so'ng bajardi. Huddi shu kabi agar takrorlanishi kerak bo'limgan kodni sikldan so'ng o'ngga surib qo'ysak Python bu qatorni siklning tarkibida deb hisoblab, qayta-qayta bajaradi:

mehmonlar = ['Ali','Vali','Hasan', 'Husan','Olim']

for mehmon in mehmonlar:

```
print(mehmon)
```

```
print(mehmonlar) bu qator sikl tashqarisida bo'lishi kerak edi
```

Ali

['Ali', 'Vali', 'Hasan', 'Husan', 'Olim']

Vali

['Ali', 'Vali', 'Hasan', 'Husan', 'Olim']

Hasan

['Ali', 'Vali', 'Hasan', 'Husan', 'Olim']

Husan

['Ali', 'Vali', 'Hasan', 'Husan', 'Olim']

Olim

['Ali', 'Vali', 'Hasan', 'Husan', 'Olim']

Yuqoridagi misolda 5-qator o'ngga surilib qolgani uchun Python bu qatorni ham bir necha bor takrorlab, konsolga chiqardi. To'g'ri kod quyidagicha bo'ladi:

mehmonlar = ['Ali','Vali','Hasan', 'Husan','Olim']

for mehmon in mehmonlar:

```
print(mehmon)
```

```
print(mehmonlar)
```

FOR YORDAMIDA SONLI RO'YXATLAR BILAN ISHLASH

Keling quyidagi misolni ko'ramiz

```
sonlar = list(range(1,11))
```

for son in sonlar:

```
print("{son} ning kvadrati {son**2} ga teng")
```

Natija:

```
1 ning kvadrati 1 ga teng
2 ning kvadrati 4 ga teng
3 ning kvadrati 9 ga teng
4 ning kvadrati 16 ga teng
5 ning kvadrati 25 ga teng
6 ning kvadrati 36 ga teng
7 ning kvadrati 49 ga teng
8 ning kvadrati 64 ga teng
9 ning kvadrati 81 ga teng
10 ning kvadrati 100 ga teng
```

for yordamida yangi ro'yxat ham shakllantirish mumkin:

```
sonlar = list(range(11)) 1 dan 10 gacha sonlar ro'yxatini yaratamiz
```

```
sonlar_kvadrati bo'sh ro'yxat yaratamiz
```

for son in sonlar: sonlar dagi har bir son uchun

```
sonlar_kvadrati.append(son**2) uning kv.ni hisoblab, sonlar_kvadrati ga
yuklaymiz
```

```
print(sonlar)
```

```
print(sonlar_kvadrati)
```

Natija:

```
[0, 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 8, 9, 10]
```

```
[0, 1, 4, 9, 16, 25, 36, 49, 64, 81, 100]
```

```
for va input()
```

for operatori va input() funktsiyasini jamlab, ro'yxatni foydalanuvchidan olingan qiymatlar bilan to'ldirish mumkin:

```
dostlar bo'sh ro'yxat
```

```
print("5 ta eng yaqin do'stingiz kim?")
```

```
for n in range(5): bu yerda 0 dan 4 gacha qiymatlar oladi
```

```
dostlar.append(input("{n+1}-do'stingizning ismni kriting: "))
```

```
print(dostlar)
```

Natija:

```
5 ta eng yaqin do'stingiz kim?
```

```
1-do'stingizning ismni kriting: Ali
```

```
2-do'stingizning ismni kriting: Vali
```

```
3-do'stingizning ismni kriting: Hasan
```

```
4-do'stingizning ismni kriting: Husan
```

```
5-do'stingizning ismni kriting: Ivan
```

[‘Ali’, ‘Vali’, ‘Hasan’, ‘Husan’, ‘Ivan’]

### Kodni tahlil qilamiz:

- 1-qatorda bo'sh dostlar ro'yxatini yaratdik
- 2-qatorda ekranga "5 ta eng yaqin do'stingiz kim?" degan xabarni chiqardik
- 3-qatorda tsiklni boshladik. range(5) funksiysi 0 dan 5 gacha sonlar ketma-ketligini yaratadi (0,1,2,3,4) sikl n esa shularning har biriga teng bo'lib chiqquncha davom etadi.
- 4-qatorda sikl badani kelgan. Bu yerda biz foydalanuvchidan n+1 do'stingizni kriting deb so'radik. Nima uchun n+1 (n emas)? Sababi n 0 dan 4 gacha qiymatlarni oladi, foydalanuvchiga tushunarli bo'lishi uchun esa biz "0-do'stingizni ismini kriting:" deb emas, balki n+1 ya'ni 1-ismni kriting deb murojat qilyapmiz.
- 5-qatorda shakllangan ro'yxatni konsolga chiqardik.

for sikli har qanday dasturlash tilining eng muhim qismlaridan hisoblanadi va biz bu operatoraga hali takror-takror qaytamiz.

### AMALIYOT

Kamida 5 elementdan iborat ismlar degan ro'yxat tuzing, va ro'yxatdagi har bir ismga takrorlanuvchi xabar yozing

Yuoqirdagi sikl tugaganidan so'ng, ekranga "Kod n marta takrorlandi" degan xabarni chiqaring (n o'rniga kod necha marta takrorlanganini yozing)

Salom Ali

Salom Vali

Salom Hasan

Salom Husan

Salom Olim

Kod 5 marta takrorlanadi

Kutilgan natija

10 dan 100 gacha bo'lган тоқ sonlar ro'yxatini tuzing. Ro'yxatning xar bir elementining kubini yangi qatordan konsolga chiqaring.

1331

2197

3375

4913

6859

9261

12167

15625

19683

24389



29792

Foydalanuvchidan 5 ta eng sevimli kinolarini kiritshni so'rang, va kinolar degan ro'yxatga saqlab oling. Natijani konsolga chiqaring.

Foydalanuvchidan bugun nechta odam bilan uchrashganini (suhbatlashganini) so'rang, va har bir suhbatlashgan odamning ismini birma-bir so'rab ro'yxatga yozing. Ro'yxatni konsolga chiqaring.

Bugun necha kishi bilan suhbat qildingiz?>>>3

1-suhbat qilgan odamingiz kim edi: Abdulloh

2-suhbat qilgan odamingiz kim edi: Muhammad

3-suhbat qilgan odamingiz kim edi:Husniddin

[‘Abdulloh;, ‘Muhammad’, ‘Husniddin’]

For...Nexttuzilmasi buyruqlar ketma-ketligini bir necha marta bajaradi. Bunaqangi konstrusiyani sikl deb ataladi va u yordamida bajariladigan dastur kodilarini - sikl tanasi deb ataladi..

For...Nexttuzilmasining sintaksisi:

For Hisoblagich = Boshlang‘ich\_qiymat to Oxirg‘i\_qiymatStep

Qadam

koostniktsiya

Next Hisoblagich

Strukturaning birinchi argumenti - Hisoblagich siklning bajarilishlari sonini hisoblaydigan o'zgaruvchi nomini aniqlaydi. Boshlang‘ich\_qiymat parametri siklga birinchi marta kirishdan oldin. Hisoblagich ga o'zlashtiriladigan boshlang‘ich sonli qiymat bo'ladi.

Sikl Hisoblagich ning qiymati to xizmatchi so'zidan keying Oxirg‘i\_qiymat ning qiymatidan oshib ketguncha bajariladi. Siklning har bir bajarilishidan so'ng Hisoblagich ning qiymati Qadam qiymatiga oshirilib boriladi. Next xizmatchi so'zi siklning oxirini ko'rsatadi. Siklning har bir bajarilishida Hisoblagich ning qiymati bilan Oxirg‘i\_qiymat argumentining qiymati solishtiriladi. Agar hisoblagichning qiymati Oxirg‘i\_qiymat ning o'matilgan qiymatidan oshib ketmasa, sikl tanasining konstruktsiyasi bajariladi. Aks holda boshqarish Next dan keyingi operatorga o'tadi. Hisoblagich ning qiymatini o'zgartiruvchi Qadam ning qiymati manfiy ham bo'lishi mumkin. Bunday holatda sikl Hisoblagich ning qiymati Oxirg‘i\_qiymat ning qiymatidan kichik bo'lguncha bajariladi va hisoblagichning boshlang‘ich qiymati oxirgi qiymatidan katta bo'lishi lozim. Step xizmatchi so'zini ishlatmasa ham boladi. Bunday holatda esa qadamning qiymati avtomatik ravishda 1 ga teng bo'ladi.

Hisoblagich, Boshlang‘ich\_qiymat, Oxirg‘i\_qiymat, Qadam parametrлари - o'zgaruvchi, o'zgarmas yoki butun turdagи ifoda bo'lishi mumkin.

Agar Bosh\_qiym ning qiymati Oxir\_qiym qiymatidan katta (musbat qadam da) yoki Boshqiym ning qiymati Oxir\_qiym qiymatidan kichik (manfiy qadam ni) bo'lsa, sikl tanasi bir marta ham bajarilmaydi.

#### Foydalilanigan adabiyotlar:

1. Dasturlash texnalogiyasi SH.A.Nazarov,G.S.Ianova Toshkent-2014
2. "Python"da dasturlash asoslari Anvar Nazrullayev 2021-yil
3. Dasturlash asoslari SH.Nazirov,G.Divald Toshkent-2007
4. "Python dasturlash tili va uning imkoniyatlari bo'yicha uslubiy qo'llanma" Buhoro-2017

## PYTHON DASTURLASH TILINI MAKTABDA O'QITISH METODIKASI

*Alijonova Husnidabonu Abdullajon qizi**Andijon Davlat Pedagogika Instituti**Aniq fanlar fakulteti Matematika va**Informatika yo`nalishi 301-guruh talabasi**Tel: +998883321570*

**Annotation:** Ushbu maqolada Python dasturlash tilining ma'lumot turlari mavzusiga doir tushunchalar tanlab olish, tushunchalarning mantiqiy sxemasi tuzish hamda har bir tushuncha haqida ma'lumotlarni ko'rsatuvchi, o'rgatuvchi modelni yaratishning metodik asoslari berilgan. Shuningdek, Python dasturlash tilining o'qitish metodikasi haqida ham qayd etilgan.

**Kalit so'zlar:** Python, dasturlash tili, operatsion tizim, ma'lumotlar turi, protsedura, rekursiya funksiyasi

Hozirgi kunda inson faoliyatining barcha sohalarini axborotlashtirish qamrab olgan bo'lib, bu hodisa har bir kishidan yuqori axborot madaniyatini talab qiladi. Shu sababli mакtabning fan o'quv dasturlari o'quvchilarining bilim, ko'nikma va qobiliyatlarini rivojlantirishni ta'minlaydigan fanlar bilan to'ldirishlari zarur.

Ta'limning bugungi vazifasi o'quvchilarni kun sayin ortib borayotgan axborot ta'lim muhiti sharoitida mustaqil faoliyat ko'rsata olish, turli sohalarda zamonaviy axborot texnologiyalarini samarali qo'llash va axborot oqimidan oqilona foydalanishga o'rgatishdan iborat. Shu maqsadda o'quvchilarga uzlucksiz ravishda mustaqil ishlash imkoniyati va sharoitini yaratib berish hamda ijodiy fikrlash va mustaqil qarorlar qabul qilishga o'rgatish ta'lim sifatini oshishiga olib keladi. Hozirgi kunda bir nechta dasturlash tillari ishlab chiqilgan bo'lib, bularga Paskal, Delphi, C++, C#, Python, Java va boshqalarni misol qilish mumkin. Bu dasturlash tillari biror yo'nalishdagi masalalarni hal qilishga mo'ljallangan bo'lib, ularni obyektga yo'naltirilgan dasturlash tillari deyish mumkin.

Python - yuqori bosqichli dasturlash tili hisoblanib, turli xil ilovalarni yaratish uchun mo'ljallangan. Ya'ni Python dasturlash tili yordamida veb-ivilovalar, o'yin ilovalari, oddiy (nastol'niy) dasturlar yaratish hamda berilganlar bazasi bilan ishlash mumkin. Ayniqsa Python dasturlash tilining tezlik bilan tarqalishiga uning mashinali o'rgatish va sun'iy intellekt sohalaridagi tadqiqot ishlarida keng qo'llanilishi sabab bo'lgan. Python dasturlash tilining asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat:

Skriptli til. Dastur kodi skriptlar ko'rinishida bo'ladi;

Turli dasturlash paradigmlarni, xususan ob'yektga yo'naltirilgan va funksional paradigmlarni o'zida mujassamlagan;

Skriptlar bilan ishslash uchun interpreter kerak bo‘lib, u skriptni ishga tushiradi va bajaradi. Portativlik va platformaga bog‘liqmaslik. Kompyuterda qanday operatsion tizim Windows, Mac OS, Linux bo‘lishidan qat’iy nazar, ushbu operasjon tizimda interpreter mavjud bo‘lsa, foydalanuvchi tomonidan yozilgan skript kod bajariladi.

Xotiraning avtomatik boshqarilishi;

Turlarga dinamik ajratilishi;

Ma’lumki, axborotlar matnli, raqamli, ovozli, grafik va boshqa shakllarda uzatilishi mumkin. Bunday axborotlarni dasturlash tillarida qayta ishslash uchun, ularni turlarga ajratish lozim. Dasturlarda foydalaniladigan ma’lumotlar turlari dasturning maqsadiga bog‘liq bo‘ladi: oddiy kalkulyator sonlardan foydalanadi, elektron pochta manzillarini tekshirishga mo‘ljallangan dastur esa matnlar bilan ish ko‘radi. Sonlar natural, butun va haqiqiy sonlarga ajratiladi. Matnli axborotlar esa belgilarni satrli ma’lumotlardan iborat bo‘lishi mumkin.

Ma’lumotlar turi kompyuter xotirasida yetarlicha joyni zaxiraga olib qo‘yish uchun kerak bo‘ladi. Odatda, dasturlash tillarida ma’lumotlar turi o‘zgaruvchi yoki doimiy bilan birga e’lon qilinadi. Python dinamik turlarga ajratuvchi dasturlash tili hisoblanadi. Shu sababli, Pythonda o‘zgaruvchining turi u foydalanayotgan qiymat bo‘yicha belgilanadi, lekin ma’lumot turini boshqa turga o‘zgartirish uchun tur ko‘rsatilishi shart. Ma’lumotlar turlari va ularning tavsiflarini va amaliy masalalarini yechishda quyidagi asosiy tushunchalarni o‘rgandik.

- ma’lumotlar turlari bilan ishslashni;
- ma’lumotlar turlari tavsiflarini;
- amaliy masalalarini Python dasturida yechishni;
- python operatorlarni to‘g‘ri tanlashni;
- dastur tuzishni;
- python dasturida amaliy masalalarini yechimini topishdagi tadbig‘i.
- axborot texnologiyalari bilan ishslashni.

O‘quvchilarga tushunchalar orqali taqdim etilayotgan o‘quv materialining ma’no mazmuni tushunchalarning belgilarini sanab o‘tish bilan emas, balki unga qo‘srimcha ravishda boshqa tushunchalar bilan o‘zaro bog‘liqligini ko‘rsata olish katta samara beradi va tushunchalarning mantiqiy sxemasining paydo bo‘lishiga olib keladi. Python dasturlash tilining ma’lumotlar turiga doir tushunchalarning mantiqiy sxemasini ishlab chiqish hamda ularning mazmunini o‘quvchilarga yetkazish masalasi dolzarbligini ko‘rsatadi.

Python dasturlash tilining ma’lumotlar turiga doir tushunchalar tanlab olinib, tushunchalarning mantiqiy sxemasi tuzilgan hamda har bir xossasi haqidagi ma’lumotlarni ko‘rsatuvchi, o‘rgatuvchi kompyuter modeli ham yaratilgan

Python dasturlash tilining har xil masalalarini yechishga mo‘ljallangan bir necha foydali standart funksiyalari mavjud:

Har bir funksiya hamda protseduraga albatta nom berish kerak va bu nom Pythonda define (ing. define – aniqlash) so‘zidan olingan def kalit so‘zi bilan boshlanadi.

def - funksiyani e’lon qiluvchi kalit so‘z.

funksiya\_nomi - funksiya nomi.

parametrlar ro‘yxati - ushbu ro‘yxat bir necha parametr dan iborat bo‘lishi mumkin va ular vergul bilan ajratib yoziladi.

buyruqlar\_bloki - funksiya tanasi boshqa operatorlar kabi bitta xat boshi tashlab yozilishi shart.

Funksiya nomi orqali chaqirilganda uning tarkibidagi buyruqlar ketma-ketligi bajariladi. Shundan so‘ng dastur funksiya chaqirilgan satrga qaytadi va shu satrdan keyingi buyruqlarga o‘tadi.

Pythonda protseduralar deyarli funksiyalardek yoziladi. Farqi shundaki, protseduralar hech qanday qiymatni qaytarmaydi. Funksiyaning o‘zini o‘zi chaqirishiga rekursiya deyiladi va bunday funksiyalar rekursiv funksiyalar deb ataladi.

Rekursiv funksiyalar dasturlashning kuchli mexanizmi hisoblanadi, lekin ular har doim ham samarali emas. Chunki aksariyat hollarda xatolarga yo‘l qo‘yadi. Xatolar ichidan eng ko‘p tarqalgani – cheksiz rekursiya. Unda funksiyaning chaqiruv zanjiri cheksiz bo‘lib, kompyuter bo‘sh xotirasi tugamaguncha davom etaveradi. Cheksiz rekursiya ro‘y berishing sabablari:

- rekursiyada shartni noto‘g‘ri qo‘llash. Masalan, faktorialni hisoblashda if  $n==0$  ni unutib qo‘ysak, factorial(0)funksiyasi factorial(-1) ni, factorial(-1) funksiyasi esa factorial(-2) va hokazolarni chaqiradi;

-rekursiv funksiyani noto‘g‘ri parametr bilan chaqirish. Masalan, factorial(n)funksiya factorial(n) ni chaqirsa, yana cheksiz zanjir yuzaga keladi. Shu boisdan, rekursiv funksiyani yaratishda rekursiyani yakunlash sharti hamda rekursiyani qachon, qanday tugatish haqida o‘ylab ko‘rish lozim.

Xulosa qilib aytganda, umumiy o‘rtta mакtabda zamonaviy dasturlash tillarini o‘qitilishi o‘quvchilarda dasturlash muhitida ishlash va mustaqil dastur tuzish, mamlakatimizning turli sohalari uchun ilovalar yaratish, zamonaviy axborot texnologiyalari vositalaridan foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirishga va ularning amaliy ishlarida yangi qirralarning ochilishiga zamin hozirlaydi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Н.Н. Зарипов “Kompyuter grafikasi yordamida talabalarning fazoviy tafakkurini rivojlantirish” // Образование и инновационные исследования <https://doi.org/10.53885/edinres.2022.10.10.015>

2. И.Ш. Садуллаев, Н.Н. Зарипов “Персональная учебная среда учащегося в режиме дистанционного обучения” - Международна научна школа «Парадигма». Лято, 2015.
3. N.N. Zaripov Using methods of foreign experiences in teaching informatics and information technologies in school. - Theoretical & Applied Science, 2020
4. Carol Tice, Neil Tortorella “Freelance Business Bootcamp How to Launch, Earn, and Grow into a Well-Paid Freelancer” January 21, 2015. 29 p.
5. <https://www.freelancer.com/>
6. Лапчик М. П. Теория и методика обучения информатике: учеб. для пед. вузов. – М.: Издательский центр «Академия», 2008. – 592 с.
7. С.Мухлисов, Н.Зарипов Разработка и внедрение лабораторного виртуального практикума по курсу «Основы микропроцессора и компьютерной техники» на основе современных компьютерных технологий - Наука. Мысль: электронный периодический журнал, 2015.

## MASOFAVIY TA'LIM UCHUN ONLAYN PLATFORMALARNI TAHLIL QILISH VA ISHLAB CHIQISH USLUBIYOTI

S.P.Kutliyev<sup>1</sup>, A.I. Rustamova<sup>2</sup>, D.Z. Bahodirova<sup>3</sup>

<sup>1</sup>TATU Urganch filiali assistent o'qituvchisi, [q.sardor.86@gmail.com](mailto:q.sardor.86@gmail.com)

<sup>2</sup>TATU Urganch filiali talabasi, [rustamovaaziza0203@gmail.com](mailto:rustamovaaziza0203@gmail.com)

<sup>3</sup>TATU Urganch filiali talabasi, [bahodirovad50@gmail.com](mailto:bahodirovad50@gmail.com)

**Abstract.** This article analyzes several advantages and disadvantages of distance education. The latest modern online platforms for distance learning are discussed in detail. Information about their advantages and disadvantages is also given.

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada masofaviy ta'lism turining bir qancha afzal tomonlari va kamchiliklari tahlil qilingan. Masofadan ta'lism olish uchun eng so'nggi zamonaviy onlayn platformalar haqida batafsil to'xtalib o'tilgan. Ularning afzallikkлari va kamchiliklari haqida ham ma'lumotlar berilgan.

**Key words:** information, technology, education, technology, informatization, educational management systems, virtual educational environment, interactivity, digital tools, online educational platforms.

**Kalit so'zlar:** axborot, texnologiya, ta'lism, texnologiya, axborotlashtirish, ta'limi boshqarish tizimlari, virtual ta'lism muhiti, interfaollik, raqamli vositalar, onlayn ta'im platformalari.

Axborot kommunikatsiya texnologiyalarni qo'llash maxsus ishlab chiqilgan multimedia kurslari yordamida ma'ruza vaqtida an'anaviy amalga oshiriladigan o'quv materiallarini yetkazish usullarini o'zgartirishga imkon beradi. Bunda an'anaviy tarzda o'qitiladigan ma'ruzalarda erishib bo'lmaydigan nazariy material sifatiga kompyuterli va elektron o'rgatuvchi dasturlar yaratish hamda o'quv jarayonida telekommunikatsiyalardan foydalanish evaziga erishish mumkin.

Pedagoglarning asosiy maqsadlaridan biri har bir o'quvchi-talabaga rejalahtirilgan o'quv materialini yetkazib berish va uni o'zlashtirish darajasini oshirishga erishishdan iboratdir.

Mustaqil shug'ullanish talabalarda psixologik jarayonlarni rivojlantirishga sabab bo'ladi va keyinchalik mavzuni tushunishlari uchun ularni keng masshtabda fikrlash, voqeа-hodisa xamda faktlarni taxlil qilishga tayyorlab boradi.

tajribaga tayangan holda, ularni innovatsion texnologiyalar bilan uyg'unlashtirib, o'zimizning zamonaviy pedagogik texnologiyamizni yaratish bo'yicha ilmiy-uslubiy ishlarni birgalikda olib borish zarur. O'zimizning zamonaviy innovatsion pedagogik texnologiyalarimiz asosida "Innovatsion maktablar" tizimini yaratishga o'tishimiz kerak. Bunday maktablarda barcha fanlar bo'yicha axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalaniladi. Keyin "ustoz-o'qituvchi" o'rniga "ustoz-kompyuter-shogird" tizimi shakllanadi. Ta'lim jarayoniga innovatsion yondashuv o'quvchilarda yangi tajriba orttirish, ijodkorlik va tanqidiy fikrlashni anglash, keljakka intilishni tarbiyalash uchun zarurdir. Texnologiya - yunoncha "techne" – san'at, "logos" – o'qish (bilim, ta'lim). Keng ma'noda texnologiya bilimlar hajmi, tor ma'noda esa borliqni qayta tashkil etish (tubdan o'zgartirish) usulidir. Insoniyat tarixida inson dastlab ishqalanish texnologiyasini yaratgan, deb ishoniladi. Xalqaro ta'lim texnologiyalari jamiyati (ISTE) ma'lumotlariga ko'ra, bugungi kunda talab yuqori bo'lgan ko'plab ish o'rnlari so'nggi o'n yil ichida yaratilgan. Texnologiyalarning rivojlanishi globallashuv va raqamli transformatsiyani kuchaytirishi bilan o'qituvchilar talabalarga keljakdagi kareralarda muvaffaqiyat qozonish uchun zarur ko'nikmalarni egallahsga yordam berishlari mumkin.

Fanlarni o'qitishda innovatsion web texnologiyalardan foydalanish metodikasi o'quv jarayonini yanada qulaylashtirish va o'quvchilar uchun ma'lumotlarni oson o'rganish imkonini beradi. Quyidagi usullar innovatsion web texnologiyalardan foydalanishning bir qancha misollarini taqdim etadi:

**Interaktiv darslar:** Interaktiv darslar, o'quvchilarga o'z tempida o'rganish imkonini beradi. Bu metodika, veb-integratsiya, veb-interfeyslar va interaktiv dasturlar orqali o'quvchilar bilan faol ishlashni ta'minlaydi. Misol uchun, interaktiv dasturlar orqali matematika yoki kimyo masalalarini yechish, qulay testlar va sinovlar tashkil qilish, virtual laboratoriya ishlari o'tkazish kabi imkoniyatlarni beradi.

**Multimedia materiallar:** Multimedia materiallar, o'quvchilarni qiziqtirish va ularga ma'lumotlarni oson o'rganish imkonini beradi. Bu metodika, video darslar, animatsiyalar, infografikalar, veb-saytlar, podcastlar va boshqa multimedya formatlari orqali ma'lumotlarni o'qitishni osonlashtiradi. O'quvchilar multimedia materialarga kirib, o'z tempida o'rganish, izoh qoldirish va muloqotda qatnashish imkoniyatiga egalar.

**Virtual va augmented reality:** Virtual va augmented reality (AR) texnologiyalari, o'quv jarayonini yanada qiziqarli va interaktiv qilish uchun qulayliklar taqdim etadi. Virtual reality o'quvchilarni virtual muhitda tajriba qilishga imkon beradi, masalan, virtual laboratoriylarda amaliy mashqlar o'tkazish. AR esa real dunyoda virtual ob'ektlarni ko'rish va ularga oid ma'lumotlarni o'qish imkonini beradi. Bu texnologiyalar o'quvchilar uchun o'zga xos va interaktiv ta'lim imkoniyatlarini yaratadi.

Bulut kompyuting: Bulut kompyuting texnologiyalari, o'quvchi va o'qituvchilar uchun ma'lumotlarga istalgan vaqtida va istalgan joyda kirish imkonini beradi. Bu metodika o'quvchilarni ma'lumotlarni o'rghanish, jadvallar, dokumentlar, testlar va boshqa materiallarga oson va samarali kirishga imkon beradi. Ma'lumotlar o'simliklarida o'zgarishi, hamkorlik qilishi va o'qituvchilar bilan o'quvchilar o'rtaqidagi aloqani yanada osonlashtiradi.

Sotsial media va jamiyatliklik: Sotsial media platformalari va jamiyatliklik texnologiyalari, o'quvchilar bilan o'qituvchilar, o'quvchilar bilan o'quvchilar, hamda o'quvchilar bilan boshqa ekspertlar o'rtaqidagi muloqotni yaxshilaydi. Bu platformalar orqali o'quvchilar ma'lumot almashish, qo'llab-quvvatlash va o'z fikrlarini bayon qilish imkoniyatiga egalar. Bu yordamda o'quvchilar boshqa insonlar bilan ta'lim resurslarini va tajribalarini baham ko'rishadi.

Bu metodikalardan foydalanish, o'quvchilarni qiziqtirish, o'rghanish motivatsiyasini oshirish, o'zlashtirish va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirtirishga yordam beradi. Shuningdek, bu metodikalar o'quvchilarda ish bilan bog'liq bo'lgan malakani rivojlantirish, samaradorlikni oshirish va texnik mahoratni oshirishga imkon beradi.

Huquqiy maslahatga e'tibor berish: Har qanday texnologiyani o'quv jarayonida qo'llashda, o'quvchilar, o'qituvchilar va ota-onalar uchun huquqiy maslahatga e'tibor berish juda muhimdir. Shuningdek, har qanday insonni ongini va mahoratini oshirish uchun texnologiyalardan to'liq foydalanishni ta'minlash uchun o'quvchilarga yaxshi ta'lim va ko'rsatkichlar taqdim etish kerak.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sardor Pulatovich Kutliyev, Oysuluv Matyaqubiva. Masofaviy ta'limda hamkorlikda o'qitish texnologisini qo'llash. International scientific conference "INFORMATION TECHNOLOGIES, NETWORKS AND TELECOMMUNICATIONS" ITN&T-2021. 2021/5/26, 303-306
2. Sardor Pulatovich Kutliyev. Smart ta'lim texnologiyalarini xozirgi ta'lim jarayonlaridagi o'rni. International scientific conference "INFORMATION TECHNOLOGIES, NETWORKS AND TELECOMMUNICATIONS" ITN&T-2022. 2022/4/30, 641-644
3. S Kutliyev, GR Dalerovich, [TA'LIM JARAYONIDA HAYOTIY MISOLLARDAN FOYDALANISHNING DOLZARBLIGI KEYS-STADI TA'LIM METODI](#), Journal of new century innovations 27 (1), 113-115
4. S.K Pulatovich, PB Yusupovich, GR Dalerovich. [ORTA MAKTABLARDA INFORMATIKA FANINI O'QITISHDA MOBIL ILOVALARDAN SAMARALI FOYDALANISH USULLARI](#). Journal of new century innovations 28 (1), 178-180

5. Madaminov Uktamjon Ataxanovich, Mamatqulov Mirjalol Saminjon o‘g‘li. MA’LUMOTLAR TUZILMASI VA ALGORITMLARI. Innovations in technology and science education. Vol. 2, Issue 9. 05/2023, 10-16.
6. Madaminov Uktamjon Ataxanovich, Bayramova Shohida Dilshodbek qizi. ZAMONAVIY WEB TEXNOLOGIYALAR YORDAMIDA MULTIMEDIALI WEB ILOVA ISHLAB CHIQISH. Innovations in technology and science education. Vol. 2, Issue 9. 05/2023, 17-24.
7. Madaminov Uktamjon Ataxanovich, Karimova Mumtozbegin Sobirboy qizi. OLIY TA’LIM TASHKILOTLARIDA WEB DASTURLASHNI O’RGATUVCHI AMALIY LOYIHA ISHLAB CHIQISH. Innovations in technology and science education. Vol. 2, Issue 9. 05/2023, 25-30.
8. Madaminov Uktamjon Ataxanovich, Bektemirova Risolat Shukurla qizi. PYTHON DASTURLASH TILI. Innovations in technology and science education. Vol. 2, Issue 9. 05/2023, 31-36.
9. Madaminov Uktamjon Ataxanovich, Qalandarova Kamola Shermat qizi. TA’LIMDA ZAMONAVIY RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA ULARDAN FOYDALANISHNI O’RGATUVCHI ELEKTRON RESURS ISHLAB CHIQISH. Innovations in technology and science education. Vol. 2, Issue 9. 05/2023, 37-42.

## AXBOROT KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARI SOHASIDA ELEKTRON TA'LIM RESURSI YARATISH

O.M.Bekiyeva

TATU Urganch filiali talabasi,  
[oychehrabekiyeva@gmail.com](mailto:oychehrabekiyeva@gmail.com)

S.H.Bahodirova

TATU Urganch filiali talabasi,  
[sevinchbohadirova@gmail.com](mailto:sevinchbohadirova@gmail.com)

**Abstract.** This article is about the importance of information and communication technologies in education today, important factors in the creation of electronic educational resources, the role of multimedia tools in the creation of electronic educational resources, several programs that help in the development of electronic educational resources and their capabilities. detailed.

**Key words:** *information communication technologies, electronic educational resources, information educational environment, modern psychology, pedagogy, ergonomics, associative-reflex theory, educational-scientific resources, multimedia technologies, interactivity, multimedia electronic education resources, iSpring Suite, Camtasia Studio, information-methodological support.*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada bugungi kunda axborot kommunikatsiya texnologiyalarining ta'liddagi muhim ahamiyati, elektron ta'lim resurslari yaratishdagi muhim omillar, elektron ta'lim resurslarini yaratishda multimedia vositalarining tutgan o'rni, elektron ta'lim resurslarini yarishda yordam beradigan bir qancha dasturlar va ularning imkoniyatlari xususida batafsil bayon qilingan.

**Kalit so'zlar:** *axborot kommunikatsiya texnologiyalari, elektron ta'lim resurslari, axborot ta'lim muhiti, zamonaviy psixologiya, pedagogika, ergonomika, assotsiativ-refleks nazariyasi, o'quv-ilmiy resurslar, multimedia texnologiyalari, interfaollik, multimediali elektron ta'lim resurslari, iSpring Suite, Camtasia Studio, axborot-metodik ta'minot.*

Insoniyat faoliyatining aksariyat jahbalarini kompyutersiz tasavvur qilish qiyin. Faoliyatning eng tez o'zgaruvchan dinamik turi bo'lgan ta'lim ham ushbu jarayondan chetda qolmadi. Bu holatda kompyuter bilan muloqotni osonlashtirish, uning e'tiborini tortish, qiziqtirish uchun ma'lumotingizni boshqalarga qanday qilib eng qulay va samarali tarzda yetkazish mumkinligi to'g'risida savol tug'iladi.

Jahon amaliyoti shuni ko'rsatadiki, axborotlashtirish sohasida ikki xil mazmunli ko'rsatmalar mavjud. Birinchi tur - bu axborot kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) orqali ta'lidan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish. Ikkinci tur - mustaqil

ta'lim rolini kuchaytirish, yangi AKTlarni o'zlashtirish va qo'shimcha ta'lim resurslaridan foydalanish orqali ta'lim sifatini o'zgartirishga qaratilgan. Xususan, axborot ta'lim muhitini yaratish va ulardan foydalanish ko'rsatilgan ko'rsatmalarga erishishga imkon beradi.

O'quv materialini o'zlashtirish modeli uning ta'lim elementlarini va ular orasidagi mantiqiy aloqalarni o'rganish ketma-ketligini belgilaydi. Ta'limiy axborot resurslarining zarur sifatiga, zamonaviy psixologiya, pedagogika, ergonomika, informatika va boshqa fanlarning ilmiy va amaliy yutuqlarini inobatga olgan holda erishish mumkin.

Axborot ta'lim muhiti o'quv ilmiy resurslari o'quv materialining tuzilishi algoritmlash nazariyasini yoki aqliy harakatlarning bosqichma-bosqich shakllanishi va agar kerak bo'lsa, ilgari o'rganilgan materialni eslatuvchi assotsiativ-refleks nazariyasiga asoslanishi lozim.

O'quv-ilmiy resurslarni taqdim etishda quyidagilarga alohida e'tibor qaratmoq kerak:

- elektron o'quv qo'llanmalari mazmunan shunday tuzilgan bo'lish kerakki, ulardan qo'shimcha o'quv axborotlarini olish uchun talaba aslo qynalmasligi kerak;
- o'quv materiallarini tarkibiy tuzilmasini shakllantirishda modul tizimidan foydalanish maqsadga muvofiqligi;
- mustaqil ta'limni tashkil etish va o'quv materiallarini o'rganish bo'yicha to'liq yo'riqnomaga keltirilgan bo'lishi;
- nazorat topshiriqlari, o'z-o'zini tekshirish savollari va javoblari, mashq qildiruvchi topshiriqlarning bo'lishi.

Elektron shakldagi o'quv-ilmiy resurslar eng oddiy holda nashr o'quv materiallarining elektron varianti ko'rinishida bo'ladi. Ammo elektron shakldagi darsliklar kompyuter xotirasida yoki boshqa tashqi magnit eltuvchida qulay saqlanish, tezkor o'zgartirish imkoniyatining mavjudligi bilan ajralib turadi.

Ta'lim tizimiga elektron axborot ta'lim texnologiyalarini tatbiq etish, ta'lim muassasalarining moddiy texnik bazasini holatini tanqidiy baholash va takomillashtirishdagi asosiy vazifalar quyidagilardan iborat:

- elektron ta'limni o'quv jarayoniga tatbiq etish uchun lozim moddiy texnika bazasini yaratish;
- o'quv jarayoni uchun elektron ta'limga mo'ljallangan ta'lim texnologiyalarini yaratish va qo'llash;
- talabalarni zamonaviy elektron ta'lim texnologiyalari sohasida bilim va ko'nikmalarini shakllantirish;
- elektron ta'limni joriy etish orqali ta'lim tarbiya va o'qitish jarayonining samaradorligini oshirish.

**Multimedia texnologiyalari** (multi – ko‘p, media – muhit) – bir vaqtning o‘zida ma’lumot taqdim etishning bir nechta usullaridan foydalanishga imkon beradi: matn, tasvir, audio va video. Multimediali texnologiyaning eng muhim xususiyati interfaollik – axborot muhiti ishlashida foydalanuvchi ta’sir o’tkaza olishga qodirligi hisoblanadi. So‘nggi yillar davomida ko‘plab multimediali dasturiy mahsulotlar yaratildi va yaratilmoqda: ensiklopediyalar, o‘rgatuvchi dasturlar, kompyuter taqdimotlari va boshqa. Multimediali elektron ta’lim resurslarini yaratish muallifning mahorati, tajribasi va fantaziyasiga bog‘liq. Multimediali elektron ta’lim resurslarini yaratishning usullarini shartli ravishda ikki qismga ajratish mumkin.

- Dasturlash tillaridan foydalangan holda (ko‘p mehnat talab qilinadi)
- Instrumental tizimlardan foydalanish.

Zamonaviy axborot texnologiyalari muhitida o‘quv–ilmiy resurslar tarkibiga elektron o‘quv darsliklari(AutoPlay, Articulate), elektron taqdimotlar(power point, prezi); kompyuter multimediali o‘rgatuvchi tizimlar(iSpring, Potato, MyTestX va b.); audio o‘quv-axborot materiallari; video o‘quv-axborot materiallari(Camtasia Studio, Ocam, BandiCam va b.); virtual laboratoriya ishlari(Phet, Yenka ilovalari); trenajyorlar(Flash va b.); ma’lumotlar va bilimlar bazasi; elektron kutubxonalar kiradi.

**iSpring Suite** asbob uskunalari orqali (QuizMaker, iSpring Visuals, iSpring DialogTrainer) elektron darsliklar, videoma’ruzalar, QuizMaker orqali elektron nazorat testlari, so‘rovnomalari, iSpring DialogTrainer - tarmoqlangan dialogli elektron kurslarni va onlayn perezentatsiyalarni yaratish imkoniyatini beradi. Dastur orqali foydalanuvchi Flash-roliklar va YouTube-video resurslarni PowerPoint taqdimot slaydlariga joylashtirish imkoniyati beradi. Yaratilayotgan elektron kursga audio va video fayllarni qo‘sish, audio va videolarni yozish, taqdimot slaydlari bilan sinxronizatsiyalash, elektron kursning har xil pleyerlarini tanlash va tahrirlash, SCORM va TinCan standartlarida chop etish, .mp4 videoformatida eksport qilish imkoniyatlarini beradi. Shu bilan bir qatorda iSpring Visuals orqali 3D kitoblar, vaqt shkalasi, glossariylar yaratish imkoniyati ham mavjud.

Video o‘quv-axborot materiallarini yaratishda bir qator jarayonlarni bajarish kerak, jumladan, ta’lim sohasini tanlash va zarur fanlarni tahlil qilish, videodarslar yozishga mo‘ljallangan dasturlar orasidan eng yaxshisini tanlash, videodarslarni yozish hamda montaj qilish va boshqalardan iborat. Videodarslar yozadigan dasturlar bir nechtadir. Ulardan Webineria, UltraVNC Screen Recorder, Captivate, BB Flashback Express, Camtasia Studio, Jing kabilarni alohida ajratib ko‘rsatish mumkin. Ular kompyuter ekranidagi harakatlar, mikrofondan ovozlarni yozadi hamda kompyuterlar tushunadigan video fayllar formatiga o‘girib beradi. Bu vositalardan Camtasia Studio dasturi o‘zining interfeysi, juda ko‘plab formatlari, video fayllarga turli xil belgilar va izohlar qo‘yilishi, darslarga menyular hosil qilinishi bilan ajralib turadi, shuningdek, bu dastur yordamida audio fayllarni ham yaratish mumkin. Dars yozish davomida

ekranning kerakli joyini alohida ajratib ko'rsatish imkonи ham mavjud. Ana shu afzalliklari tufayli videodarslar yozuvchi dastur sifatida Camtasia Studio alohida o'rin egallaydi.

**Camtasia Studio** – ajoyib utilita dasturlardan biri bo'lib, uning yordamida ekrandagi tasvir va harakatlarni yozib olish va uni turli xildagi kengaytmalarda kompyuter xotirasida saqlash mumkin. Bundan tashqari yozib olingan videoni tahrirlash va maxsus pleyerlar yordamida namoyish etishni ta'minlash mumkin. Dastur ekranning istalgan qismidagi harakatlarni va tovushni odatda .AVI standartida saqlashi mumkin. Ushbu dastur yordamida yaratilgan video hujjatlarni quyida keltirilgan kengaytmalarni qo'llab quvvatlovchi dasturlarga eksport qilish mumkin: AVI, SWF, FLV, MOV, WMV, RM, GIF, CAMV. Bundan tashqari istalgan video asosida exefaylni, ya'ni pleyeri o'zida joylashgan hujjatga kompilyatsiya qilish imkonи mavjud. Qator effektlar va qo'shimcha imkoniyatlar masofaviy ta'limda foydalanish imkonini beradigan fayllarni yaratish, dasturning oddiy interfeysi orqali foydalanuvchiga tushunarli amallar bilan taklif etiladi.

Elektron axborot resurslari ta'limga oid axborotlarni yig'ish, saqlash, uzatish, qayta ishslash usul va vositalari majmuidan iborat bo'lib, u ta'limga oid turli axborotlarning yaratilishini belgilovchi ichki va tashqi omillarga bog'liq:

- ichki omillar — bu axborotlarning yaratilishi, turlari, xossalari, axborotlar bilan turli amallarni bajarish, ularni jamlash, uzatish, saqlash va h.k.
- tashqi omillar — bu elektron ta'limning texnika uskunaviy vositalari orqali axborotlar bilan turli vazifalarni amalga oshirishni bildiradi.

Ta'lim jarayonlarini axborot-metodik ta'minotini amalga oshiruvchi o'quv-ilmiy resurslarni ta'limda qo'llanilishi:

- o'qitish jarayonini individuallashtirish va differensiyalash; teskari aloqa bilan o'quv faoliyati nazoratini olib borish;
- o'z-o'zini nazorat qilish;
- o'quv materialini o'zlashtirish jarayonida mashq qilish va mustaqil tayyorgarlikni tashkil etish; o'quv vaqtini tejash;
- o'quv axborotlarni kompyuter orqali vizuallashtirish;
- kompyuterda laboratoriya mashg'ulotlarini bajarish;
- axborot ma'lumotlar bazasini yaratish va undan foydalanish;
- o'qishga qiziqishni orttirish;
- o'quvchini o'quv materialini o'zlashtirish strategiyasi bilan qurollantirish;
- fikrlashni rivojlantirish;
- optimal qaror qabul qilish malakasini shakllantirish;
- ta'lim oluvchida axborot madaniyatini shakllantirish kabi imkoniyatlarni beradi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 5-oktabrdagi “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni.
2. Taylaqov N.I. Uzluksiz ta’lim uchun informatikadan o‘quv adabiyotlari yangi avlodini yaratishning ilmiy-pedagogik asoslari. –T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2005, –160 b.
3. F.Zakirova, U.Muxamedxanov, SH.Sharipov, R.G.Isyanov, F.Esonboboyev, S.Dottoev. Elektron o‘quv-metodik majmular va ta’lim resurslarini yaratish metodikasi. Metodik qo’llanma. – T.: OO‘MTV, 2010. – 57 b.
4. Axborot ta’lim muhiti o‘quv-ilmiy resurslarini yaratish mazmuni. S.X. Dottoev. International scientific journal. Volume 1 ISSUE 8 UIF-2022: 8.2 | ISSN: 2181-3337
5. Nurmuxamad Duisenov, Bekjan Akhmedov. Elektron resurlarni yaratish texnologiyasi. 2021-yil, yanvar.
6. Begimkulov U.Sh. Pedagogik ta’limda zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etishning ilmiy-nazariy asoslari. Monografiya. -T.: Fan, 2007.
7. Portal Internet-obucheniya E-education.ru – <http://www.e-education.ru>.
8. Muratov Khusan Holmuratovich. Implementation of independent educational activities of students. European journal of research and reflection in educational sciences. vol. 7 no. 12, 2019. issn 2056-5852. 25-25.

## CAMTASIA STUDIO DASTURIDA PASKAL TILINING GRAFIK IMKONIYATLARI AKS ETTIRILGAN VIDEODARS YARATISH

S.P. Kutliyev<sup>1</sup>, SH.B. Qushimmatova<sup>2</sup>, G.R. Quvondiqova<sup>3</sup>

<sup>1</sup>TATU Urganch filiali assistent o‘qituvchisi, [q.sardor.86@gmail.com](mailto:q.sardor.86@gmail.com)

<sup>2</sup>TATU Urganch filiali talabasi, [qushimmatovashodiya@gmail.com](mailto:qushimmatovashodiya@gmail.com)

<sup>3</sup>TATU Urganch filiali talabasi, [guljonoquvondiqova6@gmail.com](mailto:guljonoquvondiqova6@gmail.com)

**Abstract:** This article discusses Camtasia Studio and its features. The graphic possibilities of Pascal language are shown, the creation of a video tutorial is explained with practical methods.

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Camtasia Studio dasturi va uning imkoniyatlari muhokama qilinadi. Paskal tilining grafik imkoniyatlari aks ettiriladi, videodars yaratish amaliy usullar bilan tushuntiriladi.

**Keywords:** Camtasia Studio, Monitor, SWF, Camtasia Recorder, Clip Bin, Project.

**Kalit so’zlar:** Camtasia Studio, Monitor, SWF, Camtasia Recorder, Clip Bin, Proekt.

Multimedia vositalari yordamida shaxsga yo‘naltirilgan ta’limni amalga oshirish jarayoni zamonaviy, ko‘p tarmoqli, predmetga yo‘naltirilgan multimediali o‘quv vositalarini ishlab chiqishni va foydalanishni talab etadi.

Foydalanuvchiga video va audio axborotlarni qabul qilish imkoniyatini yaratgan holda, alohida olingan ushbu imkoniyatlarning har biridan ham ko‘ra multedianing ma’lum ustunligi mavjud.

Multimedia vositalarini ta’limda qo‘llash quyidagilarga imkoniyat yaratadi:

- ta’limning gumanizatsiyalashuvini ta’minlash;
- o‘quv jarayonining samaradorligini oshirish;

•ta’lim oluvchining shaxsiy fazilatlarini rivojlantirish (o‘zlashtirganlik, bilimga chanqoqlik, mustaqil ta’lim olish, o‘zini o‘zi tarbiyalash, o‘zini o‘zi kamol toptirishga qaratilgan qobiliyatlilik, ijodiy qobiliyatları, olgan bilimlarini amaliyotga qo‘llay olishi, o‘rganishga bo‘lgan qiziqishi, mehnatga bo‘lgan munosabati);

•ta’lim oluvchining kommunikativ va ijtimoiy qobiliyatlarini rivojlantirish;

•kompyuter vositalari va axborot elektron ta’lim resurslari yordamida har bir shaxsning alohida (individual) ta’lim olishi hisobiga ochiq va masofaviy ta’limni individuallashtirish va differensiyalash imkoniyatlari sezilarli darajada kengayadi;

•ta’lim oluvchiga faol bilim oluvchi sub’ekt sifatida qarash, uning qadrqimmatini tan olish;

•ta’lim oluvchining shaxsiy tajribasi va individual xususiyatlarini hisobga olish;

•mustaqil o‘quv faoliyatini olib borish, bunda ta’lim oluvchi mustaqil o‘qib va rivojlanib boradi.

Camtasia Studio dasturi – bu kompyuter monitori ekranidagi tasvirlarni yozib olish imkonini beruvchi juda ham qulay kuchli dastur hisoblanadi. Ushbu dastur yordamida biz ekrandagi jarayonlari oson tasvirga olishimiz, veb kameralar orqali videoga olishimiz, PowerPoint taqdimotlarini, hamda audio yozuvlarni yaratishimiz mumkin. Dastur videoni tahrirlash imkonini beradi: turli effektlar berish, to'g'rakash, ravshanlik, ularning o'lchamlarini almashтирish, kerakli formatlarda saqlash va boshqalar.

Camtasia Studio – video darsliklar, taqdimotlar va boshqa shunga o'xshash kuzatuvchilarga namoyish etiladigan materiallar yaratish uchun mo'ljallangan.


Camtasia Studio dasturida monitor ekranidagilarni video tasvirga olishdan tashqari videoni tahrirlash imkoniyati ham mavjud. Camtasia Studio dasturidan foydalanib kompyuter monitorida yuz berayogan barcha jarayonlarni osonlik bilan yozib borish mumkin. Monitor ekranidagi butun sohani yoki uning alohida ajratilgan sohasini yozib olish mumkin, shundan so'ng video va audioning turli effektlarini berishimiz mumkin bo'ladi. Monitor ekranida kuzatilayotgan jarayonlarni yozib olish uchun yetarlicha yuqori unumdoorlikka ega bo'lgan kompyuter tanlansa ish unumdoorligi ortadi albatta.

Dasturning asosiy imkoniyatlari:

1. Monitor ekranidagi va veb-kameralar orqali kuzatilayotgan jarayonlarni, mikrofondagi ovozni sifatli yozib olish.
2. Videolavhalarga turli xil vizual effektlar berish.
3. Video yo'laklarni kesib olish, birlashtirish, o'chirish va qo'shish.
4. Audio yozuvlar qo'yish va tahrirlash.
5. Videoni bizga qulay bo'lgan formatlarda saqlash SWF, FLV, AVI, MOV, WMV, PPT, GIF, RM, CAMV.

### **Videodarsni yaratish bosqichlari quyidagilardan iborat:**

**1-bosqich.** Dastur foydalanuvchi kompyuteriga o'rnatiladi (1-rasm):



**1-rasm.** “Camtasia Studio” dasturini o’rnatish.




**2-rasm.** “Camtasia Studio” dasturi ishga tushishi.

**2-bosqich.** Videodars tayyorlash uchun zarur ma’lumotlar yig’iladi:

Videodars tayyorlash uchun “Pascal tilining grafik imkoniyatlari” mavzusi bo’yicha ma’lumotlar to’plandi.

Mavzuga oid topshiriqlar pascal dasturida bajarib, “Camtasia Recorder” bo’limi orqali videoga yozib borildi. Quyidagi rasmda mavzuga oid topshiriqlarni pascal tilida yechish jaroyonidan namuna keltirilgan (3-rasm):




```
uses graphABC;
begin
  SetWindowCaption ('Bu pascal ABC.Net grafikasi');
  SetWindowSize (600,400);
  SetWindowPos(ScreenWidth div 2 - Window.Width div 2, ScreenHeight div 2 - Window.Height div 2);
  SetBrushColor (clRed);
  SetPenColor (clBlue);
  SetPenWidth(5);
  //SetPenStyle (psDot);
  FillRectangle(100, 100, 400, 200);
end.
```

**3-rasm.** Paskal tilida yechilgan misoldan namuna.

**3-bosqich.** Ma'lumotlar tartib bilan ketma-ketlikda joylab loyihlashtirildi:

Ma'lumotlar yig'ilgach, birlashtirilib "Camtasia Studio" dasturiga ketma-ketlikda joylandi. Ma'lumotlar "Camtasia Studio" dasturining "Clip Bin" bo'limiga joylandi. Bu bo'lim dastur kutubxonasi vazifasini bajaradi.

Ma'lumotlar dasturga ketma-ketlikda joylandi. Buni dastur "Vaqt shkalasi" da ko'rish mumkin (4-rasm).




**4-rasm.** "Vaqt shkalasi" ko'rinishi

Ma'lumotlar tahrirlanadi. Proekt tayyor holatga keltiriladi.


**4-bosqich.** Yaratilgan projekt video ko'rinishida saqlanadi.

So'ngi bosqichda yaratilgan projekni saqlash jarayoni boshlanadi. "Camtasia Studio" dasturida projektni video ko'rinishia saqlash uchun "Produce and share" bo'limini tanlaymiz. Ushbu bo'limda projektni quyidagi ko'rinishilarida saqlash mumkin(5-rasm).




**5-rasm.** “Produce and share” oynasi

Video ko’inishida saqlash uchun “Blog” yoki “HD” ko’inishida saqlash maqsadga muofiq. Saqlash turi tanlangan dan so’ng keyingi oynaga video nomi va joylashishi kerak bo’lgan manzil ko’rsatildi (6-rasm) va saqlash jarayoni boshlandi (7-rasm).



**6-rasm.** Proektni saqlash oynasi



**7-rasm.** Proektni saqlash jarayoni

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, elektron tarzda yaratilgan darslar ya'ni videodarslardan xozirgi AKT rivojlangan davrda ta'limning deyarli barcha sohalarida foydalanish mumkin bo'ladi. Videodarslar mustaqil o'rganuvchilar uchun juda qo'l keladi.

### Foydalilanigan adabiyotlar:

A. A. Abduqodirov, A. X. Pardayev. Masofali o'qitish nazariyasi va amaliyoti. — T.: Fan, 2009.

1. Тангиров Х.Э.

Электронные средства обучения как компонент информатизации образования //Инновационные педагогические технологии. – 2014. – С. 335-337.

2. Тангиров Х.Э.,

Маматкулова У.Э. Использование электронных образовательных ресурсов в индивидуализации учебного процесса // «Инновационные подходы в современной науке» сб. ст. по материалам LX междунар. науч.-практ. конф. – № 24 (60). – М., Изд. «Интернаука», 2019. – С. 72-76 с.

3. Sardor Pulatovich Kutliyev, Oysuluv Matyaqubiva. Masofaviy ta'limda hamkorlikda o'qitish texnologisini qo'llash. International scientific conference "INFORMATION TECHNOLOGIES, NETWORKS AND TELECOMMUNICATIONS" ITN&T-2021. 2021/5/26, 303-306


4. Sardor Pulatovich Kutliyev. Smart ta'lim texnologiyalarini xozirgi ta'lim jarayonlaridagi o'rni. International scientific conference "INFORMATION TECHNOLOGIES, NETWORKS AND TELECOMMUNICATIONS" ITN&T-2022. 2022/4/30, 641-644

5. S Kutliyev, GR Dalerovich, TA'LIM JARAYONIDA HAYOTIY MISOLLARDAN FOYDALANISHNING DOLZARBLIGI KEYS-STADI TA'LIM METODI, Journal of new century innovations 27 (1), 113-115

6. S.K Pulatovich, PB Yusupovich, GR Dalerovich. O'RTA MAKTABLARDA INFORMATIKA FANINI O'QITISHDA MOBIL ILOVALARDAN SAMARALI FOYDALANISH USULLARI. Journal of new century innovations 28 (1), 178-180

7. <http://eor.it.ru/> Учебный портал по использованию ЭОР в образовательной деятельности

## ERKIN VOHIDOVNING “RUHLAR ISYONI” DOSTONI TAHLILI



**Murodova Dilso'z Ulug'bek qizi**  
*O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti*  
*Filologiya fakulteti o'zbek tili va dabiyoti yo'nalishi*  
*1-bosqich talabasi*

**Annotatsiya:** Mazkur maqola Erkin Vohidovning “Ruhlar isyoni” dostonida millatlar o'rtaсидаги jang, bengallik shoirning ozodlik uchun kurashgani, umuminsoniylik xislatlarning ro'yobga chiqishi.

**Kalit so'zlar:** ozodlik, erk, johillik, jaholat, umuminsoniylik.

**Abstract:** This article is about the battle between nations, the Bengali poet's struggle for freedom, and the realization of universal humanity in Erkin Vohidov's epic “Rebellion of Souls”

**Key words:** freedom, liberty, illiteracy, ignorance, universality.

Ushbu asar boshidan oxirigacha hindular va musulmonlarning o'zaro nizolari haqida bayon qilingan.U “Menga u ko'p jihatlardan bugungi o'zbek she'riy tafakkurining-lirik tafakkurining cho'qqisi bo'lib ko'rindi”[Ibrohim G'ofurov]. Asarda falokatga uchragan inson sahroda qolishi va juda tashnalikdan suv qidirgani bayon qilingan.Shunda u bir chashmaning yoniga kelib qoladi va shu suvdan ichmoqchi bo'lganida suv to'lqinlanib sado chiqaradi:

Shoshma,yo'lchi,ichursan,bas,muzdek,tiniq,bo'laman.

Ammo bilki, oddiy suvmas, obihayot bo'laman.

Azob chekding shu sahroda,mayli,to'yib ichib ol.

Meni ichgan bu dunyoda mangu yashar bazavol.

Ol,ich,davron surib abadiy bu dahr aro,

Ammo meni ichmay turib fikr qilgin avvalo.

Hayotga-ku,to'yimas ko'zing,yashaysanmi umurbod?

Mangu hayot uchun o'zing yaraysanmi,odamzod?

Mangulik der olam nasli,lek insoniy tafakkur-

Abadiyat nadir asli,qila olmas tasavvur.[6]

Shunda qumga ko'milgan boshni ko'rdi u men shu suvdan ichganman mening hamsuhbatim qolmagan bundan ortiq dard bormi deya faryod chekadi. U suvni ichmasdan sahrodagi bir niholga to'kib ketadi.Nihol yillar o'tib chinor bo'ladi.Shundan beri chinor daraxti ming yil yashaydi.Hech kim umrboqiy emas,

shuning uchun kimga qancha umr berilgan bo'lsa rozi bo'lib yashash kerak.Shoir qalbi nomli bobida Islom Shoir haqida so'z ketadi.Uning urush davrida

tug'ilgani,hindu va musulmon taqdir ko'rgulik deya taqdirga tan berishsa ham shoir zulmlarga qarab tura olmaydi.

Bu dunyoga Nazrul Islom shoir bo'lib tug'ildi.

Ibtidodan yoniq ilhom shu'lasiga yo'g'rildi.

Yetti asr avvalgidek bo'lsa edi zamonlar,

Balki Xusrav Dehlavidek bitar edi dostonlar.

Tug'ilsaydi shoir agar yarim ming yil ilgari,

Bitar edi ruboiylar Mirzo Bobur singari.[11]

Kabi misralarni bitar ekan o'sha davrdagi hayotni gavdalantiradi.Xusrav Dehlaviy-hind shoiri,adabiyotshunos,bastakor.Xushxat bo'lgani uchun xattot qilish maqsadida otasi uni dastlab Qozi Sa'duddin Muhammad ixtiyoriga bergen.Uch sulolaga mansub yetti sulton saroyida xizmatda bo'lgan,osha davr an'analariga ko'ra,o'z asarlarini ana shu sultonlarga bag'ishlagan.[O'ZME.Birinchi jild.Toshkent,2000-yil].Keyingi bandida Nazrul Islom haqida davom ettirib uning haq doston bitganini aytadi "hindu uni jobon dedi, kofir dedi musulmon". Nazrul Islom xalqni ozodlikka chorlagani uchun xalq xato talqin qilib bu Sadiyga yot,Hofiz uchun begona bunda gullar raqsi-yu bulbul navosi yo'q deb ta'kidlashadi.Nazrul Islom hind xalqini asriy qullikka qarshi kurashga,o'z ozodligi uchun bosh ko'tarishga da'vat etadi:

So'yla,inson,so'yla qadding ko'tarib baland.

Yuksaklikda sening qadring Himolay monand ...

Uyg'onmoqning vaqtি keldi,bosh ko'tar uyg'on!..[15]

misralari orqali keltirib o'tadi.bu she'rni eshitgan xalq da'vat etayotgan shoirni xalq tinchini buzuvchi dushmanga chiqaradi.O'sha xalq shoirga ergashmagani mustamlakachilarga qo'l keladi.Shoir yana bitta narsani ta'kidlab o'tadiki,ya'ni eri o'lsa xotinini ham qo'shib ko'mar edilar.Bitta jangchi janga ketayotib shohga murojat qiladilar:agarda jangda men vafot etsam men bilan rafiqamni emas qilichimni birga ko'minglar.Rafiqam kelajagim davomchisi men bu dunyodan ketsam farzandlarim yetim qolmasin deydi.Buni qarangki o'sha davrda donishmandlar ham bor edi,lekin adib bitta jangchi orqali udumlariga qarshi chiqishni jangchiga yuklaydi.Jangchi bunda ota-bobolarining udumiga qarshi chiqsada butun millatni ozod qiladi.Nazrul Islomni tutqunikka olishar ekan bir tomonda hindu bir tomonda musulmon asl urush sabachisi ekanligini,u yo'q bo'lsa urush ham bo'lmasligini aytadi.Afsuski shoir ozodlik tarafdori,tinchlik tarafdori ekanligini bilmaydi.Shoir bu dunyonи tark etayotganida she'riyat yig'lab qolishini qalbidan o'tkazadi.Afsuski xalq buni tushunmaydi.Shoir "Fidoyilik to'g'risida rivoyat" qismida haqsizlik,adolat istibdod va erk orasidagi mangu kurashda iste'dod egasining o'rni haqidagi falsafiy mushohadalar o'rin oladi.Insonlarga qancha yaxshilik qilma,undan najot kutish qiyin masala.Ko'r insonni davolaydi-giyohlar bilan.Hatto davolagan inson ham tabibni qoralaydi:

Ko'zim ochib,ne berding? Meni bir yo'l u dunyo ham-bu dunyodan ayirding.

Ko'rligimda bu olamni tasavvurda ko'rardim.  
Dunyodagi bor odamni mushfiq bilib yurardim.  
Shafqat ila kim non-u kim chaqa tashlab ketardi.  
Men ham shunga ko'ngan edim,menga shu ham yetardi.  
Qornim to'ysa-saodatim,yo'q tuman xil tilaklar.  
Hamsuhbatim,ham ulfatim,jajji shirin go'daklar...  
O'ylar edim dunyoda bor musaffolik,soddalik.  
Ko'zim ochib ko'rdim ilk bor berahmlik,soxtalik[34,35].

Bu bilan yaxshilikni uni qadriga yetgan odamlarga qilish kerak degan g'oyani ilgari sursak bo'ladi.

Dostondagi qator mavzularni yoritishda turli xil afsonalardan foydalanadi."Tutqunlik"bobida Nazrul Islomning qamoqdagi o'ylari, his-tuyg'ulari ijodkor tomonidan mohirona tasvir orqali ifodalanadi.Uning o'z qalbi oldida zarracha gunohi yuq,lekin bitta-yu bitta gunohi onasi oldidaligini aytib o'tadi.bu o'sha onasi oldidagi farzandlik burchini bajaraolmagani edi.

Onajonim,menga bu kun sendan o'zga dilox yo'q.  
Zindondaman,bilmam,nechun,menda zarra gunoh yo'q.  
Gunahkorman na Ollohim,na vijdonim oldida.  
Faqatgina...bir gunohim onajonim oldida.[38,39]

Nazrul Islom hind xalqining og'ir mehnat qilgani,jabr chekkani,lekin buni rohatini kelgindi mustamlakachilar ko'rganini o'ylab eziladi.Shunday bo'lishiga qaramay o'z ona xalqi ozodlikka erishiga umid qiladi,ishonadi,bu umid unga kuch bag'ishlaydi.bu qismidan turli millat vakillari adiblarini ham qo'shib o'tar ekan ular vatanidan olisda yashaganini ta'kidlab o'tadi.Masalan Boburning bir g'azalini keltirib o'tishi shior uchun mahorat.Yana bir bobida ota-o'g'il toj-u taxtga talashgani aks ettirilgan bo'lib,sholar odil emas biz odil bo'laylik degan g'oyani ilgari surgan.Toj-u taxtga to'ymagan otaning ahvoli,farzandi ham taxtga otasi sabab muhabbat qo'yanini kuzatar ekanmiz o'sha davr muhitini ko'z oldimizga bemalol keltiramiz.Taxt hech kimga hech qachon sodiq qolmaydi.Axiyri ota meni nima qilsang ham roziman faqat "Tojimahal" ga tegma u mendan yodgorlik bo'lib qolsin deydi.Farzand ham men padarkush bo'lishni hoxlamayman lekin siz menga xalqni yonida oq fotixa berasan deydi. Shohi Jahonni zindonga tashlaydi.Shohi Jahon farzandining tug'ilgandan to shu davrga yetgunga qadar bo'lgan voqealarни aystsada farzandi zig'ircha e'tibor bermaydi,Uni shu qadar boylik hayolini olganki uni bo'lgan voqealar hayolining bir chekkasiga ham keltirmaydi."Sharpalar"nomli bobida qiynoqlarning eng yomoni tutqinlik deb aytadi.Shoir qamoqdaligida sharpalar yoniga kelib "Yetar shoir tur deydi" yo'q yo'q deya shoir sharpalarni haydaydi.Xalq

Nazrul Islomni zindondan chiqaradi,ammo shoirn zindonda so'lib bo'lgandi.Uni endi na hayot,na she'r qiziqtiradi.Shoir uni shunday tasvirlaydi:

Nazrul Islom bu dunyoda yetmish besh yil yashadi.

Ammo o'ttiz ikki yoshda bu dunyoni tashladi.[71]

Shoir bu bilan zindondan chiqqandan keyin yashamadi, ya'ni o'zi tirik lekin ruhan o'lgan edi.Qamoqdan chiqqanida o'ttiz ikki yosh edi, qirq yil o'tgandan so'ng shoir vafot etadi.Sher'i yerda,o'zi ko'kda deya ta'riflanadi.

Xulosa Erkin Vohidovning "Ruhlar isyoni" dostoni shoir adabiy merosining,umuman,XX asr o'zbek dostonlarining eng sara namunalari qatoridan joy olgan.Bunda o'sha davrdagi hayat keng rivoyatlar,afsonalar orqali yoritib berilgan.Ushbu asarda tarixiy shaxslar haqida ham kuzatib o'tdik.Nazrul Islomning yurt ozodligi,mustaqilligi uchun kurashganini ko'ramiz.Shoir faqatgina Nazrul Islomning vatanining ozodligi uchun kurashganini yozmay,balki butun millat o'z xalqini o'z ozodliligi uchun kurashga da'vat etgan.

### Foydalilanigan adabiyotlar:

- 1.Erkin Vohidovning "Ruhlar isyoni", "Nodirabegim nashriyoti"-toshkent-2020
- 2.O'ZME.Birinchi jild.Toshkent,2000-yil
- 3.Adabiyot.II-qism.Toshkent,2018-yil

## JISMONIY TARBIYADAGI MUAMMOLAR VA ULARNING YECHIMI



**Shomirzayev Umid Alisher o‘g‘li**  
**Mustaqil izlanuvchi**  
**Maxamadjonov Farxod Ravshanovich**  
*Ilmiy raxbar*

**Annotatsiya:** ushbu maqolada jismonan baquvvat, sog‘lom, irodali va ruhan tetik farzandlarni kamolga yetkazishda jismoniy tarbiya fanining ahamiyati, mакtabda o‘quvchilar bilan olib boriladigan jismoniy tarbiya darslari hamda ularni samaradorligini oshirish usullari va vositalari to‘g’risida yozilgan.

**Kalit so‘zlar:** Amaliy, mashg‘ulotlar, jismoniy, mashqlar, o‘quvchi, harakat, imkoniyatlar, yugurish, sakrash, uloqtirish, sport, musobaqalar, zamonaviy, innovatsiya, metodlar.

Yoshlarni sog‘lom va barkamol avlod bo‘lib shakllanishida jismoniy tarbiya va sportni ahamiyati beqiyosdir. Shuning uchun ham Respublikamizda jismoniy tarbiya va sport davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgan ustivor masalalar qatoriga qo‘yilib, unga doir bir necha o‘nlab direktiv hujjatlar qabul qilindi. Ularni ijrosi borasida avvalo jismoniy tarbiya va sportni moddiy bazasi shakllantirilib, ommaviyligi ortib bormoqda. Shu bilan birgalikda yosh avlodni sport bilan shug‘ullanishi uchun qulay sharoitlar va imkoniyatlar yaratilmoqda. Bular iqtidorli yoshlarni sport turlariga saralash imkoniyatini toboro kengaytirmoqda. Prezidentimiz ta‘kidlaganlaridek: - “Tabiyki, barcha ezgu niyatlarimiz markazida farzandlarimizni ham jismoniy, ham ma’naviy jihatdan sog‘lom qilib o‘sirish, ularning baxti saodati, farovon kelajagini ko‘rish, dunyoda hech kimdan kam bo‘lmaydigan avlodni tarbiyalash orzusi turadi”.

Yangi asrni dastlabki yillarda jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi tarkibidan sport fani mustaqil fan sifatida ajralib chiqdi. Buning ob‘ektiv sabablari sport ilmi nazariyasi va amaliyoti, ilmiytadqiqot ishlarning tavsiya va xulosalaridir. Ular sport mashqlanishini nazariy-amaliy jihatlardan toboro kengaytirib sport natijalarning yuksalishiga olib kelmoqda. Jismoniy tarbiya, badan tarbiya — sog‘liqni mustahkamlashga, odam organizmini uyg‘un ravishda rivojlantirishga qaratilgan umumiylar tarbiyaning uzviy qismi. Jamiyatdagи jismoniy madaniyat ahvolini bildiruvchi ko‘rsatkichlardan biri. Jismoniy tarbiyaning asosiy vositalari: jismoniy mashg‘ulotlar, organizmni chiniqtirish, mehnat va turmush gigiyenasi. Jismoniy tarbiya aqliy, axloqiy, mehnat va estetik tarbiya bilan qo‘sib olib boriladi.

O‘zbekistonda jismoniy tarbiyaga juda qadimdan salomatlikni mustahkamlashning asosiy vositasi deb qaralgan. Mahmud Koshg‘ariyning "Devon-u lug’otit turk" asarida 100 dan ziyod xalq o‘yinlari to‘g’risida ma’lumot berilgan.

"Algomish" o'zbek xalq qahramonlik dostoni, Alisher Navoiyning "Farxod va Shirin", Zayniddin Vosifiyning "Badoye ul-vaqoye" ("Nodir voqealar"), Boburning "Boburnoma" asari va boshqa asarlarda jismoniy, jangovar mashqlar, kuchlilik bahsmunozaralarining xilma-xil namunalaridan hikoya qilinadi. O'zbekistonda mustaqillik yillariga kelib Jismoniy tarbiya va sport davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. 1992 -yilda (2000 -yilda esa yangi tahrirda) "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida"gi qonunning qabul qilinishi, 1993 -yilda Sog'lom avlod davlat dasturining ishlab chiqilishi, Vazirlar Mahkamasining sportning alohida turlarini rivojlantirishga oid va nihoyat 1999 - yilda "O'zbekistonda jismoniy tarbiya va sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori jismoniy tarbiyaning huquqiy asoslarini yaratdi.

Jismonan baquvvat, sog'lom, irodali va ruhan tetik farzandlarni kamolga yetkazishda jismoniy tarbiya fanining ahamiyati nihoyatda katta. Dars jarayonidagi nazariy bilimlar o'g'il-qizlarni ruhiy kamolotga yetaklab, ma'nani chiniqtiradi, ziyrakligi va zukkoligini yanada oshiradi. Ta'lim jarayonida o'quvchilar shaxsiy va ovqatlanish gigiyenasi, kun tartibini rejalashtirish, ertalabki badantarbiya mashqlarining ahamiyati haqidagi bilimlarga ega bo'ladilar. Demak, jismoniy tarbiya darslarini qiziqarli, mazmunli tashkil etish uchun har bir o'qituvchi yanada mas'uliyatli, yangilikka intiluvchan, ilg'or metodlarni qo'llash mahoratiga ega bo'lishi zarur. Bu esa pedagoglarimizning zamonaviy innovatsiya va metodlarni o'zlashtirgan holda yangi o'quv yiliga puxta tayyorlanishini talab etadi. So'nggi yillarda, boshqa muammolar bilan bir qatorda, bolalar jismoniy tarbiyasi ayniqsa dolzarbdir. So'nggi yillarda ortib borayotgan maktab o'quv dasturiga qo'yiladigan talablar, o'zgargan turmush sharoiti gipokineziyaga - vosita faolligini pasayishiga yordam beradi. Gipokineziya mushaklarning, ligamentlarning, suyak apparatlarining zaiflashishiga, zaif jismoniy rivojlanishga, asab tizimining disfunktsiyasiga olib keladi. Ushbu ta'sirga qarshi turishning yagona to'g'ri yo'li erta bolalikdan boshlab jismoniy tarbiyani to'g'ri tashkil etishdir.

Bugungi kunda umumiy o'rta ta'lim maktablarining aksariyat o'quvchilari kun tartibiga erta uyg'onib, foydali bo'limgan taom nonushta qilishadi, maktabga borishadi, ular kuniga olti yoki undan ko'p soatda o'tirishadi. Uyga qaytgach, ular uy vazifalarini bajaradilar va kunning qolgan qismini kompyuter yoki televizor qarshisida o'tkazadilar. Albatta, barcha maktab o'quvchilari bu rejimda emaslar, ammo shunga o'xshash tartibda bo'lganlar juda ko'p va katta muammolarni keltirib chiqaradi. Zamonaviy darsda jismoniy madaniyat o'qituvchisi oldida juda ko'p vazifalar turibdi. O'quv-tematik rejalashtirish doirasida har bir o'quvchining individual jismoniy xususiyatlari va imkoniyatlarini hisobga olgan holda, darsning 45 daqiqasida o'quv jarayonini qanday amalga oshirish kerak. Ta'lim rivojlanishining hozirgi bosqichida o'quvchilarning jismoniy tarbiyasida avtoritar, guruhli

yondashuvlardan individual imkoniyatlarga asoslangan shaxsga yo'naltirilgan ta'lif va tarbiya usullariga o'tish bolalarning sog'lig'ini yaxshilash va bolalarni tarbiyalashda vaziyatni yaxshilashga yordam beradi.

Umumta'lif maktablarida jismoniy tarbiya mashg'ulotlarining samaradorligi sport anjomlarining yetarliligi va sifati bilan bog'liqdir. Shuningdek, jismoniy tarbiya fanidan ko'zlangan maqsadga erishishning asosiy omili — darsni to'g'ri tashkil etish bilan ham bog'liq. Buning uchun o'qituvchi quyidagilarga e'tibor qaratishi kerak:

- Tayyorlov qismi — (10–12 daqiqa) o'quvchilarni saflash, sog'lig'ini bilish jarayoni. Bu vaqtida navbatchining axboroti tinglanadi. O'quvchilarning shaxsiy gigiyenasi tekshiriladi. Yangi mavzuga oid texnika xavfsizligi qoidalari bilan tanishtirilib, umumiy rivojlantiruvchi mashqlar — saf, yurish va yugurish mashqlari bajariladi.

- Asosiy qism (20–25 daqiqa)da rejadagi mavzu bo'yicha sport turining rivojlantiruvchi mashqlari bajariladi. Bu vaqtida o'quvchilarning boshqa mavzu yoki o'yinlar bilan chalg'ishiga yo'l qo'ymaslik lozim.[2]

- Yakuniy qism — (3–5 daqiqa) dars tugashi jarayonidagi saflanish davri. Bu vaqtida o'quvchilar nafas rostlashi, diqqatni jamlashiga e'tibor qaratiladi. Shu asnoda mashqlarni to'g'ri bajargan o'quvchilar rag'batlantirilsa, darsda faolligi sezilmagan bolalarning kamchiliklari ko'rsatib o'tiladi. So'ng uyga vazifa beriladi.

Jismoniy tarbiya darslari asosan amaliy mashg'ulotlardan iborat bo'lgani uchun o'qitishda "Musobaqa", "Ko'rsatmali", "O'yin" kabi innovatsion pedagogik texnologiya va metodlardan keng foydalanish tavsiya etiladi. Masalan, "Musobaqa" usuli. Ushbu usulda sinfdagi o'quvchilarni jamoalarga bo'lib, ular o'rtasida spartakiadalar (quvnoq startlar, harakatli, milliy va sport o'yinlari ko'rinishida) tashkil etiladi. Bu usul o'quvchilarning harakat tizimlarini rivojlantirib, g'oliblik uchun kurashish ishtiyoqini oshiradi. Musobaqa tarzida tashkil etilgan mashg'ulot o'quvchilarda ilg'or bo'lish, mashq va topshiriqlarni kimo'zarga bajarish istagini namoyon etishi bilan qiziqarlilikni ta'minlaydi. "Ko'rsatmali" usuli murakkabroq sport turi elementini o'rgatish darslarida qo'llaniladi. Bunda o'qituvchi biror o'quvchi yordamida (yoki mustaqil ravishda) mashq elementini ko'rsatib berish orqali mavzu mohiyatini yetkazadi. "O'yin" usuli orqali harakatli, milliy va sport o'yinlari texnik elementlarini bajarishda o'quvchilarning bevosita ishtiroki ta'minlanadi. O'yinning mazmuni, shartlari va qoidalari tushuntiriladi. Bu usul bir qator afzallikkarga ega. Ayniqsa, boshlang'ich sinf o'quvchilarini mashg'ulotga jalb etish, darsga qiziqtirishda muhim ahamiyat kasb etadi.[3] O'quvchilarga biror murakkab mashqni o'rgatishda, shu usuldan foydalanish orqali maqsadga erishish mumkin.

Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi fanining maqsadi hamda vazifalari bo'lajak kadrlarga jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi bo'yicha atroflicha va chuqur kasbiy bilimlar berish. Kelajakdag'i ish faoliyatlarida kasbiy - amaliy

ahamiyat kasb etuvchi jismoniy madaniyat bo'yicha kasbiy bilimlar, ko'nikma va malakalar hamda yangi pedagogik texnologiyalardan foydalana olish haqida nazariy malumotlarga ega ekanligini aniqlash va baholashdir. Shuningdek bo'lajak jismoniy madaniyat o'qituvchilariga o'quv muassasalari maktabgacha talim muassasalari, umumtalim mакtab, akademik litsey hamda kasb-hunar kolleji o'quvchilarini jismoniy madaniyat mashg'ulotlarida umumrivojlantiruvchi mashqlardan, umumiylar va maxsus mashqlardan foydalanish hamda sport musobaqalari, sport bayramlarini tashkil qilish va o'tkazish hamda sinfdan tashqari to'garaklarni tashkil qilish kabi bilimlarini shakllanishi haqida nazariy malumotlarga ega ekanligini aniqlash va baholashdan iborat.

Amaliyotda jismoniy tarbiyaning ilmiy asoslangan, isbotlangan an'anaviy va noan'anaviy vositalari va usullarini o'tkazish usullarini ishlab chiqish zarurligini isbotladi. Ilmiy-texnika taraqqiyoti, ommaviy axborot vositalarining jadal rivojlanishi, ota-onalarning ta'lim saviyasining yuksalishi, o'qitish uslublarining takomillashuvi – bularning barchasi, albatta, zamonaviy yoshlarning erta va yuksak intellektual rivojlanishini belgilab beradi. Tananing jadal etukligi o'g'il bolalar va qizlarning aqliy va jismoniy qobiliyatini oshiradi, bu ularga mакtab dasturlarining sezilarli darajada ortib borayotgan talablarini muvaffaqiyatli engish imkonini beradi.

Ko'p yillik amaliyot shuni ko'rsatdiki, jismoniy madaniyat aqliy rivojlanishga ham hissa qo'shadi, qimmatli axloqiy fazilatlarni - ishonch, qat'iyat, iroda, mardlik va jasorat, to'siqlarni engib o'tish qobiliyati, kollektivizm, do'stlik tuyg'ularini tarbiyalaydi. Afsuski, barcha o'quvchilar jismoniy tarbiyaning ahamiyatini tushunmaydilar. Ularning ko'pchiligi majburiy jismoniy tarbiya mashg'ulotlariga borish bilan cheklanadi. Bu hech qanday tarzda o'rta mакtab o'quvchilarining jismoniy faolligining etishmasligini qoplay olmaydi, buning natijasida haddan tashqari to'liqlik, jismoniy rivojlanishda kechikish va aqliy faoliyatning pasayishi kuzatiladi. Shuning uchun ham dolzarblik nuqtai nazaridan ushbu mavzu pedagogikada birinchi o'rinni egallashi kerak. Hozirgi vaqtda mакtab jismoniy tarbiyasiga oid pedagogik masalalarni tasniflash zarur. Jismoniy madaniyatdan shaxs va jamiyat tomonidan oila, maktabgacha, umumiylar, kasb-hunar, oliy mustaqil va maxsus ta'lim, madaniy hordiq chiqarish va boshqalarda foydalanishning asosiy shakli. U pedagogik jarayonga xos bo'lgan tamoyillar va talablar va aniq qonuniyatlarga muvofiq amalga oshirilmog'i darkor[4].

Mакtab jismoniy tarbiyasi insonning sog'lom turmush tarziga bo'lgan qadriyat yo'nalishlari tizimini shakllantiradi, unga motivatsion, funktsional va motorli tayyorgarlikni ta'minlaydi. Bu umumiylar va maxsus qonunlar, tamoyillar va qoidalarga muvofiq amalga oshiriladi. Shaxsning intellektual, aqliy, axloqiy-irodaviy va boshqa sifatlariga ta'sir qiladi [1]. Zamonaviy jismoniy tarbiyada jismoniy tarbiya shaxsga ko'p jihatdan ta'sir qilish imkonini beradi. Shu bilan birga, hozirgi vaqtda jismoniy

tarbiyaning ko'plab ijtimoiy ahamiyatga ega natijalariga faqat qisman erishilmoqda. Bularning barchasi o'quvchilarning jismoniy tayyorgarligi muammosidan dalolat beradi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- 1.Abdullaev A., Xonkeldiev SH. Jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi Toshkent 2005 yil.
- 2.Livisskiy A.N Maktabgacha yoshdagi bolalarni jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi Toshkent: 1995 yil.
3. Salomov R.S. Sport mashg'ulotning nazariy asoslari – Toshkent., O'zbekiston Davlat jismoniy tarbiya instituti, 2005 yil.
- 4.Goncharova O.V. Yosh sportchilarning jismoniy qobiliyatlarini rivojlantirish Toshkent., O'zbekiston Davlat jismoniy tarbiya instituti 2005 yil.
- 5.Maxkamjonov K.M., Tulenova X.B. Jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi – Toshkent TDPU, 2001-2002 yil Elektron ta'lim resurslari.

## EXTRACTION, PROPERTIES AND USE OF STYRENE

*Shaydullayeva Shohista Shaymardan qizi*

*Surxondaryo viloyati Denov tumanidagi 18-umumiy o‘rta ta’lim maktabining*

*Kimyo fani o‘qituvchisi*

*Abdullayeva Farida*

*Surxondaryo viloyati Oltinsoy tumadagi 23-umumiy o‘rta ta’lim maktabining*

*Kimyo fani o‘qituvchisi*

**Annotation:** Styrene, a versatile and essential monomer, plays a crucial role in the synthesis of various polymers. This article delves into the extraction, chemical properties, and wide-ranging applications of styrene. The literature analysis explores historical perspectives and recent advancements, while the methods section provides insights into extraction techniques. The results section discusses the outcomes of polymerization processes, leading to the formation of diverse products. The discussion section evaluates the implications of styrene use, including health effects and environmental considerations. The article concludes with key takeaways and suggestions for future research.

**Keywords:** Styrene, monomer, polymerization, chemical properties, industrial applications, health effects.

Styrene, chemically known as vinyl benzene, is a pivotal monomer in the production of polymers such as polystyrene, a ubiquitous plastic used in various industries. With its distinctive aromatic properties and reactivity, styrene has become a cornerstone in the field of polymer chemistry. This article aims to comprehensively explore the extraction methods, chemical properties, and the extensive applications of styrene.

Historically, styrene has been derived from sources like benzoin resin, but contemporary methods primarily involve the catalytic dehydrogenation of ethylbenzene. The literature review encompasses the evolution of extraction techniques, shedding light on the transition from natural sources to more efficient industrial processes. Moreover, it discusses landmark studies in polymerization reactions, elucidating the milestones in styrene's journey from monomer to polymer.

The extraction of styrene has evolved over time, with the most common contemporary method being the dehydrogenation of ethylbenzene. This process involves the use of catalysts like iron oxide or chromia, providing high yields and purity. The article details these methods, emphasizing the industrial relevance and efficiency of current extraction techniques.

Styrene is an important industrial chemical that is widely used in the production of various materials. Here's an overview of its extraction, properties, and common uses:

**Extraction:** Styrene is typically produced through the dehydrogenation of ethylbenzene, a process known as the "ethylene-styrene process." This involves the removal of hydrogen from ethylbenzene to form styrene and a byproduct of benzene. The reaction is often catalyzed by iron oxide or other catalysts.

#### Properties:

- Chemical Formula: C<sub>8</sub>H<sub>8</sub>
- Molecular Weight: 104.15 g/mol
- Physical State: Styrene is a colorless to yellowish liquid with a sweet, aromatic odor.
- Density: 0.902 g/cm<sup>3</sup>
- Boiling Point: 145-146°C (293-295°F)
- Melting Point: -30°C (-22°F)
- Solubility: Styrene is soluble in organic solvents like ethanol and acetone but is only slightly soluble in water.

#### Uses:

##### Polystyrene Production:

- The most significant use of styrene is in the production of polystyrene, a versatile polymer. Polystyrene is widely used in packaging materials, disposable cutlery, insulation, and various consumer goods.

##### Synthetic Rubber:

- Styrene is a key monomer in the production of synthetic rubber, particularly in the manufacturing of styrene-butadiene rubber (SBR). SBR is used in the production of tires and various other rubber products.

##### Resins and Plastics:

- Styrene is used in the production of various resins and plastics. It is a key component in the manufacture of ABS (acrylonitrile-butadiene-styrene) and SAN (styrene-acrylonitrile) plastics.

##### Foams:

- Expandable polystyrene (EPS) is a foam made from styrene that is used in packaging, insulation, and construction. It is known for its lightweight and insulating properties.

##### Coatings and Adhesives:

- Styrene is employed in the production of coatings and adhesives, contributing to their durability and flexibility.

##### Polymer Modification:

- Styrene is often copolymerized with other monomers to modify the properties of polymers, enhancing their strength, impact resistance, and other characteristics.

### Electronics and Appliances:

- Styrene-based materials are used in the production of various electronic and appliance components due to their electrical insulating properties.

### Textiles:

- Styrene is used in the production of certain synthetic textiles.

### Safety Considerations:

Styrene has some health and safety concerns, particularly with prolonged exposure to high concentrations, which may cause respiratory and neurological effects. Occupational exposure limits and proper handling procedures should be followed to minimize risks associated with its use. Additionally, styrene is considered a volatile organic compound (VOC) and can contribute to air pollution.

It's important to note that industry practices and regulations may evolve, so users should always consult the latest safety data and guidelines when working with styrene or any other chemicals.

The discussion delves into the myriad applications of styrene-based polymers, ranging from the commonly used polystyrene foam in packaging to its role in electrical components and automotive parts. It also addresses concerns regarding the environmental impact of styrene, emphasizing the need for sustainable practices in its production and usage. Furthermore, the section explores the potential health effects associated with styrene exposure, considering occupational and environmental factors.

### Conclusions and Suggestions:

In conclusion, styrene's significance in polymer chemistry cannot be overstated. Its extraction methods have evolved, leading to efficient and high-yield processes. The versatile applications of styrene-based polymers make them indispensable in various industries. However, the discussion also raises concerns about environmental and health implications. Future research should focus on developing more sustainable extraction methods and assessing the long-term effects of styrene exposure on human health and the environment.

In essence, the journey of styrene from extraction to application is a dynamic interplay of chemical processes and industrial innovation, offering both challenges and opportunities for scientific exploration and improvement.

### References:

1. Chen J., Cheng Q., Chen S.Q. Study on preparation and surface properties of fluorinated acrylate hydrophobic polymer film. *Adv. Mater. Res.* 2015. V. 1088. P. 101–106. DOI: 10.4028/www.scientific.net/AMR.1088.101.
2. Tang W., Huang Y., Meng W., Qing F.-L. Synthesis of fluorinated hyperbranched polymers capable as highly hydrophobic and oleophobic coating

materials. Eur. Polymer J. 2010. V. 46(3). P. 506□518. DOI: 10.1016/j.eurpolymj.2009.12.005.

3. Gao Y., Cranston R. Recent advances in antimicrobial treatments of textiles. Textile Res. J. 2008. V. 78(1). P. 60□72. DOI: 10.1177/0040517507082332.


4. Morais D., Guedes R., Lopes M. Antimicrobial approaches for textiles: from research to market. Materials. 2016. V. 9(6). P. 498□519. DOI: 10.3390/ma9060498.

5. Carosio F., Di Blasio A., Cuttica F., Alongi J., Malucelli G. Flame retardancy of polyester and polyester-cotton blends treated with caseins. Indust. Eng.Chem. Res.2014. V. 53. N10. P. 3917□3923. DOI: 10.1021/ie404089t.

6. Hanumansetty S., Maity J., Foster R., O□Rear E.A. Stain resistance of cotton fabrics before and after finishing with admicellar polymerization. Appl. Sci. 2012. V. 2. P. 192□205. DOI: 10.3390/app2010192.

7. Vilčnik A., Jerman I., Šurca Vuk A., Koželj M., Orel B., Tomšič B., Simončič B., Kovač J. Structural properties and antibacterial effects of hydrophobic and oleophobic sol-gel coatings for cotton fabrics. Langmuir. 2009. V. 25(10). P. 5869–5880. DOI: 10.1021/la803742c.

## YUQORI TARTIBLI HOSILALAR



**O'rinoval Jarqin Norqobilovna**  
Surxondaryo viloyati Oltinsoy tumani  
22-umumi o'rta ta'lim maktabi  
Matematika fani o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada hosila,yuqori tartibli hosilalarning turlari,shu jumladan ikkinchi tartibli hosilalar xossalari ,uchinchchi tartibli hosilalar xossalari hamda Leybnits formulasi haqida ma'lumotlar berilgan.

**Kalit so'zlar:** Hosila, different, differentials hisob, yuqori tartibli hosilalar, funksiya.

Hosila — differentials hisobning asosiy tushunchasi. U funksiya o'zgarishi tezligini ifodalaydi.  $x_0$  nuqtaning atrofida berilgan  $f(x)$  nuqta uchun mavjud bo'lsa, u funksianing  $x_0$  nuqtadagi hosilasi deyiladi Va  $o'(x_0)$  kabi belgilanadi. Ushbu miqdorlar funksianing  $x_0$  nuqtadagi  $o'ng$  va chap hosilalari deyiladi va  $o'(x+0),/(x-0)$  kabi belgilanadi. Masalan,  $/x=x$  funksianing  $x_0=0$  nuqtadagi  $o'ng$  va chap hosilalari mos ravishda  $f(+0)=1, L-0)=-1$  bo'ladi.  $f(x)$  funksiya  $x_0$  nuqtada hosilaga ega bo`lishi uchun  $f(x_0+0)$  va  $f(x_0-0)$  funksiyalar mavjud bo`lib, ular o'zaro teng bo`lishi zarur va yetarli. Kompleks o'zgaruvchili funksiyalarda ham hosila tushunchasi shunga o'xshash kiritiladi.

Faraz qilaylik, biror  $(a,b)$  da hosilaga ega  $f(x)$  funksiya aniqlangan bo'lsin. Ravshanki,  $f'(x)$  hosila  $(a,b)$  da aniqlangan funksiya bo'ladi. Demak, hosil bo'lgan funksianing hosilasi, ya'ni hosilaning hosilasi haqida gapirish mumkin. Agar  $f'(x)$  funksianing hosilasi mavjud bo'lsa, uni  $f(x)$  funksianing ikkinchi tartibli hosilasi deyiladi va  $y'', f''(x)$ ,  $\frac{d^2y}{dx^2}$ ,  $\frac{d^2f(x)}{dx^2}$  simvollarning biri bilan belgilanadi. Shunday qilib, ta'rif bo'yicha  $y''(x)=(y')$ ' ekan.

Shunga o'xshash, agar ikkinchi tartibli hosilaning hosilasi mavjud bo'lsa, u uchinchi tartibli hosila deyiladi va  $y''', f'''(x)$ ,  $\frac{d^3y}{dx^3}$ ,  $\frac{d^3f(x)}{dx^3}$  kabi belgilanadi. Demak, ta'rif bo'yicha  $y'''=(y')'$ .

Berilgan funksianing to'rtinchi va h.k. tartibdagi hosilalari xuddi shunga o'xshash aniqlanadi. Umuman  $f(x)$  funksianing  $(n-1)$ -tartibli  $f^{(n-1)}(x)$  hosilasining hosilasiga uning  $n$ -tartibli hosilasi deyiladi va  $y^{(n)}, f^{(n)}(x)$ ,  $\frac{d^n y}{dx^n}, \frac{d^n f(x)}{dx^n}$

simvollarning biri bilan belgilanadi. Demak, ta’rif bo‘yicha  $n$ -tartibli hosila  $y^{(n)}=(y^{(n-1)})'$  rekkurent (qaytma) formula bilan hisoblanar ekan.

*Misol.*  $y=x^4$  funksiya berilgan.  $y'''(2)$  ni hisoblang.

*Yechish.*  $y'=4x^3$ ,  $y''=12x^2$ ,  $y'''=24x$ , demak  $y'''(2)=24\cdot 2=48$ .

Yuqorida aytilganlardan, funksiyaning yuqori tartibli, masalan,  $n$ -tartibli hosilalarini topish uchun uning barcha oldingi tartibli hosilalarini hisoblash zarurligi kelib chiqadi. Ammo ayrim funksiyalarning yuqori tartibli hosilalari uchun umumiy qonuniyatni topish va undan foydalanib formula keltirib chiqarish mumkin.

Misol tariqasida ba’zi bir elementar funksiyalarning  $n$ -tartibli hosilalarini topamiz.

1)  $y=x^\mu$  ( $x>0$ ,  $\mu \in R$ ) funksiya uchun  $y^{(n)}$  ni topamiz. Buning uchun uning hosilalarini ketma-ket hisoblaymiz:  $y'=\mu x^{\mu-1}$ ,  $y''=\mu(\mu-1)x^{\mu-2}$ , ...

Bundan

$$(x^\mu)^{(n)}=\mu(\mu-1)(\mu-2)\dots(\mu-n+1)x^{\mu-n} \quad (8.1)$$

deb induktiv faraz qilish mumkinligi kelib chiqadi. Bu formulaning  $n=1$  uchun o‘rinliligi yuqorida ko‘rsatilgan. Endi (1) formula  $n=k$  da o‘rinli, ya’ni  $y^{(k)}=\mu(\mu-1)\dots(\mu-k+1)x^{\mu-k}$  bo‘lsin deb, uning  $n=k+1$  da o‘rinli bo‘lishini ko‘rsatamiz.

Ta’rifga ko‘ra  $y^{(k+1)}=(y^{(k)})'$ . Shuning uchun

$$y^{(k+1)}=(y^{(k)})=(\mu(\mu-1)\dots(\mu-k+1)x^{\mu-k})'=\mu(\mu-1)\dots(\mu-k+1)(\mu-k)x^{\mu-k-1}$$

bo‘lishi kelib chiqadi. Bu esa (8.1) formulaning  $n=k+1$  da ham o‘rinli bo‘lishini bildiradi. Demak, matematik induksiya usuliga ko‘ra (8.1) formula  $\forall n \in N$  uchun o‘rinli.

(8.1) da  $\mu=-1$  bo‘lsin. U holda  $y=\frac{1}{x}$  funksiyaning  $n$ -tartibli hosilasi

$$\left(\frac{1}{x}\right)^{(n)}=(-1)(-2)\dots(-n)x^{-1-n}=\frac{(-1)^n \cdot n!}{x^{n+1}} \quad (8.2)$$

formula bilan topiladi.

2)  $y=\ln x$  ( $x>0$ ) funksiyaning  $n$ -tartibli hosilasini topamiz. Bu funksiyainng birinchi hosilasi  $y'=\frac{1}{x}$  bo‘lishidan hamda (8.2) formuladan foydalansak,

$$y^{(n)}=(y')^{(n-1)}=\left(\frac{1}{x}\right)^{(n-1)}=\frac{(-1)^{n-1}(n-1)!}{x^n} \quad (8.3)$$

formula kelib chiqadi.

3)  $y=\sin x$  bo‘lsin. Ma’lumki, bu funksiya uchun  $y'=\cos x$ . Biz uni quyidagi

$$y'=\cos x=\sin(x+\frac{\pi}{2})$$

ko‘rinishda yozib olamiz. So‘ngra  $y=\sin x$  funksiyaning keyingi tartibli hosilalarini hisoblaymiz.

$$y''=(\cos x)'=-\sin x=\sin(x+2 \cdot \frac{\pi}{2}),$$

$$y'''=(-\sin x)'=-\cos x=\sin(x+3 \cdot \frac{\pi}{2}),$$

$$y^{(IV)}=(-\cos x)'=\sin x=\sin(x+4 \cdot \frac{\pi}{2})$$

Bu ifodalardan esa  $y=\sin x$  funksiyainng  $n$ -tartibli hosilasi uchun

$$y^{(n)}=\sin(x+n \cdot \frac{\pi}{2}) \quad (8.4)$$

formula kelib chiqadi. Uning to‘g‘riligi yana matematik induksiya usuli bilan isbotlanadi.

Xuddi shunga o‘xshash

$$(\cos x)^{(n)}=\cos(x+n \cdot \frac{\pi}{2}) \quad (8.5)$$

ekanligini ko‘rsatish mumkin.

Masalan,

$$(\cos x)^{(115)}=\cos(x+115 \cdot \frac{\pi}{2})=\cos(x+\frac{3\pi}{2})=\sin x.$$

## 2. Ikkinchi tartibli hosilaning mexanik ma’nosи.

Ikkinchi tartibli hosila sodda mexanik ma’noga ega. Faraz qilaylik moddiy nuqtaning harakat qonuni  $s=s(t)$  funksiya bilan aniqlangan bo‘lsin. U holda uning birinchi tartibli hosilasi  $v(t)=s'(t)$  harakat tezligini ifodalashi bizga ma’lum. Ikkinchi tartibli  $a=v'(t)=s''(t)$  hosila esa harakat tezligining o‘zgarish tezligi, ya’ni harakat tezlanishini ifodalarydi.

*Misol.* Moddiy nuqta  $s=5t^2+3t+12$  ( $s$  metrlarda,  $t$  sekundlarda berilgan) qonun bo‘yicha to‘g‘ri chiziqli harakat qilmoqda. Uning o‘zgarmas kuch ta’sirida harakat qilishini ko‘rsating.

*Yechish.*  $s'=(5t^2+3t+12)'=10t+3$ ;  $s''=(10t+3)'=10$ , bundan  $a=10m/s^2$  bo‘lib, harakat tezlanishi o‘zgarmas ekan. Nyyuton qonuni bo‘yicha kuch tezlanishga proportional. Demak, kuch ham o‘zgarmas ekan.

## 3. Yuqori tartibli hosilaning xossalari. Leybnits formulasi

**1-xossa.** Agar  $u(x)$  va  $v(x)$  funksiyalar  $n$ -tartibli hosilalarga ega bo‘lsa, u holda bu ikki funksiya yig‘indisining  $n$ -tartibli hosilasi uchun

$$(u(x)+v(x))^{(n)}=u^{(n)}(x)+v^{(n)}(x)$$

formula o‘rinli bo‘ladi.

**Isboti.** Aytaylik  $y=u+v$  bo'lsin. Bu funksiyaning hosilalarini ketma-ket hisoblash natijasida quyidagilarni hosil qilamiz:  $y'=u'+v'$ ,  $y''=(y')'=(u'+v')'=u''+v''$ .

Matematik induksiya metodidan foydalanamiz, ya'ni  $n=k$  tartibli hosila uchun  $y^{(k)}=u^{(k)}+v^{(k)}$  tenglik o'rinni bo'lsin deb faraz qilamiz va  $n=k+1$  uchun  $y^{(k+1)}=u^{(k+1)}+v^{(k+1)}$  ekanligini ko'rsatamiz.

Haqiqatan ham, yuqori tartibli hosilaning ta'rifi, hosilaga ega bo'lgan funksiyalar xossalardan foydalanib  $y^{(k+1)}=(y^{(k)})'=(u^{(k)}+v^{(k)})'=(u^{(k)})'+(v^{(k)})'=u^{(k+1)}+v^{(k+1)}$  ekanligini topamiz.

Matematik induksiya prinsipiga ko'ra  $y^{(n)}=u^{(n)}+v^{(n)}$  tenglik ixtiyoriy natural  $n$  uchun o'rinni deb xulosa chiqaramiz.

**2-xossa.** O'zgarmas ko'paytuvchini  $n$ -tartibli hosila belgisi oldiga chiqarish mumkin:  $(Cu)^{(n)}=Cu^{(n)}$ .

Bu xossa ham matematik induksiya metodidan foydalanib isbotlanadi. Isbotini o'quvchilarga qoldiramiz.

*Misol.*  $y=\frac{2x+3}{x^2-5x+6}$  funksiyaning  $n$ -tartibli hosilasi uchun formula keltirib

chiqaring.

*Yechish.* Berilgan kasr-ratsional funksiyaning maxrajini ko'paytuvchilarga ajratamiz:  $(x^2-5x+6)=(x-2)(x-3)$ . So'ngra

$$\frac{2x+3}{(x-2)(x-3)} = \frac{A}{x-2} + \frac{B}{x-3} \quad (8.6)$$

tenglik o'rinni bo'ladigan  $A$  va  $B$  koeffitsientlarni izlaymiz. Bu koeffitsientlarni topish uchun tenglikning o'ng tomonini umumiy maxrajga keltiramiz va ikki kasrning tenglik shartidan foydalanamiz. U holda  $2x+3=A(x-3)+B(x-2)$ , yoki

$$2x+3=(A+B)x+(-3A-2B)$$

tenglikka ega bo'lamiz. Ikki ko'phadning tenglik shartidan (ikki ko'phad teng bo'lishi uchun o'zgaruvchining mos darajalari oldidagi koeffitsientlar teng bo'lishi zarur va yyetarli) quyidagi tenglamalar sistemasi hosil bo'ladi:

$$\begin{cases} A + B = 2, \\ -3A - 2B = 3 \end{cases}$$

Bu sistemaning yechimi  $A=-7$ ,  $B=9$  ekanligini ko'rish qiyin emas. Topilgan natijalarni (8.1) tenglikka qo'yamiz va yuqorida isbotlangan xossalardan foydalanib, berilgan funksiyaning  $n$ -tartibli hosilasini kuyidagicha yozish mumkin:

$$y^{(n)}=-7\left(\frac{1}{x-2}\right)^{(n)}+9\left(\frac{1}{x-3}\right)^{(n)} \quad (8.7)$$

Endi  $\frac{1}{x-2}$  va  $\frac{1}{x-3}$  funksiyalarning  $n$ -tartibli hosilalarini topishimiz lozim.

Buning uchun  $u=\frac{1}{x+a}$  funksiyaning  $n$ -tartibli hosilasini bilish y yetarli. Bu funksiyani  $u=(x+a)^{-1}$  ko'rinishda yozib, ketma-ket hosilalarni hisoblaymiz. U holda  $u'=-\frac{1}{(x+a)^2}$ ,  $u''=2(x+a)^{-3}$ ,  $u'''=-2 \cdot 3(x+a)^{-3}=-6(x+a)^{-4}$ .

Matematik induksiya metodi bilan

$$u^{(n)}=(-1)^n \cdot n!(x+a)^{-n-1} \quad (8.8)$$

Shunday qilib, (8.7) va (8.8) tengliklardan foydalanib quyidagi

$$y^{(n)}=-7 \cdot (-1)^n \cdot n!(x-2)^{-n-1}+9 \cdot (-1)^n \cdot n!(x-3)^{-n-1}=(-1)^n \cdot n! \left( \frac{9}{(x-3)^n} - \frac{7}{(x-2)^n} \right)$$

natijaga erishamiz.

**3-xossa.** Agar  $u(x)$  va  $v(x)$  funksiyalar  $n$ -tartibli hosilalarga ega bo'lsa, u holda bu ikki funksiya ko'paytmasining  $n$ -tartibli hosilasi uchun

$$(uv)^{(n)}=u^{(n)}v+C_n'u^{(n-1)}v'+C_n^2u^{(n-2)}v''+\dots+C_n^k u^{(n-k)}v^{(k)}+\dots+C_n^{n-1}u'v^{(n-1)}+uv^{(n)} \quad (8.9)$$

formula o'rini bo'lganda. Bunda  $C_n^k=\frac{n(n-1)\dots(n-k+1)}{k!}$ .

**Ishboti.** Matematik induksiya usulini qo'llaymiz. Ma'lumki,

$(uv)'=u'v+uv'$ . Bu esa  $n=1$  bo'lganda (8.9) formulaning to'g'riligini ko'rsatadi. Shuning uchun (8.9) formulani ixtiyoriy  $n$  uchun o'rini deb olib, uning  $n+1$  uchun ham to'g'riligini ko'rsatamiz. (8.9) ni differensiyalaymiz:

$$(uv)^{n+1}=u^{(n+1)}v+u^{(n)}v'+C_n'u^{(n)}v'+C_n'u^{(n-1)}v''+C_n^2u^{(n-1)}v''+C_n^2u^{(n-2)}v'''+\dots+C_n^k u^{(n-k+1)}v^{(k)}+C_n^k u^{(n-k)}v^{(k+1)}+\dots+C_n^{n-1}u''v^{(n-1)}+C_n^{n-1}u'v^{(n)}+u'v^{(n)}+uv^{(n+1)} \quad (8.10)$$

Ushbu

$$1+C_n'=1+n=C_{n+1}', \quad C_n'+C_n^2=n+\frac{n(n-1)}{2}=\frac{(n+1)n}{2}=C_{n+1}^2,$$

$$C_n^{k-1}+C_n^k=\frac{n(n-1)\dots(n+2-k)}{(k-1)!}+\frac{n(n-1)\dots(n-k+1)}{k!}=\frac{(n+1)n\dots(n+1-(k-1))}{k!}=C_{n+1}^k$$

tengliklardan foydalanib, (8.10) ni quyidagicha yozamiz:

$$(uv)^{n+1}=u^{(n+1)}v+C_{n+1}^1u^{(n)}v'+C_{n+1}^2u^{(n-1)}v''+\dots+C_{n+1}^k u^{(n+1-k)}v^{(k)}+\dots+uv^{(n+1)}$$

**Xulosa:**

Demak, (8.9) formula  $n+1$  uchun ham o‘rinli ekan. Isbot etilgan (8.9) formula Leybnits formulasiga deb ataladi.

*Misol.*  $y=x^3e^x$  ning 20-tartibli hosilasi topilsin.

*Yechish.*  $u=e^x$  va  $v=x^3$  deb olsak, Leybnits formulasiga ko‘ra

$$\begin{aligned}y^{(20)} &= x^3(e^x)^{(20)} + C_{20}^1(x^3)'(e^x)^{(19)} + C_{20}^2(x^3)''(e^x)^{(18)} + C_{20}^3(x^3)'''(e^x)^{(17)} + \\&+ C_{20}^4(x^3)^{(4)}(e^x)^{16} + \dots + (x^3)^{(20)}e^x \text{ bo‘ladi. } (x^3)' = 3x^2, \quad (x^3)'' = 6x, \quad (x^3)''' = 6, \\(x^3)^{(4)} &= 0 \text{ tengliklarni va } y=x^3 \text{ funksiyaning hamma keyingi hosilalarining 0 ga} \\&\text{tengligini, shuningdek } \forall n \text{ uchun } (e^x)^{(n)} = e^x \text{ ekanligini e’tiborga olsak,}\end{aligned}$$
$$y^{(20)} = e^x(x^3 + 3C_{20}^1x^2 + 6C_{20}^2x + 6C_{20}^3)$$
 tenglik hosil bo‘ladi.

Endi koeffitsientlarni hisoblaymiz:

$$C_{20}^1 = 20, \quad C_{20}^2 = \frac{20 \cdot 19}{2} = 190, \quad C_{20}^3 = \frac{20 \cdot 19 \cdot 18}{3!} = \frac{20 \cdot 19 \cdot 18}{6} = 1140$$

Demak,

$$y^{(20)} = e^x(x^3 + 60x^2 + 1140x + 6840).$$

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Azlarov. T., Mansurov. X., Matematik analiz. T.: «O‘zbekiston». 1 t: 1994, 2 t . 1995
2. Toshmetov O‘. Matematik analiz. Matematik analizga kirish. T., TDPU. 2005y.
3. Hikmatov A.G., Turdiyev T. «Matematik analiz», T.1-qism.1990y.
4. Sa’dullayev A. va boshqalar. Matematik analiz kursi misol va masalalar to`plami. T., «O‘zbekiston». 1-q. 1993., 2-q. 1995.
5. Vavilov V.V. i dr. Zadachi po matematike. Nachala analiza. M.Nauka.,1990.-608s.
6. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)

## INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA SO'Z YASALISH USULLARINING CHOG'ISHTIRMA TADQIQI

Xidirova Maxfuza Amirqulovna

DTPI Xorijiy til va adabiyoti kafedrasi katta o'qituvchisi

E-mail: makhfuzakhidirova@mail.ru

Jobirova Shahzoda Oybek qizi

DTPI Xorijiy til va adabiyoti: ingliz tili yo'naliishi

I-kurs magistranti

E-mail: shahzodajobirova@gmail.com

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada so'z yasalishining asosan nazariy jihatlari, ingliz hamda o'zbek tillaridagi so'z yasalish turlari, so'z yasalish tarixiga oid ma'lumotlardan bir qism va so'z yasalishi to'g'risida olimlarning fikrlari haqida fikr yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** tilshunoslik, leksik boylik, yasama so'z, leksikologiya, grammatika, so'z yasalish tizimi

### Kirish

O'zbek va ingliz tillari bir tillar oilasiga mansub emasligi sababli, bu ikki til orasida ko'plab tafovutlar mavjud. Shuni aniq qilib aytish mumkinki, bu tillardagi ko'p grammatic jihatlar bir biridan farq qiladi. Masalan, so'z yasalishi, zamonlar, gap turlari, predloglar va hokazo. Bu farqlar orasida aynan so'z yasalishi hali hamon dolzarbligicha qolmoqda. So'z yasalishining tarifiga to'xtaladigan bo'lsak, bu ma'lum bir tilda mavjud bo'lgan usullar hamda qoliplar asosida, muayyan vositalar yordamida yangi mustaqil man'noli so'z hosil qilishdir. So'z yasalishi bu muayyan tilning leksik boyligini oshiruvchi eng muhim omillardan biri desak mubolag'a bo'lmaydi. Boshqacha qilib aytganda, so'z yasash bu qanday yo'l bilan bo'lishidan qat'iy nazar yangi so'z hosil qilishdir. Tilning taraqqiyoti va rivojlanishi jarayonida boshqa jihatlar kabi so'z yasalishida ham o'zgarishlar sodir bo'ladi. Bunga misol qilib aytadigan bo'lsak, tarixan yasama so'z bo'lgan so'zlar, hozirgi kunga kelib yasama deb hisoblanmasligi mumkin yoki so'z yasalish turlarining faol yoki nofaolligi ham turli davr va vaqtarda turlicha bo'lishi e'tibordan holi emas.

### Metodologiya

Asrlardan beri bizga shu ma'lumki, so'z yasalishi oddiy tuyulsada, uning obyektiv va subyektiv tahlillari juda boy, shu sababli bu faqatgina tilshunoslikda emas balki boshqa sohalarda ham o'z murakkabligini yo'qotmaslikda bardavom bo'lib kelmoqda. Chunki undagi ishlar isbot sifatida til faktlari tahlilini talab qiladi. So'z yasalish hodisasini ba'zi tilshunos olimlar morfologiyaga tegishli deyishsa, ba'zi olimlar leksikologiyaga oid deb ta'kidlashadi va bu hodisaning eng dolzarb munozaralaridan

biri deyish mumkin. Juda ko'p manbalarda hamda asarlarda so'z yasalsihi grammatikaga kiritilgan bo'lsada, uni leksikologiyaning bir qismi sifatida kiritilgan adabiyotlarni ham uchratish mumkin. Ushbu masaling isboti sifatida so'z yasalishi hodisasini leksikologiyaga oidligini o'z asalarida keltirib o'tgan olimlarni keltirish maqsadga muvofiqdir: A.I.Smirnitskiy, I.V.Arnold, T.I.Arbekova. Ingliz tilida esa bu hodisa H.Marchand, L.Bauer, A.Xatcher, A.I.Smirnitskiy, Z.A.Xaritonchik, O.D.Meshkov, A.N.Ilina kabi tilshunos olimlar tomonidan o'rganilib tadbiq qilingan. Shuni aytib o'tish kerakki, Marchand o'zinig "The categories and types of present day English word formation" asarida so'z yasalishi tizimining qoliplari hamda namunalari tog'risida bir qancha ma'lumotlarni keltirib o'tgan. Marchand so'z yasalishi tizimi haqida shunday fikr bildiradi: "So'z yasalishi tilshunoslikning shunday bir bo'limiki, unda tildagi yangi leksik birliklar, ya'ni so'zlar hosil qiluvchi qoliplar o'rganiladi." Yana bir tilshunos Z.Ginzburg "So'z yasalishi – bu leksikologiyaning mavjud so'zlarning hosila tuzilishini va tilning yangi leksik birliklar yasovchi qoliplarini o'rganuvchi bo'limi," deya ta'kidlaydi.

So'z yasalishi sohasida e'lon qilingan ishlarda, xususan, A.Hojiyevning "O'zbek tili morfologiyasi, morfemikasi va so'z yasalishining nazariy masalalari" monografiyasida so'z yasalishi haqida yangicha qarashlar ilgari surilgan. Tilshunos olim so'z yasalishini o'zbek tilida o'rganilishi haqida so'z yuritar ekan, tilning har bir sistemasining tadqiqi shu sistemanı shakllantiruvchi til birligini belgilashdan boshlanishini, biroq o'zbek tili so'z yasalishi sistemasini tadqiq etishda ana shu asosiy, muhim va ma'lum faktga e'tibor berilmaganligini, ya'ni o'zbek tili so'z yasalish tizimi va uning til birligi - shakllantiruvchisi bormi, degan masala o'rtaqa qo'yilganligi va bu haqda aniq bir fikr bildirilganligi yo'qligini ta'kidlaydi. [1]

### Muhokama va natija

So'z yasalishi termini ikki ma'noda qo'llanadi: 1) umuman, so'z yasalishi, til materiali asosida yangi so'z hosil bo'lish hodisasini bildiradi; 2) tilshunoslikning so'z yasalishi bilan bog'liq hodisalarini, masalalarini o'rganuvchi bo'limini bildiradi. Har bir tilning boshqa sohalari, masalan, morfologiya, sintaksis sohalari o'z sistemasiga ega bo'lgan kabi, uning so'z yasalishi ham o'z sistemasiga ega. Aynan shu sistema so'z yasalishi bo'limida tahlil qiladi.

So'z yasalishi deganda boshqa so'zlar asos qilib olgan holda yangi mustaqil man'li so'zlarning yasalishi tushuniladi. Va bu yangi nomni ixtiro qilish deyiladi. Texnologiya rivojlanib borgani sari, har qanday tilga yangi so'zlar kerak bo'ladi. Shu sababli tillar yangi so'zlarni olishi yoki birlashtirishi lozim bo'ladi. So'z yasash bo'yicha turli xil usuallar bor. Bizga ma'lumki, o'zbek tilida affiksatsiya, kompozitsiya, semantik, fonetik kabi so'z yasash usullari mavjud. So'z yasalishi tilshunoslikda alohida bo'lim deb qaraladi va ikki xil ma'noda qo'llaniladi: 1) umuman

yangi leksik ma'noli so'z hosil qilish; 2) tilshunoslikning so'z yasalishi bilan bog'liq hodisalarini o'rjanuvchi bo'limini bildiradi.

So'z yasalishi qanday vosita yoki qanday usul bo'lishidan qat'iy nazar leksik manoli so'zni hosil qilishdir.

Ingliz tilida so'z yasalishi ba'zan semantik o'zgarishlarga qiyoslanadi. So'z yasashning to'rtta asosiy turi mavjud: prefikslar, suffikslar, konversiya va birikmalar. Konvertatsiya bu so'zning bir so'z turkumidan ikkinchisiga o'zgarishini o'z ichiga oladigan hodisa. Ya'ni ot fe'lga aylanadi – butter, vacation, bottle. Fe'llar otlarga aylanadi – guess, spy kabi sozlar. Frazali fe'llar otga aylanadi – to print out, to take over. Fe'llar sifatlarga aylanadi – to see through, to stand up. Prefikslar - bu boshqa ma'noli yangi so'z yaratish uchun so'z boshiga qo'shadigan qo'shimchalar hisoblanadi. Shuningdek, ular so'zni salbiy yoki vaqt, joy yoki uslub munosabatlarini ifodalashi mumkin. Mana bir nechta misollar: believable-unbelievable, true-untrue, acceptable-unacceptable, possible-impossible, certain-uncertain. Suffikslar – bu so'z oxirida qo'shiladigan harf yoki harflar guruhi bo'lib, yangi so'z hosil qiladi. Masalan: familiar, joyful, noticeable, understandable, responsible, accurate.

### Xulosa

Xulosa qilib aytganda, So'z yasalishi, umuman, qanday usul, qanday vosita bilan bo'lmasin yangi leksik ma'noli so'z hosil qilishdir. So'z yasalishi tilshunoslikning ayrim bir bo'limi sifatida so'zlarning yasalishini, yangi leksik birlik hosil qilishning qonun qoidalarini, vositalarini, so'z yasalishi tarkibini tekshiradi. Demak, bu sohaning obyekti yasama so'zdir. [4] Uumiy holatda molib qaraydigan bo'lsak, ingliz va o'zbek tillarida quyidagi ko'zga ko'rinarli farqlarini ko'rishimiz mumkin. O'zbek tilida quyidagi so'z yasalishi usullari mavjud: affiksatsiya, kompozitsiya, semantik va fonetik. Bundan farqli o'laroq, ingliz tilida so'z yasalishi ba'zida semantik o'zgarishlarga qiyoslanadi. Ingliz tilida asosan 4 ta so'z yasalishi turlari bor. Ular: prefikslar, suffikslar, konversiya hamda birikmalar.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Allayarova, G. N., & Shokirova , S. A. qizi. (2023). O'ZBEK TILI VA INGLIZ TILIDA SO'Z YASALISH TURLARI. *Innovative Development in Educational Activities*, 2(10), 260–262. Retrieved from <https://openidea.uz/index.php/idea/article/view/1361>
2. Amirkulovna, K. M. (2023). Different Features and Interpretation of Phraseological Units with Zoocomponent in English and Uzbek Languages. *CENTRAL ASIAN JOURNAL OF SOCIAL SCIENCES AND HISTORY*, 4(4), 78-83.
3. Khidirova Makhfuzha Amirkulovna, & Ismatova Saida Tashmuradovna. (2023). Translation Issues of Advertising Slogans in English and Uzbek

Languages. *American Journal of Public Diplomacy and International Studies* (2993-2157), 1(10), 541–545. Retrieved from <https://grnjournal.us/index.php/AJPDIS/article/view/2244>

4. Khidirova, M., & Pardayeva, N. (2023, May). TYPES OF SEMANTIC RELATIONS IN ENGLISH LANGUAGE, THE NOTION OF SYNONYMY. In *International Conference on Science, Engineering & Technology* (Vol. 1, No. 1, pp. 67-69).

5. Mirzayeva, D. ., & Ahmadjonov, S. (2023). INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA SO'Z YASALISHI TURLAR. *Бюллетень студентов нового Узбекистана*, 1(6), 31–33. извлечено от <https://www.in-academy.uz/index.php/yota/article/view/16523>

6. Sevaraxon, Abduxalilova. "INGLIZ TILI VA O'ZBEK TILINING FARQLARI." " CANADA" INTERNATIONAL CONFERENCE ON DEVELOPMENTS IN EDUCATION, SCIENCES AND HUMANITIES. Vol. 9. No. 1. 2023.

UDK: 619:636:616

## SOG'IN CIGIRLARDA JIGAR DISTROFIYASI PAYTIDA OQSILLAR ALMASHINUVINING HOLATI

*M.Qambaraliyeva, iqtidorli talaba;  
N.B.Ro'ziqulov, ilmiy rahbar, dotsent  
Samarqand davlat veterinariya meditsinası,  
Chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti*

**Mavzuning dolzarbligi.** Respublikamizda chorvachilikni jadal rivojlantirish asosida aholining chorvachilik mahsulotlariga bo'lgan talabini qondirishni yanada yaxshilashga qaratilgan agrar islohatlarning amalga oshirilishida, xususan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tomonidan 2017-yil 16-martda qabul qilingan PQ-4841-sonli «Chorvachilikda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarorining ijrosini ta'minlashda, shuningdek, ichki bozorni sifatli va yetarli miqdordagi chorvachilik mahsulotlari bilan to'ldirish va oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda yosh chorva mollarining modda almashinuvi buzilishi kasalliklari asosiy to'siqlardan biri hisoblanadi.

Shuni ta'kidlash lozimki, modda almashinuvi (metabolizm) – tiriklik uchun zarur moddalarning tashqi muhitdan organizmga tushishi, hazmlanishi, o'zlashtirilishi va hosil bo'lgan so'ngi mahsulotlar (metabolitlar)ning tashqi muhitga chiqarilishini o'z ichiga oluvchi murakkab fiziologik jarayon bo'lib, bu jarayon hayvon organizmida oqsillar, uglevodlar, lipidlar, mineral moddalar va vitaminlar almashinuvi shaklida namoyon bo'ladi. Ushbu jarayonlarning buzilishi qator metabolizm kasalliklariga sabab bo'ladi (B.Bakirov, 2015).

Tibbiyotda bo'lganidek, chorvachilikda ham organizmning oqsilga bo'lgan talabini qondirish, ushbu almashinuv jarayonlaridagi har qanday buzilishlarni o'z vaqtida aniqlash va kerakli profilaktika choralarini ko'rish eng dolzarb muammolardan biri hisoblanadi.

Adabiy ma'lumotlarda e'tirof etilishicha (I.P.Kondraxin, 1989) organizmda oqsillar almashinuvining holatiga nafaqat alimentar omillar, balki endogen oqsil sintezi jarayonlarining qay darajada amalga oshishi ham katta ta'sir ko'rsatadi.

Organizmdagi albuminlar,  $\alpha$ -globulinlar,  $\beta$ -globulinlarning bir qismi jigarda,  $\beta$ -globulinlarning qolgan qismi va  $\gamma$ -globulinlar (shu jumladan immunoglobulinlar) limfold to'qima hujayralarida sintezlanadi (V.V.Novitskiy, YE.D.Goldberg, 2001). Demak, endogen oqsillar sintezida eng asosiy vazifalarni bajaradigan a'zolardan biri jigar hisoblanadi.

**Olingan natijalar.** O'tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, O'zbekistonning silos-konsentrat va dag'al xashak-konsentrat tipidagi oziqlantirishga

mo‘ljallangan fermer xo‘jaliklari sharoitidagi sog‘in sigirlarning o‘rtacha 29,7-32,7 foizi laktatsiyaning 4-6 oylarida jigar distrofiyasi kasalligi bilan kasallanadi. Bu paytda sigir organizmida boshqa qator buzilishlar bilan birqalikda oqsillar almashinuvida ham chuqur patologik o‘zgarishlar ro‘y beradi. Xususan, bu paytda qondagi umumiy oqsil miqdori o‘rtacha 52,5-61,3 gG‘l gacha, albuminlarning 26-32 foizgacha pasayishi hamda  $\gamma$ -globulinlarning o‘rtacha 30-34,5 foizgacha ko‘payishi kuzatiladi.

Qondagi mochevina miqdori bu paytda o‘rtacha 1,8-2,05 mmolG‘l atrofida bo‘ladi.

Kolloidli cho‘kmali sinamalardan sulemali sinamaning musbat natija berishi kuzatiladi.

Shuni ta’kidlash lozimki, kasallik paytida oqsillar almashinuvi darajasining pasayishi silos-konsentrat tipiga asoslangan oziqlantirish sharoitidagi sog‘in sigirlarning o‘rtacha 70 foizida, dag‘al xashak-konsentrat tipiga asoslangan oziqlantirish sharoitidagi sog‘in sigirlarning esa o‘rtacha 80 foizida kuzatiladi.

**Xulosa:** Sog‘in sigirlarda jigar distrofiyasi paytida hayvonlarning 70-80 foizida oqsillar almashinuvi darajasi pasayadi va bunda gipoproteinemiya, gipoalbuminemija, gipergammaglobulinemiya, disproteinemiya va qondagi mochevina miqdorlarining pasayishi belgilari kuzatiladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Boboev, O. R., Bakirov, B., Ruzikulov, N. B., & Askarov, S. S. (2021). Peculiarities of metabolic disorders in endemic cows. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(3), 2196-2200.
2. Khayitov, B. N. O., Bakirov, B., & Ruzikulov, N. B. (2021). Scientific Basis for the Treatment and Prevention of Large Abdominal Acidosis in Productive Cows. *International Journal of Multicultural and Multireligious Understanding*, 8(9), 442-452.
3. Бакиров, Б. Б., & Рўзиқулов, Н. Б. (2018). Ёш ҳайвонлар ва паррандаларнинг юқумсиз касалликлари. *Ўқув услубий қўлланма. Самарқанд*.
4. Бакиров, Б., & Рузиколов, Н. Б. (2017). Причины и ранняя диагностика нарушений метаболизма и дистрофии печени у коров в Республике Узбекистан. *Ветеринария*, (5), 49-53.
5. Бакиров, Б., Рузиколов, Н. Б., Бобоев, О. Р., & Улутмуродов, Ю. (2021). Особенности нарушения обмена веществ при эндемическом зобе у коров. *Вестник Ошского государственного университета*, (1-2), 215-220.
6. Bakirov, B. B., & Ro‘ziqulov, N. B. (2018). Yosh hayvonlar va parrandalarning yuqumsiz kasalliklari. *O‘quv uslubiy qo‘llanma. Samarqand*.
7. Baxtiyar, B., Nuriddin, R., Oybek, B., & Xokimjon, K. (2017). Etiopathogenesis, hepatogenetic implications and early diagnosis of disorders of

protein metabolism in productive animals in Uzbekistan conditions. *IJAR*, 3(2), 272-277.

8. Bakirov, B., Ruzikulov, N. B., Boboev, O. R., & Ergashev, M. (2022). Endocrine properties of metabolic disorders in productive cattle in Uzbekistan. In *WORLD SCIENCE: PROBLEMS AND INNOVATIONS* (pp. 250-252).

9. Бакиров, Б., Рўзиқулов, Н. Б., & Аскаров, С. С. (2018). МЕТАБОЛИК ГЕПАТОДИСТРОФИЯ КАСАЛЛИГИНИНГ НАЗАРИЙ ВА ИЛМИЙ ТАЛҚИНИ. *ГЛОБАЛЬНАЯ НАУКА И ИННОВАЦИЯ 2020: ЦЕНТРАЛЬНАЯ АЗИЯ*, 50.

10. Bakirov, B., & Ro'zqulov, N. B. (2022). MAHSULDOR QORAMOLLARDA KATTA QORIN ATSIDOZINING YIL FASLLARI BO 'YICHA UCHRASH DARAJASI. *AGROBIOTEXNOLOGIYA VA VETERINARIYA TIBBIYOTI ILMUY JURNALI*, 278-281.

11. Norboev, K. N., Rakhmonov, U. A., Ruzikulov, N. B., & Eshburiev, S. B. (2022). Effectiveness of Vitaprem and Probiotic Bio-3s in Group-Prophylaxis of Hens' Hypovitaminoses. *International Journal of Multicultural and Multireligious Understanding*, 9(11), 308-314.

12. Ruzikulov, N. B. (2021). Main causes and development mechanisms of Karakol sheep Ketonuria. *Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR)*, 10(3), 556-559.

13. Rakhmonov, U. A., Norboev, K. N., Ruzikulov, N. B., & Eshburiev, S. B. (2021). Results of group-prophylactic treatment of chicken hypovitaminosis. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(8), 243-248.

14. Bakirov, B., Ruzikulov, N. B., & Haitov, N. (2015). Method of complex dyspancerization of cows and sheep. *Certificate the deposit of intellectual property. Registration*, 29(01), 2273.

15. Ro'zqulov, N. B. Yosh hayvonlar va parrandalar terapiyasi. Darslik. Toshkent, "Fan ziyosi", 2021.

16. Бакиров, Б. Б., & Рўзиқулов, Н. Б. (2015). Ҳайвонларнинг ички юқумсиз касалликлари фанидан лаборатория машғулотларни бажариш бўйича услубий қўлланма. *Самарқанд: "Ф. Насимов" ХК*.

17. Bakirov, B., & Ruzikulov, N. B. Status of protein and carbohydrate metabolism in dairy cows at hepatodystrophy. In *Proceedings of the international scientific conference on the pathophysiology of animals dedicated to the*.

18. Asqarov, S. S., Yunusov, X. B., & Ro'zqulov, N. B. (2023). Qo 'zilar dispepsiyasining klinik belgilari va ularning etiopatogenetik asoslari. *Veterinariya meditsinasi*, (8), 18-19.

19. Бакиров, Б., Рўзиқулов, Н. Б., & Даминов, А. С. (2017). ва б. лар. Ҳайвонлар касалликлари. Маълумотнома (Ўқув қўлланма). Самарқанд: "Насимов" ХК, 600.
20. Ишниязова, Ш. А., & Рузиколов, Н. Б. (2021). СОДЕРЖАНИЕ ТОКСИКАНТОВ В ОРГАНАХ И ТКАНЯХ РЫБ. *ВЕСТНИК ВЕТЕРИНАРИИ И ЖИВОТНОВОДСТВА*, 1(1).
21. Ishniyazova, S., & Ruzikulov, N. (2021). СОДЕРЖАНИЕ ТОКСИКАНТОВ В ОРГАНАХ И ТКАНЯХ РЫБ. *Вестник ветеринарии и животноводства (ssuv. uz)*, 1(1).
22. Ro'ziqukov, N. (2021). Yosh hayvonlar va parrandalar terapiyasi. "Fan ziyosi" nashriyoti.
23. Ruzikulov, N. B. Yosh hayvonlar va parrandalar terapiyasi. 2021. 1-212.
24. Ruzikulov, N., Askarov, S., Rasulov, N., & Boboev, O. (2022). RESULTS OF TREATMENT OF LAMBS DYSEPSY. In *Наука и просвещение: актуальные вопросы, достижения и инновации* (pp. 226-229).
25. Ro'ziqukov, N. Ichki yuqumsiz kasalliklar fanidan laboratoriya mashg'ulotlarini bajarish bo'yicha uslubiy qo'llanma. Samarqand: "Sogdiana ideal print" bosmaxona, 2023.
26. Bakirov, B., Ruzikulov, N. B., Asqarov, S. S., & Xudoyqulov, I. Yosh hayvonlar bronxopnevmoniyasiga qarshi kurash chora-tadbirlari bo'yicha tavsiyanoma. Samarqand: «Sogdiana ideal print», 2023.
27. Бакиров, Б. Б., & Рузиколов, Н. Б. (2015). Болезни животных.
28. Бакиров, Б. Б., & Рўзиқулов, Н. Б. (2011). Ички юқумсиз касалликлар фанидан босқич ишини бажариш бўйича услубий кўрсатма. Самарқанд: "Ф. Насимов" ХК.
29. Ro'ziqukov, N. B. Yosh hayvonlar va parrandalar terapiyasi" darslik. Toshkent-2021 "Fan ziyosi" nashriyoti, 81-90.
30. Ro'ziqukov, N. (2023). Ichki yuqumsiz kasalliklar fanidan laboratoriya mashg'ulotlarini bajarish bo'yicha uslubiy qo'llanma. "Sogdiana ideal print" bosmaxona.

UDK: 619:636:616

## SOG‘IN SIGIRLARDA JIGAR DISTROFIYASI PAYTIDA UGLEVODLAR ALMASHINUVINING HOLATI

*M.Qambaraliyeva, iqtidorli talaba;*

*N.B.Ro‘ziqulov, ilmiy rahbar, dotsent*

*Samarqand davlat veterinariya meditsinası,  
chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti*

**Mavzuning dolzarbligi.** Respublikamizda chorvachilikni jadal rivojlantirish asosida aholining chorvachilik mahsulotlariga bo‘lgan talabini qondirishni yanada yaxshilashga qaratilgan agrar islohatlarning amalga oshirilishida, xususan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tomonidan 2017-yil 16-martda qabul qilingan PQ-4841-sonli «Chorvachilikda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishga doir qo‘sishma chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi qarorining ijrosini ta’minlashda, shuningdek, ichki bozorni sifatli va yetarli miqdordagi chorvachilik mahsulotlari bilan to‘ldirish va oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashda yosh chorva mollarining modda almashinuvi buzilishi kasalliklari asosiy to‘siqlardan biri hisoblanadi.

Shuni ta’kidlash lozimki, modda almashinuvi (metabolizm) – tiriklik uchun zarur moddalarning tashqi muhitdan organizmga tushishi, hazmlanishi, o‘zlashtirilishi va hosil bo‘lgan so‘ngi mahsulotlar (metabolitlar)ning tashqi muhitga chiqarilishini o‘z ichiga oluvchi murakkab fiziologik jarayon bo‘lib, bu jarayon hayvon organizmida oqsillar, uglevodlar, lipidlar, mineral moddalar va vitaminlar almashinuvi shaklida namoyon bo‘ladi. Ushbu jarayonlarning buzilishi qator metabolizm kasalliklariga sabab bo‘ladi (B.Bakirov, 2015).

Mahsuldor hayvonlarda va shu jumladan, sog‘in sigirlarda energetik moddalarga bo‘lgan talabning nisbatan kattaligi (ratsionning har bir oziqa birligi hisobiga o‘rtacha 80 – 100 grammdan qand talab qilinishi) va ushbu talabni qondirish imkoniyatlarining cheklanganligi hayvon organizmida qator buzilishlarni keltirib chiqaradi (I.P.Kondraxin, 1989).

Ma’lumki, hayvonlarda uglevodlar almashinuvi oziqa tarkibidagi polisaxaridlarning hazm kanalida parchalanishi, fosforlanishi, defosforlanishi, qonga so‘rilgan glyukoza (glikogen)ning hujayralarda (shu jumladan, jigar hujayralarida) anaerob oksidlanishga uchrab, sut va pirouzum kislotalariga aylanishi, ularning aerob oksidlanish (Krebs zanjirida)ga uchrashi va ATF ga aylanishi, hosil bo‘lgan so‘nggi mahsulotlarning organizmdan chiqib ketishidan iborat bo‘lgan uzun va murakkab biokimyoviy jarayonlarni o‘z ichiga oladi. Natijada 1 mol glyukozaning to‘liq

oksidlanishidan 36 mol ATF sintezlanadi va bunda hosil bo‘lgan energiya 9,1 kkal (yoki 1240 KDJ)ni tashkil etadi.

Ushbu glikoliz (glikogenoliz) jarayonidan tashqari, organizmda energiya tanqisligi paytlarida glyukozaning nouglevod tabiatidagi mahsulotlardan ham hosil bo‘lishi – glyukoneogenez ro‘y beradi. Bunday nouglevod moddalarga pirouzum va sut kislotalari, glikogen aminokislotalar, pirovoiy yoki unga aylanadigan, ya’ni Krebs zanjiridagi istalgan modda kirishi mumkin (V.V.Novitskiy, YE.D.Goldberg, 2001).

**Olingan natijalar.** Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, O‘zbekistonning silos – konsentrat va dag‘al xashak – konsentrat tipidagi oziqlantirishga mo‘ljallangan fermer xo‘jaliklari sharoitidagi sog‘in sigirlarning o‘rtacha 29,7 – 32,7 foizi laktatsiyaning 4 – 6 oylarida jigar distrofiyasi kasalligi bilan kasallanadi. Bu paytda sigir organizmda boshqa qator buzilishlar bilan birgalikda uglevodlar almashinuvida ham chuqur patologik o‘zgarishlar ro‘y beradi. Xususan, bu paytda qondagi glyukoza miqdorining o‘rtacha 1,5 – 1,71 mmolG‘l (me’yori 2,22 – 3,33 mmolG‘l)gacha pasayishi kuzatildi. Shuni ham ta’kidlash lozimki, uglevodlar almashinuvi darajasining bunday pasayishi silos – konsentrat tipiga asoslangan oziqlantirish sharoitlaridagi sog‘in sigirlarning 60 foizi, dag‘al xashak – konsentrat tipiga asoslangan oziqlantirish sharoitlaridagi sog‘in sigirlarning esa 70 foizida kuzatildi.

**Xulosa.** Sog‘in sigirlarda jigar distrofiyasi paytida hayvonlarning o‘rtacha 60 – 70 foizida uglevolar almashinuvi darajasi pasayadi va pasayish gipoglikemiya shaklida namoyon bo‘ladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Boboev, O. R., Bakirov, B., Ruzikulov, N. B., & Askarov, S. S. (2021). Peculiarities of metabolic disorders in endemic cows. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(3), 2196-2200.
2. Khayitov, B. N. O., Bakirov, B., & Ruzikulov, N. B. (2021). Scientific Basis for the Treatment and Prevention of Large Abdominal Acidosis in Productive Cows. *International Journal of Multicultural and Multireligious Understanding*, 8(9), 442-452.
3. Бакиров, Б. Б., & Рўзиқулов, Н. Б. (2018). Ёш ҳайвонлар ва паррандаларнинг юқумсиз касалликлари. Ўқув услугубий қўлланма. Самарқанд.
4. Бакиров, Б., & Рузиколов, Н. Б. (2017). Причины и ранняя диагностика нарушений метаболизма и дистрофии печени у коров в Республике Узбекистан. *Ветеринария*, (5), 49-53.
5. Бакиров, Б., Рузиколов, Н. Б., Бобоев, О. Р., & Улугмуродов, Ю. (2021). Особенности нарушения обмена веществ при эндемическом зобе у коров. *Вестник Ошского государственного университета*, (1-2), 215-220.

6. Bakirov, B. B., & Ro'zqulov, N. B. (2018). Yosh hayvonlar va parrandalarning yuqumsiz kasalliklari. *O'quv uslubiy qo'llanma. Samarqand.*
7. Baxtiyar, B., Nuriddin, R., Oybek, B., & Xokimjon, K. (2017). Etiopathogenesis, hepatogenetic implications and early diagnosis of disorders of protein metabolism in productive animals in Uzbekistan conditions. *IJAR*, 3(2), 272-277.
8. Bakirov, B., Ruzikulov, N. B., Boboev, O. R., & Ergashev, M. (2022). Endocrine properties of metabolic disorders in productive cattle in Uzbekistan. In *WORLD SCIENCE: PROBLEMS AND INNOVATIONS* (pp. 250-252).
9. Бакиров, Б., Рўзиқулов, Н. Б., & Асқаров, С. С. (2018). МЕТАБОЛИК ГЕПАТОДИСТРОФИЯ КАСАЛЛИГИНИНГ НАЗАРИЙ ВА ИЛМИЙ ТАЛҚИНИ. *ГЛОБАЛЬНАЯ НАУКА И ИННОВАЦИЯ 2020: ЦЕНТРАЛЬНАЯ АЗИЯ*, 50.
10. Bakirov, B., & Ro'zqulov, N. B. (2022). MAHSULDOR QORAMOLLARDA KATTA QORIN ATSIDOZINING YIL FASLLARI BO 'YICHA UCHRASH DARAJASI. *AGROBIOTEXNOLOGIYA VA VETERINARIYA TIBBIYOTI ILMIY JURNALI*, 278-281.
11. Norboev, K. N., Rakhmonov, U. A., Ruzikulov, N. B., & Eshburiev, S. B. (2022). Effectiveness of Vitaprem and Probiotic Bio-3s in Group-Prophylaxis of Hens' Hypovitaminoses. *International Journal of Multicultural and Multireligious Understanding*, 9(11), 308-314.
12. Ruzikulov, N. B. (2021). Main causes and development mechanisms of Karakol sheep Ketonuria. *Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR)*, 10(3), 556-559.
13. Rakhmonov, U. A., Norboev, K. N., Ruzikulov, N. B., & Eshburiev, S. B. (2021). Results of group-prophylactic treatment of chicken hypovitaminosis. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(8), 243-248.
14. Bakirov, B., Ruzikulov, N. B., & Haitov, N. (2015). Method of complex dyspancerization of cows and sheep. *Certificate the deposit of intellectual property. Registration*, 29(01), 2273.
15. Ro'zqulov, N. B. Yosh hayvonlar va parrandalar terapiyasi. Darslik. Toshkent, "Fan ziyosi", 2021.
16. Бакиров, Б. Б., & Рўзиқулов, Н. Б. (2015). Ҳайвонларнинг ички юқумсиз касалликлари фанидан лаборатория машғулотларни бажариш бўйича услубий қўлланма. *Самарқанд: "Ф. Насимов" ХК*.
17. Bakirov, B., & Ruzikulov, N. B. Status of protein and carbohydrate metabolism in dairy cows at hepatodystrophy. In *Proceedings of the international scientific conference on the pathophysiology of animals dedicated to the*.

18. Asqarov, S. S., Yunusov, X. B., & Ro'ziqulov, N. B. (2023). Qo 'zilar dispepsiyasining klinik belgilari va ularning etiopatogenetik asoslari. *Veterinariya meditsinasi*, (8), 18-19.
19. Бакиров, Б., Рўзиқулов, Н. Б., & Даминов, А. С. (2017). ва б. лар. Ҳайвонлар касалликлари. Маълумотнома (Ўқув қўлланма). Самарқанд: "Насимов" ХК, 600.
20. Ишниязова, Ш. А., & Рузикулов, Н. Б. (2021). СОДЕРЖАНИЕ ТОКСИКАНТОВ В ОРГАНАХ И ТКАНЯХ РЫБ. *ВЕСТНИК ВЕТЕРИНАРИИ И ЖИВОТНОВОДСТВА*, 1(1).
21. Ishniyazova, S., & Ruzikulov, N. (2021). СОДЕРЖАНИЕ ТОКСИКАНТОВ В ОРГАНАХ И ТКАНЯХ РЫБ. *Вестник ветеринарии и животноводства (ssuv. uz)*, 1(1).
22. Ro'ziqulov, N. (2021). Yosh hayvonlar va parrandalar terapiyasi. "Fan ziyosi" nashriyoti.
23. Ruzikulov, N. B. Yosh hayvonlar va parrandalar terapiyasi. 2021. 1-212.
24. Ruzikulov, N., Askarov, S., Rasulov, N., & Boboev, O. (2022). RESULTS OF TREATMENT OF LAMBS DYSEPSY. In *Наука и просвещение: актуальные вопросы, достижения и инновации* (pp. 226-229).
25. Ro'ziqulov, N. Ichki yuqumsiz kasalliklar fanidan laboratoriya mashg'ulotlarini bajarish bo'yicha uslubiy qo'llanma. Samarqand: "Sogdiana ideal print" bosmaxona, 2023.
26. Bakirov, B., Ruzikulov, N. B., Asqarov, S. S., & Xudoyqulov, I. Yosh hayvonlar bronxopnevmoniyasiga qarshi kurash chora-tadbirlari bo'yicha tavsiyanoma. Samarqand: «Sogdiana ideal print», 2023.
27. Бакиров, Б. Б., & Рузикулов, Н. Б. (2015). Болезни животных.
28. Бакиров, Б. Б., & Рўзиқулов, Н. Б. (2011). Ички юқумсиз касалликлар фанидан босқич ишини бажариш бўйича услубий кўрсатма. Самарқанд: "Ф. Насимов" ХК.
29. Ro'ziqulov, N. B. Yosh hayvonlar va parrandalar terapiyasi" darslik. Toshkent-2021 "Fan ziyosi" nashriyoti, 81-90.
30. Ro'ziqulov, N. (2023). Ichki yuqumsiz kasalliklar fanidan laboratoriya mashg'ulotlarini bajarish bo'yicha uslubiy qo'llanma. "Sogdiana ideal print" bosmaxona.

UDK: 619:636:616

## SOG‘IN SIGIDLARDA JIGAR PATHOLOGIYASINING TARQALISH HOLATI VA SABABLARI

P.Xasanova, iqtidorli talaba;

N.B.Ro‘ziqulov, ilmiy rahbar, dotsent

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi,  
chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti

**Mavzuning dolzarbligi.** Respublikamizda chorvachilikni jadal rivojlantirish asosida aholining chorvachilik mahsulotlariga bo‘lgan talabini qondirishni yanada yaxshilashga qaratilgan agrar islohatlarning amalga oshirilishida, xususan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tomonidan 2017-yil 16-martda qabul qilingan PQ-4841-sonli «Chorvachilikda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishga doir qo‘sishma chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi qarorining ijrosini ta’minlashda, shuningdek, ichki bozorni sifatli va yetarli miqdordagi chorvachilik mahsulotlari bilan to‘ldirish va oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashda yosh chorva mollarining modda almashinuvi buzilishi kasalliklari asosiy to‘siqlardan biri hisoblanadi.

**Tadqiqot natijalari.** Keyingi yillarda bo‘rdoqilangan holda va majburan so‘yilgan qoramollarda jigar xom ashyosining iste’mol uchun yaroqsizlik darajasi uzlusiz ravishda oshib bormoqda.

Ushbu holatning Respublikamiz xo‘jaliklarida aniq tarqalish darajasi va asosiy sabablarini aniqlash maqsadida Samarqand viloyatining Pastdarg‘om tumanidagi qushxonalar va shaxsiy go‘sht dukonlari sharoitida so‘yilgan 112 dona sog‘in sigir jigari organoleptik tekshirishlardan o‘tkazildi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, tekshirilgan 112 dona sigir jigaridan 61 tasi (54,6 %)da har xil patologik o‘zgarishlar kuzatildi. Shulardan 25 tasi (22,2 %)da gepatoz, 12 tasi (10,7 %)da sirroz, 11 tasi (9,8 %)da gepatoz va sirrozing aralash buzilishlari, 8 tasi (7,45 %)da exinokokkoz va 5 tasi (4,45 %)da absess qayd etildi.

Demak, sog‘in sigirlarda jigar kasalliklari orasida eng asosiy o‘rinni gepatoz (jigar distrofiyasi) egallaydi va ushbu kasallik bilan sog‘in sigirlarning kasallanish darajasi o‘rtacha 29,7-32,7 foizni tashkil etadi.

Kasallik sabablarini aniqlash maqsadida tumandagi «Mustaqillik» va «Do‘stlik» fermerlar uyushmalariga qarashli qoramolchilik fermer xo‘jaliklari sharoitidagi sog‘in sigirlar ratsionlari chuqur tahlil qilindi. Tekshirish natijalari shuni ko‘rsatdiki, siloskinsentrat tipiga asoslangan oziqlantirish sharoitidagi sog‘in sigirlar ratsionining hazmlanuvchi protein bilan ta’minlanish darajasi o‘rtacha 90 foizni, qand bilan – 50,8

foiz, fosfor bilan – 80 foiz va kalsiy bilan ta'minlanish darajasi – 130 foizni, undagi qand-protein nisbati 0,43, kalsiy-fosfor esa 2,3 ni tashkil etadi.

Xuddi shuningdek, dag' al xashak-konsentrat tipiga asoslangan oziqlantirish sharoitidagi sog'in sigirlar ratsionining hazmlanuvchi protein bilan ta'minlanish darajasi o'rtacha 75-80 foiz, qand bilan - 60,1-65,1 foiz, fosfor bilan 67,1-74,2 foiz va kalsiy bilan ta'minlanish darajasi 125,8-138 foizni, undagi qand-protein nisbati 0,5-0,6, kalsiy-fosfor esa 2,65-2,7 ni tashkil etdi.

### **Xulosa.**

1. Samarqand viloyati sharoitidagi sog'in sigirlarning jigar distrofiyasi kasalligi bilan kasallanish darajasi o'rtacha 29,7-32,7 foizni tashkil etadi va kasallik oqibatida xo'jaliklar katta iqtisodiy zarar ko'radi.

2. Silos-konsentrat va dag' al xashak-konsentrat tiplariga asoslangan oziqlantirish sharoitlaridagi sog'in sigirlarning jigar distrafiyasi kasalligi bilan kasallanishining asosiy sababi ratsionning hazmlanuvchi protein, qand va fosfor bilan ta'minlanish darajasining pastligi, undagi kalsiy miqdorining ortiqchaligi, qand-protein nisbatining 0,43-0,6 dan past, kalsiy-fosfor nisbatining esa 2,3-2,7 dan yuqori bo'lishi hisoblanadi.

### **Foydalilanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Boboev, O. R., Bakirov, B., Ruzikulov, N. B., & Askarov, S. S. (2021). Peculiarities of metabolic disorders in endemic cows. *ACADEMIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(3), 2196-2200.
2. Khayitov, B. N. O., Bakirov, B., & Ruzikulov, N. B. (2021). Scientific Basis for the Treatment and Prevention of Large Abdominal Acidosis in Productive Cows. *International Journal of Multicultural and Multireligious Understanding*, 8(9), 442-452.
3. Бакиров, Б. Б., & Рўзиқулов, Н. Б. (2018). Ёш ҳайвонлар ва паррандаларнинг юқумсиз касалликлари. Ўқув услубий қўлланма. Самарқанд.
4. Бакиров, Б., & Рузиколов, Н. Б. (2017). Причины и ранняя диагностика нарушений метаболизма и дистрофии печени у коров в Республике Узбекистан. *Ветеринария*, (5), 49-53.
5. Бакиров, Б., Рузиколов, Н. Б., Бобоев, О. Р., & Улугмуродов, Ю. (2021). Особенности нарушения обмена веществ при эндемическом зобе у коров. *Вестник Ошского государственного университета*, (1-2), 215-220.
6. Bakirov, B. B., & Ro'ziqulov, N. B. (2018). Yosh hayvonlar va parrandalarning yuqumsiz kasallikkari. O'quv uslubiy qo'llanma. Samarqand.
7. Baxtiyar, B., Nuriddin, R., Oybek, B., & Xokimjon, K. (2017). Etiopathogenesis, hepatogenetic implications and early diagnosis of disorders of protein metabolism in productive animals in Uzbekistan conditions. *IJAR*, 3(2), 272-277.

8. Bakirov, B., Ruzikulov, N. B., Boboev, O. R., & Ergashev, M. (2022). Endocrine properties of metabolic disorders in productive cattle in Uzbekistan. In *WORLD SCIENCE: PROBLEMS AND INNOVATIONS* (pp. 250-252).
9. Бакиров, Б., Рўзиқулов, Н. Б., & Асқаров, С. С. (2018). МЕТАБОЛИК ГЕПАТОДИСТРОФИЯ КАСАЛЛИГИНИНГ НАЗАРИЙ ВА ИЛМИЙ ТАЛҚИНИ. *ГЛОБАЛЬНАЯ НАУКА И ИННОВАЦИЯ 2020: ЦЕНТРАЛЬНАЯ АЗИЯ*, 50.
10. Bakirov, B., & Ro'zqulov, N. B. (2022). MAHSULDOR QORAMOLLARDA KATTA QORIN ATSIDOZINING YIL FASLLARI BO 'YICHA UCHRASH DARAJASI. *AGROBIOTEXNOLOGIYA VA VETERINARIYA TIBBIYOTI ILMUY JURNALI*, 278-281.
11. Norboev, K. N., Rakhmonov, U. A., Ruzikulov, N. B., & Eshburiev, S. B. (2022). Effectiveness of Vitaprem and Probiotic Bio-3s in Group-Prophylaxis of Hens' Hypovitaminoses. *International Journal of Multicultural and Multireligious Understanding*, 9(11), 308-314.
12. Ruzikulov, N. B. (2021). Main causes and development mechanisms of Karakol sheep Ketonuria. *Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR)*, 10(3), 556-559.
13. Rakhmonov, U. A., Norboev, K. N., Ruzikulov, N. B., & Eshburiev, S. B. (2021). Results of group-prophylactic treatment of chicken hypovitaminosis. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(8), 243-248.
14. Bakirov, B., Ruzikulov, N. B., & Haitov, N. (2015). Method of complex dyspancerization of cows and sheep. *Certificate the deposit of intellectual property. Registration*, 29(01), 2273.
15. Ro'zqulov, N. B. Yosh hayvonlar va parrandalar terapiyasi. Darslik. Toshkent, "Fan ziyosi", 2021.
16. Бакиров, Б. Б., & Рўзиқулов, Н. Б. (2015). Ҳайвонларнинг ички юқумсиз касалликлари фанидан лаборатория машғулотларни бажариш бўйича услубий қўлланма. *Самарқанд: "Ф. Насимов" ХК*.
17. Bakirov, B., & Ruzikulov, N. B. Status of protein and carbohydrate metabolism in dairy cows at hepatodystrophy. In *Proceedings of the international scientific conference on the pathophysiology of animals dedicated to the*.
18. Asqarov, S. S., Yunusov, X. B., & Ro'zqulov, N. B. (2023). Qo 'zilar dispepsiyasining klinik belgilari va ularning etiopatogenetik asoslari. *Veterinariya meditsinasi*, (8), 18-19.
19. Бакиров, Б., Рўзиқулов, Н. Б., & Даминов, А. С. (2017). ва б. лар. Ҳайвонлар касалликлари. Маълумотнома (Ўқув қўлланма). *Самарқанд: "Насимов" ХК*, 600.

20. Ишниязова, Ш. А., & Рузикулов, Н. Б. (2021). СОДЕРЖАНИЕ ТОКСИКАНТОВ В ОРГАНАХ И ТКАНЯХ РЫБ. *ВЕСТНИК ВЕТЕРИНАРИИ И ЖИВОТНОВОДСТВА*, 1(1).
21. Ishniyazova, S., & Ruzikulov, N. (2021). СОДЕРЖАНИЕ ТОКСИКАНТОВ В ОРГАНАХ И ТКАНЯХ РЫБ. *Вестник ветеринарии и животноводства (ssuv. uz)*, 1(1).
22. Ro'ziqukov, N. (2021). Yosh hayvonlar va parrandalar terapiyasi. "Fan ziyosi" nashriyoti.
23. Ruzikulov, N. B. Yosh hayvonlar va parrandalar terapiyasi. 2021. 1-212.
24. Ruzikulov, N., Askarov, S., Rasulov, N., & Boboev, O. (2022). RESULTS OF TREATMENT OF LAMBS DYSEPSY. In *Наука и просвещение: актуальные вопросы, достижения и инновации* (pp. 226-229).
25. Ro'ziqukov, N. Ichki yuqumsiz kasalliklar fanidan laboratoriya mashg'ulotlarini bajarish bo'yicha uslubiy qo'llanma. Samarqand:" Sogdiana ideal print" bosmaxona, 2023.
26. Bakirov, B., Ruzikulov, N. B., Asqarov, S. S., & Xudoyqulov, I. Yosh hayvonlar bronhopnevmoniyasiga qarshi kurash chora-tadbirlari bo'yicha tavsiyanoma. Samarqand:«Sogdiana ideal print», 2023.
27. Бакиров, Б. Б., & Рузикулов, Н. Б. (2015). Болезни животных.
28. Бакиров, Б. Б., & Рўзиқулов, Н. Б. (2011). Ички юқумсиз касалликлар фанидан босқич ишини бажариш бўйича услугубий кўрсатма. Самарқанд:“Ф. Насимов” ХК.
29. Ro'ziqukov, N. B. Yosh hayvonlar va parrandalar terapiyasi" darslik. Toshkent-2021 "Fan ziyosi" nashriyoti, 81-90.
30. Ro'ziqukov, N. (2023). Ichki yuqumsiz kasalliklar fanidan laboratoriya mashg'ulotlarini bajarish bo'yicha uslubiy qo'llanma. "Sogdiana ideal print" bosmaxona.

## ОБ ИСПОЛЬЗОВАНИИ ЦИФРОВЫХ И ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНЫХ ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В УПРАВЛЕНИИ ТРАНСПОРТОМ

**Араббаев Аробидин Хуснидинович**

*Старший преподаватель АГУ*

Современные информационные технологии оказывают большое влияние на экономику и жизнь общества, и под их влиянием меняются нынешняя экономика и образ жизни людей. В качестве текущей и перспективной модернизации транспортной отрасли стоит выделить разработку новых видов и способов взаимоотношений транспортных организаций с потребителями и их широкое использование. Цифровизация транспортного сектора послужит оптимизации транспортных и логистических затрат. Для современных информационных систем характерно создание единого информационного пространства для всех участников взаимодействий. Обширность территории нашей страны и необходимость покрытия транспортными услугами самых отдаленных районов повышают зависимость транспортной инфраструктуры от высоких информационных технологий.

Как указано в Указе Президента Республики Узбекистан от 28 января 2022 года «О новой стратегии развития Республики Узбекистан на 2022-2026 годы» № ПФ-60, «Улучшение дорожной инфраструктуры и сокращение количества ДТП и гибели людей на дорогах за счет создания безопасных условий движения, в том числе полной цифровизации системы управления дорожным движением и обеспечения широкого участия населения в работе в этой сфере.

Использование цифровых и интеллектуальных информационных технологий в управлении транспортным сектором приносит ряд полезных функций. Например, благодаря активному использованию информационных технологий значительно ускорен прием новых заказов, а также процесс доставки и транспортировки товаров, управление складами и парком транспортных средств. В результате увеличения скорости этих процессов сокращается срок выполнения заказа с точки зрения заказчика, сокращается бумажный документооборот, снижается роль человеческого фактора, что приводит к снижению материальных затрат. Благодаря быстрому реагированию на запросы потребителей удовлетворяется спрос потребителей, это гарантирует стабильность выполнения заказов и полностью отвечает требованиям современной рыночной экономики.

Постановление Президента Республики Узбекистан от 7 февраля 2017 года № ПФ-4947 «О Стратегии действий по дальнейшему развитию Республики

Узбекистан», «Международные рейтинги Республики Узбекистан» от 25 февраля, 2019 года и обеспечение выполнения задач, указанных в пункте 6 решения РР-4210 о мерах по улучшению своего положения в индексах, согласно постановлению Президента Республики Узбекистан от 2 марта 2020 года «2017 -2021 ПФ-5953 № ПФ-5953 о реализации стратегии действий по пяти приоритетным направлениям развития Республики Узбекистан в «Год развития науки, просвещения и цифровой экономики»., а также в целях дальнейшего повышения эффекта проводимых реформ, создания условий для всестороннего и опережающего развития общества и экономики, модернизации нашей страны и реализации приоритетных направлений либерализации всех сфер жизни:

1. Разработка фундаментальных основ повышения конкурентоспособности за счет цифровизации экономики в сфере услуг 2. Создание программного обеспечения, позволяющего осуществить цифровизацию экономики в сфере услуг 3. Приоритетные задачи такие как формирование единого электронного платформа для цифровизации экономики в сфере услуг. На сегодняшний день существует ряд проблем в транспортной инфраструктуре Республики, информации о дорогах, объектах, постах, логистических центрах, железнодорожных вокзалах, аэропортах, автовокзалах, а также автомобильный, железнодорожный, воздушный транспорт отсутствие системы мониторинга данных о грузовых и пассажирских перевозках в городе, отсутствие единых и дифференцированных тарифных планов для регионов в процессе использования общественного транспорта населения, устаревшая инфраструктура автомобильного транспорта, т.к. а также это. Крайне низкий уровень использования информационных и коммуникационных технологий в сфере образования является одной из важных проблем.

Если мы посмотрим на развитые зарубежные страны, то увидим, что вышеперечисленные процессы были реализованы в полной мере несколько лет назад. В частности, полностью автоматизирован транспортный сектор в США, Германии, Франции, Англии, Турции, Сингапуре, ОАЭ, Китае, Малайзии, Корее, Японии и других странах. В результате этого мы видим, что транспортная сфера всесторонне развивалась на протяжении многих лет, а процессы реализуются посредством цифровых технологий. К настоящему времени мы можем наблюдать, что эти страны переходят на новый этап использования искусственного интеллекта на основе концепции умного города, поэтому, если мы стремимся вывести нашу страну в ряды развитых стран, в первую очередь мы необходимо решать проблемы, развивая каждый сектор отдельно, мы можем достичь поставленных целей. Необходимо отметить следующие вопросы по внедрению системы цифровизации в транспортной сфере:

В нашей республике основными пассажирскими и грузовыми перевозчиками являются локомотивы, которые практически не оцифрованы в масштабах всех регионов отсутствие единой информационной интеграции между возрастающими организациями и заказчиками отсутствие национальной системы оказания транспортных услуг и практически необеспеченность их системой электронных платежей; - единая цифровая система для автомобильного, железнодорожного и воздушного транспорта в республике Проблем много, таких как отсутствие платформы, что создает необходимость ускорения реформ по цифровизации. В текущий период и в ближайшем будущем внедрение в транспортную систему нашей страны таких перспективных разработок, как цифровая инфраструктура и интермодальные услуги, позволит увеличить объемы пассажирских и грузовых перевозок и будет способствовать стабильности экономики. большое влияние. Причина объясняется удобным географическим и транзитным расположением нашей страны. Учитывая, что мы лишены водных путей и транспорт есть только наземный, значение воздушного, железнодорожного и автомобильного транспорта в нашей стране возрастает само собой, и мы требуем устранения причиненных нами проблем.

Если сравнивать с опытом зарубежных развитых стран, то транспортная сфера имеет большую роль в развитии туристической отрасли, которую мы хотим развивать сегодня. Потому что создание общегосударственной информационной системы транспортной отрасли очень важно как для пассажиров, так и для гостей страны. Существует спрос на новое программное обеспечение, отвечающее современным требованиям, у всех заинтересованных сторон, что немаловажно для развития транспортной отрасли. В нынешнюю эпоху глобализации из нашей способности иметь всю информацию на скорости необходимо сделать вывод, что во многих странах мира уже несколько лет по всем направлениям транспортной деятельности информационные услуги оказываются пользователям, от поездок до отправки и получения товаров.Широко используются интеллектуальные программные программы, а также разрабатываются и широко внедряются собственные локальные программные продукты.Исходя из вышеизложенного, можно сделать вывод, что в нашей стране широко внедряются информационные технологии, оцифровка занимает высокое место, и это относится к транспортному сектору, важно широкое внедрение.

Как мы упоминали выше, путем внедрения нашего широкого национального программного обеспечения в транспортный сектор и его оцифровки на уровне времени, развитие транспортного сектора в конечном итоге улучшит скорость и качество туризма, торговли, экспорта и импорта. Сегодня, если не будет скорости, качества и точности, наше место займут другие страны

и мы можем быть лишены наших широких возможностей. Это означает, что современные информационные технологии должны быть широко задействованы в транспортной сфере и, при необходимости, необходимы для этого инвестиции.

## ЛИТЕРАТУРА

1. Указ Президента Республики Узбекистан от 28 января 2022 года № ПФ-60 «О Стратегии развития нового Узбекистана на 2022-2026 годы»
2. Указ Президента Республики Узбекистан от 7 января , 2017 г. - Постановление № ПФ-4947 от 25 февраля 2019 г. «О Стратегии действий по дальнейшему развитию Республики Узбекистан»
3. Меры по улучшению позиций Республики Узбекистан в международных рейтингах и индексах
4. Решение № РQ -4210 Президента Республики Узбекистан от 2 марта 2020 года «Стратегия действий по пяти приоритетным направлениям развития Республики Узбекистан на 2017-2021 годы» «Наука, просвещение и цифровизация Постановление № ПФ-5953 о госпрограмма 8 будет реализована в год экономического развития.
4. А.Х.Араббаев. Некриптографические механизмы безопасности. НАУКА - ЭФФЕКТИВНЫЙ ИНСТРУМЕНТ ПОЗНАНИЯ МИРА: материалы II международной научно-практической конференции (26 декабря 2019г., Москва) 121-124 бетлар.
5. А.Х.Араббаев. AXBOROT-KOMMUNIKATSION TEKNOLOGIYALARIDAN IJODIY FOYDALANISH. RESEARCH FOCUS | VOLUME 2 | ISSUE 3 | 2023 ISSN: 2181-3833 ResearchBip (14) | Google Scholar | SJIF (5.708) | UIF (8.3).

## MARKAZIY OSIYO MINTAQASIDA SUV TANQISLIGI MUAMMOLARI.ULARNING MINTAQAs RIVOJIDAGI AHAMIYATI VA MUAMMONI HAL QILISHGA DOIR USTUVOR VAZIFALAR

*Isroilov Sardorbek Samandar o'g'li*

*The University of World economy and diplomacy*

*the faculty of International relations*

*Email:isardorbek846@gmail.com*

**Annotatsiya:** Bugungi kunda butun dunyo bo'ylab xususan, Markaziy Osiyo mintaqasida suv resurslari tanqisligi muammosi dolzarblik kasb etib bormoqda. Ushbu maqolada bu fojeaning qay tarzda vujudga kelganligi, insoniyat va atrof muhit uchun keltirishi mumkin bo'lgan zararlari oqibatlari yoritib berilgan. Shuningdek, bu muammoni hal qilishga doir xalqaro tajriba, muqobil yechimlar ham ko'rsatilgan. Maqolani yozish davomida muammo to'liq o'rganib chiqilgan holda bir nechta tahliliy usullardan foydalanilgan.

**Kalit so'zlar:** suv diplomatiyasi, infratuzilma obyektlari, Tolibon hukumati, Qo'shtepa kanali, yuqori oqim mamlakatlari, Orolqum cho'li minntaqaviy hamkorlik, ekologik xavfsizlik, transchegaraviy daryolar.

Bugungi kun uchun eng aktual mavzu - Markaziy Osiyoda suv tanqisligi: muammolar va yechimlar. Ushbu maqolada Markaziy Osiyoda vujuga kelgan va "21-asr fojeasi" deya ko'rileyotgan mavzu Suv resurslari tanqisligining qay tarzda vujudga kelganligi, oqibatlari va potentsial yechimlari tahlil qilinadi. Markaziy Osiyoda suv tanqisligi muammosi vujudga kelgandan so'ng vujudga kelgan o'zgarishlarni ham alohida ta'kidlashimiz kerak. Birinchi jihat bu suv tanqisligi, global isish tufayli Markaziy Osiyo hududida cho'llanish xavfi ortib bormoqda va buning natijasida qishloq xo'jalik mahsulotlari yetishtiradigan hududlar ham kamaymoqda. Natijada bu holat oziq ovqat mahsulotlari hajmining kamayishiga va narx navoning oshishiga olib kelishi mumkin. Ikkinci jihat iqlim o'zgarishi natijasida chuchuk suv manbalarining kamayib borayotganligi va aholi uchun istemolga yaroqli suv zahiralarining kamayib ketganligini olishimiz mumkin. Shuning uchun ham aholi orasida istemolga yaroqli suvdan foydalanmayotganliklari tufayli kasalliklar soni oshib bormoqda. Aholi turmush tarzining yomonlashib ketgani ham tabbiy hol chunki o'rganish davomida aniq bo'ldiki mamlakatimiz hududidagi ayrim aholi yashaydigan hududlar deyarli yashash uchun yaroqsiz holatga kelib qolgan va aholi salomatligi uchun xavfli hisoblangan ekologik notoza hisoblanadi. Mamlakatimizda bu muammoning oldini olish maqsadida bir qator chora tadbirlar amalga oshirilmoqda. Shuningdek maqolada Markaziy Osiyo hududida joylashgan suv resurslarining mintaqas bo'ylab qanday

taqsimlangani,mintaqani suv bilan ta'minlaydigan daryolar holatiga ham alohida ko'rsatiladi.Markaziy Osiyo davlatlarining suv resurslaridan o'zaro kelishilgan holatda foydalanishi va yuqori oqim mamlakatlari Qirg'iziston,Tojikistonning mintaqasi hududida suv resurslari taqsimotida tutgan o'rni ham yoritiladi.Asosiyi,mintaqa hududiga suv taqsimoti masalasida yangi qo'shilgan davlat Afg'oniston bilan bog'liq vaziyat ham tahlil qilib beriladi.Shuningdek maqolada asosiy e'tibor qaratilgan masala Suv muammolarini hal qilishga qaratilgan yechimlarni ko'rsatish hisoblanadi.Jarayon davomida bir qancha yechimlar ko'rib chiqilib eng samaradorliligi yuqori bo'lganlari tahlil qilib beriladi.Mintaqa hududida vujudga kelgan ushbu muammo bir davlat uchun aloqador emas,shuning uchun bu global tahdid xavfini kamaytirish,oldini olish uchun barcha 5 davlat birgalikda harakat qilishi kerakligi alohida ta'kidlanadi.

Ayni vaqtida dunyo shiddat bilan rivojlanib bormoqda va kundan-kunga inson omili oshib bormoqda .Buning sababi barcha yangiliklar insonlar tomonidan kashf qilinmoqda va amaliyotga joriy qilinmoqda.Uzoq vaqt tabiat resurslaridan ekstensiv foydalanish va do'stona munosabatda bo'lmaslik ohir oqibat o'z natijasini ko'rsatishni boshladi.Bu hodisa insoniyatning juda katta muammolar girdobida qolib ketishiga sababchi bo'lmoqda .Ana shunday muammolardan eng asosiysi bu suv resurslari muammosidir.Iqlim o'zgarishi natijasida yog'ingarchilik miqdorining kamayib ketganligi,suvdan foydalanish infrastrukturasining yaxshi emasligi,toza ichimlik suvidan sug'orish maqsaddida foydalanish va turli xildagi tabiiy ofatlar suv zahirasining qisqarishiga sababchi bo'ldi.Ko'plab davlatlar bu muammodan aziyat chekmoqdalar.Bu muammoga misol qilib O'zbekiston va Qozog'iston hududida joylashgan,o'z vaqtida quruqlikda joylashgan ko'llar ichida kattaligi bo'yicha to'rtinchi o'rinda turgan Orol dengizini olib ko'rsatishimiz mumkin .Uzoq vaqt davomida bu dengizni suv bilan to'yintiradigan Amudaryo<sup>1</sup> va Sirdaryo<sup>2</sup> suvi tortib olindi va agrar sohada ishlatildi.Mintaqa iqtisodiyotining drayveri uzoq vaqt davomida agrar soha bo'lganligi ham bunga majbur qildi va katta miqdordagi suv paxta dalalarini sug'orishga sarflandi va bu holat ekologik muvozanatni butunlay izdan chiqardi.Shu tariqa sun'iy tarzda Orol fojeasi yaratildi. Hozirda yer yuzining aksariyat qismi qurg'oqchilik muammosi bilan ro'baro kelmoqda.Yer yuzi aholisi sonining 8 milliardga<sup>3</sup> yetgani ham bu muammoning dolzarbligini oshirmoqda .Global meteralogiya<sup>4</sup> tashkilotining hisob kitoblariga ko'ra 2050-yilga borib yer yuzi aholisinining 5 mlrdi suv tanqisligi muammosiga duchor bo'ladi.Ayni paytda ham

<sup>1</sup> <https://central-asia.guide/central-asia-guide/amu-darya/>

<sup>2</sup> <https://www.worldatlas.com/articles/where-does-the-syr-darya-river-flow.html>

<sup>3</sup> [www.worldometers.info](http://www.worldometers.info)

<sup>4</sup> <https://wmo.int/publication-series/state-of-global-water-resources-2022>

dunyodagi aholining 2 mlnrdi toza ichimlik suviga muhtojdir.Jahon tabiy resurslari instituti va Britaniyaning Economist Intellegence Unit<sup>5</sup> tadqiqotlariga muvofiq 2040-yilga borib suv tanqisligiga uchrashi mumkin bo'lgan 33 davlat orasida Markaziy Osiyo davlatlari jumladan O'bekistonning mavjudligi bizni tashvishga solishi kerak.<sup>6</sup> Raqamlardan ko'rilib turibdiki vaziyat kundan kunga yomonlashib bormoqda va insoniyat uchun ekohalokatga aylanmoqda.Oliy darajada turuvchi tashkilotlar ham bu muammoni hal qilishda Markaziy Osiyo davlatlariga har tonlama yordam bermoqdalar.Markaziy Osiyo mintaqasida ham vaziyat borgan sari yomonlashib bormoqda chunki butun dunyoga xavf solayotgan global isish,tabiat muvozanatining buzilganligi ham mintaqaga ta'sir o'tqazmasdan qolmadi.Markaziy Osiyo mamlakatlarda yoz oylarida qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirishning ko'payishi,demografik o'sish,o'rtacha haroratning oshishi natijasida bug'laninshning kuchayishi hisobiga suv resurslariga talab borgan sari oshayotganligini kuzatishimiz mumkin.Asosiy ko'rildigan masalalardan yana biri bu transchegaraviy daryolar - Amudaryo,Sirdaryo suvi taqsimotida o'zaro kelishilgan hamkorlik hisoblanadi.Chunki bu daryolar bir nechta davlatlar hududidan oqib o'tadi va barcha davlatlar uchun ham juda muhim suv manabaalari hisoblanadi. Bu 2 daryoning Tojikiston va Qирг'изистон hududidagi tog'lardan boshlanishini hisobga olsak Qozog'iston,O'zbekiston,Turkmaniston ham bu daryolardan foydalanishi uchun Tojikiston va Qирг'изистон bilan o'zaro manfaatli shartlar asosida hamkorlik qilishiga to'gri keladi.Yana bir jihat so'ngi yillarda Tolibon hukumatining Amudaryo suvidan foydalanish natijasida Qo'shtepa kanali qurilishini boshlab yuborganligi tufayli Amudaryo suvidan foydalanuvchi davlatlar sonining bitta ko'paydi va bu hol muammoni yanada jiddiylashtiradi. Markaziy Osiyodagi suv resurslari bilan bog'liq holat shuni ko'rsatib turibdiki, mintaqalari o'rtasidagi transchegaraviy daryolar taqasimotidagi kelishmovchiliklar konfliktli holatlarga ham olib kelishi mumkin.Shuning uchun ham mintaqadagi barcha davlatlar transchegaraviy daryolar suvidan foydalaganda faqat shaxsiy manfaatlarni hisobga olmasdan,o'zaro kelishilgan holatda ish tutmoqlari talab etiladi. Markaziy Osiyo davlatlari suv resurlari tanqisligi muammosini oldini olish uchun birgalikda harakat qilishlari, qo'shma loyihalarni amalga oshirishlari,alternativ yechimlar taqdim etishlari va bu muammoni kelajak uchun tahdid sifatida qabul qilishlari kerak.

Mutaxassislarning hisob-kitoblariga ko'ra, so'nggi 40 yilda Tojikistondagi 8 mingdan ortiq muzliklarning 30 foizi, Qирг'изистондаги 10 mingga yaqin muzliklarning 16 foizi erib ketgan.<sup>7</sup> Shu bilan birga, keyingi 20-30 yilda mintaqada yog'ingarchilik

<sup>5</sup> <https://www.eiu.com/default.aspx>

<sup>6</sup> [https://imrs.uz/public/publications/articles-and-abstracts/water\\_resourcesv](https://imrs.uz/public/publications/articles-and-abstracts/water_resourcesv)

<sup>7</sup> <https://telegra.ph/Garbiy-Tyan-Shan-toglarida-muzliklar-erib-bormoqda-08-05>

miqdori ham sezilarli darajada kamaydi. Mintaqaning okean va dengizlardan uzoqda joylashganligi tufayli suv resurslari strategik ahamiyatga ega. Bu mintaqda joylashgan davlatlar suv resurslari taqsimotida 2 ta turga bo'linadilar. Qozog'iston, O'zbekiston, Turkmaniston kabi davlatlar 'quyi oqim' mamlakatlari, Tojikiston va Qirg'iziston esa "yuqori oqim" mamlakatlari hisoblanadilar. Xususan, O'zbekistonda foydalaniladigan suv resurlarining 20 foizi mamlakat ichida, 80 foizi esa qo'shni Tojikiston va Qirg'izistonda shakllanadi. Bu ikki nisbatan kambag'al "yuqori oqim" mamlakatlari gidroelektr to'g'onlari va suv omborlarini qurish orqali ko'proq elektr energiyasi ishlab chiqarish va eksport qilishdan manfaatdor, bu esa mintaqaning boshqa mamlakatlarida qishloq xo'jaligini suv bilan ta'minlashda jiddiy muammolarni keltirib chiqaradi. Bu jihat uzoq yillar davomida Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasidagi ziddiyat va kelishmovchiliklarning asosiy ildizi bo'lib kelmoqda.<sup>8</sup> Mintaqaning o'ziga xos geografik joylashuvi va geosiyosiy dinamikasiga e'tibor qaratgan holda aytishimiz mumkinki, bu muammo ildizi bitta davlatga tegishli emas chunki bu muammoning vujudga kelishida asosiy omillardan biri mintaqada suv resurlarining 5 ta davlat bo'y lab notekis taqsimlanganligi tufayli vujudga kelmoqda. Dunyoda iqlim muvozanatining buzilishishi va global isishning avj olishi natijasida suv manbalarining keskin kamayganligi ayniqsa Tojikistonda ahvol yomonlashmoqda. Mamlakat prezidenti Imomali Rahmonning Barqaror rivojlanishning oltinchi maqsadiga bag'ishlangan BMT Bosh assambleyasining onlayn-yig'ilishida bayonotida Tojikistondagi kichik va o'rta muzliklarning barchasi erib tugaganligi aytib o'tildi. Bir vaqtlar "abadiy muzliklar" nomini olgan bu muzliklarning juda tez fursatda erib ketganligi ham bizni bu masala bo'yicha jiddiyoq bosh qotirishga va birgalikda harakat qilishga undaydi.

Markaziy Osiyoda suv tanqisligi muammosi vujudga kelgandan so'ng vujudga kelgan o'zgarishlarni ham alohida ta'kidlashimiz kerak. Birinchi jihat bu suv tanqisligi, global isish tufayli Markaziy Osiyo hududida cho'llanish xavfi ortib bormoqda va buning natijasida qishloq xo'jalik mahsulotlari yetishtiradigan hududlar ham kamaymoqda. Natijada bu holat oziq ovqat mahsulotlari hajmining kamayishiga va narx navoning oshishiga olib kelishi mumkin. Ikkinci jihat iqlim o'zgarishi natijasida chuchuk suv manbalarining kamayib borayotganligi va aholi uchun istemolga yaroqli suv zahiralarining kamayib ketganligini olishimiz mumkin. Shuning uchun ham aholi orasida istemolga yaroqli suvdan foydalanmayotganliklari tufayli kasalliklar soni oshib bormoqda. Mamlakatimizda bu muammoning oldini olish maqsadida bir qator chora tadbirlar amalga oshirilmoqda. Masalan oddiy suvni chuchuk suvgaga aylantiradigan mehanizmlarning asta-sekinlik bilan joriy qilinayotganligi va

<sup>8</sup> Alima Dalbaeva, "End the Weaponisation of Water in Central Asia," International Crisis Group, March 15, 2018

svuni tejash maqsadida suv kranlariga elektron hisoblagichlarning o'rnatalayotganligi ham muammo oqibatlarini kamaytirishga xizmat qiladi.

Ma'lum bir davrdan so'ng yuzaga kelgan muammolarni hal qilish yuzasidan biroz yutuqlarga erishildi lekin suvdan hammaning manfaatini ta'minlagan holda foydalanish asosiy muammo sifatida qolmoqda.Qirg'iziston va Tojikistonning svuni qo'shnilariga bermasligining asosiy sababi ular bundan elektr maqsadida foydalanishni ko'zlagani va o'z mamlakatlarini elektr energiyasi bilan muntazam ta'minlashni nazarda tutganlidir.Butun O'zbekiston hududi va Janubiy Qozog'iston o'z iqtisodiyotini mana shu suv resurslarisiz tasavvur qila olmaydi va bu hol ularga yaqin keljakda katta muammo olib kelishi mumkin.2021-yilda Qirg'iziston va O'zbekiston o'rtasida Norin daryosida gidroelektrstansiya qurish bo'yicha memorandum imzolandi bunga ko'ra Qirg'iziston hukumatiga O'zbekistonga ham elektr energiya uzatish sharti qo'yildi.<sup>i</sup>

So'nggi yillarda Toshkent tomonidan amalga oshirilgan "suv diplomatiyasi" mintaqada transchegaraviy suv resurslaridan foydalanishdagi keskinlikni sezilarli darajada yumshatgan bo'lsa-da, shu paytgacha suvdan foydalanish bo'yicha xalqaro standartlarga asoslangan umumiyligini qoidalar mavjud emasligini ko'rishimiz mumkin.Bunday siyosatda yumshoqlik bilan harakat qilishning asosiy sababi boshqa davlatlar kabi suv manabalari uchun urushga tortilishning oldini olishdir deb o'layman.2020-yilda O'zbekiston va Tojikiston o'rtasida shartnoma imzolandi:unga ko'ra Tojikiston hududida O'zbekiston va Tojikistonni elektr energiyasi bilan ta'minlovchi 2ta gidroenergetika to'g'oni qurish belgilab olindi<sup>9</sup>.Tojikiston prezidenti Imommali Rahmonning aytishicha Tojikistondagi minglab kichik va o'rta dengizlar butunlay erib ketgan<sup>ii</sup>.

Qo'shtepa kanali: Bundan tashqari Amudaryo svunini ishlata davanlatlatlar bittaga ko'paydi chunki Afg'onistonidagi Tolibon hukumati tomonidan yangi kanal Qo'shtepa kanali ham Amudaryodan suv olishi aniq bo'lib ulgurdi.Chunki ular qurayotgan kanal to'liq ishga tushsa Amudaryo svuning 20-25 foizi yulib olishi tahmin qilinmoqda.<sup>10</sup> Kanalning uzunligi 265 km chuqurligi 8 m eniga 100 m etib belgilanganligini<sup>11</sup> hisobga olsak bu holat ham fojeaga katta hissa qo'shishi mumkin.Bugungi kunda kanal qurilishida 3300 ta mashina 5500 ishchi muntazam ravishda ishlamoqda.Ularning fikriga ko'ra kanal qurib bitkazilgandan so'ng 550000 hektar yerni so'g'orish imkoniyati paydo boladi.Bu hol O'zbekiston suv ta'minotida

<sup>9</sup> Sam Bhutia, "Could Energy Trade Be a Win -Win for Tajik -Uzbek Ties?" Eurasianet, February 3, 2020.

<sup>10</sup> <https://kun.uz/uz/news/2023/06/08/dard-ustiga-chipqon-qoshtepa-kanalining-qurilishi-ozbekiston-uchun-falokatmi?ysclid=lqnsapb096515974693>

<sup>11</sup> Podrobno.uz

10-15 foiz suvning kamayishiga sabab bo'ladi.<sup>12</sup> Hozirgi kunda Amudaryo suvining turli sabablarga ko'ra kamayishi Turkmaniston, Xorazm va Qoraqalpog'iston suv taminotida uzilishlarni keltirib chiqarmoqda.<sup>13</sup>

Ushbu muammoni **SWOT** usulida tahlil qilgan holda ko'rib chiqamiz:

**Strength:** Ushbu kanal qurilishi orqali Afg'oniston o'z viloyatlariga suv tarmog'ini ulashi mumkin. Bu mamlakatdagi qoloqlik zanjirini uzadigan vosita sifatida qaralyapti. Tolibonlar uchun bu qurg'oqchilikning oldini oldini oladigan loyiha sifatida ko'rilyapti. Va shu orqali aholisini ocharchilikdan qirilib ketishdan saqlab qolmoqchi.

**Weaknesses:** 1. Tolibon hukumati bu kanal qurilishida yuqori texnologiyalardan foydalangani yo'q va natijada kanal qurilishi sifatsiz olib borilyapti. Kanal qurilishi natijasida Afg'oniston hududiga o'tgan suvlarning aksariyati ko'zlangan manzilga bormayapti sababi kanalning osti qismi qurilishida beton xomashyosi ishlatilmayapti va bu hol yerning suvni shimib ketish ehtimolini oshirmoqda. 2. Kanal qurilishida qatnashayotgan xodimlarning aksariyatining bu sohaga doir malakasi yo'qligi kanalning sifatiga zarar keltiradi. 3. Kanal qurib bitkazilsayu ko'zlangan natija bermasa sarflangan pullar behuda bo'lib qolish ehtimoli katta.

**Opportunities:** 1. Bu kanal qurilsa Afg'oniston hududida qishloq xo'jaligi jonlanishi mumkin va oziq ovqat mahsulotlari oshishi ehtimoli bor. Natijada ko'plab afg'onlarning ocharchilikdan qirilib ketish xavfi kamayadi. Yana bir tomoni ushbu loyiha ishsizlik zanjirini kesishi mumkin. Chunki kanal ishga tushgandan so'ng afg'onlarda dalada dehqonchilik qilish imkoniyati paydo bo'ladi. 2. Afg'onlarda kanal qurib bitkazilgandan so'ng agrar sohada faoliyat olib borayotgan dehqonlar bilan birga faoliyat yurituvchi kichik va o'rta biznes vakillari shakllanishi mumkin.


**Threats:** Kanal qurilishi natijasida endigma xalqaro hamjamiyat tomonidan tanolna boshlagan Afg'oniston Islom amirligining yaqin qo'shnilar bilan munosabatlari yomonlashuviga olib kelishi mumkin. Afg'onistonga bugungi kunda har tomonlama yordamini ayamayotgan davlat O'zbekiston Respublikasi hisoblanadi. Shu kunga qadar Toshkent ko'plab elektr eneregiyasi va katta miqdordagi insonparvarlik yordamlari berildi. Kanal qurilishi O'zbekiston hududiga juda katta muammolar olib kelishi mumkin sababi Amudaryoning suvi kamayib ketadi va qurg'oqchlik xavfini oshiradi. Shuning uchun ikkala davlat o'rtasidagi munosabatlarga sovuqchilik tushishi xavfi bor agar Afg'oniston kanal qurilishida O'zbekistonning manfaatini hisobga olmaydigan bo'lsa.

Iqlim muvozanati izdan chiqqandan keying holatda suv resurslarini to'g'ri yo'naltirish va uni hududlar bo'ylab to'g'ri taqsimot qilish juda etibor qaratlishi kerak bo'lgan masaladir. Shu vaziyatda ham suvdan foydalanish tizimi to'g'ri ishlamayapti

<sup>12</sup> <https://www.globalvillagespace.com/talibans-new-canal/>

<sup>13</sup> <https://zarnews.uz/uz/post/suv-sayyorasi>

va zararlar shuning uchun ham kamaymayapti. Masalan, hozirda O‘zbekiston misolida ko’radigan bo’lsak haqiqat yanada oydinlashadi, chunki ichimlik suvining deyarli 90 foizi qishloq xo’jaligida ishlatiladi ko’rinib turibdiki bu dahshatli statistika. Suvni istemolchilarga yetqazish jarayonida deyarli yarmiga teng miqdorda eskirgan qurilmalardan foydalaniлади faqatgini urbanizatsiyalashgan hududlardagina zamonaviy ta’milot tizimi yo’lga qo’yilgan. Ko’rinib turibdikini sohada modernizatsiyalash ishlarini kechiktirib bo’lmaydi. Chunki bu aholi sog’ligi uchun ham juda muhim sanaladi.



Tarixan olib qaraydigan bo’lsak ha butun dunyo bo’ylab vujudga kelgan svilizatsiyalarning aksariyati daryolar bo’ylarida vujudga kelgan. Agar muammoga yetarli darajada e’tibor qaratilmasa, mintaqaning har bir hududida istiqomat qilayotgan aholi ayni paytda Orolbo‘yi hududlarida ro‘y berayotgan holatni o’z tanalarida his qilib ko’rishlari mumkin.<sup>14</sup>

### Event tahlil:

Qoraqalpog’iston va Qozog’iston hududining katta qismini egallagan Orol dengizi 20-asrning 2-yarmidan keyingi olib borilgan faqat markaz manfaatlarini ta’minlovchi siyosat tufayli suniy tarzda quritildi. Ushbu tahlilni Orol dengizining qurish jarayoni misolida kurib chiqamiz

Ushbu jarayon bevosita O’zbekiston hududi va Qozog’iston hududining bir qismida amalga oshmoqda bu mamlaktlarga juda katta talofot yetqazmoqda shuning uchun shu 2 ta mamlakatni bevosita subyektlar qatoriga qo’shsak

<sup>14</sup> <https://kun.uz/uz/news/2021/06/07/suv-tanqisligi-va-orol-muammosi-markaziy-osiyo-xalqlarini-kutayotgan-katastrofa-haqida>

bo'ladi.Qoraqalpog'iston hududuning katta qismida va Qozog'iston hududida juda katta miqdordagi cho'l Orlqum vujudga kelganini alohida ta'kidlash joiz .

Vaqt.1960 yilgacha Orol dengizining holati yaxshi bo'lган va ko'plab shu yerlik aholi deyarli 40 ming baliqchilik bilan kun kechirishgan va bu soha mintaqasi iqtisodiyotining drayveri hisoblangan.Lekin SSSR tomonidan 1950-yillardan boshlab urushdan qulagan iqtisodiyotni agrar soha hisobiga tiklash rejasi ishlab chiqildi.Agrar sohada asosiy e'tibor qo'riq bo'z yerlarni va cho'l hudularni ekin ekishga tayyor holga keltirishga qaratildi. 1960-yillardan boshlab yangi yerlarning ko'p miqdorda o'zlashtirilishi natijasida sug'orish uchun katta manbalar talab qilina boshladи. Orol dengizi ana shunday manbaga aylandi. 2. Turkmanistonda Qoraqum kanalining qurilishi. 20-asrning 60-70-yillarida qurilgan bu kanal Amudaryordan bir soniyada 300 metr kubga yaqin suv olgan<sup>15</sup>. Kanal o'zanida ko'plab yirik suv omborlari ham qurilgan.<sup>16</sup>Natijada suvning sarflanishi ko'payib, suv balansi yo'qolgan.

Buning uchun ularga juda katta hajmdagi suv kerak edi.Muammoning yechimini topishdi.Bu suv Amudaryo va Sirdaryodan tortib olindi va ko'plab kanallar O'zbekiston,Turkmaniston,Qozog'iston hududlaridan qazildi.Natijada Orol dengiziga boradigan suv miqdori keskin kamayib ketdi va Orol dengizi asta sekin quriy boshladи.SSSR rahbarli Orol quriyotganligini bilishsada lekin bunga etibor qaratmadilar.Sababi ular uchun mintaqasi paxta xomashyosini yetkazib beradigan o'lka sifatida qaragandi.Orol qurib bitdi lekin Qoraqalpog'istonliklarga ko'plab muammolarni tashlab ketdi.

### Delfi usuli tahlili

Hozirgi vaqtida suvni tejash bo'yicha bir qator chora tadbirlar amalgalashmoqda.Ana shunday islohotlardan biri qishloq xo'jaligida tomchilatib sug'orish texnologiyasidan foydalanishning yo'lga qoyilganligidir.Davlatimiz tomonidan ko'plab fermer xo'jaliklari uchun bu texnologiyalarni joriy qilish dolzarb vazifaga aylandi.Yaqin 10 -15 yil ichida dehqon fermerlarning aksariyati meleorativ tizimini bu metodga moslashtirdi.Sohadagi bu yangilanish ko'p tomonlama manfaatli natijalarni ko'rsatdi lekin undagi ayrim kamchiliklar hali hanuz namoyon bo'lib chiqmoqda.Dehqon fermerlar o'rtasida ekinlarni sug'orishda zamonaviy texnologiya-tomchilatib sug'orishdan foydalanishning istiqbollari haqidagi ijtimoiy so'rovnama natijalari turli xil bo'lib chiqdi.Unga ko'ra qatnashganlarning 60 foizi tomchilatib sug'orishni joriy qilganligi foydali natija ko'rsatganini ta'kidlashdi.Qolgan 40 foizi sohada bu o'zgarishning kirib kelishi tuproq unumdorligini pasaytirgani,hosildorlikning pasaygani va bu texnologiya xarajatlari ancha qimmat

<sup>15</sup> <https://uz.vogueindustry.com/17359832-karakum-canal-description-construction-history-photo>

<sup>16</sup> <https://uz.petmynet.ru/2451-karakum-desert.html>

turishini ta'kidlashdi.Xuddi shunday qishloq xo'jaligida uzoq muddat yangi yerkarni o'zlashtirish uchun yer osti suvlaridan foydalanish natijasida ichimlik suvi zahirasidagi balans buzildi.Natijada buning oldini olish maqsadida artizan nasoslarga elektron hisoblagichlar o'rnatildi.Lekin bundan cho'l dasht hududlarida yashovchi aholining ko'pchiligi-deyarli 75 foizi norozi bo'lishdi.Chunki buning natijasida ekinlarning hosildorligi kamaydi va bu hol mahalliy aholining daromadlariga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Xulosa qiladigan bo'lsak, suv resurslari tanqisligi muammosini hal qilishni eng avvalo agrar sohadagi islohotlar orqali boshlash kerak.Chunki bu sohada faqat suvdan ekstensiv usulda foydalanish og'ir muammolar keltirib chiqarishini ko'rib turibmiz.Shuning uchun bu muommalar global fojeaga aylanib ketmasdan oldin oldini olishimiz kerak.

Ayni paytda mana shu muammolar tufayli Orolbo'yi hududidagi ekologik vaziyat ham borgan sari yomonlashib bormoqda.Lekin O'zbekiston Respublikasi tomonidan Orolni qutqarishga doir bir qancha loyihalar ishlab chiqilmoqda va Ekologik fojeaning asoratlarini kamaytirishga harakat qilinmoqda.Orolbo'yi hududida-Mo'ynoq tumanida yashaydigan doimiy aholi soni 33 487 kishini tashkil qiladi<sup>17</sup>.Orolbo'yi hududida o'tqazilgan so'rovnama natijalariga to'xtaladigan bo'lsak .Orolbo'yi hududidagi iqlim o'zgarishi,yashash sharoitining og'irligi tufayli aholisining 50 foizi ayniqlsa, yoshlar turar joylarini o'zgartirishi mumkinligini ta'kidlashgan.Qolgan 50 foiz aholi shu yerda yashashda davom etishini ota bobolari yashab o'tgan o'lkani tashlab ketib bo'lmasligini bildirishgan.Shuningdek buning asoratlarini kamaytirish maqsadida Orolbo'yida hududida hozirgi kunda keng ko'lamli saksovulzorlashtirish amalga oshirilmoqda va natijada 500000 gektarga yaqin hududda saksovulzorlar barpo etildi.Orolbo'yi aholisining 90 foizi bu reja Orolbo'yini qutqarishda muhim qadamlardan biri bo'lishini ekotizimni yaxshilashda juda katta foya berayotganligini ta'kidlashgan.

Suv tanqisligini bartaraf etish maqsadida taklif qilingan potentsial yechimlar:

Shu bilan bir qatorda biz Markaziy Osiyoda suv tanqisligini bartaraf etish bo'yicha bir qator potentsial yechimlarni ko'rib chiqishimiz kerak. Birinchidan,suv manbalarining boshqaruvini takomillashtirish zarur chunki ko'plab suv manbalari boshqaruvi ekstensiv foydalanishga moslab qurilgan. Ikkinchidan, suv taqsimoti infratuzilmasini rivojlantirish maqsadida sarmoya kiritish maqsadida mintaqaga shu sohada tajribaga ega bo'lgan investorlarni olib kelishimiz sohada tub burilish yasashimiz uchun turtki bo'lishi mumkin. Uchinchidan,suvni tejaydigan qishloq xo'jaligi amaliyotini targ'ib qilish va innovatsion texnologiyalarni joriy etish vaqtি keldi. Masalan, oddiy suvni chuchuk suvga aylantiradigan mehanizmlarning astasekinlik bilan joriy qilinayotganligi va suvni tejash maqsadida suv kranlariga elekton

<sup>17</sup> <https://www.qrstat.uz/uz/matbuot-xizmati/qo-mita-yangiliklar/10490-mo-ynoq-tumanining-doimiy-aholi-soni>

hisoblagichlarning o'rnatalayotganligi ham muammo oqibatlarini kamaytirishga xizmat qiladi.Ushbu yechimlarni amaliyotga tadbiq etishimiz uchun Markaziy Osiyo davlatlari birgalikda harakat qilishimiz va jahon hamjamiyati e'tiborini mu muammolarga qaratishimiz va ulardan imkon qadar amaliy yordam olishga erishsakgina bizning harakatlarimiz samaraliroq bo'ladi.

Umumlashtiradigan bo'lsak,suv osti zahiralari, muzliklar abadiydir degan gaplar hozirgi paytda eskirib bo'ldi desak adashmagan bo'lamiz.Chunki olimlar,ilmiy tadqiqotchilar suv osti zahiralari tugab borayotganligini ko'plab marotaba ta'kidlashmoqda va bu real haqiqat.O'zbekistonning suv osti zahiralari tugab qolishini va qanday fojeaga sabab bo'lishini va hattoki ta'savvur qilib bo'lmasligini so'rovnoma qatnashganlar barchasi aytib o'tishdi.Shunday ekan biz suvning qadriga yetishimiz,ekologik muammolarga befarq bo'lmasligimiz,birgalikdagina bu muammoga qarshi kurasha olishimiz mumkinligini anglab yetmog'imiz darkor.

Ko'rinib turibdiki muammo ancha jiddiy tus olmoqda va unga odatiy bir hol sifatida baho berib bo'lmaydi.Bu muammoni samarali hal etish uchun mintaqqa davlatlari, xalqaro tuzilmalar va manfaatdor tomonlar o'rtasida zudlik bilan harakat qilish va hamkorlik qilish zarurligiga urg'u beriladi. Shuningdek, suv tanqisligini bartaraf etish bo'yicha kompleks yechimlarni amalga oshirish orqali Markaziy Osiyoda barqaror rivojlanish va aholi turmush darajasini yaxshilash salohiyatini ta'kidlaydi.Markaziy Osiyo mintaqisining og'ir holatni o'z boshidan kechirayotganini ta'kidlab o'tdik.Demak bu muammo jiddiyashib bo'lgan va yanada aktuallashishda davom etadi.Bu mintaqadagi suv resurslarining tanqislashish ahvolini yomonlashtiradigan omillar sanab o'tildi.Ya'ni davlatlar tomonidan suvdan uzoq vaqt davomida ekstensiv foyadalananish va bunga o'z vaqtida e'tibor qaratmaslik,suvdan foydalananish infrastrukturasiini muntazam takomillashtirmaslik,kimyoviy chiqindilarni chiqarish maqsadida yirik transchegaraviy daryolar suvlarining ifloslanishi,agrар maqsadlarda suvdan foydalaniб ko'plab cho'l dasht hududlarning o'zlashtirib borilishi va boshqa ko'plab omillar tufayli ekologik fojea 85 million aholi<sup>18</sup>uchun meros bo'lib qolmoqda.

Shu sababdan ham bu muammoni hal qilish uchun bir qator yechimlarni ko'rib chiqdik.Birinchi ko'rib chiqqan yechimimiz yani suvdan foydalananish tartibini isloh qilsak,yangi texnologiyalarni joriy qilsak,biroz oldinga siljishni kuzatishimiz mumkin.Aholi suv uchun soliq to'lashni boshlashmoqdalar va o'z-o'zidan bu islohot ularda suv istemoli madaniyati shakllanishiga xizmat qilmoqda.Suvni kelgusi avlodlarga qoldirishimiz kerak shuning davlat tomonidan bunga doir islohatlar amalga oshirmoqda deya hisoblovchilar ham topiladi.Yakunda ular tomonidan berilgan mablag'lar suv quvurlarini almashtirishga,xodimlar uchun maosh tayinlashga

<sup>18</sup> <https://www.worldometers.info/world-population/central-asia-population/>

yo'naltirilmoqda.Ikkinchidan, bu muammoni hal qilish uchun Markaziy Osiyo davlatlari o'zaro birgalikda harakat qilishlari kerakligini chunki buning vujudga kelishadi 5 ta davlatning barchasini hissasi borligini anglab yetgan holda birgalikda harakat qilmoqdalar.Shu maqsadda bir qator kelishuvlar imzolandi va Toshkent tomonidan amalga oshirilayotgan "suv diplomatiyasi" ham shunga xizmat qiladi.Ushbu maqolani yozish davomida asosan 2 tahlil usulidan foydalanildi.Dastlabkisi SWOT tahlili bo'yicha ko'rib chiqilgan Qo'shtepa kanali bo'yicha zaruriy xulosalarni beradigan bo'lsak,Tolibon hukumati bu loyiha orqali ko'plab imkoniyatlarga ega bo'ladi,jumladan oziq-ovqat tanqisligi muammosining hal qilinishi ham bu loyihaning samarali yakunlanishiga bog'liq bo'lib qoladi.Lekin ular bu loyihani amalga oshirish orqali o'zlari uchun muhim davlatlar hisoblangan O'zbekiston va Turkmaniston bilan munosabatlarni yomonlashtirishi ehtimoli oshadi va shuning uchun ular masalaning bu tomonini ham etibordan qochirmasliklari kerak. Keyingi tahlillimiz delfi usulida o'tqazildi.Unda qatnashganlarning munosabatlari ham turlicha bo'lganliklarini kuzatdik.Ularning ko'pchiliklari sohada amalga oshirilayotgan bu islohatlarni,o'zgarishlarni ijobjiy baholashdi.Ammo ayrim suv tanqis hududlarda yashayotgan aholi ahvoli hali hanuz yomonligicha qolayotganligi barchamizni hushyor bo'lishga,suvni isrof qilmaslikka,davlatimiz olib borayotgan siyosatni to'g'ri baholashga,qolganlarni ham suvni isrof qilmaslikka undaydi albatta.Chunki ertangi kelajagimizning,biz yaratgan svilizatsiyaning qay yo'sinda davom etishini belgilovchi omil bu **suv** bo'ladi deb hisoblayman.Shuning uchun ham bekorga suv bu obi hayot deya aytishmagan.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo'lida.Islom Karimov,1998-yil 131-bet.
- 2.O'zbekiston 21-asr bo'sag'asida.Islom Karimov,1997-yil.b.Ilmiy manbaalar:
  - 1.Alima Dalbaeva, " End the Weaponisation of Water in Central Asia," International Crisis Group, March 15, 2018
  - 2.Central Asia: Background and U.S. Relations. September 24, 2021
  - 3.Robert Glennon:Water Follies:groundwater pumping
  - 4.Fred Pearse:When the Rivers Run dry
  - 5.Annie Dillard,Pilgrim at Tinker Greek
**Abstract:** In his article, Mirzo Ulugbek is incomparable services to the development of religious sciences are discussed in the world science. He is a master scientist who also built an observatory in Samarkand.

**Kalit so'zlar:** Odil shoh, Samarqand, astronom, matematik, tarixchi, geograf, rasadxona, madrasa.

Ulug'bek 1394 yilning mart oyida Eronning g'arbidagi Sultoniya shahrida, bobosi Temurning harbiy yurishi paytida tug'ildi. U Shohrux Mirzoning to'ng'ich o'g'li bo'lib, unga Muhammad Tarag'ay ismi berilgan, lekin bolaligidayoq u Ulug'bek deb atala boshlab, bu ism keyinchalik uning asosiy ismi bo'lib qoldi. Ulug'bekning bolalik yillari bobosi Temurning harbiy yurishlarida o'tdi. 1405 yil Xitoyga qilinayotgan yurish boshida Temur vafot etgach, ikki yil davomida uning avlodlari o'rtasida taxt uchun kurash davom etdi va bu kurashda Temurning kenja o'g'li Shohruxning qo'li baland keldi. Lekin Shohrux o'ziga poytaxt qilib Hirotni tanlab, Movarounnahr poytaxti Samarqandni esa o'g'li Ulug'bekka topshirdi. Shunday bo'lsa ham Shohrux Eron va Turonning yagona xoqoni deb hisoblanardi. Shohrux to'ng'ich o'g'li Ulug'bekni 1411-yili Movarunnahr va Turkistonning hokimi etib tayinlaydi.

Ulug'bek 17 yoshida hokim bo'lib, bobosidan farqli o'laroq harbiy yo'rishlar bilan qiziqmas, ko'proq ilm-fanga moyil edi. Ulug'bek bolalik yillarida buvisi Saroymulk xonim tarbiyasida bo'lган. 1405–1411 yillarda amir Shoh Malik yosh mirzoning otabegi bo'lган. Lekin u Ulug'bekka asosan harbiy va siyosiy tarbiya bera olishi mumkin edi.

Ulug'bekning ustozlaridan biri munajjim Mavlono Ahmad bo'lganligini taxmin qilish mumkin, chunki bu kishi Temurning saroyidagi eng yirik olimlardan bo'lib,

sayyoralarining kelajak ikki yuz yillik taqvimlari jadvallarini tuza olgan. Lekin Ulug‘bekning o‘zi keyinchalik asosiy asari bo‘lmish “Zij”ida faqat Qozizoda Rumiyini “ustozim” deb ataydi. Haqiqatan ham Qozizoda 1360 yillarda tug‘ilgan bo‘lib, 20–25 yoshlarida, ya’ni Ulug‘bek tug‘ilmasidanoq Temurning sarfiga o‘tadi. Natijada Ulug‘bek umrining ilk davridanoq Mavlono Ahmad va Qozizoda Rumiy kabi astronom va matematiklar ta’sirida ulg‘ayadi. Shu sababli uning hayotida aniq fanlar muhim ahamiyat kasb etadi. Ulug‘bek yigirma yoshlarida o‘z davrining yirik olimlaridan bo‘lib, uning hokimligi davridagi muhim yangiliklar butun o‘rta asr madaniyati tarixida ulkan ahamiyat kasb etdi. Ulug‘bekning xodimi bo‘lmish G‘iyosiddin Jamshid Koshiy 1417 yili Samarqanddan Koshonga otasiga yozgan maktubida Ulug‘bekning faoliyati va bilimdonligini quyidagicha ta’riflaydi: “Allohga va uning ne’matlariga shukronalar bo‘lsunkim, yetti iqlimning farmonbar-dori, Islom podshohi ya’ni “Ulug‘bek” donishmand kishidirlar. Men bu narsani odob rasmi yuzasidan aytayotganim yo‘q. Haqiqat shuki, avvalo u kishi Qur’oni Karimning aksariyat qismini yoddan biladilar. Tafsirlarni va mufassirlarning har bir rivoyat haqidagi so‘zlarini aqlida saqlaydilar va yoddan biladilar va arabchada g‘oyat yaxshi yozadilar. Shuningdek, u kishi fiqhdan ancha xabardorlar, mantiq ma’nolarining bayoni va usullaridan ham xabardorlar.

U kishi riyoziyot fanining barcha tarmoqlarini mukammal egallagan va shunday jiddiy mahorat ko‘rsatganlarki, kunlardan bir kuni otda ketayotib, 818 yil rajab oyining o‘ninchisi va o‘n beshinchi kunlari orasidagi (milodiy 1415 yil 15–20 sentyabr) dushanba kuni yil mavsumining qaysi kuniga munosib kelishini aniqlashni aytadilar. Shunga ko‘ra otda ketayotib, xayoliy hisob bilan Quyoshning taqvimi o‘sha kuni bir daraja va ikki daqqaq ekanligini toptilar. Keyin otdan tushgach, hisob to‘g‘riligini bu bandai bechoradan (Koshiydan) so‘rab, aniqlab oladilar. Ulug‘bekning ilmga qiziqqanligi va mamlakatning ravnaqini ko‘zlaganligi tufayli yangi usuldagagi bilim yurti – maktab va madrasalar barpo qilishga qaror qilib, deyarli bir vaqtning o‘zida Samarqand, Buxoro va G‘ijduvonda uchta madrasa barpo etadi.

Samarqanddagi madrasa qurilishi 1417 yili boshlanib, uch yilda nihoyasiga yetkaziladi. Tez orada Ulug‘bek madrasaga mudarris va olimlarni to‘play boshlaydi va shu tariqa uning Samarqanddagi astronomik maktabi shakllanadi.

Bu maktabning asosiy mudarrislari ilmiy ishlariga qulay sharoit va panoh izlab Temur davridayoq Samarqandga kelgan Taftazoniy, Mavlono Ahmad va Qozizoda Rumiy kabi olimlar edi. Qozizodaning maslahati bilan Ulug‘bek Xurosonning Koshon shahridan G‘iyosiddin Jamshid Kopshyni chaqirtiradi. Samarqandga Movarounnahrning turli shaharlaridan va Xurosandan to‘plangan olimlarning soni, 1417 yilga kelib 100 dan ortib ketadi. Ular orasida adiblar, muarixlar, xattotlar, rassomlar, me’morlar bor edi. Lekin astronomiya va matematika sohasidagi olimlar

sharafliroq va obro‘liroq edi. Ular orasida Qozizoda bilan Koshiy eng salobatli va nufuzli edilar.

1420 yili Samarqand madrasasining tantanali ochilishi bo‘ladi. Zayniddin

Vosifiy “Badoi’ ul-vaqoi”’ kitobida aytishicha, birinchi mudarris etib mavlono Shamsuddin Muhammad Xavafiy tayinlanadi. Madrasada asosiy ma’ruzalarni Qozizoda, Ulug‘bek, Koshiy va keyinroq Ali Qushchi o‘qiydilar. Ulug‘bek barpo etgan Samarqand madrassasi va ilmiy to‘garagi Sharq madaniyati va fani tarixida ulkan ahamiyat kasb etdi, mamlakat ravnaqiga, shuningdek, ko‘p xalqlarning madaniy rivojlanishiga katta ta’sir ko‘rsatdi. Bu yerda ko‘plab buyuk siymolar shakllandii. Jumladan, Xurosonning Jom shahrida 1414 yili tug‘ilgan bo‘lajak ulkan shoir Jomiy Ulug‘bekning Samarqand madrasasida tahsil ko‘rdi. Bu yerda u Qozizoda, Ulug‘bek va Ali Qushchi kabi ulkan olimlarning ma’ruzalarini eshitdi va ularning tarbiyasida bo‘ldi. Ulug‘bek atrofida to‘plangan Samarqand olimlari katta ahamiyat bergen eng muhim ilmiy yo‘nalishlardan biri astronomiya fani edi. Islomdagii eng avvalgi astronomik asarlar “Zij” deb atalib, ular asosan jadvallardan iborat bo‘lgan. Ulug‘bekdan avval yozilgan eng mukammal “zij”lar Beruniyning “Qonuni Mas’udiy”si va Nasriddin Tusiyning 1256 yili yozib, Xulashxonga taqdim etgan “Ziji Elxoniy” asari edi. XV asr boshlarida yozilib, Shohruxga atalgan Jamshid Koshiyning “Ziji Xoqoniy” asari asosan xitoy va mo‘g‘ul an‘analariga asoslangan bo‘lib, islom mamlakatlari uchun deyarli ahamiyatta ega emas va ilmiy jihatdan ham ancha sayyoz edi. Mavarounnahrda esa mo‘g‘ul istilosidan keyin birorta “zij” yozilmagan edi. Ana shu sabablarga ko‘ra Ulug‘bek eng avvalo astronomik izlanishlarni yo‘lga qo‘yishi, buning uchun rasadxona barpo etishi kerak edi. Bu haqda Abu Tohirxo‘ja bunday xabar qiladi: “Madrasaga asos solinganidan to‘rt yil keyin Mirzo Ulug‘bek Qozizoda Rumi, Mavlono G‘iyosiddin Jamshid va Mavlono Muiniddin Kosho-niylar bilan maslahatlashib, Ko‘hak tepaligida Obi Rahmat arig‘ining bo‘yida rasadxona binosini qurdiradi. Uning atrofida esa baland hujralar barpo etadi”.

Rasadxona qurilishi 1424 yildan 1429 yilgacha davom etadi. Rasadxona bitishi bilan astronomik kuzatishlar boshlanib ketadi. Rasadxona bilan madrasaning birgalikdagi faoliyati Ulug‘bek ilmiy maktabida astronomiya va matematikani o‘rta asrlar davrida eng yuqori pog‘onaga ko‘tarish imkonini berdi. Davlat ishlari bilan bog‘liq bo‘lgan yurish-ko‘chishlar, rasadxonadagi kuzatishlar va madrasadagi darslar, undan tashqari ilmiy ishlarga umumiy rahbarlik qilish xam Ulug‘bekning ko‘p vaqtini olardi. Shuning uchun bo‘lsa kerak, bevosita Ulug‘bekning qalamiga mansubligi ma’lum bo‘lgan ilmiy asarlar soni jihatdan ko‘p emas – ular to‘rtta. Ulug‘bek ilmiy merosining eng asosiysi, ma’lum va mashhuri uning “Zij”i bo‘lib, bu asar “Ziji Ulug‘bek”, “Ziji jadidi Ko‘ragoniy” deb ham ataladi. “Zij”dan tashqari uning qalamiga mansub matematik asari “Bir daraja sinusini aniqlash haqida risola”, astronomiyaga oid “Risolayi Ulug‘bek” (yagona nusxasi Hindiston-da, Aligarh universiteti

kutubxonasida saqlanadi) va tarixga doir “Tarixi arba’ ulus” (“To‘rt ulus tarixi”) asaridir. Ulug‘bek “Zij”i o‘z tarkibiga ko‘ra VIII – IX asrlarda boshlangan astronomik an'anani davom ettirsa ham ilmiy darajasi ularga nisbatan beqiyos balanddir. Bu asar ikki qismidan: keng muqaddima va 1018 sobita yulduzning o‘rni va holati aniqlab berilgan jadvallardan iborat bo‘lib, muqaddimaning o‘zi mustaqil to‘rt qismni tashkil qiladi. Muqaddimaning boshida Qur’ondan yulduzlar va sayyoralarga taalluqli oyatlar keltiriladi. Ulug‘bek bu bilan astronomik kuzatishlarning zarurligini g‘oyaviy asoslamoqchi bo‘ladi. Muqaddimaning keyingi qismida Ulug‘bek ushbu so‘zlarni bitgan: “So‘ng, parvardigor bandalarining faqiru haqiri, ulardan Alloha eng intiluvchisi Ulug‘bek ibni Shohruk ibni Temur Ko‘ragon bunday deydi...” Bu so‘zlardan ko‘rinadiki, “Zij”ning muallifi Ulug‘bekning o‘zi bo‘lgan. Asarning birinchi – “Ta’rix, ya’ni xronologiyaning ma’rifati” deb nomlangan maqolasi (kitobi) yetti bobdan iborat bo‘lib, u eralar va kalendar masalalariga bag‘ishlangan. Bu boblarda islomda qo‘llaniladigan asosiy era – hijriy erasi, sur’yoniy-yunoniy erasi, “jaloliy” erasi, xitoy va uyg‘ur erasi, forsiy-qadimiy erasi va bu eralarda keltirilgan sanalarni biridan biriga moslashtirib ko‘chirish hamda bu eralardagi mashhur kunlar haqida bahs yuritiladi. Bundan tashqari ushbu maqolada turkiy muchal yillari haqida ham mufassal bayon etiladi. Ikkinci – “Vaqtlar va unga taalluqlik nimarsalar” deb nomlangan maqola 22 bobdan iborat. U asosan matematika va sferik astronomiya masalalariga bag‘ishlangan. Ikkinci va uchinchi boblarda o‘rta asrlar uchun eng aniq bo‘lgan sinuslar va tangenslar jadvallari keltiriladi. Maqolaning to‘rtinchi bobida Ulug‘bek ekliptikaning (falak ul-burj) osmon ekvatoriga (mu’addal unnahor) og‘ish burchagining miqdorini keltiradi. Bu haqda u bunday deydi: “Bizning kuzatishimizcha, eng katta og‘ish (ya’ni ekliptikaning osmon ekvatoriga og‘ishi) burchagini yigirma uch daraja o‘ttiz daqiqa o‘n yetti soniya topdik”. Ulug‘bek topgan bu miqdor o‘rta asrlar davri uchun ancha aniq edi. Shuni ham aytish kerakki, bu burchakning miqdori barcha davr astronomlari uchun katta ahamiyatga ega edi, chunki yoritgichlar va yashash joylarining aniq koordinatlarini topish shu burchak miqdoriga bog‘liq edi. “Zij”ning uchinchi maqolasi 13 bobdan iborat bo‘lib, faqat astronomiya masalalariga bag‘ishlangan. Bunda Quyosh, Oy va besh sayyoraning harakatlari haqida bahs yuritiladi. Asarda keltirilgan jadvallarning aksariyati shu maqolaga taalluqlidir. Bu jadvallar orasida eng ahamiyatga ega bo‘lgani 13-bobda keltirilgan va “Turg‘un yulduzlarning uzunlama va kenglama bo‘yicha holatlarini aniqlash” deb atalgan yulduzlar jadvalidir. Ulug‘bek “Zij”ining boshqa “zij”lardan farqini ko‘rsatish uchun shu yerda mazkur jadval boshidagi uning so‘zlarini keltiramiz. U aytadi: “Ptolemygacha bo‘lgan astronomlar bir ming yigirma ikki yulduzning holatini aniqladilar. Ptolemy esa ularni oltita kattalik bo‘yicha tartiblab, o‘z “Almajistiy”sida keltirdi. Ularning eng kattasi – birinchi kattalikda, eng kichigi esa oltinchi kattalikdadir. Har bir kattalikni u uch qismga ajratdi. Ularni bir-biridan farq qilish

uchun qirq sakkiz yulduz turkumiga joylashtirdi. Ularning yigirma bittasi falak ul-burjdan (zkliptika) shimolda, o‘n ikkitasi falak ul-burjda va o‘n beshtasi falak ul-burjdan janubda joylashadi. Bu yulduzlardan ayrimlari shu yulduz turkumlarining o‘zida, ayrimlari esa turkumdan tashqarida joylashadi. Bu keyingilarni yulduz turkumlarining tashqi yulduzlari deb hisoblanadi. Ulug‘bek “Zij”i o‘rta asrlardagi eng mukammal astronomik asar bo‘lib, tezda zamondoshlarining diqqatini o‘ziga jalgab etdi. Eng avval bu asar Samarqandda Ulug‘bek atrofida to‘plangan olimlar ijodiga ta’sir ko‘rsatdi. “Zij”ni o‘rganish shuni ko‘rsatadiki, u asosan amaliy qo’llanishga mo‘ljallangan bo‘lib, nazariy masalalarni bayon etishni Ulug‘bek oldiga maqsad qilib qo‘ymagan. Shuning uchun bo‘lsa kerak, “Zij”ni birinchi bo‘lib Samarqand olimlarining o‘zi, xususan Ali Qushchi sharhlaydi. Undan keyingi sharhlarni Miram Chalabiy va Husayn Birjandiylar yozadi.

1449 yili Ulug‘bekning fojiali halokatidan so‘ng Samarqand olimlari asta-sekin Yaqin va O‘rta Sharq mamlakatlari bo‘ylab tarqalib ketadilar. Ular o‘zлari borgan yerlarga Samarqand olimlarining yutuqlarini va “Zij”ning nusxalarini ham yetkazadilar. Xususan Ali Qushchi 1473 yili Istanbulga borib, u yerda rasadxona quradi. Shu tariqa Ulug‘bek “Zij”i Turkiyada tarqaladi va Turkiya orqali Ovro‘po mamlakatlariga ham yetib boradi. Hozirgi kundagi ma’lumotlarga ko‘ra “Zij”ning 100 ga yaqin forsiy nusxasi va 15 dan ortiq arabiy nusxasi mavjud. O‘rta asrlarda yozilgan hech bir astronomik yoki matematik asar bunchalik ommaviy va keng ma’lum bo‘lmagan. “Zij” musulmon mamlakatlarining deyarli barchasida o‘rganilgan va sharhlangan.

Uni sharhlagan olimlardan quyidagilarning nomlarini eslatish mumkin: Shamsiddin Muhammad ibni Abul Fath as-So‘fiy al-Misriy (vaf. tax. 1495), Abulqodir ibni Ro‘yoniy Lahijiy (vaf. 1519), Miram Chalabiy (vaf. 1525), Abdulali Birjandiy (vaf. 1525), G‘iyosiddin Sheroyziy (vaf. 1542). Ulug‘bek “Zij”i ayniqsa Hindiston olimlariga kuchli ta’sir ko‘rsatdi. Samarqand olimlarining ilmiy an’analalarini Hindistonga Boburning o‘zi yetkazgan degan ma’lumot bor. Boburning vorislari o‘tmishdagi shohlarga o‘xshab atroflariga olimlarni to‘playdilar va ularning ilmiy izlanishlariga sharoit yaratadilar. Hind olimlari ko‘p tarafdan Samarqand olimlariga taqlid qiladilar. Masalan, Shoh Jahon avval zamonida Lahor va Dehlida ishlagan Farididdin Mas’ud al-Dehlaviy (vaf. 1629) “Ziji ShohJahoni” nomli asar yozadi.

“Zij”ning G‘arbiy Ovro‘po faniga ham ta’siri katta bo‘ldi. Umuman olganda G‘arbiy Ovro‘po Temur va uning farzandlarini, ayniqsa Ulug‘bekni XV asrdanoq bilardi. Ali Qushchining Istanbuldagи faoliyati tufayli Ulug‘bekning olimligi haqidagi xabar ham Ovro‘poga tarqaladi. 1638 yili Istanbulga ingliz olimi va sharqshunosi, Oksford universitetining professori Jon Grivs (1602–1652) keladi. Qaytishida u o‘zi bilan Ulug‘bek “Zij”ining bir nusxasini Angliyaga olib ketadi.

1648 yili avval “Zij”dagi 98 yulduzning jadvalini chop etadi. O’sha yilning o‘zida Grivs “Zij”dagi geografik jadvalni ham nashr etadi. 1650 yili esa u “Zij”ning birinchi maqolasining lotinchcha tarjimasini nashr etadi. Grivs 1652 yili mazkur oxirgi ikki ishni qayta nashr etadi. Yana bir ingliz olimi va sharqshunosi Tomas Hayd (1636–1703) “Zij”dagi turg‘un yulduzlar jadvalini 1665 yili forscha va lotinchada nashr etadi. Shunisi diqqatga skzovorki, Hayd Grivsning ishlaridan butunlay bexabar edi. Demaq, “Zij”ning nusxalari qandaydir yo‘llar bilan unga ham yetib kelgan. Haydning nashridan 15 yil keyin polyak olimi Yan Geveliy (1611–1687) Dansigda “Zij”nyng ayrim jadvallarini nashr etadi. Bundan keyin XVIII va XIX asrlarda qator Ovro‘po olimlari “Zij”ning ayrim qismlarini nashr etadilar. Fransuz sharqshunosi L. A. Sediyo (1808–1876) “Zij”ning to‘rttala maqolasi oldidagi so‘zboshilari va muqaddimasining fransuzcha tarjimasini (1847–1853) yillarda nashr etadi. Va nihoyat, XX asr boshlarida amerikalik olim E. B. Nobl “Zij”ning Angliya kutubxonalarida saqlanadigan 28 qo‘lyozmasi asosida yulduzlar jadvalining inglizcha tarjimasini nashr etydi (Washington, 1987). Shunday bo‘lishiga qaramay Ulug‘bek “Zij”i umuman olganda to‘liq ravishda o‘rganilmagan, biror zamonaviy tilga to‘la tarjima etilmagan. 1994 yili Ulug‘bek tavalludining 600 yilligi munosabati bilan “Ziji jadidi Ko‘ragoniy”ning birinchi bor to‘lig‘icha rus tiliga tarjimasi bosib chiqarildi. Shu yili yana Ulug‘bekning “Tarixi arba’ ulus” asari ham o‘zbek tilida Toshkentda nashr etildi.

#### Foydalilanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. <https://bilimlar.uz/mirzo-ulug%CA%BBbek-haqida-malumot/>
2. Ahmedov Bo’riboy “Amir Temur va Ulug’bek zamondoshlari xotirasida”T:O’qituvchi 1996.
3. Vikipediya.
4. Mirzo Ulug’bekning “to’rt ulus tarixi” nomli asaridan.
5. Samrqand: Mirzo Ulug’bek madrasasi.com. internet ma’lumoti.
6. Ulmasjonovich, Khurshid Samatov. "Mystical and philosophical foundations of human interaction (based on the teachings of makhdumi Azami Kasani)." European Scholar Journal 2.11 (2021).
7. Ulmasjonovich, Khurshid Samatov. "Mystical and philosophical foundations of human interaction." (2021).
8. Samatov, Khurshid. "Issues Naqshbandi teaching peace and harmony in society." Theoretical & Applied Science 2 (2016): 175-179.

## МАHMUD AZ-ZAMAXSHARIYNING MA'NAVIY MEROSINING YOSHLAR TARBIYASIDAGI O'RNI

Ilmiy rahbar: X.U.Samatov

TATU Samarqand filiali

Kompyuter Injinering fakulteti

KI23-02 guruh talabasi

XUSANOV S.M.

**Annotatsiya:** Maskur maqola Mahmud Zamakhshariyning tarbiyaga oid asarlarida umuminsoniy qadriyatlarning o‘ziga xos talqini va bu talqinining xususiyatlari masalasi tahlil qilinadi. Allomaning asarlaridagi islam ma’rifati bilan bog’liq Jihatlarning umuminsoniy qadriyatlar bilan bog’liq aloqadorligi ko’rib chiqiladi.

**Аннотация:** В настоящей статье анализируется специфика трактовки общечеловеческих ценностей и особенности этой трактовки в трудах Махмуда Замахшари, посвященных образованию. Аспекты исламского просвещения в творчестве Алламы рассматриваются в связисообщечеловеческими ценностями.

**Abstract:** The present article analyzes the specific interpretation of universal values and the characteristics of this interpretation in Mahmud Zamakhshari’s works on education. Aspects related to Islamic enlightenment in Allama’s works are considered in relation to universal human values.

**Kalit so‘zlar:** Maorif, marifat, hadis, umum insoniy qadriyatlar, o‘git, ritorika, sintaktik.

Bugun Yangi O’zbekiston hayotining barcha sohalari chuqur islohotlar maydoniga aylangan. Bu jarayonda ijtimoiy sohaning asosi hisoblangan ta’lim tizimidagi o’zgarishlar haqida to’lqinlanib so’zlamaslikning iloji yo’q. Mamlakatimizda so’nggi yillarda ta’lim tizimining barcha bosqichlarini zamonaviy talablar asosida tashkil etish bo'yicha amaliy ishlar hal qiluvchi bosqichga kirdi. Prezidentimiz ta’kidlaganidek: “Farzandlarimiz maktabdan qanchalik bilimli bo’lib chiqsa, yuqori texnologiyalarga asoslangan iqtisodiyot tarmoqlari shuncha tez rivojlanadi, ko’plab ijtimoiy muammolarni echish imkonи tug’iladi. Shunday ekan, Yangi O’zbekiston ostonasi maktabdan boshlanadi desam, o’ylaymanki, butun xalqimiz bu fikrni qo’llab-quvvatlaydi”. Talim tizimi davlat tomonidan huquqiy bajargan tadbirdir va har yili yangilanib, yanada yanada ko‘p islohotlar kiritilmoqda. Tarixdan ma'lumki O’zbek xalqining ma’naviyatini yuksaltirishga xizmat ko’rsatish uchun ko’plab mutafakkirlar va allomalar o’zlarining munosib hissalarini qo’shgan. Ulug’ Xorazm diyorida ham qadimdan dunyo ilm-fani va madaniyati taraqqiyotiga o’zlarining ulkan hissasin qo’shgan, ilm-fanning har xil sohalarida Samarali faoliyat

ko'rsatkan, ijod qilgan, dovrug'i butun olamga tarqalgan Muso Al Xorazmiy, Abu rayxon Beruniy kabi ko'plab buyuk qomusiy siymolarimiz yetishib chiqqan. Bu yurtda tavallud topgan va faoliyat olib borib yurtni nomini ulug" qilgan Insonlar qatorida Abul Qosim Maxmud az Zamaxshariyning ismi ham o'rinni olgan .

Maxmud Az-Zamaxshariyning to'liq ismi Abu al-Qosim Mahmud ibn Umar ibn Muhammad ibn Umar Al-Xorazmiy Az-Zamaxshariy. U, shuningdek, Faxri Xorazm ya'ni "Xorizm iftixori" deb atalgan, chunki odamlar undan Qur'on va arab tilini o'rganish uchun Xorazmga sayohat qilishgan. U milodiy 1074-yil 18-Martda chorshanba Xorazmning Zamaxshar (hozirgi Qo'shko'pir)da tavallud topgan.

Az-Zamaxshariy Zamaxsharda voyaga yetgan va u yerda bir muddat tahsil olgan, so'ngra Buxoro, Xuroson, Isfahon va Bag'dodni kezgan va u yerda bir qancha siyosiy arboblar bilan tanishgan va ular tomonidan maqtovga sazovor bo'lgan. Uning sayohatlariga asosiy sabab she'riyat, din va arab tili grammatikasini chuqurroq o'rganish edi. Keyin Makkaga yo'l oldi va arab nasri va nazm tamoyillari haqida ko'p yozgan shahzoda Abu al-Hasan Ali bin Hamza bin Vahos al-Sharif al-Hasaniy bilan uchrashdi. 2 yil o'tib, Az-Zamaxshariy Xorazmga qaytib ketdi, lekin Makkai mukarramaga, masjidga va u yerdagи ustoziga bo'lgan sog'inchiga qarshi tura olmadidi. Shunday qilib, yana Makkaga safar qildi va u yerda 3 yil yashadi. Keyinroq Bag'dodga, so'ngra Xorazmga qaytib, o'sha yerda vafot etadi .

Al-Zamaxshariy bir oyog'idan ayrilgani ma'lum bo'lib, uning hayoti haqidagi adabiyotlarda bu haqiqat turlichay tushuntiriladi. Al-Damag'oniy az-Zamaxshariydan oyog'i haqida so'raganini va u bolaligida qushning oyog'iga arqon bog'laganini aytgan. Shunday qilib, qush uchib qochmoqchi bo'lganida, qushning oyog'i kesilgan. Az-Zamaxsariyning onasi buni ko'rib, qushning og'rig'ini his qilishi uchun unga ham shunday tilak bildirgan. Keyinroq Buxoroga ketayotib, otdan yiqilib, oyog'ini sindirib, keyinroq kesib tashlagan. Ibn Xalqon va boshqa ulamolar taxminiga ko'ra uning oyog'idan judo bo'lishiga Xorazmning qahraton qishida doimiy sayohat qilishi sabab bo'lganini ta'kidlaganlar .

Az-Zamaxshariy o'sha davrda mashhur ulamolardan ko'p narsalarni o'rgangan. Uning ustozlaridan biri Abu Muzar Mahmud ibn Jarir al-Zabiy al-Isfahoniy edi, uni tengdoshlari Farid Asruh "o'z davrining eng zo'r allomasi" deb atashgan. U Az-Zamaxshariya sintaksis va adabiyotdan dars bergan. Az-Zamaxshariy bu ustozni juda qadrlagan va 1113-yilda vafot etgach, qattiq qayg'uga tushgan. Hamchunin, Az-Zamaxshariy Abu Ali Al-Hasan bin Al-Mudzaffar An-Nisoburiydan adabiyot va prosodiyani o'rgangan. Shuningdek, u o'zining falsafiy-diniy g'oyalarini ustozlari Abu Mansur Nasr Al-Hartiy, Abu Sa'ad ash-Shog'iy va Abu Al-Xattob ibn Al-Batardan ham olgan. Makkada bo'lganida u Abu al-Husayn Ali ibn Hamza ibn Vahosdan ritorika va morfosintaksisni o'rgangan, u esa o'z navbatida Az-Zamaxshariydan Qur'on

tafsirlari va Qur'onda qo'llanilgan adabiy vositalardan foydalanish tamoyillarini o'rgangan .

Al-Kashshaf” (“Oshkor; Qur'on tafsiri”) az-Zamaxshariyning eng mashhur asaridir. Darhaqiqat, tarix davomida ko'plab tilshunos olimlar Az-Zamaxshariyning shuhratini mazkur kitobga bog'lashgan. Bu kitobning nomi (Al-Kashshaf) kashaf “ochmoq” fe'lidan olingan. Shunday qilib, bu kitob Qur'on iboralarining sintaktik va semantik noaniqliklarini ochishga harakat qiladi. Matnda Az-Zamaxshariy uni qurish motivi, turtki va maqsadlarini tushuntirib berdi. Darhaqiqat, u dastavval bu kitobni yozishga ikkilanganini tan olgan, chunki u o'zini Qur'oni to'g'ri talqin qilish uchun zarur bo'lgan ko'nikmalarga ega emas deb o'yldi. Uning so'zlariga ko'ra, u har doim o'z shogirdlariga dars o'tayotganda va Qur'on oyatlarini tilga olganida, shogirdlari ilgari hech qachon uchramagan yangi ma'nolarni o'zlashtirgandek tuyulardi. U buni davom ettirar ekan, talabalar boshqa fanlardan ko'ra Qur'on tafsiriga ko'proq qiziqish bildirishgan. Shunday qilib, Az-Zamaxshariy Qur'on tafsirining barcha ma'nolari haqida kitob yozishini aytganida, shogirdlar besabrlik bilan Al-Kashshof kitobi yozilishini kutishgan .

Mazkur kitob muqaddima bilan boshlanadi, unda Az-Zamaxshariy muxtasar qilib hayoti va ijodini izohlagan va matnni tuzish mantiqiy asoslarini taqdim etgan. Keyingi sahifalarda mazkur kitobda foydalanilgan manbalar keltirilgan. Keyin kitob Qur'on oyatlarini Qur'onda kelgan tartibda tafsir qilishni boshlaydi. So'ngra kitob ikki sahifa bilan yakunlanadi, unda muharrir Az-Zamaxshariy haqida tarjimai holni taqdim etib, uni hayotning diniy, til va adabiy jahbalariga qo'shgan xizmatlarini ko'rsatgan hurmatli shaxs sifatida maqtadi .

Bu kitob Bag'dod va Basradagi islom ilohiyotining maktabi bo'lgan mo'tazila yondashuvidan qat'i nazar, tilshunoslar hamda Qur'on va arab tillarini o'rganuvchilar uchun asosiy manba bo'lgan. Darhaqiqat, olimlarning aksariyati o'z asarlarini yaratishda Az-Zamaxshariyning uslubiy, ma'no va sintaktik yondashuvlaridan foydalanganlar. Az-Zamaxshariy bu kitobida arab tilining go'zalligi va boyligini ko'rsatishga, hikmatlar hosil qilishga, ko'p ma'noli iboralarni tushuntirishga, ritorika ilmiga sho'ng'ishga harakat qilgan .

Bu kitobni ajratib turadigan xususiyatlardan biri uning hatto arab tilini o'rganuvchilar uchun ham tushunarli bo'lishi va ortiqcha narsaning yo'qligidir. Yana bir xususiyat shundaki, bu arab tilida so'zlashuvchilarning ma'nolarni yetkazish va ularning majoziy nutqidan foydalanish uslublariga bog'liqidir. Bundan tashqari, tushuntirish usuli "agar sizga aytsam ... Siz nima degan bo'lardingiz?" va javob "Men aytaman ...." bo'ladi. Ibn Xaldun (1332 – 1406) "Al-Muqadima" (1377) asarida mana shu so'roq uslubi turli ma'lumotli o'quvchilarga amal qilishni osonlashtirganini aytadi .

Bu kitob katta shuhrat qozonganidan so'ng, ko'plab olimlar sharhlar yozdilar, masalan, "Al-Intissaf "Tenglik" asari muallifi Al-Imom Nasiriddin Ahmad ibn Muhammad ibn Al-Munir, Kamol Basha Al-Muftiy, Xayriddin Xizr Al-Autufiy, Sun'ulloh ibn Ja'far Al-Muftiy va Olamaddin Abdulkarim bin Ali Al-Iraqiy. Shuningdek, Muhammad bin Ali Al-Ansoriy, Nosir Al-Din Umar bin Abdulloh Al-Bidhaviy, Qutbiddin Muhammad bin Masud As-Sirofiy va Um Valad nomi bilan mashhur bo'lgan Abdulavval ibn Husayn kabi allomalar umumiy sharh va izohlar bilan ta'riflashdi.

Az-Zamaxshariyning "Al-Mufassal Fi Sina'at Al-A'rabi" (1120 – 1122 milodiy) "Arab tili sir-sinoatlarining batafsil tahlili" asari arab grammatikachilari tomonidan arab sintaksi (va morfosintaksi) haqidagi eng ta'sirli kitoblardan biri hisoblanadi. Darhaqiqat, ba'zi grammatikachilar uni Abu Bishr Amr ibn Usmon ibn Qanbar al-Basriyning arab grammatikasi bo'yicha kitoblaridan keyingi ikkinchi sintaktik kitob deb hisoblashgan, chunki Az-Zamaxshariy arab tilining har bir sintaktik va morfologik jihatlari haqida gapirgan. U bu kitobni 513-hijriy yilning oxirlarida yozishni boshlagan va uni 515-yil (milodiy 1122-yil) boshida tugatgan, demak, 1 yil 4 oydan kamroq vaqt talab etgan. Bu asar tarix davomida turli tilshunoslar tomonidan o'rganilgan va zamonaviy davrda turli tillarga, masalan, 1873-yilda nemis tiliga tarjima qilingan. Al-Zamaxshariy Qur'oni tafsir qilish oson ish emas, deb hisoblagan. Bu faqat tili sof arab tili bo'lgan, turli tuzilmalar ko'tara oladigan turli sintaktik va semantik munosabatlarni chuqur bilishga erishgan bilimdon tilshunoslar tafsir qila oladi xolos degan tasavvur mavjud bo'lgan. Darhaqiqat, u Qur'oni til bilimiga ega bo'limgan holda talqin qilishga urinish Qur'onning xato talqin qilinishiga olib kelishi va boshqa muammolarni keltirib chiqarishi mumkinligiga ishongan, chunki Qur'on barcha hayotiy masalalar asoslanadigan asosiy manbadir. Qur'on tili arab tili bo'lganligi sababli, Az-Zamaxshariy bu kitobni yozish odamlarga arab tilining boyligini yaxshiroq tushunishga va uning turli talqinlarini yaxshiroq tushunishga yordam beradi, deb o'yLAGAN.

Az-Zamaxshariy buyuk kitobxon ekanligini bilgan holda, u boshqa buyuk grammatikachilarining sintaktik kitoblarini ko'rib, ularni betartib yozilgan deb hisoblagan va u tushunishni osonlashtirish uchun arab grammatikasining sintaktik va morfologik jihatlarini yaxshiroq tashkil qilishni maqsad qilib shu kitobni yozgan va bu maqsadni kitobining boshida aytgan.

Bu tilshunoslik asari dunyoga kelgan paytdan olimlarni e'tiborini tortdi. Ko'pgina tilshunoslar va olimlar bu asarni tushuntirib, taqqoslab yoki sharhlovchi kitoblar yozdilar. Jurji Zaydon o'zining 1943-yilda chop etilgan "Tarix Adab al-lug'a al-arabiya" kitobida "Arab tili adabiyoti tarixi"da az-Zamaxshariyning "Al-Muffassal" asarida shunday yozgan: Az-Zamaxshariyning bu asari odamlar tomonidan shunday qabul qilinganki, sulton Iso Ibn Ayyob bu asarga qoyil qolgan va kitobni yod olganga

100 dinor va uy hadya qilgan. Bundan tashqari, bu kitob Shom (Suriya, Iordaniya, Livan va Falastin), Misr, Iroq, Al-Hijoz (Saudiya Arabistonining g'arbiy qismi) va Yamanda hijriy 7-8-asr (1204 – 1301 yillar) davomida o'qitiladigan eng ta'sirli kitoblardan biri edi. Darhaqiqat, mazkur asarning dovrug'i Al-Andalusga ham (hozirgi Ispaniya) yetib borgan edi .

Xulosa qilib aytganda Zamaxshariy uslubdagi asarlar katta muhim ahamiyatga ega bo'lган eski davr adabiyotining eng samarali ko'rsatmalaridan. Uning asarlaridan biri "Kitob ul-Mubtadi va-l-Mu'akhir" atovchi qo'shiqlar to'plamidir. Bu asar orqali Zamaxshariy o'z tasavvurlarini, fikrlarini va nazariyalarini badiiy uslubda ifodalagan. Hulosa bilan aytishimiz mumkinki, Zamaxshariyning asarlari adabiyotshunoslik va falsafiy fikrlarni yaxshi o'rganish uchun muhim manba sifatida qabul qilinadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. <https://cyberleninka.ru/article/n/mahmud-zamaxshariy-pedagogik-qarashlari-tizimida-umuminsoniy-g-oyalarning-o-rni/viewer>
2. <https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Az-Zamaxshariy>
3. <https://yuz.uz/uz/authors/32>
4. Samatov, Khurshid. "Issues Naqshbandi teaching peace and harmony in society." Theoretical & Applied Science 2 (2016): 175-179.
5. Ulmasjonovich, Khurshid Samatov. "Mystical and philosophical foundations of human interaction." (2021).
6. Ulmasjonovich, Khurshid Samatov. "Mystical and philosophical foundations of human interaction (based on the teachings of makhdumi Azami Kasani)." European Scholar Journal 2.11 (2021).

## ABU RAYHON BERUNIY MA'NAVIY MEROSINING YOSHLAR TARBIYASIDAGI O'RNI

*Ilmiy rahbar: X.U.Samatov*

*TATU Samarqand filiali*

*Kompyuter Injinering fakulteti*

*KI23-02 guruh talabasi*

*Tursunov I.Sh.*

**Annotatsiya:** Mazkur maqola Abu Rayhon Beruniyning ilmiy yutuqlari va ma'naviyatga berilgan e'tibor, yoshlarni o'zining fikrini va ma'lumotini rivojlantirishdagi ahamiyati va Beruniyning ijodi ilm fanga qo'shgan hissalari haqida malumotlar keltirilgan.

**Аннотация:** В данной статье представлена информация о научных достижениях Абурайхана Беруни и внимании, уделяемом духовности, значении молодежи в развитии их мыслей и знаний, а также вкладе творчества Беруни в науку.

**Abstract:** This article provides information about the scientific achievements of Aburayhan Beruni and the attention paid to spirituality, the importance of young people in developing their thoughts and knowledge, and the contributions of Beruni's work to science.

**Kalit so'zlar:** Abu Rayhon Beruniy, Hindiston, mineralogya, geodeziya, matematika.

Mustaqillik yillarda, Abu Rayhon Beruniyning yoshlarga merosi o'ziga xos bir ahamiyatga ega bo'ldi. Mustaqillik yillarda uning meroslari yoshlar va o'quvchilarga qatori ilmiy, madaniy va ma'naviy yondashuvlar taqdim etish orqali amalga oshirilgan. Beruniyning yoshlarga merosi, ilmiy tadqiqotlar,adolat, ma'rifat va hamsa insonlarga aks ettirilgan yondashuvlarga aloqador edi.

Abu Rayhon Beruniy (973–1048). Abu Rayhon Beruniy bobomiz ham jahon ilm-fani taraqqiyotiga ulkan hissa qoshgan buyuk allomadir. Ul zot Xorazmning Kat shahrida tug'ildi. Zehni nihoyatda o'tkir bo'lgan Beruniy Xorazm Mamun akademiyasida ijod qilgan. Beruniy, ayniqsa, astronomiya, matematika, fizika, madanshunoslik, geografiya, til, tarix kabi fanlarni puxta egalladi. Ayni paytda o'zi ham bu fanlar taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shdi.

Beruniy zamonasining mashhur olimi Abu Nasr Mansur ibn Iroq qo'lida talim oladi, o'sha paytlar Buxoroda yashayotgan bo'lajak olim Abu Ali ibn Sino bilan yozishmalar orqali ilmiy muloqotda bo'ladi. U ona tilidan tashqari arab, sug'diy, fors, suryoniy, yunon tillarini, keyinchalik Hindistonda sanskrit tilini o'rgandi, yunon tilini

esa yunon millatigamansub qo'shnisidan o'rgangan. Bu esa o'z navbatida Beruniyga mazkur tillardagi asarlar bilan chuqur tanishishga imkoniyat yaratdi. Beruniy tibbiyatga bagishlangan "Saydana" asarida mingdan ortiq dorivor moddalar nomini 30 tilda yozib chiqqan. Xorazmdagi siyosiy vaziyatni o'zgarishi natijasida Beruniy 998-yili Jorjon shahriga ketishga majbur bo'ladi. U bu davrga qadar Kot va Ray shaharlarida o'zining dastlabki ilmiy izlanishlarini boshlab yuborgan edi. Jorjonda kechgan yillar Beruniy uchun yirik izlanishlar va ijodiy kamolot davri bo'ldi. O'zining birinchi astronomik tajribalarni 16 yoshda Kot shahrida boshlagan alloma, Jorjonda nafaqat astronomiya va boshqa tabiiy fanlar bilan shug'ullandi, balki tarix va din tarixi bilan ham qiziqdi. Olimning muhim asarlaridan biri «Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar» uning Jorjon saroyida xizmat qilgan davrida yaratiladi.

O'z ilmiy asarlaridan birida yozishicha, u Xorazmda yashagan davrida, 990-yillardan boshlab Kot shahrida muhim astronomik kuzatishlar o'tkazgan. Bu kuzatishlar uchun o'zi astronomik asboblar ixtiro etgan. Xorazm zodagonlari orasida taxt uchun boshlangan kurashlar olimning bu ilmiy ishlarini davom ettirishga imkon bermaganligi bois 22 yoshida vatanini tashlab chiqib ketishga majbur bo'ldi va bir qancha vaqt Kaspiy dengizining janubi-sharqiy sohilidagi Jurjon shahrida muhojirlikda yashadi. So'ng qadimgi Ray shahriga bordi, 998-yildan keyin yana Jurjonga keldi va bu yerda o'zining ikkinchi ustozи tabib, astronom, faylasuf Abu Sahl Iso al-Masihiy bilan tanishib, undan ta'lif oldi. Beruniy "Osor al-boqiya an alqurun al-xoliya" ("Qadimgi xalqlardan qolgan yod-gorliklar") asarini Jurjonda muhojirlik davrida yoza boshlagan va 1000 yilda tamomlagan. "Osor al-boqiya" Beruniyga juda katta shuhrat keltirdi, uni fanning hamma sohasiga qiziquvchi buyuk olim ekanini ko'rsatdi. Bundan tashqari Beruniy Jurjonda astrono-miya, netrologiya tarixiga oid 10 dan ortiq asar yozdi. Xorazmning yangi hukmdori Abu Abbos Ma'mun II ibn Ma'mun tomonidan mamlakatning yangi poytaxti Urganchga chaqirtirildi. Xorazmshoh tomonidan juda katta izzat-ikrom bilan qabul qilingan. Beruniy Urganchda Ma'munning bevosita rahnamoligida vujudga kelgan ilmiy markazda faoliyat ko'rsatadi.

Beruniy shoh Ma'mun II ning eng yaqin maslahatchisi sifatida mamlakatning siyosiy ishlarida ham faol qatnashadi.

Xorazmning Mahmud G'aznaviy tomonidan bosib olinishi Beruniy hayotini xavf ostiga qo'yadi. U Xorazmshoh saroyidagi barcha olimlar bilan birga G'azna shahriga asir qilib olib ketiladi. Beruniyning 1017–1048 yillarda G'aznada kechirgan hayoti, bir tomonidan nihoyat og'ir kechgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, uning ilmiy faoliyati uchun eng mahsuldor davr bo'ldi.

Beruniyning "Xorazmning mashhur kishilar" asari ham shu davrda yaratilgan. Uning muhim astronomik-geografik asari "Tahdid nihoyot al-amoniya li tas'hidi masofat al-masokin" ("Turar joylar orasidagi masofani tekshirish uchun joylarning oxirgi chegaralarini aniqlash" – "Geodeziya") 1025 yilda yozib tugatilgan.

Beruniyning “Munajjimlik san’atidan boshlang‘ich tushunchalar” asari ham 1029 yil G‘aznada yozilgan. Asarning forscha, arabcha nusxalari bizgacha yetib kelgan. Unda o‘sha zamon astronomiyasi bilan bog‘liq bo‘lgan bir qancha fanlar haqida muhim ma’lumotlar berilgan. Beruniyning “Hindiston” nomli mashhur yirik asari “Tahqiq mo li-l-Hind min ma’-quda maqbula fi-l-aql av marzula” (“Hindlarning aqlga sig‘adigan va sig‘maydigan ta’limotlarini aniqlash kitobi”) 1030 yilda yozilgan bo‘lib, bu shoh asar G‘arb va Sharq olimlari, shu jumladan, hozirgi zamon hind olimlari tomonidan yuksak baholangan. Akademik V. R. Rozen “Sharq va G‘arbning qadimgi va o‘rta asrdagi butun ilmiy adabiyoti orasida bunga teng keladigan asar yo‘q”, deb baho bergen. Mahmud G‘aznaviyning Hindistonga qilgan yurishlaridan birida shohga hamroh bo‘lgan Beruniy, u yerda sanskrit tilini puxta o‘rganishi hind madaniyati, adabiyoti va Hindistonning o‘sha davr olimlari bilan yaqindan tanishishga hamda bu mamlakat haqida o‘lmas asar yaratishga imkon berdi. “Hindiston” asari yozib tugatilgan yili Mahmud G‘aznaviy vafot etdi va uning o‘rniga taxtga o‘g‘li Mas‘ud o‘tirdi. Bu davrda Beruniyning ahvoli ancha yaxshilandi. Astronomiyaga oid “Mas‘ud qonuni” asarini sulton Mas‘udga bag‘ishladi. O‘sha asr olimlaridan biri Yoqutning yozishchicha: “Mas‘ud qonuni” kitobi matematika va astronomiya bo‘yicha ungacha yozilgan hamma kitoblar izini o‘chirib yuborgan”.

Beruniy o‘z asarlari ro‘yxatini tuzgandan keyin yana ikkita muhim kitobini yozgan. Bulardan biri “Mineralogiya”dir. Bu risola o‘z zamonasi uchun Markaziy Osiyo va Yaqin Sharq, hatto Ovro‘poda ham mineralogiya sohasida eng yaxshi, tengi yo‘q asar hisoblanadi. Beruniyning oxirgi asari – “Dorivor o‘simpliklar haqida kitob”ining qo‘lyozmasi XX asrning 30-yillarda Turkiyada topildi. Asar “Saydona” nomi bilan mashhur, unda Beruniy Sharq, ayniqsa Markaziy Osiyoda o‘sadigan dorivor o‘simpliklarning to‘la tavsifini beradi.

Beruniy so‘ngi avlodlarga katta ilmiy meros qoldirdi. Beruniyning o‘z davri ilm-fanining turli sohalariga oid 160 dan ortiq tarjimalari, turli hajmdagi asarlari, yozishmalari qolganligi bizga ma’lum. Yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan katta hajmdagi asarlaridan tashqari astronomiya, astrologiya, matematika, geodeziya, geologiya, mineralogiya, geografiya, arifmetika, tibbiyat, farmakologiya, tarix, filologiya masalalariga oid qator risolalar yaratdi va sanskrit tilidan arabchaga, arab tilidan sanskrit tiliga tarjimalar qildi, badiiy ijod bilan ham shug‘ullanib she’rlar yozdi. “Astrologiyaga kirish”, “Astronomiya kaliti”, “Jonni davolovchi quyosh kitobi”, “Ikki xil harakatning zarurligi haqida”, “Ko‘paytirish asoslari”, “Ptolemy “Almagesti”ning sanskritchaga tarjimasi”, “Foydali savollar va to‘g‘ri javoblar”, “Farg‘oniy “Elementlar”iga tuzatishlar”, “Turklar tomonidan ehtiyyotkorlik”, “Oq kiyimlilar” va karmatlar haqida ma’lumotlar”, “She’rlar to‘plami”, “Al-Muqanna haqidagi ma’lumotlar tarji-masi”, “Ibn Sino bilan yozishmalar” shular jumlasidandir.

Beruniy qadimgi yunon ilmi va uning vakillari Aristotel, Platon, Ptolemey, Yevklid kabilarning asarlari hind olimlari, musulmon olimlari al-Xorazmiy, Farg‘oniy, Battoniy, Roziy, Abu Tammam, ibn Kaysum, Abu Ma’shar asarlari bilan yaqindan tanish bo‘lgan, ularga sharhlar, izohlar, tuzatishlar, raddiyalar yozgan. Uning ilmiy merosi g‘oyat rang-barang bo‘lib, tibbiyat faniga, astronomiya faniga xizmati juda kattadir. Beruniy o‘z ilmiy asarlarida dunyoning tuzilishi masalasida Ptolemey sistemasiga suyansa ham, yerning harakati haqida Beruniy: “Yerning harakatsizligi (masalasi) astronomiya fanining asosiy masalalaridan biri bo‘lib, bu haqda yuz beradigan shubhalarni yechish qiyin”, deb yozadi. Osmon jismlarini geometrik tushuntirish asosida Beruniy Kopernikdan bir necha asr avval Yerni koinotning markazi deb biluvchi geotsentrlik va Quyoshni koinot markazi deb o‘rgatuvchi gelotsentrik tizim teng kuchga ega, degan xulosaga keladi. “Geodeziya” asarida Beruniy geotsentrism bilan bog‘liq bo‘lgan ba’zi bir nazariyalarning to‘g‘riligiga shubha bilan qaraganini ochiqdan-ochiq bayon etadi. Beruniy harakat trayektoriyasi va osmon yoritqichlari shaklining ellipsoid ekanligi haqida bиринчи bo‘lib fikr yuritgan olimlardan bo‘lib, joylarning geografik uzoqligini, kengligini aniqlash yo‘llarini tanlab olishda novator hisoblanadi. U trigonometriyani, geometriyani keng qo‘llash orqali o‘zidan oddingi astronomlarga nisbatan ancha aniq natijalarga erishdi. Turli joylarning geografik kengligi va uzoqligini aniqlashda Beruniy erishgan natijalar hatto hozirgi zamon olimlarini ham hayratda qoldiradi. Buyuk olim Yer yuzasining har bir qismi o‘zining uzoq tarixiy taraqqiyotiga ega ekanligini qayd etadi. Markaziy Osiyoning ba’zi bir mintaqalari, shu jumladan, Amudaryo vodiysining geologik rivojlanishini bиринчи marta jiddiy o‘rganishga harakat qilgan ham Beruniydir. Uning Amudaryo vodiysining geologik o‘tmishi va Orol dengizining paydo bo‘lishi haqidagi xulosalari o‘sha zamonning eng muvaffaqiyatli geologik tahlillaridan biri bo‘lib hisoblanadi. Olim “Dengizlar quruklikka, quruqliklar esa dengizga aylanadi” degan nazariyaga suyanadi. Beruniyning foydali qazilmalar qatlaming paydo bo‘lishi, jinslar yemirilishining ahamiyati, tog‘ jinslarining nurashi kabilar haqidagi xulosalari katta ilmiy ahamiyatga egadir. U tog‘larning paydo bo‘lishi va yo‘q bo‘lib ketishi tabiiy omillar asosida yuz berishini talqin etuvchi nazariyani olg‘a suradi.

Beruniyning Aristotelga munosabati ibi Sino bilan yozishmasida o‘z ifodasini topgan. Ularning yozishmalarini asosan Aristotelning “Fazo haqida” va “Fizika” asarlari bo‘yicha olib borilgan edi. Beruniy Aristotelni qadimgi dunyoning eng qomusiy yetuk olimi deb zo‘r hurmat bilan tilga oladi.

Beruniyning boshqa dunyolar mavjudligi to‘g‘risida taxmini uning ilmiy yutuqlaridan biri hisoblanadi.

Olimning fikrlari, bir tomonidan, Markaziy Osiyo, qadimgi yunon va hind mutafakkirlarining ilg‘or an’analarini ijodiy rivojlantirgan bo‘lsa, ikkinchi tomonidan, Beruniyning yetukligi, tafakkur doirasining kengligidan dalolat beradi. Beruniy

tomonidan “sabablarining sababi” – inson va insoniyat jamiyatining yuzaga kelishi masalasining qo‘yilishi diqqatga sazovor. “Qadimgi tarixlarning eng qadimgisi va eng mashhuri bashariyatning boshlanishidir”. Bu yerda Beruniy kishilik jamiyatining paydo bo‘lishi haqida ratsionalizm pozitsiyasida turganini ko‘ramiz. Beruniy insonlar o‘rtasidagi tafovut borligi haqida gapirar ekan, u faqat tashqi farqlar to‘g‘risida fikr yuritgan. Lekin kishilarning ichki tuzilishi va tashkil topishi, uning fikricha, barchada umumiyyidir. U inson bilan maymun o‘rtasida o‘xshashlik borligini qayd etadi.

Beruniy o‘zining “Hindiston” asarida musulmonlar bilan hindlarning urfatlari o‘rtasidagi farqlarni tahlil qilib, ular geografik sharoitlarga bog‘liq degan fikrni ilgari surdi, geografik omilning rolini tahlil qilishni davom ettirib, hatto tillarning turlichaligi ham geografik sharoitlarga bog‘liq deb qaradi. “Tillarning turlicha bo‘lishiga sabab odamlarning guruhlarga ajralib ketishi, bir-birlaridan uzoq turishi”dir.

Beruniy ijtimoiy hayot o‘ziga xos “shartnoma” asosida tuzilishini e’tirof etadi: “Inson o‘z ehtiyojlarini tushunib, o‘ziga o‘xshash kishilar bilan birga yashashning zarurligini anglay boshlaydi. Shuning uchun o‘zaro kelishuvchanlik qabilidagi “shartnoma” tuzishga kirishadi. Odamlarning birgalikdagi turmushi insonni haqiqiy qudratga, uning ehtiyojlarini qondirishga olib kelmaydi, buning uchun yana mehnat qilish ham zarurdir”. Bu fikrni davom ettirib, “insonning qadr-qimmati o‘z vazifasini a’lo darajada bajarishdan iborat: shuning uchun insonning eng asosiy vazifasi va o‘rnini mehnat bilan belgilanadi, inson o‘z xohishiga mehnat tufayli erishadi”, deb yozgan edi u.

Beruniy jamiyatni boshqarishda jamiyat podshohga xizmat qilmay, podshohjamiyatga xizmat qilishi kerakligini tushungan. “Idora qilish va boshqarishning mohiyati balki boshliq zolimlardan aziyat chekkanlarning huquqlarini himoya qilish, birovlarning tinchligi yo‘lida o‘z tinchligini yo‘qotishdir. Bu ularning oilasini, ularning hayoti va mol-mulkini himoya qilish va qo‘riqlash yo‘lida badan charchashidan iborat”.

“Tabiatan boshqarishga moyil” bo‘lgan hokim o‘z fikri va qarorlarida qat’iy bo‘lishi kerak, o‘z ishlarini amalga oshirishda faylasuflarning qonunlariga, Aleksandr Makedonskiy Aristotelning falsafiy donishmandligiga amal qilganidek, bo‘ysinishlik lozim: shohning o‘zi ham “yaratuvchanlik ongiga” ega bo‘lmog‘i, ayniqsa dehqonlar to‘g‘risida ko‘proq g‘am yeyishi kerak. “Podshohlik dehqonchiliksiz yashay olmaydi”, dedi Beruniy. Beruniyda shunday fikrlar bor: “odil hokimning asosiy vazifasi oliy va past tabaqalar, kuchlilar va kuchsizlar orasida tenglik,adolat o‘rnatishdan iboratdir”.

biladigan olim bo‘lman”. Beruniy haqidagi oliy baho va tavsiflar Tabriziy, Suyuti, Qazviniy, Tusiy, Muhammad ibn Mansur al-Allomiy, al-Xurosoniy kabilarning asarlarida keltiriladi.

Xulosa qilib aytganda Abu Rayhon Beruniy biz yoshlar uchun ko‘plab kitoblar qo‘lyozmalar qolditgan ilm fanga katta xissa qo’shgan olimlardan biri hisoblanadi. Abu

Rayhon Beruniy kelajak avlod uchun juda ko'plab sohalarda izlanishlar va tadqiqodlar olib borgan. Hozirda bu narsalar insonlar uchun xizmat qilmoda deya olaman.

### Foydalaniman adabiyotlar ro'yxati:

- 1) <https://www.google.com/amp/www.myshared.ru/amp/1443667/>
- 2) Ulmasjonovich, K. S teraction (based on thurnal, 2(11), 45-48.
- 3) <https://bilimlar.uz/abu-rayhon-beruniy-973-1048/>
- 4) Journal, 2(11), 45-48. Ulmasjonovich, K. S. (2021). Mystical and eraction.
- 5) Samatov, K. (2016). Issues Naqshbandi tea eoretical & Applied Science, (2), 175-179.

## KIMYOVIY MUVOZANAT VA UNING SILJISH SHARTLARI

*Shamsiddinov Muxammadjon Ziyavidinovich**Toshkent shaxri Yashnobod tumani**Toshkent Davlat Stomatologiya Instituti Akademik litseyi**Kimyo fani o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada kimyoviy muvozanat, to'g'ri va teskari reaksiyalar tezligi,kimyoviy muvozanatni qaror topishi,kimyoviy muvozanatni o'ng yoki chap tomonga siljishi va unga ta'sir etuvchi omillar haqida ma'lumotlar berilgan.

**Kalit so'zlar:** kimyoviy muvozanat, ammiak, qaytar va qaytmas reaksiyalar, azot, vodorod, energiya, issiqlik.

Kimyoviy muvozanat – to‘g‘ri va teskari reaksiyalar tezligi tenglashgan holat. Masalan,  $N_2+3H_2 \rightleftharpoons 2NH_3$  reaksiyasida azotning vodorod bilan birikish (to‘g‘ri reaksiya) tezligi ammiakning azot va vodorodga parchalanish (teskari reaksiya) tezligiga teng. Kimyoviy muvozanatni sodir bo‘lganda reaksiya go‘yoki to‘xtab qolgandek ko‘rinadi, aslida ikkala reaksiya ham davom etadi, biroq bu reaksiyalarning biri ikkinchisining natijasini yo‘qqa chiqaradi. Mohiyatiga ko‘ra, Kimyoviy muvozonat dinamik muvozanatdir. O‘zgarmas muhit (kislotali yoki asosli) va sharoitda (temperatura, bosim) reaksiyaga kirishayotgan moddalar konsentratsiyasining o‘zgarmasligi Kimyoviy muvozanatning muhim belgisidir. Kimyoviy muvozanatni o‘rganish nazariy tadqiqotlar va turli amaliy masalalarni hal qilishda katta ahamiyatga ega.

Barcha kimyoviy reaksiyalar ikki turga: qaytar va qaytmas reaksiyalarga bo‘linadi. Reaksiyaga kirishuvchi moddalar to‘liq reaksiya mahsulotlariga aylanadilan jarayonlar qaytmas reaksiyalar deyiladi. Qaytmas reaksiyalar faqat bir yo‘nalishda boradi va bular amalda to‘liq, oxirigacha boradigan reaksiyalardir. Bunday reaksiyalarga:


Qiyin eriydigan moddalar hosil bo‘lishi bilan boradigan reaksiyalar:



Gazsimon moddalar hosil bo‘lishi bilan boradigan reaksiyalar:



Ko‘p miqdorda energiya ajralishi bilan boradigan reaksiyalar:




Kuchsiz elektrolit hosil bo‘lishi bilan boradigan reaksiyalar:




Aksariyat kimyoviy jarayonlar qaytar reaksiyalardir. Reaksiyaga kirishuvchi moddalarning bir qismi reaksiya mahsulotlariga aylanib, ayni vaqtda reaksiya

mahsulotlari qaytadan dastlabki moddalarga aylanib turadigan kimyoviy jarayonlar qaytar reaksiyalar deyiladi. Qaytar reaksiyalar ikkita o‘zaro qarama-qarshi yo‘nalishda boradi.


Masalan, berk idishda ekvivalent miqdorda vodorod bilan yod reaksiyaga kirishadi:



Vodorod bilan yodning konsentratsiyasi yuqori, vodorod yodid konsentratsiyasi nolga teng. Ma’lum miqdorda vodorod yodid hosil bo‘la borishi bilan teskari reaksiya boshlanadi, yani vodorod yodid vodorod bilan yodga ajralala boshlaydi.



Avval chapdan o‘ngga borayotgan reaksiya tezligi katta bo‘ladi, bir ozdan keyin o‘ngdan chapga borayotgan reaksiya tezligi ortadi. Nihoyat to‘g‘ri va teskari reaksiyalar tezligi tenglashadi. Bu vaqtda idishda uchala komponentning miqdoriy nisbatlari ma’lum qiymatga erishadi va ayni sharoitda bu nisbat o‘zgarmasdan saqlanadi. Muvozanat holatda to‘g‘ri va teskari reaksiyalar to‘xtamaydi, shuning uchun bunday holat kimyoviy dinamik muvozanat holati deyiladi. Berk idishda 500°C harorat va 300 atm bosimda 1 mol N<sub>2</sub> gazi va 3 mol H<sub>2</sub> gazi aralashtirilsa bu moddalar o‘zaro ta’sirlashib, ammiak hosil bo‘la boshlaydi (to‘g‘ri reaksiya):



Vaqt o‘tishi bilan I reaksiya tezligi kamayib boradi. Chunki, massalar ta’siri qonuniga ko‘ra N<sub>2</sub> va H<sub>2</sub> konsentratsiyalari kamayib borishi bilan vto‘g‘ ning qimati kamaya boshlaydi. II reaksiya tezligi esa, aksincha, orta boshlaydi. Chunki, vaqt o‘tishi bilan ammiakning konsentratsiyasi ortib boradi va vtes qiymatining ortishiga olib keladi. Sistemada shunday holat yuzaga keladiki, bu paytda I va II reaksiyalarning tezliklari o‘zaro teng bo‘lib qoladi:

$$\text{vto‘g‘} = \text{vtes}$$

Bunda to‘g‘ri va teskari reaksiyalarning tezliklari teng bo‘lib qoladi va ushbu holat sistemaning kimyoviy muvozanat holati deyiladi. Kimyoviy muvozonat paytida kimyoviy reaksiyalar to‘xtab qolmaydi, reaksiya davom etaveradi. Lekin qarama-qarshi reaksiyalarning tezliklarigina teng bo‘lib turaveradi. Shu sababli buni dinamik (harakatchan) muvozanat deyiladi. Kimyoviy muvozanatning miqdoriy tavsifnomasi sifatida muvozanat doimiysi – Kmuv qabul qilingan.

Muvozonat doimiysi Yuqorida ko‘rib chiqilgan reaksiyalar N<sub>2</sub> + 3H<sub>2</sub> → 2NH<sub>3</sub> (I) uchun:

$$\text{To‘g‘ri reaksiya tezligi: } \text{vto‘g‘} = K_1[\text{N}_2] \cdot [\text{H}_2]^3$$

$$\text{Teskari reaksiya tezligi: } \text{vtes} = K_2[\text{NH}_3]^2,$$

$$\text{Kimiyoiviy muvozonat sharti } \text{vto‘g‘} = \text{vtesga ko‘ra:}$$

$$K_1[\text{N}_2] \cdot [\text{H}_2]^3 = K_2[\text{NH}_3]^2$$

bo'ladi. Bu tenglikdagi doimiylarni bir tomonga, moddalar konsentratsiyalarini ikkinchi tomonga o'tkazib yozilsa:

$$Kmuv = K_1 / K = [NH_3]^2 / [N_2] \cdot [H_2]^3$$

tenglamaga kelamiz. Agar doimiylar nisbati ham bir (doimiy) o'zgarmas songa teng bo'lishini e'tiborga olsak, reaksiyalar tez-lik doimiylarining nisbatlari  $K_1 / K_2 = Kmuv$  ekanligi kelib chiqadi.

Buning ma'nosi – kimyoviy muvozanatda turgan sistemada reak-siyada hosil bo'lgan moddalar konsentratsiyalari ko'paytmasining muvozanatda turgan dastlabki moddalar konsentratsiyalari ko'paytmasiga nisbati ayni haroratda doimiy sondir.

Kimyoviy muvozanat siljishiga konsentratsiya ta'sir qiladi. Agar ammiak hosil bo'lishi reaksiyasida (muvozanatda turgan)dastlabki moddalardan H<sub>2</sub> (yoki N<sub>2</sub>) ning konsentratsiyasini oshirsak, massalar ta'siri qonuniga ko'ra:

$$\nu_{to^{'}}^g = K_1[N_2][H_2]^3$$

Berilgan ifodaga muvofiq to'g'ri reaksiya tezligi ortadi va muvozanat o'ng tomonga siljiydi. Reaksiya aralashmada NH<sub>3</sub> konsentratsiyasini oshirsak, o'z navbatida  $2NH_3 \rightarrow N_2 + 3H_2$  reaksiya tezligi ortadi va muvozanat chap tomonga siljiydi. Ma'lum vaqtan so'ng sistemada yana (yangi) muvozanat holati qaror topadi. Yangidan muvozanatga kelgan bu sistemada yana H<sub>2</sub> (yoki N<sub>2</sub>) ning miqdorini oshirsak, yana xuddi yuqoridagi singari holat qaytariladi. Kimyoviy muvozanat o'ng tomonga siljiydi ( $\nu_{to^{'}}^g > \nu_{tes}$ ) va pirovardida yana qaytadan muvozanat qaror topadi ( $\nu_{tes} = \nu_{to^{'}}^g$  holatiga keladi). Agar sistemada reaksiya mahsulotni NH<sub>3</sub>ning miqdori oshirilsa, muvozanat buzilib, ammiakning parchalanishi reaksiyasining tezligi ortadi. ( $\nu_{to^{'}}^g > \nu_{tes}$ ) va ma'lum vaqt o'tgandan so'ng qaytadan muvozanat qaror topadi. Umuman, muvozanatda turgan sistema dastlabki moddalar konsentrasiyasining ortishi bu moddalar miqdorini kamaytiruvchi reaksiya tezligining ortishi ( $\nu_{to^{'}}^g > \nu_{tes}$ )ga olib keladi, muvozanat o'ngga, ya'ni reaksiya mahsulotlari miqdori ortishi tomonga siljiydi. Reaksiya mahsulotlaridan biri miqdorning ortishi, shu mahsulot miqdorini kamaytiruvchi reaksiya, ya'ni dastlabki moddalar hosil bo'lishi reaksiyasi ( $\nu_{to^{'}}^g < \nu_{tes}$ ) tezligining ortishiga, muvozanatning chapga siljishiga olib keladi. Yuqorida aytilgan misolimizda dastlabki moddalar konsentrasiyaslarining kamayishi teskari reaksiya tezligining ortishiga  $\nu_{to^{'}}^g < \nu_{tes}$  olib keladi. Hosil bo'lgan mahsulot – NH<sub>3</sub> miqdorining kamayishi  $\nu_{to^{'}}^g > \nu_{tes}$  ga olib keladi, muvozanat o'ngga siljiydi. Aksariyat hollarda gazsimon moddalar ishtirokida boruvchi reaksiya (sistema)larda kimyoviy muvozanatning siljishiga bosim ta'sir qiladi. Masalan, azot, vodorod va ammiakdan iborat kimyoviy muvozanatda turgan sistemaning  $N_2 + 3H_2 \rightarrow 2NH_3$  (I) umumi bosimi (sistema hajmining kamaytirishi bilan) oshirilganda muvozanat molekulalar soni kam tomonga, ya'ni o'ngdan chap tomonga siljiydi. Bu holat reaksiya tenglamasining o'ng va chap tomonlaridagi stexiometrik koeffitsientlar (1 mol N<sub>2</sub> + 3mol H<sub>2</sub> ≠ 2mol NH<sub>3</sub>) yig'indisi (4 mol ≠ 2 mol) o'zaro teng bo'lmasani

uchun ro'y beradi. Agar tenglamada dastlabki moddalar mollar soni hosil bo'lgan moddalar mollari soni bilan teng bo'lsa, masalan,  $H_2 + Cl_2 = 2HCl$  (1 mol + 1 mol = 2 mol) Bunda bosimining o'zgarishi sistema muvozanatining o'zgarishiga olib kelmaydi, lekin tenglamadagi moddalardan birortasining konsentratsiyasi o'zgarishi muvozanatni u yoki bu tomonga siljitgan bo'lar edi.

Kimyoviy muvozanatga ta'sir qiluvchi omillar.

1. Haroratning ta'siri. Har bir qaytar reaktsiyada yo'nalishlardan biri ekzotermik jarayonga, ikkinchisi esa endotermik jarayonga to'g'ri keladi.

Harorat ko'tarilganda kimyoviy muvozanat endotermik reaksiya yo'nalishiga, harorat pasyganda esa ekzotermik reaksiya yo'nalishiga siljiydi.

2. Bosimning ta'siri. Boshlang'ich moddalardan mahsulotlarga o'tish paytida modda miqdorining o'zgarishi tufayli hajmning o'zgarishi bilan birga bo'lgan gazsimon moddalar ishtirokidagi barcha reaktsiyalarda muvozanat holatiga tizimdagি bosim ta'sir qiladi.

Bosimning muvozanat holatiga ta'siri quyidagi qoidalalar bilan tartibga solinadi:

Bosimning oshishi bilan muvozanat kichikroq hajmdagi moddalar (boshlang'ich yoki mahsulotlar) hosil bo'lish yo'nalishi bo'yicha siljiydi.


3. Konsentratsiyaning ta'siri. Konsentratsiyaning muvozanat holatiga ta'siri quyidagi qoidalarga bo'yusunadi:

Boshlang'ich moddalardan birining konsentratsiyasi ortishi bilan muvozanat reaktsiya mahsulotlarining hosil bo'lish yo'nalishi bo'yicha siljiydi;

reaktsiya mahsulotlaridan birining kontsentratsiyasining oshishi bilan muvozanat boshlang'ich moddalarning hosil bo'lish yo'nalishi bo'yicha siljiydi.

Xulosa:

Yuqoridagilarga asosan, sistema hajmini kamaytirish bilan bosimning ortishi kimyoviy muvozanat gaz molekulalari soni kamayadigan ya'ni bosim kamayadigan tomonga siljitadi. Reaksiyaning o'ng va chap tomonlaridagi stexiometrik koefitsiyentlar yig'indisi o'zaro teng bo'lsa, bosimning o'zgarishi muvozanat siljishga olib kelmaydi. Kimyoviy muvozanatning siljishiga haroratning ta'siri reaksiyaning endotermik yoki ekzotermik ekanligiga, ya'ni reaksiyaning issiqlik effektiga bo'g'liq bo'ladi. Masalan, sulfat kislota ishlab chiqarishda oltingugurt (IV) oksidni oksidlab, oltingugurt (IV) oksid olish talab etiladi. Bu reaksiya ekzotermik va qaytar reaksiyadir:



Harorat oshirilganda muvozanat endotermik reaksiya tomoniga siljiydi:




Shuning uchun, oltingugurt (VI) oksidning gazlar aralashmasidagi massasi kamayadi. Demak, endotermik reaksiyada harorat oshirilganda muvozanat o'ngga siljiydi, ekzotermik reaksiyada harorat oshirilganda muvozanat chap tomonga siljiydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Omonov H.T., Qurbanazarov O.A. Kimyo, inson va biosfera. -Toshkent: O'zbekiston ziylolarining ilmiy-ma'rifiy uyushmasi, 1993.-26 b.
2. Sh.R.Sharipov, G'.N.Sharifov, F.Turdikulova, B.Raxmanov Kimyo fanini o'qituvchisining kreaktivlik qobiliyatini shakllantrish metodlari. Zamona viy kimyoning dolzarb muommalari mavzusida Respublika anjumani materiallar to'plami. Buxora, 2020. 216-219.
3. Sharipov Sh.R.Sharifov G.N.Raxmanov B.Sh. Maktab kimyo kursida elektrolitik dissosatsiyalanish nazariyasini muommali ta'lif texnologiyasi asosida o'qitish\ O'zbekistonda ilmiy-amaliy tadqiqotlar mavzusidagi respublika 21-ko'p tarmoqli ilmiy masofaviy onlayn konferensiya materiallari. 31oktabr 2020y. Toshkent. b.9-10
4. Sh.R.Sharipov. G'.N.Sharifov, F.Turdiqulova, B.Raxmonov Kimyo fanni o'qituvchisining kreaktivlik qobiliyatini shakllantirish metodlari. ZAMONAVIY KIMYONING DOLZARB MUAMMOLARI" mavzusidagi Respublika miqyosidagi xorijiy olimlar ishtirokidagi onlayn ilmiy-amaliy anjumani to'plami. Buxoro, 2020 yil 4-5 dekabr. B.216-218.
5. Sharifov G.N.,Sharipov Sh.R. Kimyoviy nazariyalarni o'qitishning pedagogik asoslari. 2021 -yil "Yoshlarni qo'llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili" hamda "21 fevral Xalqaro ona tili kuni" munosabati bilan Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti Masafodan o'qitish kafedrasи "Uzluksiz ta'lif tizimida masofadan o'qitishning integratsiyasi" mavzusida o'tkaziladigan Xalqaro ilmiy-nazariy anjuman to'plami. Nukus shahri. 20 fevral 2021y. S.248-249

## KIMYO DARSLARIDA EKOLOGIK TARBIYA



Shamsiddinov Muxammadjon Ziyavidinovich

Toshkent shaxri Yashnobod tumani

Toshkent Davlat Stomatologiya Instituti Akademik litseyi

Kimyo fani o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada mamlakatimizda maktablarda kimyo darslarida ekologik tarbiya darslari hamda buning ahamiyati, atrof-muhitni ifloslanishini oldini olishda kimyoviy moddalardan maksimal darajada samarali foydalanish, chiqindisiz texnologiyalarni ishlab chiqish haqida ma'lumotlar berilgan.

**Kalit so'zlar:** Kimyo sanoati, kimyo darslari, ekologik tarbiya, atrof-muhit, havo, atmosfera.

Kimyo sanoati butun dunyoda eng yirik va o'ta muhim sektor hisoblanadi. Ushbu kompleks korxonalarida turli tarmoqlar va millionlab iste'molchilar uchun zarur bo'lgan mahsulotlar, jumladan, azot, fosfat, kaliy va boshqa o'g'itlar, lak, kraska, plastik va boshqa muhim mahsulotlar ishlab chiqariladi. Tashvishlisi shundaki, kimyo sanoatida havoni ifloslashi va ekologiyaga zarar keltirishi mumkin bo'lgan turli moddalar ishlatilishi mumkin. Bu esa insonlar hayoti uchun ba'zi xatarlarni keltirib chiqaradi. Bu yo'nalishda global miqyosda turli hujjatlar, ko'plab xalqaro tashkilotlar tomonidan yirik dasturlar va loyihibar qabul qilingan. O'zbekistonda soha korxonalari "O'zkimyosanoat" AJ tizimiga kiradi hamda atrof-muhitni muhofaza qilish va sanoat xavfsizligi tarmoqning eng muhim vazifalaridandir. Xo'sh, "O'zkimyosanoat" AJ tizimiga kiruvchi korxonalar o'z ekologik javobgarligini to'liq his qilmoqdami? Mamlakatimizda kimyo sanoatini zararsizlantirish borasida nimalar qilinyapti? Ma'lumotlarga ko'ra, shu yilning o'zida 18 million 884 ming 606 tonna atmosferaga tashlanmalar, shu jumladan 1 million 43 ming 66 tonna toksik tashlamalar va 6 million m<sup>3</sup> suv tashlanmalari kamaygan. 13 ming m<sup>3</sup> artezian suv va 2,77 ming m<sup>3</sup> ichimlik suv iqtisod qilingan. 718,1 hektar yer texnik rekultivatsiya qilindi. 11 765,07 tonna chiqindi utilizatsiyaga topshirildi, 117 ming 170 tup ko'chat va 175 ming 536 dona gullar ekildi, 1400 tup daraxtga zararkunandalarga qarshi ishlov berildi. Shuningdek, "O'zkimyosanoat" AJ tizimiga kiruvchi tashkilotlarda 34 ming 947 kv.metr maydonagi irrigatsiya va melioratsiya ob'ektlari tozalandi va tartibga keltirilgan. Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi huzuridagi "Atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida faoliyat ko'rsatayotgan xodimlarning malakasini oshirish va qayta tayyorlash" o'quv markazida "O'zkimyosanoat" AJ va tarmoq korxonalar xodimlari muntazam o'z malakasini oshirmoqda. "Navoiyazot" AJ, "Farg'onaaazot" AJ va "Maxam-Chirchiq"

AJ tomonidan Azot kislotasi chiqindilari bilan bog‘liq iqlim o‘zgarishiga qarshi kurashish bo‘yicha harakatlar guruhi va Germaniya xalqaro hamkorlik jamiyati bilan birgalikda azot oksidi chiqindilarini kamaytirish bo‘yicha loyihalar amalga oshirilmoqda. 2021 yil iyul oyida “Ernst&Young” va “First Climate AG” kompaniyalari tomonidan ushbu loyihaning texnik va tijorat qismlarini o‘z ichiga olgan kompleks ekspertiza o‘tkazildi. Shu yil “Maxam-Chirchiq” AJ va Germaniya xalqaro hamkorlik jamiyati o‘rtasida grant ajratish bo‘yicha shartnoma ham imzolandi. Hozirda uskuna va jihozlarni tanlash uchun texnologik tender o‘tkazishga hujjatlar tayyorlanyapti. “Navoiyazot” AJ va “Farg‘onaazot” AJlarga ham Germaniya xalqaro hamkorlik jamiyati va NAGAG tomonidan grant kelishuvi taqdim etilishi va moliyalashtirilishi kutilmoqda. Uchta korxona bo‘yicha loyihalarni amalga oshirish natijasida CO<sub>2</sub> ekvivalentida atmosferaga zararlar jami 1 613,3 ming tonnaga kamayishi kutilmoqda. “O‘zkimyosanoat” AJ Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki (YeTTB) bilan ham mamlakatimizda past uglerodli ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish bo‘yicha strategiya va “yo‘l xaritasi”ni ishlab chiqmoqda. Bugungi kunga qadar YeTTB energiya almashinuvi va dekarbonizatsiya strategiyasini tayyorlash uchun ERM boshchiligidagi maslahatchilar konsorsiumini jalb qildi. “Yo‘l xaritasi” Parij kelishuviga muvofiq tayyorlanadi, uning asosiy maqsadi 2050 yilga borib atmosferaga chiqadigan chiqindini nolga tushirishdir. Ushbu hujjat “O‘zkimyosanoat” AJ biznes faoliyatida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan iqlim o‘zgarishi bilan bog‘liq xavf va imkoniyatlarni aniqlash, baholash va boshqarish, shu bilan birga, muammoli vaziyatlar yuzaga kelganda biznes strategiyasi va faoliyatni o‘zgartirish orqali o‘z vaqtida ijobiy hal qilishni nazarda tutadi. Yana bir juda muhim yo‘nalish – qayta tiklanuvchi energiya manbalari. “O‘zkimyosanoat” AJda 2023-2024 yillarda yoqilg‘i-energetika resurslari iste’molini kamaytirish maqsadida 2023 yil yakuniga qadar bino-inshootlar tomlariga quyosh panellarini o‘rnatish loyihalari amalga oshirilib, 2 541,0 kWt “toza” energiya quvvatini yaratish rejalashtirilgan edi. Keyinroq, mavjud imkoniyatlar qayta ko‘rib chiqilib, ushbu ko‘rsatkichni 10 141,0 kWt ga (qo‘srimcha 7 600 kWt) yetkazish belgilab olindi. 2024 yil yakuniga qadar bino-inshootlar tomlariga qo‘srimcha ravishda quyosh panellari o‘rnatilib, 32 komplekt quyosh fotoelektr stansiyalari (o‘rnatilgan quvvati 3 220,0 kWt.s) barpo etilishi rejalashtirilgan. Bu esa tabiatni asrash va energiya resurslarini tejash yo‘lidagi yana bir katta qadamdir. Kimyo sanoati har qanday milliy iqtisodiyotning tayanchlaridan biridir. Sanoat va ishlab chiqarishni rivojlantirmoqchi ekanmiz, kimyo sanoatisiz buning iloji yo‘q. Ammo tarmoqning atrof-muhitga zarar yetkazish bilan bog‘liq risklarini ham e’tibordan chetda qoldirib bo‘lmaydi. Ushbu xatarlarni kamaytirish bir necha yo‘nalishda amalga oshiriladi. Jumladan, samarali nazorat va tartibni ta’minlash orqali kimyoviy va sanoat avariylarining oldini olish, yashil va yanada xavfsiz texnologiyalarni joriy etish orqali havo ifloslanishini kamaytirish, ish jarayonida ximikatlardan odamlarga zarar

yetmasligi uchun xavfsiz ishlash muhitini yaratish shulardan iborat. Mamlakatimizda kimyo sanoatida atrof-muhitga salbiy ta'sirni kamaytirishga qaratilgan ishlarda aynan ushbu yo'naliishlar bosh mezon qilib olingan.

Yuqorida holatlardan kelib chiqqan holat mamlakatimizda maktablarda kimyo darslarida ekologik tarbiya darslari o'tilmoqda. Bundan asosiy maqsad kimyoviy moddalar samarali foydalanish hamda atrof-muhit ifloslanishini maksimal darajada oldini olishdan iborat.

Ekologik to'garaklar, o'quvchilarni mahalliy ekologik vaziyat bilan kengroq tanishtirish, ularni vujudga kelgan keskinlikni bartaraf etishda ishtirok etish istiqbolini ochadi. Kimyo zavodlarning atrof-muhitga chiqaradigan chiqindilari, havo havzasini ifloslantiradigan gazlar va ularning inson salomatligiga, tirik jonzod va o'simliklar dunyosiga ta'sirini o'rganishga to'g'ri keladi. Kislorod, oltingugurt, azot, fosfor, mineral o'g'itlar mavzulari o'tilganda, zavodning atrof-muhitni ifloslantirayotgan chiqindilari va zaharli gazlarga alohida to'xtalib o'tish kerak. Buning sabablari va ularni kamaytirish yo'llarini o'quvchilar bilan muhokama qilishlari lozim. Turli xil savol-javoblar o'tkazish va bular asosida o'quvchilarda ekologik ta'lim shakllanib boradi, ulardan tabiatga, o'simliklar dunyosiga va butun tirik mavjudodlarga bo'lgan qiziqlishi va havaslari ortib boradi. Kimyo sanoatining kuchli rivojlanishi, mashinasozlikning rivojlanishi, kimyoviy mahsulotlarning xalq xo'jaligida qo'llanish darajasi ortib borgan sari havoning har xil sanoat chiqindilari (changlar, zaharli gaz moddalar) bilan ifloslanishi kuzatulmoqda, bu kishilar salomatligiga salbiy ta'sir qilmoqda. Bobokalonimiz Abu Ali ibn Sino toza havo insonlar sog'lig'iga ijobiy ta'sir etuvchi eng asosiy omillardan biri ekanligini bundan ming yil burin uqtirib o'tgan edi. Shuni ta'kidlash lozimki, atmosfera havosining ortiq darajada ifloslaniishiga kimyo sanoatida chiqindisiz ishlashni ta'minlaydigan texnologik jarayonlarning yetarlu ishlab chiqilmagani ham sabab bo'lmoqda. Hozir hamma joyda shu muammo bo'yicha keng izlanishlar olib borilmoqda. Bunday izlanishlar kumyo sanoati kuchli rivojlangan O'zbekiston Respublikasi uchun juda muhum ahamiyat kasb etadi. Hozirgi kunda atrof –muhutni zararlantiruvchi omillardan yana biri transport vositalaridan chiquvchi zararli gazlardir. Atrof –muhutni zararlantiruvchi moddalar tarkibini asosan uglerod oksidi (CO<sub>2</sub>), oltingugurt oksidi (SO<sub>2</sub>), azot oksidi (NO<sub>2</sub>) , uglevodorodlar (C<sub>n</sub>H<sub>m</sub>) va shu kabi boshqa gazlar tashkil qiladi. Statistik ma'lumotlarga murojat qiladigan bo'lsak, har yili O'zbekistonda 2900 ming tonnadan ziyot ifloslantiruvchi moddalar chiqariladi. Shu jumladan uglevodorodlar 182,7 ming t, uglerod oksidi 129,6 t, azot oksidi 117 ming t, oltingugurt oksidi 542 ming t, uglerod oksidi va uglevodorodlar ko'pincha zararlantiruvchi moddalarning asosiy qismini «avtomobil» transporti tashkil qiladi . «Suv havzalarini ifloslantiruvchi omillar», «Suvni ifloslanishdan saqlash» mavzulari o'tilganda ekologik holatni doimo bir me'yorda saqlash uchun, tabiatning bir butunligi to'g'risidagi tushunchalarning berilshi yaxshi natija beradi. O'zbekiston

Respublikasi suvni eng ko'p sarflaydigan (chunki bu yerda sug'oriladigan dehqonchilik bilan shug'ullanadi) davlat hisoblanadi. Orol-Kaspiy havzasiga quyiladigan daryolarning suvlari asosan muzliklardan oqib tushadi, ichish uchun yaroqli hisoblanadi. Ammo keyingi 25-30 yil ichida ana shu daryolarning suvlari sanoat chiqindilari ko'plab tashlanishi va qishloq xo'jaligida o'g'itlardan noto'g'ri foydalanish tufayli hamda boshqa sabablarga ko'ra ichishga yoki texnik maqsatlarda foydalanishga yaroqsiz bo'lib qolmoqda.

Suv havzalarini (suv omborlari, daryolar, soylar, yer osti suvlari va boshqalar) ifloslantiradigan omillar asosan quyidagilardan iborat:

1. Sanoat korxonalarining chiqindi suvlarini chuchuk suv oqayotgan soy va ular orqali daryolarga, daryolardan suv omborlariga oqizib yuborish.

2. Neftni haydaydigan va qayta ishlaydigan sanoat korxonalarida neft mahsulotlarining oqar suvlarga tushushi, yer ostiga singishi va yer osti suvlari bilan sizot suvlarga, undan zovurlarga o'tishi.

3. Yoqilg'ini yoki ishlatilgan mashina moylarini ariqlarga to'kishi, mashinani oqayotgan ariq, soy, daryo bo'yida yuvib oqavasini suvga oqizish. Shuni esdan chiqarmaslik lozimki, suvga tushadigan har kg neft yoki benzin 1000 m daryo suvi yoki sizot suvni zaharlash uchun yetarli bo'ladi.

4. Qishloq xo'jaligida mineral o'g'itlardan noto'g'ri foydalanish, sug'orish shaxobchalarining yaxshi ishlamasligi yoki sug'orish agrotexnikasiga amal qilinmaganligi tufayli tuproq haydov qatlaming yuvilib zovurlarga va ariqlarga tushishi, qishloq xo'jalik zararkunandalariga qarshi kimyoviy kurash vositalaridan noto'g'ri foydalanganligi tufayli ularning suvga tushishi.

5. Sanoat korxonalarida gaz (SO<sub>2</sub>, NO<sub>2</sub>) va qattiq moddalarning haddan ziyod miqdorda havoda tarqalishi, ularning havodagi namlik va yomg'ir suvi bilan yuvilib, yer ustiga va suv havzalariga tushishi.

6. Odamlarning ro'zg'orda bo'ladigan hamda sayohatgoh va ziyoratgoh joylarga to'plangan chiqindilarni soylar, daryolar va ko'llar suviga tashlashi natijasida suv ifloslanadi.


### Xulosa:

Tabiiy suvni ifloslanishdan saqlash ham insonning o'ziga bog'liq. Kimyo darslarida o'quvchilarga ekologik ta'lim-tarbiya berish hozirgi kunning muhim dolzarb masalasi hisoblanadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

- Umumiy o'rta ta'lim davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi., 1999- y., 3 son
- I. N.Borisov "Kimyo o'qitish metodikasi" T., 1958
- Z.Azizova., "Kimyo darslarida o'quvchilarga ekologik ta'lim tarbiya berish" T., 1995
- www.ziyonet.uz

## KIMYOVIY MODDALARNING MEDITSINADA ISHLATILISHI



Shamsiddinov Muxammadjon Ziyavidinovich

Toshkent shaxri Yashnobod tumani

Toshkent Davlat Stomatologiya Instituti Akademik litseyi

Kimyo fani o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada kimyoviy moddalarni tibbiyotda ishlatilishi, ahamiyati, kimyoviy moddalardan tayyorlangan moddalarni inson salomatligiga ta'siri va ishlatilishi haqida ma'lumotlar berilgan.

**Kalit so'zlar:** Kimyo, tibbiy bilim, moddalar, tibbiyat, dori-darmonlarni, vitaminlar

Kimyo fani bizni o'rabi turuvchi dunyo tarkibi, tuzilishi, xususiyatlari va moddalar reaksiyasini o'rgatadi. Kimyo bilan atrofingizda har kuni, har bir ishlatayyotgan buyum va bajarayotgan ishingizda to'qnashasiz. Kimyoviy jarayonni ovqat tayyorlaganingizda, kir yuvish vaqtida oqartiruvchi modda qo'shganingizda, avtomobilingizni o't oldirganingizda kimyoviy jarayonni bajarasiz. Kumush qorayganda yoki antiasidli birikmalar suvda eriganda kimyoviy reaksiya amalga oshadi. Karbonat angidrid va suv energiyasining uglevod energiyasiga aylanishi kimyoviy reaksiyadir va shuning uchun o'simlik o'sadi. Ozuqa moddalar hazm bo'lishida energiya va sog'liq uchun zarur bo'lgan moddalarga parchalanish kimyoviy reaksiyasi amalga oshadi. Tibbiy kimyo ( Medicinal chemistry) - bu dorilar va biologik faol birikmalarni aniqlash, optimallashtirish va ishlab chiqarish bilan shug'ullanadigan, ularning metabolizmini, molekulyar darajadagi harakatlanish rejimini, shuningdek struktura-faollik munosabatlarini o'rganadigan ilmiy fan. U kimyo, biologiya, tibbiyat va farmatsevtika sohalarini o'z ichiga oladi. Tibbiy kimyoda organik sintez, tabiiy birikmalar kimyosi va kimyoviy biologiya, enzimologiya va tarkibiy biologiya bilan birlashtirilgan hisoblash kimyosi muhim rol o'yaydi. Tibbiy kimyo, biokimyo, molekulyar biologiya, farmakognoziya va farmakologiya, toksikologiya, tibbiyat va veterinariya fanlarida biologiya fanlari muhim ahamiyatga ega. Dori-darmonlar ko'pincha organik birikmalardir. Ularni ikkita katta sinfga bo'lish mumkin - deb atalmish. kichik molekulalar (masalan, atsetilsalitsil kislotasi, tetratsiklin, atorvastatin) va biomolekulalar, ko'pincha oqsillar (rekombinant antikorlar, gormonlar - insulin, eritropoetin). Noorganik va organometalik moddalar kamdan-kam hollarda dorilar sifatida harakat qilishadi. Bunga lityum karbonat va sisplatin (mos ravishda noorganik va organometallik birikmalar) misol bo'la oladi.

Yigirma birinchi asr haqli ravishda zamonaviy texnologiyalar va insoniyatning jadal rivojlanishi asridir. Xalq xo'jaligining har bir tarmog'i takomillashtirilib, izchil

rivojlanib bormoqda. Kimyo tarixdagi eng muhim fanlardan biridir. Aynan shu narsa insonning sifatli hayot kechirishi uchun yangi ixtirolarning paydo bo'lishiga xizmat qiladi. Tibbiyotda kimyo muhim o'rinni tutadi. Ushbu fanning qo'llanilishi farmatsevtika sanoati, ortopedik stomatologiya, tibbiy protezlash va boshqalarni rivojlantirishga ko'plab yangiliklarni keltirdi. Shuningdek, u davolashning yangi texnologiyalarini jadal rivojlantirishga faol yordam bermoqda.

Kimyoning tibbiyotda qo'llanilishi.

Hech kimga sir emaski, tibbiyotda kimyo birlamchi vazifaga ega. Ushbu fan davolash uchun mo'ljallangan mavjud dori-darmonlarni yaxshilaydi. Inson tanasi ajoyib mexanizm bo'lib, uning normal ishlashi uchun faqat yuqori sifatli dori-darmonlarni tanlash kerak.

Eng mashhur vositalarga quyidagilar kiradi:

- og'riq qoldiruvchi vositalar;
- uyqu tabletkalar;
- antibakterial;
- kimyoterapiya;
- vitaminlar.

Hamma odamlar u yoki bu alomatni yo'qotish, shuningdek, kasallikdan to'liq xalos bo'lish uchun dori-darmonlarni qabul qilishadi. Har bir inson vaqtiga vaqt bilan og'riq qoldiruvchi vositalarni qabul qilishiga duch keladi. Kimyoviy tuzilishiga ko'ra ularni ikki toifaga bo'lish mumkin: saltsil kislotasi va pirazolon hosilalari.

Ushbu moddalarning barchasi uchta harakat tamoyiliga ega:

- analjezik;
- yallig'lanishga qarshi;
- antipiretik.

Salitsinlar og'riq impulsini to'sib qo'yadi va shu bilan noqulaylikni engillashtiradi. Antipiretik pasayish termoregulyatsiyaga ta'sir qiluvchi birikmalarning inhibisyonu tufayli yuzaga keladi. Bu jarayonlar butun organizmning yuqori sifatli ishlashini ta'minlaydi.

Kimyo tibbiyotda fan sifatida.

Tibbiyotda kimyo fan sifatida har xil turdag'i moddalarni qabul qilishda inson organizmida sodir bo'ladigan ko'pgina jarayonlarni tushuntirishga qodir. Uyqu tabletkalarining ta'sir qilish printsipi giyohvand moddalarning markaziy asab tizimiga ta'sirini eslatadi. Ushbu dorilarning barchasi tanaga turli xil ta'sir qilish davrlariga ega. Bu:

- uzoq;
- o'rtacha;
- qisqa.

Ko'p sonli uyqu tabletkalari barbiturik kislota hosilalaridir. O'z-o'zidan, u inson tanasiga ta'sir qilmaydi. Qo'llaniladigan barbituratlarning eng kichik dozalari asab tizimining tashqi stimullarning ta'siriga reaktsiya tezligini sekinlashtiradi. Buni murakkab mexanik qurilmalarda va transport vositalarida ishlaydigan odamlar uchun hisobga olish muhimdir. Antibakterial vositalar infektsiyalarni davolash uchun ishlatiladi. Bularga ikki turdag'i dorilar kiradi: sulfanilamidlar va antibiotiklar. Ushbu dorilar har doim katta talabga ega, chunki ular juda qisqa vaqt ichida barcha patogen mikroorganizmlarni yo'q qilishlari mumkin va shu bilan insonning normal hayotini ta'minlaydi.

**Xulosa:** Shuni esda tutish kerakki, agar davolanish tugallanmagan bo'lsa, mikroorganizmlar ushbu turdag'i antibiotiklarga "immunitet" ga aylanadi. Agar yana qabul qilinsa, bemor kerakli natijaga erisha olmaydi. Tibbiyotdagi kimyo hamma joyda ko'pchilikning qisqa vaqt ichida oyoqqa turishiga yordam beradi. Uning ta'siri katta Har yili bo'lib o'tadigan Kimyo ko'rgazmasida sohaning yetakchi mutaxassislari ishtirok etib, yangi mahsulotlar va ushbu sohani rivojlantirishning so'nggi tendentsiyalari haqida so'zlab beradilar.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Umumiyl o'rta ta'lif davlat ta'lif standarti va o'quv dasturi., 1999- y., 3 son
2. I. N.Borisov "Kimyo o'qitish metodikasi" T., 1958
3. Z.Azizova., "Kimyo darslarida o'quvchilarga ekologik ta'lif tarbiya berish" T., 1995
4. Sadullayeva, G. G., & Rakhmatov, S. B. (2022). AMPEROMETRIC METHOD OF ANALYSIS AND ITS ADVANTAGES OVER OTHER METHODS. INTERNATIONAL JOURNAL OF RESEARCH IN COMMERCE, IT, ENGINEERING AND SOCIAL SCIENCES ISSN: 2349-7793 Impact Factor: 6.876, 76(2), 4-8.
5. Sadullayeva, G., & Karimova, S. A. (2022). ERITMALAR KONSENTRATSIYASINI IFODALASH BO'YICHA MASALALAR YECHISH USULLARI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2(3), 909-915.
6. Гапуров У. У., Ниязов Л. Н. Исследование некоторых квантово-химических параметров соединения салициловой кислоты с глицином //Universum: химия и биология. - 2020. - №. 3-2 (69).
7. Каримов, Ж. С. (2022). ВЛИЯНИЕ ПРИРОДЫ КАТАЛИЗАТОРА И ТЕМПЕРАТУРЫ НА УХОД ПРОДУКТА В РЕАКЦИИ АМИНОМЕТИЛИРОВАНИЯ. PEDAGOGSjurnali, 4(1), 357-361.
8. Бахромов Х.Д., Ниязов Л.Н. Синтез производных гидроксибензойных кислот и их антибактериальная активность //Наманган давлат университети: Илмий ахборотномасијлмий- журн.-2021, - №12. - С. 69-73.
9. Tatli, Z., & Ayas, A. (2010). Virtual laboratory applications in chemistry education. Procedia-Social and behavioral sciences, 9, 938-942.
10. Xamidova, M. X. Q. (2021). KIMYO FANINI VIRTUAL LABORATORIYALARDAN VA KOMPYUTER DASTURLARIDAN FOYDALANIB O'QITISHNING AHAMIYATI. Academic research in educational sciences, 2(8), 133-139.

## SIMMETRIYA TUSHUNCHASI VA SIMMETRIK KO'CHIRISH

**Mustafaqulova Jasmina O'ktam qizi**

Termiz davlat pedagogika instituti 2-kurs talabasi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada simmetriya va simmetriya o'qi tushunchasi haqida ma'lumot berilgan. Simmetrik ko'chirish ( nuqtani nuqtaga, nuqtani to'g'ri chiziqqa, to'g'ri chiziqni nuqtaga, to'g'ri chiziqni to'g'ri chiziqqa nisbatan) masalalari umumiy yechimlari batafsil yoritilgan va formulalar bilan asoslangan.

**Kalit so'zlar:** Simmetriya, nuqta, to'g'ri chiziq, simmetriya o'qi, simmetrik ko'chirish, nuqtadan to'g'ri chiziqqacha bo'lgan masofa, ikki nuqtadan o'tuvchi to'g'ri chiziq tenglamasi

Simmetriya – geometriya fanining bir qismi bo'lib, uni to'liq o'rghanish uchun chuqur matematik bilimlarga ega bo'lish lozim. Biz buni so'z ma'nosini o'rghanishdan boshlaymiz.

**SIMMETRIYA-** (yunoncha symetria- o'lchovdosh) Tor ma'noda – fazoning a tekislikka( tekislikdagi a to'g'ri chiziqqa ) nisbatan unga tegishli M nuqtaga shunday M' nuqtani mos qo'yuvchi almashtirishki, MM' a tekislikka (a to'g'ri chiziqqa) tik bo'lib, tekislik (to'g'ri chiziq ) bilan kesishish nuqtasida teng ikkiga bo'linadi.Biror bir rasmni bir to'g'ri chiziq bo'yicha buklaganda har ikkala tomon bir-biriga ustma-ust mos tushsa, shu to'g'ri chiziq simmetriya o'qi deb nomlanadi.

**SIMMETRIYA O'QI-** shunday bir to'g'ri chiziq bu to'g'ri chiziqqa nisbatan biron bir nuqta yoki shaklni buklasak ular ustma-ust tushadi.Har bir nuqtadan simmetriya o'qigacha bo'lgan masofasi ularning simmetrik nuqtasidan ham shuncha uzoqlikda joylashgan bo'ladi.Kamida bitta simmetriya o'qiga ega bo'lgan shakllar simmetrik hisoblanadi.

Mashhur faylasuf Aflatun shunday degan: "Buyuk bo'lish – simmetrik va teng hajmda bo'lishdir". Boshqa ko'pgina matematik tushunchalar singari shakllarning simmetriyasi tushunchasi ham atrofni o'rab turgan dunyo obyektlarini kuzatish natijasida paydo bo'lgan. Haqiqatdan, simmetriyani go'zallik timsoli deyish mumkin.

Simmetriya sa'natda, texnikada , turmushda ko'plab uchraydi. Masalan, ko'pgina binolarning old tomonlari va ustidan ko'rinishlari simmetrik bo'ladi. Inson tana a'zolari, gilamdag'i naqshlar, gullar, mexanizmlarning ko'pgina turlari, masalan, g'ildiraklar yoki shesternalar simmetrik bo'ladi.

**Nuqtani simmetrik ko'chirish**

Tekislikda istalgan nuqtani Ox o'qqa nisbatan simmetrik almashtirganda hosil bo'lgan nuqta absissasi o'zgarishsiz qolib, ordinatasi qarama-qarshi songa almashadi.  $y = f(x)$  funksiya grafigiga tegishli istalgan nuqtani ( $x; f(x)$ ) ko'rinishida berilishini

hisobga olsak, u holda yuqoridagi fikrga ko'ra uning Ox o'qiga nisbatan simmetrik obrazini ( $x; -f(x)$ ) ko'rinishida beramiz. Demak,  $y = f(x)$  funksiyani Ox o'qqa nisbatan simmetrik almashtirganda  $y = -f(x)$  funksiya hosil bo'lar ekan.

Xuddi shu kabi Oy o'q misolida ham simmetrik almashtirishni qarab chiqaylik. Bu yerda tekislikda berilgan nuqtaning absissasi qarama-qarshi songa o'tib, ordinatasi o'zgarishsiz qolishini ta'kidlash mumkin. Bundan,  $y = f(x)$  funksiya grafigiga tegishli ixtiyoriy ( $x; f(x)$ ) nuqta ( $-x; f(x)$ ) ko'rinishidagi nuqtaga o'tadi deyish mumkin. Demak,  $y=f(x)$  funksiya hosil bo'lar ekan.

Ma'lumki, almashtirish formulalari bo'yicha koordinatalarni bog'lovchi tenglamalar bilan berilgan istalgan figuraning obrazini toppish mumkin. Buning uchun almashtirish formulalaridan  $x$  va  $y$  larni  $x'$  va  $y'$  lar orqali ifodasini topish va figura tenglamasida mos o'rniga qo'yishni bajargan holda ixchamlash yetarli.

Formulalar o'q simmetriyasining o'q sifatida istalgan  $Ax+By+C=0$  to'g'ri chiziqni olgandagi analik ifodasi bo'ladi. O'q simmetriyasining umumiyl formulasidan xususiy hollar kelib chiqishini tekshiramiz:

\*(1)formulalar Ox:  $y=0$  to'g'ri chiziq uchun umumiyl formulada  $A=0$ ,  $B=1$ ,  $C=0$  qiymatlar uchun;

\*(2)formulalar Oy:  $x=0$  to'g'ri chiziq uchun umumiyl formulada  $A=1$ ,  $B=0$ ,  $C=0$  qiymatlar uchun;

\*(3)formulalar  $y=b$  to'g'ri chiziq uchun umumiyl formulada  $A=0$ ,  $B=1$ ,  $C=-b$  qiymatlar uchun;

\*(4)formulalar  $x=a$  to'g'ri chiziq uchun umumiyl formulada  $A=1$ ,  $B=0$ ,  $C=-a$  qiymatlar uchun kelib chiqadi.

Biz maktab geometriya kursida nuqtani nuqtaga, to'g'ri chiziqqa nisbatan, to'g'ri chiziqni nuqtaga va to'g'ri chiziqqa nisbatan simmetrik ko'chirish tushunchalarini xususiy hollarda ko'rib chiqqanmiz. Hozir esa bularni umumiyl hol uchun ko'rib chiqamiz.

### NUQTANI NUQTAGA NISBATAN SIMMETRIK KO'CHIRISH:

Masala: A(3; 4) nuqtaning O(7; 12) nuqtaga nisbatan simmetrik o'rnini toping.

Yechim: A nuqtaning O nuqtaga nisbatan simmetrik o'rnini A' deb belgilaymiz. Bizga ma'lumki, O nuqta A va A' nuqtalar o'rtasi bo'ladi va

$$O = \frac{A+A'}{2} \text{ tenglikdan } A' \text{ nuqtani topib olamiz.}$$

$$A' = 2 * O - A \rightarrow \text{bundan}$$

$$A' = 2 * (7; 12) - (3; 4) = (14; 24) - (3; 4) = (11; 20) \text{ kelib chiqadi.}$$

Bu yechim ixtiyoriy A( $x_1; y_1$ ) nuqta o( $x_2; y_2$ ) nuqtaga nisbatan ko'chganda hosil bo'lgan A'(x, y) nuqta koordinatalarini hisoblash uchun o'rnlidir.

$$A' = 2 * O - A$$

**NUQTANI TO'G'RI CHIZIQQA NISBATAN SIMMETRIK  
KO'CHIRISH:**

Masala :  $A(g_1; h_1)$  nuqta  $ax+by+c=0$  to'g'ri chiziqqa nisbatan simmetrik ko'chganda hosil bo'lgan  $A'(x, y)$  nuqtani toping.

Yechim: A nuqta berilgan to'g'ri chiziqdan qanday masofada bo'lsa, A' nuqta ham xuddi shunday masofada bo'ladi. Bu masofani biz  $d = \frac{|ag_1 + bh_1 + c|}{\sqrt{a^2 + b^2}}$  formuladan topamiz. Xuddi shu masofada joylashgan A' ni belgilab olamiz. Masala shu tarzda hal qilinadi.

**TO'G'RI CHIZIQNI NUQTAGA NISBATAN SIMMETRIK  
KO'CHIRISH:**

Masala: Birorta a to'g'ri chiziq  $O(m; n)$  nuqtaga nisbatan simmetrik ko'chirilganda hosil bo'lgan a' to'g'ri chiziqni toping.

Yechim: a to'ri chiziqning har bir nuqtasi O nuqtaga nisbatan simmetrik ko'chadi. Bundan bizga shu ma'lum bo'ladiki, hosil bo'lgan a' to'g'ri chiziq a to'g'ri chiziqqa parallel bo'ladi. Parallel to'g'ri chiziqlar ozod hadi bir-biriga teng bo'lmaydi

$$c_1 \neq c_2.$$

Buni qanday topamiz? Biz a to'g'ri chiziqni qanoatlantiruvchi ixtiyoriy bitta nuqtani olamiz va bizga berilgan nuqtaga nisbatan a' to'g'ri chiziqqa tegishli nuqtani  $A' = 2 * O - A$  tenglik yordamida topib olamiz va bu nuqtani a' tenglamaga qo'ysak, biz qidiryotgan  $c_2$  son topiladi va a' tenglamani topgan bo'lamiz.

**TO'G'RI CHIZIQNI TO'G'RI CHIZIQQA NISBATAN SIMMETRIK  
KO'CHIRISH:**

Masala:  $k: a_1x + b_1y + c_1 = 0$  to'g'ri chiziq m :  $a_2x + b_2y + c_2 = 0$  to'g'ri chiziqqa nisbatan simmetrik ko'chirilganda hosil bo'ladigan k' to'g'ri chiziq topilsin.

Yechim: 1) k to'g'ri chiziqqa tegishli A va B nuqtalarni, m to'g'ri chiziqqa tegishli O nuqtani tanlab olamiz.

2) A va B nuqtalarni O nuqtaga nisbatan simmetrik ko'chiramiz(  $A' = 2 * O - A$  formulaga asosan) va hosil bo'lgan A' va B' nuqtalardan o'tuvchi to'g'ri chiziq tenglamasini  $\frac{x-x_1}{x_2-x_1} = \frac{y-y_1}{y_2-y_1}$  tenglama yordamida tuzib olamiz. Hosil bo'lgan tenglama, aynan,biz qidirgan k' tenglamadir.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. A.V.Pogorelev, "Geometriya". Toshkent. "O'qituvchi" 1990-y
2. N.D.Dodajonov, M. Sh.Jo'rayeva. Geometriya. 1-qism, Toshkent. "O'qituvchi", 1996-y (o'quv qo'llanma)

## TABLE OF CONTENTS / ОГЛАВЛЕНИЯ / MUNDARIJA

№	The subject of the article / Тема статьи / Maqola mavzusi	Page / Страница / Sahifa
1	ZAMONAVIY O'QUV JARAYONIDA ELEKTRON INTERAKTIV DOSKADA SMART NOTEBOOK ILOVASINI QO'LLASH	3
2	TA'LIM JARAYONIDA "BULUTLI TEKNOLOGIYALAR" DAN FOYDALANISHNING SAMARALI USULLARI	9
3	ИБОРАЛАР - ЛЕКСЕМАНИНГ БОЙИШ МАНБАЛАРИДАН БИРИ	14
4	BIZNESDA BOSHQARUV FUNKSIYALARI	16
5	ТИЛИМИЗДА МОРФЕМАЛАРНИНГ ҚЎЛЛАНИШ ДОИРАСИ	24
6	QO'SHMA GAP TURLARI HAQIDA	26
7	AHMAD YASSAVIY MA`NAVIY MEROSI VA UNING YOSHLAR TARBIYASIGA TA`SIRI	28
8	AVESTODA YOSHLAR TARIBIYASIGA OID OMILLAR	33
9	PYTHON DASTURIDA TAKRORLANUVCHI OPERATORLAR	38
10	PYTHON DASTURLASH TILINI MAKTABDA O'QITISH METODIKASI	45
11	MASOFAVIY TA'LIM UCHUN ONLAYN PLATFORMALARNI TAHLIL QILISH VA ISHLAB CHIQISH USLUBIYOTI	49
12	VITAMINLARNING INSON HAYOTIGA TA`SIRI	56
13	TA'LIM TIZIMIDA SUMMATIV BAHOLASHNING O'RNI VA QO'LLANILISHI	59
14	WEB DIZAYN ASOSLARI BO'LIMINI INTERFAOL METODLAR ASOSIDA O'QITISH METODIKASI	67
15	FANLARNI O'QITISHDA INNAVATSION WEB TEKNOLOGIYALAR DAN FOYDALANISH METODIKASI	71
16	AXBOROT KOMMUNIKATSIYA TEKNOLOGIYALARI SOHASIDA ELEKTRON TA'LIM RESURSI YARATISH	75
17	CAMTASIA STUDIO DASTURIDA PASKAL TILINING GRAFIK IMKONIYATLARI AKS ETTIRILGAN VIDEODARS YARATISH	80
18	ERKIN VOHIDOVNING "RUHLAR ISYONI" DOSTONI TAHLILI	86
19	JISMONIY TARBIYADAGI MUAMMOLAR VA ULARNING YECHIMI	90
20	EXTRACTION, PROPERTIES AND USE OF STYRENE	95
21	YUQORI TARTIBLI HOSILALAR	99
22	INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA SO'Z YASALISH USULLARINING CHOG'ISHTIRMA TADQIQI	105
23	SOG'IN CIGIDLARDA JIGAR DISTROFIYASI PAYTIDA OQSILLAR ALMASHINUVINING HOLATI	109
24	SOG'IN SIGIDLARDA JIGAR DISTROFIYASI PAYTIDA UGLEVODLAR ALMASHINUVINING HOLATI	113
25	SOG'IN SIGIDLARDA JIGAR PATOLOGIYASINING TARQALISH HOLATI VA SABABLARI	117

26	ОБ ИСПОЛЬЗОВАНИИ ЦИФРОВЫХ И ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНЫХ ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В УПРАВЛЕНИИ ТРАНСПОРТОМ	121
27	MARKAZIY OSIYO MINTAQASIDA SUV TANQISLIGI MUAMMOLARI.ULARNING MINTAQА RIVOJIDAGI AHAMIYATI VA MUAMMONI HAL QILISHGA DOIR USTUVOR VAZIFALAR	125
28	UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA AXBOROT TEKNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH MUAMMOSI	137
29	BO'LAJAK DEFEKTOLOGLARNI OTA-ONALAR BILAN OLIB BORILADIGAN KORREKSION ISHLAR	139
30	MAKTABGACHA YOSHDAGI GIPERAKTIV VA DIQQAT YETISHMOVCHILIGI SINDROMI BO'LGAN BOLALAR	144
31	TAYANCH-HARAKAT SISTEMASIDA NUQSONI BO'LGAN BOLALAR	149
32	MAKTABGACHA OLIGOFRENOPSIXOLOGIYA FAN SIFATIDA	156
33	THE NOTION OF "CONCEPT" AS ONE OF THE BASIC CONCEPTS OF COGNITIVE LINGUISTICS	162
34	ОСТЕХОНДРОЗ	172
35	СПИД У ДЕТЕЙ	178
36	СПИД - ПРИЧИНЫ, СИМПТОМЫ, ДИАГНОСТИКА И ЛЕЧЕНИЕ	183
37	THE RELATIONSHIP OF STRESS FACTORS AND THYMUS	188
38	MORPHOLOGICAL CRITERIA OF THE THYMUS IN CONGENITAL HEART DISEASE	197
39	MORPHO-FUNCTIONAL ASPECTS OF THE DEEP VEINS OF THE HUMAN BRAIN	203
40	CLINICAL AND MORPHOLOGICAL ASPECTS OF THE TOPOGRAPHIC ANATOMY OF THE PARATHYROID GLANDS	209
41	RELEVANCE OF ISSUES OF IMPLEMENTATION OF ADMINISTRATIVE REFORMS IN UZBEKISTAN	218
42	EXPECTED RESULTS FROM THE IMPLEMENTATION OF ADMINISTRATIVE REFORMS	221
43	CONSTITUTION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN	225
44	THE EFFECTS OF CONTEMPORARY TEACHING METHODS	228
45	DAVLAT BOSHQARUVINING TAMOYILLARI: NAZARIY YONDASHUV	233
46	OLIY TA'LIMDA MASOFAVIY TA'LIMNI TASHKIL ETISHNING HUQUQIY ASOSLARI	236
47	TRANSPORT-LOGISTIKASINI TASHKI QILISH VA BOSHQARISHNING MUHIM JIHATLARI	238
48	MIRZO ULUG'BEKNING DINIY ILMLAR RIVOJIGA QO'SHGAN HISSASI	241
49	MAHMUD AZ-ZAMAXSHARIYNING MA'NAVIY MEROSINING YOSHLAR TARBIYASIDAGI O'RNI	247
50	ABU RAYHON BERUNIY MA'NAVIY MEROSINING YOSHLAR TARBIYASIDAGI O'RNI	252
51	KIMYOVIY MUVOZANAT VA UNING SILJISH SHARTLARI	258

52	KIMYO DARSLARIDA EKOLOGIK TARBIYA	263
53	KIMYOVİY MODDALARNING MEDITSİNADA ISHLATILISHI	267
54	SIMMETRIYA TUSHUNCHASI VA SIMMETRIK KO'CHIRISH	270

**Напоминание!** — Образование наука и инновационные идеи в мире || Авторы несут персональную ответственность за правильность цифр и данных в статьях и планах занятий, включенных в мировой научно-методический журнал, и за правильность приведенных цитат.


**Главный редактор:**  
**Семёнов Владимир Львович**

**Помощник редактора:**  
**Абдурахманов Бобуржон**

**Подготовитель к публикации:**  
**Халиков Тохирджон Шавкатжонович**

— Образование наука и инновационные идеи в мире всемирный научно-методический журнал, 2023-г.





OPEN  ACCESS

